

BOTANIKA

TUBAN O'SIMLIKHLAR



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Sh.J.TOJIBOYEV, N.M.NARALIEVA

**BOTANIKA:
TUBAN O'SIMLIKLAR**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'kim vazirligi tomonidan
universitetlar va pedagogika institutlarining biologiya va ekologiya
yo'nalishi talabalari, magistrlari uchun
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.*

**"Namangan" nashriyoti
2016**

UDK 58(075.8)
BBK 28.5.73
B 488

Taqrizchilar: X.ALIMJANOVA – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘simlik va hayvonot olami instituti” yetakchi ilmiy xodimi, biologiya fanlari doktori, professor
S.B. BO‘RIYEV – Buhoro Davlat universiteti Biologiya fanlari doktori, professor

“Tuban o‘simliklar” nomli ushbu o‘quv qo‘llanma suvo‘tlar, zamburug‘lar va miksomitsetlarning sistematikasi, morfologiyasi, anatomiysi, ultra tuzilmalari, fiziologiyasi va ekologiyasi haqidagi yangi ma’lumotlar asosida yozildi. Shuningdek, darslikda bu organizmlarning biota sistemasidagi o‘rni, evolyutsiyasi, taksonomik kategoriyalarining tavsisi, geografiyasi, ko‘payish usullari hamda tabiatdagi ahamiyati haqida to‘liq, mukammal ma’lumotlar berilgan.

O‘quv qo‘llanma universitetlar va pedagogika institutlarining o‘qituvchilari, biologiya, ekologiya ta’lim yo‘nalishi talabalari, magistrlari hamda izlanuvchi tadqiqotchilari uchun mo‘jallangan.

O‘quv qo‘llanma F-5-19. “Alovida ahamiyatga ega botanik xududlarni tanlash - O‘zbekistonda biologik xilma-xillikni o‘rganish va saqlab qolishning yangi yo‘nalishi (Farg‘ona vodiysi misolida) mavzusidagi fundamental grant loyihasi doirasida tayyorlandi va Andijon davlat universiteti ilmiy Kengashining 2015 yil 11 martdagи 7-sonli majlisи bayonnomasiga asosan nashrga tavsija etildi.

ISBN: 978-9943-989-31-3

© Sh.J.Tojiboyev, N.M.Naralieva
© “Namangan” nashriyoti, 2016



Tojiboyev Sharobiddin Jamolovich

Biologiya fanlar nomzodi, dotsent, Namangan davlat universitetining professori. Toshkent davlat universitetining (O'zMU) tuban o'simliklar kafedrasini tamomlagan.

Sh.J.Tojiboev "Tuban o'simliklardan amaliy mashg'ulotlar" (8,0 b.t., 1985), "O'simliklar sistematikasi" (8b.t., 1995), "Tuban o'simliklar" (10 b.t., 1990) kabi o'quv qo'llanmalarining muallifidir. "O'qituvchi" nashriyoti tomonidan 1995 yilda nashr etilgan "Tubar o'simliklar" darsligining taqrizchisi.

Botanika fanining suvo'tlari va zamburug'lar dunyosini o'rGANISH bo'yicha ko'zga ko'ringan olim sifatida "Opredelitel ulotriksovix vodorosley" (2,67 b.t. 2012), "Opredelitel volvoksovix vodorosley Uzbekistana" (216 b.t. 2014) monografiyalariga hammualliflik qilgan. Bundan tashqari "Botanik terminlarining lug'ati" (2014), "O'simliklar geografiyasi" (8,0 b.t.), "O'simliklarning ekologik fiziologiyasi" (8,0 b.t. 2014), "Botanik feyerverk" (7,0 b.t., 2014) kabi ilmiy, uslubiy va o'quv qo'llanmalarining hamda 100 dan ortiq ilmiy maqola va tezislarning muallifi ham hisoblanadi. Shu yo'nalishda universitet va pedagogika institut-

larining biologiya ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Mikologiya, algologiyadan amaliy mashg‘ulotlar”, “Yuksak o‘simliklar sistematikasi” (39 b.t., 2014) kabi o‘quv qo‘llanmalarini chop ettirgan.

O‘zbekiston florasiga kiritilgan yangi tur - Allium sharobudint Khass., Sh. Tojib. nomi botanik olim Sh.J.Tojiboev sharafiga berilgan.

Naralieva Nasibaxon Mamanovna

Andijon davlat universiteti Biologiya va ekologiya kafedrasining dotsenti, biologiya fanlar nomzodi.

1991 yilda O‘zbekiston Milliy universiteti (ToshDU) Biologiya-tuproqshunoslik fakultetining “Yuksak o‘simliklar va ekologiya” kafedrasini tugatgan.

Dotsent N.M.Naralieva “Umumiy biologiya” (o‘rta maxsus va kasb hunar ta’limi uchun uslubiy qo‘llanma, 10,5 b.t. 2014), “Ekologik kalendardan foydalanish” (2014), “Tuban o‘simliklardan amaliy mashg‘ulotlar” (2015), “Yuksak o‘simliklardan amaliy mashg‘ulotlar” (2015) kabi uslubiy qo‘llanmalari, “O‘zbekistonning noyob o‘simliklari”(3,0 b.t., 2011) nomli o‘quv qo‘llanma hamda 50 dan ortiq ilmiy maqola va tezislarning muallifidir.

O‘zining 25 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati mobaynida bir necha marta (Rossiya, Moskva sh. 2008, Janubiy Koreya, Seul. 2015) Xalqaro konferentsiyalarda o‘zining ilmiy ma’ruzalari bilan ishtiroy etgan.

Hozirda “Farg‘ona vodiysi shimoliy qismi o‘simliklar qoplamasining antropogen transformatsiyasini baholash” mavzusidagi davlat grantining ilmiy rahbari, “Alovida ahamiyatga ega botanik xududlarni tanlash - O‘zbekistonda bioxilmaxillikni asrashning yangi yo‘nalishi” mavzusidagi grantda hamda Janubiy Koreya Milliy Arboretumi bilan hamkorlikdagi “Central Asia green road project” halqaro grantlarining asosiy ijrochisi sifatida faoliyat olib bormoqda.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI	11
KIRISH.....	14
ORGANIK OLAMNING SISTEMASIDA ZAMBURUG‘LAR VA SUVO‘TLARNING HOLATI	14
BIOTADA OLAMLAR	15
FILOGENETIK SISTEMALAR.....	17
ULTRATUZILISHI VA METABOLIZMI	19
GENOSISTEMATIKA	23
FOTOSINTEZLOVCHI SUVO‘TLAR	24
Fotosintezlovchi suvo‘tlarining hujayra tuzilishi.....	24
SUVO‘TLAR TALLOMINING MORFOLOGIK TABAQALASHUVINI TIPLARI	36
SUVO‘TLARNI KO‘PAYISHI	44
Jinsiy ko‘payish, jinsiy jarayon	48
SUVO‘TLARNING EKOLOGIYASI	57
SUVO‘TLARNI TARQALISHI	61
SUVO‘TLARNI AHAMIYATI	65
FOTOSINTEZLAMAYDIGAN ORGANIZMLAR	68
MIKSOMITSETLAR	68
ZAMBURUG‘LAR	68
Zamburug‘larning kinyoviy tarkibi, metabolizmi	70
ZAMBURUG‘LARNING EKOLOGIYASI	77
Zamburug‘larni tabiatdagi va odamlar hayotidagi ahamiyati.	
Zamburug‘larning zarari.....	80
Zamburug‘larning foydasi	80
MAXSUS QISM	82
PROKARIOTLAR	83
KO‘K-YASHIL SUVO‘TLAR BO‘LIMI - <i>CYANOPHYTA</i>	83
Xrookokklar tartibi – Chroococcales	91
Ostsillatoriyanlar tartibi - Oscillatoriales	92
Nostoklar tartibi – Nostocales	93
EUKARIOTLAR.....	96
EVGLENOBIONTLAR OLAMI - <i>EUGLENOBIONTES</i>	96

Evtreptsiyalar tartibi - eutreptiales	100
Evglenalar tartibi – euglenales	101
AKRAZIYALAR BO'LIMI – ACRASIOMYCOTA	102
OPISTOKONTA – OPISTOCONTA	
OLAMI - AMOEBOBORA (MYXOBIONTA).....	103
HAQIQIY SHILIMSHIQLAR BO'LIMI - <i>MYXOMYCOTA</i>	103
Protostelidlar sinfi – Protosteliomycetes.....	103
Shilimshiglar sinfi - Myxomycetes	105
Fizariyalar tartibi - Physarales	106
Litseelar tartibi - Liceales.....	107
Trixiyalar tartibi - Trichiales	107
DIKTIOSTIELLAR BO'LIMI - DICTYOSTELIOMYCOTA.....	108
HAQIQIY ZAMBURUG'LAR OLAMI- FUNGI	110
(MYCOTA).....	110
XITRIDIOMITSETLAR BO'LIMI - (ChYTRIDIOMYCOTA)	111
Blastokladiyalar tartibi - Blastocladales	115
Monoblefaridlar tartibi – Monoblepharidales	117
ZIGOMITSETLAR BO'LIMI – ZYGOMYCOTA	119
Zigomitsetlar sinfi – Zygomycetes.....	120
Mukorlar tartibi -Mucorales	120
Endogonalar tartibi – Endogonales	124
Entomoftoralar tartibi – Entomophthorales	124
Perenosporalar tartibi – Perenosporales	127
XALTACHALI ZAMBURUG'LAR BO'LIMI – ASCOMYCOTA.....	129
Tafrinomitsetlar kenja bo'limi – Taprinomyconta yoki arxiaskomitsetlar- Archiascomycotina	135
Tafrinomitsetlar sinfi – Taphrinomycetes	136
Tafrinalar tartibi – Taphrinales	136
Saxaromitsetlar kenja bo'limi- Schzosaccharomycotina	137
Haqiqiy aksomitsetlar kenja bo'limi-Ascomycotina	140
Evromitsetlar sinfi – Euromycetes	140
Evrotsiyalar tartibi – Eurotiales	140
Sordaromitsetlar sinfi – Sordariomycetes	142
Sordariyalar tartibi - Sordariales	142
Ofiostomalar tartibi – Ophiostomatales	143
Diaportalar tartibi – Diaportales.....	143
Ksilyariyalar tartibi- Xylariales.....	144
Gipokreylar tartibi – Hypocreales.....	144
Dotideomitsetlar sinfi – Dothideomycetes	148

Dotideyalar tartibi – Dothideales.....	148
Pleosporalar tartibi – Pleosporales.....	149
Pezizomitsetlar sinfi - Pezizomycetes	150
Leotsiomitsetlar sinfi - Leotomycetes	154
Leotsiyalar tartibi – Leotiales	154
Ritismalar tartibi – Rhytismatales	155
Lekanoramitsetlar sinfi – Lecanoromycetes	156
Lekanoralar tartibi - Lecanorales.....	166
Peltigeralar kenja tartibi - Peltigerales.....	166
Lekanoralar kenja tartibi – Lecanoriales	167
Kladoniyalar kenja tartibi – Cladoniales	168
Teloshistalar kenja tartibi – Teloschistinae	169
Erizifomitsetlar sinfi – Erysiphomycetes	169
Labulbeniomitsetlar sinfi – Labulbeniomycetes.....	172
BAZIDIOMITSETLAR BO'LIMI – BASIDIOMYCETES	172
Uredinomitsetlar – Urediomycetes yoki tellomitsetlar – Teliomycetes sinfi	174
Zangkuyalar tartibi – Uredinales	175
Ustomitsetlar – Ustomycetes yoki ustilaginomitsetlar - Ustilaginomycetes sinfi	179
Qorakuyalar tartibi – Ustilaginales	180
Ekzobazidiyalar tartibi – Exobasidiales	182
Xaqiqiy bazidiomitsetlar sinfi – Basidiomycetes	183
Geterobazidiyalar kenja sifi – Heterobasidiomycetidae	183
Aurikulyariyalar tartibi – Auriculariales	183
GIMENOMITSETLAR.....	184
Afilloforasimon gimenomitsetlar	186
Kantarellalar tartibi – Cantharellales	187
Poriyalar tartibi – Porales	188
Gimenoxetalar tartibi – Hymenochaetales	189
Poliporalar tartibi – Polyporales	190
Agarikasimon gimenomitsetlar	190
Boletlar tartibi – Boletales	193
Russulalar tartibi – Russulales	195
Agarikalar tartibi – Agaricales.....	195
Gasteroid bazidiomitsetlar.....	199
Likoperdalar tartibi – Lycoperdales	201
Geasterlar tartibi – Geasterales	202
Nidulariyalar tartibi – Nidulariales	202
Fellalar tartibi – Phallales	204
DEYTEROMITSETLAR	205
Gifomitsetlar (shartli) sinfi - Hypotomycetes	206
Melankoniyalar (shartli) tartibi - Melanconiales	212

Sferopsidlar (shartli) tartibi - Sphaeropsidales.....	212
Tuproqdag'i deyteromitsetlar	213
Xasharotlardagi deyteromitsetlar	214
Deyteromitset lishayniklar	214
RIZIARIYA SALTANATI – RHIZIARIA	215
SERKOZOALAR – SERCOZOA OLAMI	215
XLORORAXNOFITA – ChLORORACHINOPHYTA SUVO'TLAR BO'LIMI	215
PLAZMODIOFORALAR- RLASMODIOFOROMUCOTA BO'LIMI	217
XROMALVEOLAT SALTANATI.....	219
CHROMALVEOLATA	219
KRIPTOFITA - CYPTOPHYTA BO'LIMI.....	219
PRIMNEZIOFITA – PRYMNESIOPHYTA BO'LIMI	225
Pavlavofitsalar – Pavlovophyceae sinfi	227
Primneziofitsalar – Prymnesiophytales sinfi	228
STRAMINOPIL – STRAMINOPILA OLAMI.....	229
OOMIKOTA – OOMYCOTA BO'LIMI.....	229
Oomitsitlar-Oomycetes sinfi	230
Saprolegniyalar-Saprolegnales tartibi	230
OXROFITA – OChROPHYTA BO'LIMI	232
Evtigmatofitsa - eustigmatophyceae suvo'tlar sinfi	234
Tillarang suvo'tlar sinfi - Chrysophyceae	236
Oxromonadalar-Ochromonadales tartibi	238
Xromulinalar-Chromulinales tartibi	239
Gidriruslar-Hydreales tartibi	239
Sinurafitsalar-Synurophyceae sinfi	240
Diatomlar sinfi – Diatomophyceae	241
Sentrik diatomlarga mansub tartiblar	247
Talassioziralar- Thalassiosirales tartibi	247
Kostsinodiskalar – Cosinodiscales tartibi	247
Meloziralar – Melostirales tartibi	248
Pennat diatomlarga mansub an'anaviy tartiblar	248
Fragilariyalar-Fragilariales tartibi	248
Tabellariyalar – Tabellartales tartibi	249
Axnantlar – Achnanthales tartibi	249
Simbellalar –Symbellales tartibi	249
Navikulalar – Naviculales tartibi	250
Batsilariyalar – Bacillariales tartibi	251
Surirellalar-Suirellales tartibi	251

Tribofitsalar(sariq-yashil)- Tribophyceae sinfi.....	252
Xloramyobalar- Chloramobales tartibi	254
Misxokokkilar- Mischococseales tartibi.....	254
Tribonemalar – Tribonematales tartibi	254
Botridiyalar – Botrydiales tartibi	255
Vosheriyalar- Vaucheriales tartibi	255
Rafidofitsalar – Raphidophyceae sinfi.....	256
Fukofitsalar (Qo'ng'ir) – Fucophyceae sinfi	258
Diktiotalar-Dictyotales tartibi	262
Fukuslar- Fucales tartibi	264
Laminariyalar – Laminariales tartibi	267
Ektokarpalar – Ectocarpales tartibi	270
ALVEOLOBIONTLAR – ALVEOLATES OLAMI.....	272
DINOFTA - DINOPHYTA BO'LIMI.....	272
Dinofitsalar – Dynophyceae sinfi	280
Prortsentrlar – Rroretcentrales tartibi	281
Dinofizidlar – Dinophysidales tartibi	281
Peridinlar – Peridiniales tartibi	281
Gimnodinialar – Gymnodiniales tartibi	283
Noktilukofitsalar sinfi – Noctilucophycae	283
O'SIMLIKLAR – PLANTAE SALTANATI	284
GLAUKOTSISTOFITALAR – GLAUCOCYSTOPHYTA BO'LIMI.....	284
QIZIL SUVO'TLAR - RHODOPHYTA BO'LIMI	287
Sianidofitsalar – Cyanidiophyceae sinfi	294
Sianidiyalar – Cyanidiales tartibi	295
Rodellofitsalar – Rhodellphyceae sinfi	295
Porfiridiyalar – Porphyridiales tartibi	295
Kompsopogonofitsalar – Compsopogonophycac sinfi	296
Rodoxetalar – Rhodochaetales tartibi	296
Eritopeltiyalar – erithropeltidales taribi	296
Kompsopogonlar – Compsopogonales tartibi	297
Bangiofitsa Bangiophyceae sinfi	297
Rodimeniofitsalar – Rhodymeniophyceae (florida) (Florideophyceae) sinfi	299
Gildenbrandiyalar - Hildenbrandiophycidae kenja sinfi	300
Gildenbrandiyalar – Hildenbrandiales tartibi	300
Nemaliofitsalar – Nemaliophycidae kenja sinfi	300
Korallinalar – Corallinalea tartibi	300
Braxospermalar – Batrachospermales tartibi	302
Nemaliyalar – Nemaliales tartibi	302
Akroxetalar – Acrochaetales tartibi	303

Palmariyalar – Palmales tartibi	303
Anfelsiyalar – Ahnfeltiophycidae kenja sinfi	303
Anfelsiyalar – Ahnfeltiales tartibi.....	303
Rodimeniosfitsidalar – Rhodymeniophycidae kenja sinfi.....	304
Gratsilyariyalar – Gracilariales tartibi.....	304
Gigartinalar – Gigartinales tartibi	305
Rodimeniyalar – Rhodymeniales tartibi	306
Seramiyalar – Ceramiales tartibi.....	307
YASHIL SUVO'TLAR – VIRIDIPLANTAE OLAMI	308
Yashil suvo'tlar (keng manoda).....	308
Yashil suvo'tlar – Chlorophyta bo'limi (s.str).....	316
Prazinofitsa – Prasinophyceae sinfi	316
Piramimonadalar- Pyramimonadales tartibi.....	318
Xlorodendralar – Chlorodendrales tartibi	319
Ulvofitsalar – Ulvophyceae sinfi	320
Ulotrikslar – Ulothrichales tartibi	322
Ulvalar – Ulvales tartibi	323
Trentepoliyalar – Trentepohliales tartibi.....	326
Kladoforalar – Cladophorales tartibi.....	328
Dazikladiyalar – Dasycladiales tartibi	329
Kaulerpalar Caulerpales tartibi	331
Trebuksiyalar – Trebouxiophyceae sinfi.....	333
Xlorellalar – Chlorellales tartibi	334
Trebuksiyalar – Trebouxiales tartibi	335
Mikrotamnionlar – Microthamniales tartibi	335
Praziolalar – Prasiolales tartibi.....	336
Xlorofitsa – Chlorophyceae sinfi	337
Sferopleyalar – Sphaeropleales tartibi	337
Hetaforalar – Chaetophorales tartibi	345
Edogoniyalar – Oedogoniales tartibi.....	347
Harofitlar – Charophyta bo'limi	349
Mezostigmofitsa – Mesostigmophyceae sinfi	350
Xlorokibofitsa – Chlorokybophyceae sinfi	351
Klebsormidofitsa – Klebsormidiophyceae sinfi.....	352
Zignemofitsa – Zygnematophyceae (matashuvchilar) sinfi	353
Zignemalar – Zygnematales tartibi	354
Desmidiyalar – Desmidiales tartibi.....	357
Koleoxetofitsa – Coleochaetophyceae sinfi	359
Haraftsса – Charophyceae sinfi	361

*Ustozlarimiz Karim Yusupovich Musaev
va Farida Gubaydullaevna
Axmedovalarning porloq xotiralariga
bag'ishlaymiz!*

So'z boshi

O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida mamlakatimizda ta'lif-tarbiya sohasida eng ilg'or milliy va umumbashariy bilim hamda tajribalar, an'ana va qadriyatlar o'zida mujassam etgan ta'lif-tarbiyani ma'naviy-ahloqiy tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liq holda olib borishning mohiyati va ahamiyati hamda uni hal etish yo'llari to'g'risida aniq-ravshan ilmiy-amaliy xulosalar bayon etilgan.

Ushbu asarda ko'tarilgan aniq va dolzarb vazifalardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi va uning tasarrufidagi oliy o'quv yurtlari tomonidan uzliksiz ta'lif tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish, yuksak ma'naviyatli, intelektual salohiyatli, bilimdon, jahon ta'lif standartlariga mos keladigan yetuk mutaxassislarni yetishtirish maqsadida amaliy ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar, "Ta'lif to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lif tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglar oldiga yangi, zamonaviy va dunyo ta'lif standartlariga javob beradigan darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratish kabi dolzarb vazifalar qo'yilgan.

Barcha ta'lif yo'nalishlaridagi kabi biologiya va ekologiya ta'lif yo'nalishlari bo'yicha ham mavjud o'quv adabiyotlaridagi

ma'lumotlar hozirgi zamon talablariga yetarli darajada javob bermay qoldi. Universitetlar, pedagogika institutlarining davlat ta'lim standartlariga, o'quv rejalarini, fan dasturlari zamonaviy talablar asosida taxlil etilishi, to'ldirilishi va qayta ishlab chiqilishi tufayli yangi darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalarga bo'lган ehtiyoj yanada oshib bormoqda. Ayniqsa, ilmiy tadqiqotlarning eng muhim natijalari, yangi ma'lumotlari hamda rivojlangan chet davlatlarda chop etilgan ilmiy manbalar asosida bilan to'ldirilgan o'quv adabiyotlar yaratish ta'lim sohasida olib borilayotgan tub islohatlarning negizini tashkil etadi.

Botanika fanining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lган "Tuban o'simliklar" asosan suvo'tlari, zamburug'lar, shilimshiqlar va lishayniklar olamini o'rganadigan yo'nalish sifatida hozirgi paytda biologiyaning muhim sohalardan biriga aylanib bormoqda.

Keyingi yillarda dunyo miqiyosidagi shu sohada olingen ilmiy ma'lumotlar tuban o'simliklarning ultra tuzilishlari, ularni tashkil etadigan organlarining biokimiyoviy tarkiblari, molekulyar biologiyasi, irlsiy tuzilmalari bu organizmlarga nisbatan boshqacha yondashishni taqazo etadi. Shuningdek, xorijiy va mustaqil hamdo'stlik mamlakatlarida suvo'tlari, zamburug'lar, lishayniklar hamda ularga yaqinlashtirilgan organizmlarning ultra tuzilishlari, irlsiy xususiyatlari asos qilib olingen yangi darsliklar paydo bo'lganiga ancha bo'ldi. Bu davatlarda botanika fani tuban o'simliklarning yangi sistematikasiga asoslangan yangi adabiyotlar va darsliklar asosida o'qitilmoqda. Shu nuqtai nazardan Respublikamizda tuban o'simliklar haqida zamonaviy, mahalliy muhit sharoitlariga mos keladigan yangi o'quv adabiyotlarini yaratish davri keldi, deb hisoblagan holda ushbu o'quv qo'llanma havola qilinmoqda.

O'quv qo'llanmani tayyorlashda rus tilida chop etilgan yangi darslik va qo'llanmalar qatorida Rossiya fanlar akademiyasi Botanika institutining katta ilmiy xodimi, zamburug'lar sistematikasi va geografiyasi laboratoriyasining mudiri, biologiya fanlari doktori I.V.Karatigin; algologiya laboratoriyasining mudiri prof. K.L.Vinogradova taqrizi asosida G.A.Belyakova, Yu.T.Dya-

kova, K.L.Tarasovlar muallifligida 4 томлик “Botanika” дарсигиминг 1,2 жылдаридан фойдаландик.

Suvotlarining taksonlarini joylashtirishda bir qancha xorijiy (*Van den Hoek C, Mann D.G, Jahns H.M. “An Introduction to Phycology”. Cambridge Univ. Press, 1995; Lee R.E. “Phycology”. Cambridge Univ. Press, 1999; Geaham L., Wilcox L.W. Algae: Prentice Hall, Inc, Upper Saddle River, 2000.*) monografiyalar asos qilib olingan. Zamburug‘larning sistematikasi bo‘yicha esa I.I.Sidorova (2003) “Novosti v sistematiki i nomenklature gribov” monografiyasi asos qilib olingan. Suvotlari va zamburug‘lar genosistematisidagi yangi ma’lumotlarni bayon etishda Amerikada nashr etiladigan Botanika jurnalida (*Amer. J. Botany, 2004-V.91 №10.*) e’lon qilingan ayrim ilmiy maqolalardan фойдаландик.

Qo’llanmaning asosiy yangilik tomoni shundaki, Respublikamizda birinchi bo‘lib biz ularni oziqlanishiga ko‘ra suvo’tlar (fototrof), zamburug‘lar (geterotrof) lishayniklar (simbiotrof) olamiga mansub holda bayon qildik. Shuningdek, o‘quv qo’llanmada birinchi marta fotosintezlovchi organizmlar - suvo’tlar, fotosintezlamaydigan organizmlar - zamburug‘lar, miksomitsetlar deya atalib, ularning ultra tuzilishlari, biokimyoiy tarkibi, irsiy xususiyatlari, filogenetik aloqalari hisobga olindi. Tegishli mavzular va boblarga mos ravishda kerakli rasm va jadvallarning keltirilganligi o‘quv qo’llanmaning talabalar uchun qulayligini yanada oshiradi.

Ushbu o‘quv qo’llanma o‘z navbatida ba’zi bir kamchiliklardan, ayrim xato va nuqsonlardan holi bo‘lmasligi tabiiydir. Shu sababli mualliflar o‘quv qo’llanma xususidagi barcha fikrmulohazalarni bajonidil qabul qiladilar va avvaldan minnatdorchilik bildiradilar.

KIRISH


ORGANIK OLAMNING SISTEMASIDA ZAMBURUG'LAR VA SUVO'TLARNING HOLATI

XIX asrning boshlarida botanikani an'anaviy tarzda ikki qismga: tanasi *bargpoyali tuzilishli* yuksak o'simliklar va bunday holatda bo'limgan tuban o'simliklarga ajratilgan. Tuban o'simliklarning tanasi - *tallom* yoki *qattana* - umumiy tartibdagi tuzilishga ega emas, ular bir hujayrali, koloniyalı yoki ko'p hujayrali va turlichalikko'rinishli bo'ladi. Shu boisdan tuban o'simliklarni *tallomli* yoki *qattanali o'simliklar* deb ham ataladi. Yuksak o'simliklar ancha katta, tuban o'simliklarga nisbatan ko'zga asosan tashlanadigan, tadqiqotchi uchun qulay joylardaligi tufayli ilgariroq va batafsil o'rganilgan va botanikada tuban o'simliklarga nisbatan ko'proq e'tibor qilingan.

O z i q l a n i s h i			
Tuzilishi	Fototrof	Osmotrof	golozoy
Bir hujayrali va ko'p hujayrali eukariotlar	Plante O'simliklar	—	Animalia Xayvonlar
	Cuwo'tlar	— Mycota Zamburug'lар	soddalilar
Asosan bir hujayrali eukariotlar	Prokaryotae	—	Makro- Mezo- mikro-
	Ko'k-yashil Suvo'tlari	Bakteriyalar, aktinomitselar	Mikro- Ultra- Mikro-
	Produsent	Redutsent	Konsument
	E k o l o g i y a s i		

BIOTADA OLAMLAR

“Tuban o‘simliklar” deb nomlangan guruh o‘simliklarning taksonlari orasidagi filogenetik aloqalari, tabiatdagi tarqalishi, ularning biotsenozdagi ishtiroki hamda amaliy ahamiyatlari haqida tasavvurlar kam bo‘lgan. Shu boisdan tuban o‘simliklarga zamburug‘lar, lishayniklar, miksomitsetlar, suvo‘tlar, bakteriyalar, keyin esa viruslarni, bir so‘z bilan aytganda zoologlar o‘rganmaydigan obektlarni kiritilgan. Keyinchalik asta-şekin tuban o‘simliklarga kiritilganlar kamayib botanikadan bakteriologiya va virusologiya alohida tarzda o‘qitila boshlandi. Organizmlarni katta guruhlarga ajratiladigan asosiy belgi (kriteriy) bu- *ekologo-trofik* hisoblanadi. Bu belgiga ko‘ra fototrof (fotositezlovchi) organizmlarni o‘simliklar, zootroflarni (boshqa organizmlarni yeydigan organizmlar) hayvonlar va osmotrof (tanasi bilan oziq moddalarni tashuvchilar) – zamburug‘lar deb ataladi. Moddalar va energiya migratsiyasi nuqtai nazaridan biotsenozdagi mazkur guruhlarni aynan holda *hosil qiluvchi* (produtsentlar), *iste’molchi* (konsument) va *parchalovchi* bo‘lib hisoblanadi.



Chlorarachnion

Biota taqsimotidagi boshqa belgi bu morfologik belgidir. Organizmlar hujayra tuzilishiga ko'ra ikkita katta guruhga: prokariotlar va eukariotlarga bo'linadi. Prokariotlar eukariotlardan yadro membranasining yo'qligi, xromosomalardagi DNK variantlari mitoz bo'linishdagi maxsuslik, mitoxondriylar va plastidlar, endoplazmatik to'r, Golji apparati, mikronaychalarda membranlarning bo'lishi va haqiqiy jinsiy jarayon sodir etishi bilan farqlanadi. Prokariotlarga bakteriyalar, shu bilan birga aktinomitselar va ko'k-yashil suvo'tlar, eukariotlarga qolgan boshqa organizmlar mansub. Prokariotlar yakka yakka holda va koloniyalar hosil qiladi. Eukariotlar ham yakka yoki koloniya hosil qiladi, biroq ularning morfologik va anatomik tuzilishlari anchagina turli tuman ko'rinishlarda bo'ladi.

Ekologo-trofik va morfologik belgilarni birlashtirganda quyidagi holat hosil bo'ladi.

To'qima tuzilishli eukariot birinchi qatordagi organizmlar-o'simliklar va hayvonlar hammamizga tanish. Yirik mevatanalari bo'lgan makromitselarni zamburug'larga mansubligi ham tushunarli. O'rta qatordagi organizmlar nemis olimi E. Gekkel *protislar* deb atagani, miksotrof (aralash) oziqlanishi shu boisdan u yoki bu guruhga mansubligi muammoli holat. Masalan, evglenalar monad (xivchinli) tuzilishi qalin po'stini yo'qligi va shu sababli shaklini o'zgartira olishi-belgilari hayvonlarning hujayralariga xos evglena hujayrasida yashil o'simliklarday pigment xlorofilli xloroplastni bo'lishi, ular vositasida organik moddani yaratishi, shunga qaramay fotosintez bilan birga hujayra organik moddani butun tanasi bilan so'rishi (xuddi zamburug'lar kabi) yoki mayda organizmlarni yutishi (xuddi hayvonlar kabi) mumkin. Boshqa misol yashil amyoba-Chlorarachnion, fotosintezlovchi tuzilma xloroplasti va hujayrasini tuzilishiga ko'ra hayvonlarga mansub bo'lishi, oziqlanishiga qrab o'simliklarga oid. Shu boisdan biologlar bir hujayrali koloniya hosil qilgan rangli (otosintezlovchi pigmenti bo'lganlar) rangsizlarni o'simliklarni asli rangsizlarni hayvonlarga mansub deb qabul mansub deb qabul qilishgan. Bu jihatdan qaysi holatdagisi asli har doim ham aniq emas.

Keltirilgan misollardan ma'lum bo'ldiki, o'simliklar, hayvonlar va Zamburug'larning qaysi belgilari (krriteria) bo'yicha aniq holda tuban tuzilishlilarga ajratib bo'lmaydi. Bu yuksak va tuban tuzilgan organizmlar tuzilishlaridagi xususiyatlari hamda ularning tarhiy taraqqiyotidagi yo'naliishlari bilan bog'liq deyish mumkin.

FILOGENETIK SISTEMALAR

Organik olam sistemasi tabiiy va sun'iy bo'lishi mumkin. Tabiiy sistemalar olimlar taklif etgan belgi (kriteriy)larga bog'liq emas, ular organizmlar orasidagi evolyutsion aloqadorliklarini aks ettiradi. Bunday sistemalarni filogenetik deyiladi.

Sun'iy sistemalarni biologik xilma-xillikni oson yo'l bilan tavsiflab sistemalashdiriladi. Odam 80% dan ko'proq ma'lumotlarni ko'zi bilan olganligi tufayli biologik xilma-xillikni o'rghanishda biogeotsenoz a'zolarni morfologik jihatdan tavsiflash bilan morfologik o'xshashliklar asosida bayon etiladi. Qiyosiy morfologiya yuksak eukariot organizmlarning klassifikatsiyasida hal qiluvchi bo'ldi. O'simliklar klassifikatsiyasida morfologik tuzilish ularning ko'payishi (sporaband va spora, gul va urug') hal qiluvchi belgi hisoblanadi.

Biroq morfologik belgilarga asoslangan tuban o'simliklarning ko'plab guruhlarini sistemasi sun'iy bo'lib qoldi. Bunday sistemalar alohida taksonlar orasidagi genetik aloqalarni ifodalamaydi va biologik xilma-xillikni tavsiflashda shundaylikni bajaradi, xalos. Bu holat uchta sabab bilan bog'liq.

1. Tuban organizmlardagi belgilarning yuksaklarga qaraganda ozligi. N. A. Gaydukov "yopiq urug'li o'simliklarning bitta gulidagi belgililar bizningcha barcha tuban suvo'tlar tanasidagi belgilardan ko'p", deb deb yozadi. Zamburug'larning ko'pchiliginini tanasi mitse-liydan iborat, u tarmoqlangan ip holida. Mitseliy morfologiyasini o'rghanish Zygomycetes sinfi zamburug'larni ko'pchiligidagi (hammasida emas) mitseliy ko'ndalang to'siqsiz, Assomycetes va Bazidiomycetes sinflarida to'siqli.

2. Tuban organizmlarning filogenetik uzoq guruhlarini morfologik evolyutsiyasida paralellizmni bo'lishi. Masalan, bir hujayrali, harakatlanmaydigan yashil suvo't, jinssiz ko'payaoladi holosligidan Chlorella nomlangan. Filogenetik tahlil ko'rsatadiki, Chlorella kabi suvo'tlar yashil suvo'tlarning Chlorophyceae va Trebouxiophyceae sinflarida ham uchraydi. Bir xil tuzilishli suvo'tlar-kokkoidlar (bir hujayrali va koloniya hosil qiluvchi harakatlanmaydiganlar), ipsimon va yassi yaproq tuzilishlilar yashil suvo'tlarning turli sinflarida hatto turli bo'limlarida ham uchraydi.

Xuddi shu holat zamburug'larda ham namoyon bo'ldi. Jinsiy ko'payishni yo'qotgan, faqat kurtaklanish bilan ko'payadigan achitqi hujayralari Candida turkumiga mansub, shunga qaramay filogenetik jihatdan ular xaltachali va bazidiyali sinflarga mansub bo'lishi mumkin. Filogenetik jihatdan turli Chytridiomycetes, Hipchochytridiomycetes va Oomycetes sinflarida tekinxo'r hayoti tufayli tallomni tuzilishida paralellizm ro'y berganligini ko'rish mumkin.

Olpidium, Anisoplidium va Olpidiopsis turkumlarida tallomning monokarpligi (zoosporalilarga bo'linib ketishi) turli sinflarga mansub bo'lishiga qaramay juda o'xshash. Turli tartib hatto sinflarga mansub zamburug'larda jinsiy ko'payishdagi bitta shu morfologik tip turlicha bo'lishi mumkin.

Zamburug'larning jinsiy ko'payishiga asoslangan klassifikatsiya har doim ham tabiiy sistemani yaratmaydi. Masalan, bazi diomitsetlarning ochiq tuzilishli mevatanalari bo'lgnarni gimenomitsetlar guruhiga, yopiqlarini gasteromitsetlarga birlashtiriladi. Filogenetik tahlil ularni birlashtirish ayrim tartiblar gimeno hamda gastromitsetlarni birlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

3. Tuban va yuksak formalarda evolyutsiya jarayonlaini turli tipdaligi. Yuksak tuzilishli eukariotlarning tarixiy taraqqiyoti divergent harakteriga ega, ya'ni bitta takson ajdodi bitta bo'lgnan boshqa taksonlarni hosil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, "har bir jamlanmagan muayyan tur monofilitik kelib chiqishga ildizga ega" (N.N.Voronin, 1999). Shu boisdan tarixiy taraqqiyot muntazam va uzoq harakterga ega.

XX asrdagi fundamental biologiyaning yirik yutug'i eukariot hujayraning simbiotik kelib chiqishini muvaffaqiyatlari isbotlangani hisoblanadi. XX asrning boshlarida rus botaniklari A.S.Famitsin va K.S.Merejkovskiy xloroplastlar eukariotlarning ajdodi bo'lgnan suvo't hujayrasini yutishi bilan yuzaga kelgan, degan fikrni bildirishgan. XX asrning ikkinchi yarmida bu gipoteza biokimyoiy ishlarda tasdig'ini topdi. Makromalekulalar (DNK, RNK, oqsillar) tuzilishi mitoxondriy va xloroplastlarning replikatsiyasi bakteriyallardagi bilan ancha o'xshash. Shunga asoslangan holda amerikalik L.Margelis eukariot hujayralarning endosimbiotik kelib chiqish nazariyasini yaratdi.

Mitoxondriylarning ajdodlari bo‘lib qirmizi fotosintezlovchi bakteriyalar bo‘lishi mumkin. Eukariot hujayraning kelib chiqishini simbiotik gipotezasiga ko‘ra mitoxodriysiz eukariot hujayra yo‘q. Dastlabki eukarot hujayra prokariotlarning metabolistik uyushmasidan yuzaga kelgan.

Plastidlar ko‘k yashil suvo‘tlaridan kelib chiqqan. Bu plastidlarda o‘z-o‘zidan kesiladigan leytsitin tRNK intronni (genni kodlanmaydigan qismi) mavjudligi bilan isbotlanadi. Bunday intron o‘rganilgan ko‘k yashil suvo‘tlarida bor, bakteriyalarda juda kam.

Tarixiy taraqqiyot davomida endosimbiozlar eukariot hujayralar orasida ko‘p karra yuzaga kelgan, natijada taraqqiyot jihatidan biotaning ko‘plab mustaqil tarmoqlarini hosil qilgan.

Tuban eukariotlarning morfologik va ekologo-tropik belgilari (kriteriy) asosida tuzilgan filogenetikasi yangi ma’lumotlar ta’sirida muvaffaqiyatsizlikka duch keldi. Endi organizmlarning ultrastrukturalari va metaabolizmi bo‘yicha olingan yangi ma’lumotlar tahlili zarur.

ULTRATUZILISHI VA METABOLIZMI

Xivchinlar. Xivchinni tuzilishi, xivchin asosining tuzilmasi bilan xivchinni hujayrada tutib turilishi anchagina qat’iy (konservativ) belgi hisoblanib suvo‘tlarning ko‘plab taksonlari va tuban zamburug‘lar orasidagi filogenetik aloqalarni aniqlashtirish imkonini beradi.

Mitoz. Tuban eukariotlarning ko‘philibida yuksak eukariotlardan farqlanib “yopiq mitoz” ro‘y beradi. Yadro membranasi mitoz davrida saqlanadi va xromosomaning qo‘sish naborini yadro qutblariga tarqalganidan keyin membranani parchalanishi, ikkita yosh yadrochani yuzaga kelishi ro‘y beradi. Bunday mitoz rangli xivchinlarning ko‘philibiga qizil va ayrim yashil suvo‘tlar hamda zamburug‘larning ham ko‘philibiga xos. Qo‘ng‘ir va yashil suvo‘tlarining ayrimlarida mitoz ochiq, xuddi yuksak eukariotlarda qidaysodir bo‘ladi (mitoz davrida yadro membranasi yo‘qolib ketadi).

Sitokinez. Tuban eukariotlarning ko‘philibida hujayrani bo‘linishi hujayra po‘stinishitoplazma tomonga bukilishi, bo‘linayotgan yadro orasida mikronaylar hosil bo‘lishi, ular bo‘ylab to‘siq

(fikoplast) paydo bo'lishi bilan ro'y beradi. Yashil suvo'tlarining kam turlarida yuksak o'simliklardagi kabi ko'ndalang to'siq (fragmoplast) uzunasiga emas, mikronaylarga ko'ndalang (urchuq iplari) holida joylashadi. Mana shu holat yuksak o'simliklarning ajdodlarini aniqlashda katta ahamiyat kasb etgan.


Septa apparati. Xaltachali, bazidiyali zamburug'lar va qizil suvo'tlarining Florideophyceae sinfining vakillarida ikki hujayrani ajratib turadigan to'siqda teshik-tirqish-septa mavjud. Septani o'ragan tuzilma qizil suvo'tlarining tartiblarini tavsiflashda muhim belgi hisoblanadi. Bazidiomitsetlarning ko'pchiligidagi septa murakkab tuzilishli (dolipor septa). Uning ultra tuzilmasini o'rganish mutaxassislarga bazidiomitsetlar sinfida alohida sinf- ustomitsetlarni ajratishga, uning tabiyligini boshqa metodlar bilan ham tasdiqlaydi.

Mitoxondriyalar. Zamburug'lar va suvo'tlarning turli guruhlaridagi mitoxondriylarda krist shakli turlichaligi, ular yassi tasma yoki naysimonligi bilan farqlanadi. Bu juda qadimgi belgi mustaqil tarixiy taraqqiyotga ega guruhlarni ajratishda foydalaniлади.

Plastidlар. Yashil o'simliklarning hammasida plastidlarning shakli va rangi deyarli o'zaro o'xshash. Suvo'tlarda esa aksincha, rangi va shakliga ko'ra turli tuman, ayniqsa plastidlarni ultra tuzilmasida suvo'tlarning tarixiy taraqqiyotini yo'nalishlari xloroplastlar po'stining soniga (endosimbiozning ko'p karraligini ko'r-satgichi), fotosintezlovchi tilokoidlarning joylanish holati va uzunligiga asoslangan.

Vakuola. Zamburug'lar va suvo'tlarning hujayralarida yakka (bir) membranali tuzilmalar mavjud, ular oqsil, uglevod, fosfatlarni g'amlashda, hujayradagi turgor bosimning nazoratida, gidrolitik fermentlarni to'plashda xizmat qiladi. Vakuolaning kimyoviy tarkibi va ultra tuzilishini qiyoslash organizmlar orasidagi qarindoshchilik aloqalarini aniqlashda muhim belgi bo'lib hisoblandi. Zero, oomitsetlarning zoosporalarida vakuolyar tuzilma – K-tanachalar aniqlanilib boshqa zamburug'larda bunday tuzilma yo'q. K-tanachalarning 7 ultra tuzilishliligi aniqlanib har biri oomitsetlarning alohida taksonlariga mansubligini mutaxasislar aniqladilar.

Kimyoviy tarkibi va metabolizm.



Plastidlар evolutsiyasidagi endosimbioz
(P.S.Keeling 2004 qo'shimchalari bilan)

Uglevodlar. Zamburug'lar va suvo'tlar hujayrasining devori polesaxaridlardan tashkil topgan bo'lib, ularning tuzilishi yuksak taksonomik mavqega ega. Hujayra po'stini mustahkamlashda suvo'tlar, yuksak o'simliklarning ko'pchiligi va zamburug'lardan - oomitsetlardasellyuloza, v-glyukan, haqiqiy zamburug'larda - xitin hizmat qiladi. Xitin molekulasi sirka kislotasini qoldig'i (atsetil guruh) va xitobiozadan iborat, atsetillanish zamburug'larning turli guruhlarida turlicha.

G'amlangan uglevodlar. G'amlangan uglevodlarning ko'pchiligi glukozaning polimerlaridan iborat. Yashil suvo'tlar va yuksak o'simliklarda, qizil suvo'tlarning kraxmalida, ko'k-yashil suvo'tlarning miksofit kraxmalida va zamburug'larning glikogenida glukoza molekulasi b-bog'lar bilan, qo'ng'ir suvo'tlar, diatomlar, sariqyashil suvo'tlarining laminarinida va zamburug'-oomitsetlarda, tillarang suvo'tlarning xrizolaminarida va evglenalarning paramilonda – v - bog'lar orqali bog'langan.

Pigmentlar. Fotosintezlovchi pigmentlarning tarkibi suvo'tlarning yuksak taksonlarini (bo'lim, olam) ajratishda ahamiyatli.

Aminokislotalar biosintezi. Aminokislotalarning sintezi barcha organizmlar - bakteriyalaridan to umurtqali hayvonlargacha bir xil va shu tartib bosqichlarida o'tadi. Shunga qaramay ayrim aminokislotalarning sintezi turli organizmlarda turlicha o'tib, taksonomik aloqalarni aks ettiradi. Masalan, haqiqiy zamburug'lar va evglena suvo'tlarida lizin aminokislotasining sintezini boshlanishi atsetatni va b - ketaglyutaratni - b - aminoardinino kislotasini birikishi bilan, u esa saharonin orqali lizinga aylanadi. Oomitset zamburug'larda, suvo'tlarining ko'pchiligidagi va yuksak o'simliklardi lizin sintezida aspartat va piruvatni diaminopimelin kislotasi bilan birikishi orqali ro'y beradi.

Glukozaning katabolizmi. Fotosintezlovchi organizmlardagi kislorodni ortiqchiligidagi Rubisko fermenti oksigenaza sifatida, oksidlovchi dastlab glikol, keyin shavel kislotani hosil bo'lishida ishtirot etadi. Suvo'tlarining ayrimlarida glikol kislotaning oksidlanishi undan degidrogenaza fermenti ta'sirida vodorodni olish bilan, boshqalarida va yuksak o'simliklarda bu jarayon kislotalarni oksidaza fermenti ta'sirida kiritilishi bilan amalgalashadi. Bu farqlar yuksak o'simliklarning ajdodlarini ajratishda qo'shimcha guvoh sifatida hizmat qilgan.

GENOSISTEMATIKA

Genosistematika keyingi o'n yilliklarda biologiyada ommalashib ketdi, u fenotipga emas bevosita genotipga asoslanadi. Genosistematiikaning asosida o'rganilayotgan organizmlarning DNK sini qiyoslash turadi. Bunday qiyoslash turli metodlar bilan ularni shartli ravishda ikki guruuhga bo'lib o'rganiladi.

Birinchi guruh metodlarida restriktaza fermenti bilan DNK ipini fragmentlariga bo'linadi. Turli organizmlarning fragmentlar spektrini qiyoslab irlsiy yaqinlik darajasi aniqlanadi.

DNK fragmentlarini qiyoslashning turli metodlari muayyan individlarning aslini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Filogenetikaga asoslangan metodning ishonchliligi - organizmlar DNKsidagi nukleotidlarning bardavomligi. Bunda hamma D NK ni emas, alohida genlarniki muhim. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, olib berilayotgan ishning muvaffaqiyati tahlil uchun olinayotgan genlar naborida. Ribosoma D NK genlari hamda oqsil molekulasi ni kodlovchi genlar muhim hisoblanadi.

Genosistematika morfologiyaga asoslangan holatni qayta ko'rib chiqish to'g'riligini tasdiqladi. Genosistematiikaning metodlari organizmlarning shajara daraxtini tuzishda u yoki bu taksonlar yoshini aniqlash imkoniyatini beradi. Masalan 6-rasmida haqiqiy zamburug'larning shajara daraxti keltirilgan. Ular eng qadimgi guruh bo'lib kembriy davrida ajralgan xitridiomitsetlardir. Keyingi divergentsiya 100 mln yillardan keyin ordovikda zigomitsetlar paydo bo'lgan. Xaltachali va bazidiyalilarining ajralishi keyinroq devon davriga to'g'ri kelgan. Mikologlarning ko'pchiligi haqiqiy zamburug'lar ichida Chytridiomycota, Zygomycota va Dikaryomycota (ikkita kenja bo'lim-Ascomycotinae va Basidiomycotinae)larga ajratishni taklif etishadi.

Genosistematiikaning metodlarini ham kamchiliklari yo'q emas. Filogeniyani bitta genni qiyoslash bilan tuzish ham. Ribosomal genlarga asoslangan filogenetik tuzilish boshqa genlarga asoslanganga (oqsil sintezda ishtirok etadigan genlarga) va fenotipga keyin esa turli metodlar bilan olingan natijalarini qiyoslab amalga oshiriladi.


FOTOSINTEZLOVCHI SUVO'TLARINING HUJAYRA TUZILISHI

Suvotlar an'anaga ko'ra turlicha guruh tallomli, kislorod ajratadigan, fotosintezni amalga oshiradigan, maxsus qoplamasi yo'q (xaralardan tashqari) alohida ko'payish tuzilmalariga ega bo'lmanan juda ko'pchiligi suvda tarqalgan. Ularga prokariotlar, eukariot tuzilishlilar ham mansub.

Hujayra. Prokariot suvo'tlarda membrana bilan o'ralgan tuzilmalar yadro, xloroplastlar, mitokondriyalar, endoplazmatik to'r (endoplazmatik retikulum), Golji apparati kabilar bo'lmaydi. Eukariot suvo'tlarga asosiy tuzilmalar (qoplamar, sitoplazmadagi tuzilmalar, yadro) ular zamburug'lar, hayvonlar va o'simliklarning hujayralariga xos.

Hujayra qoplami. Eukariot tuzilishli suvo'tlar hujayrasining po'sti unga belgilangan shaklni berib, turlicha ko'rinishlarga va kimyoviy tarkibga ega. Eukariot tuzilishli suvo'tlarning ko'pchiligi qanday morfologik tuzilishga ega ekanligidan qat'iy nazar, suv va unda erigan quyi molekulali moddalar va quyosh yorug'ligini o'tkazadigan polisaxarid pardal bilan o'ralgan. Uning tarkibida polisaxaridlardan tashqari oqsillar, glikoproteidlar, mineral tuzlar, pigmentlar, lipidlar va suv bo'ladi. Hujayraga mustahkamlik beruvchi modda eukariotlardagi kabi selluloza hisoblanadi.

Hujayra po'stini yuzaga kelishida tarkibida fermentlar tutib polisaxaridlar biosintezida ishtirok etadigan Gold'ji apparati va plazmolemma asosiy ahamiyatga ega. Hujayra po'stida o'lchamlari 12 dan 60 va 90 nm gacha bulgan tirqishlar mavjud. Ular orqali bir hujayralilarda tashqi muhit bilan, ko'p hujayralilarda esa, tallomni qo'shni hujayralari bilan plazmodesmalar orqali




Tillarang suvo'ti. *Ctrynoracata radlaca* rizopodial holat.

aloqani amalga oshiradi.

Suvotlarning ko'pchiligida, masalan, ayrim volvokslarda va qizil suvo'tlarda hujayra po'sti temir tuzlari bilan, hara, yashil, qo'ng'ir va ayrim qizil suvo'tlarida kal'tsiy tuzlari, tillarang, sariq yashil, va diatom suvo'tlarida kremniy tuzlarini shimgan bo'ladi. Diatom suvo'tlarida hujayra po'stidagi shu suvo't hujayralariga mos arxitektonika - kremniyli sovutni hosil qiladi. Yashil va qizil, qo'ng'ir suvo'tlari, masalan Oedogonum, Caulerpa, Halimeda, Porhyta, Udotea kabilarda hujayra ajratadigan kutin moddasi hisobiga, hujayra po'sti qo'shimcha qattiq qatlam *kutikula* bilan o'raladi. Po'sting yuzasi karotinoidlarning polimerlanish mahsulot - sporopolleninli qavat bilan qoplanishi mumkin.

Maxsus polisaxaridlardan, xususan, oltingugurt tutgan polisaxaridlar, pektin, fukoidlardan iborat bo'lgan qalin shilimshiq yopqich qo'ng'ir, qizil, va yashil suvo'tlarining ko'pchiligiga harakterli hisoblanadi.

Yashil suvo'tlardan volvokslar va xlorokokklarning hujayralari ajratadigan shilimshiq qalin kapsulani hosil qiladi. Noqulay sharoit yuzaga kelganda ayrim suvo'tlar, masalan, xlamidomonada vaqtinchalik palmelloid holatiga o'tadi. Bir qator suvo'tlarda sellulozali po'st yo'qligi tufayli hujayra po'sti oqsil qavat pellikuladan iborat.



Diatom suvo'tlarning palla va yon tomondan ko'rinishi

Kriptofit suvo'tlarda hujayra po'sti, ichki oqsilli qavat plazmolemmanni ustidagi tashqi qo'shimcha qavat periplast bilan o'ralgan. Dinofita suvo'tlarining tekalarini tarkibida oqsildan tashqari galaktoza, arabinoza, galakturon kislotalari bo'lib, ular ko'p tarkibli tizimdan iborat. Ularning yuzasi har bir suvo'ti turida o'ziga

xos tuzilishga ega va u sistematik ahamiyatga molik hisoblanadi. Ayrim suvo'tlar hujayrasidagi, masalan, dinofitalardagi ejekt organellalari trixotsistlar anchagina murakkab tuzilishli hisoblanadi. Bitta hujayradan bir necha yuzlab trixotsistlar hosil bo'ladi. Ular hujayra atrofida joylanib, tashqi muhitdan ta'sirlanishi bilan romb yoki to'g'ri to'rtburchak shaklidagi ipni tashqariga otadi. Suvo'tlarining ko'pchiliginu hujayra yuzasi ayniqsa bir hujayralarda tangachalar, ninasimon, ilmoqsimon o'simtalar bilan qoplangan. Ular turli tuman vazifalarni bajarib, odatda plankton sharoitiga moslanishlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Yashil va tillarang suvo'tlarining ba'zilarida hujayra po'sti yuzaga kelmay, hujayraning tashqi qavati bo'lib plazmolemma hisoblanadi. Tashqaridan bu "yalang'och hujayralar" ko'p hollarda shilimshiq bilan o'ralgan. Bir hujayrali va ko'p hujayrali suvo'tlarning gameta va zoosporalarida hujayra po'sti shakllangungacha po'sti bo'lmaydi.

Plazmolemma. Xivchinli va amyoboid vakillarda hujayra tashqi tomondan plazmolemma bilan o'ralgan xalos, u suvo't tanasining doimiy o'zgarmas shaklini ta'minlamaydi. Bunday hujayralar psevdopodiyarni hosil qilishi mumkin. Psevdopodiyalar morsologiyasiga ko'ra bir necha tipga bulinadi. Suvo'tlarda ko'piroq **rizopodiyilar** uchrab (masalan, Chrysamoeba, Rhizochrysis) uzun, ingichka, ipsimon, tarmoqlangan bazansitoplazmaning o'simtasi hisoblanadi. **Lobopodiyarsitoplazmani** yumaloqlangan burtmasi holida ular amyoboid tipli tallomda (masalan Bremieela), monad tuzilishlilarda (masalan eruthropsiz), **aksopodiyilar**-mikronaylardan tashkil topgan paypaslagichsimon hosilalar.

Xivchinlari bo'lgan suvo'tlarning ayrimlarida hujayrani usti tangachalar bilan qoplangan. Tangacha bittadan yoki o'zaro bir-biri bilan bog'lanib umumiy qoplasm-teka hosil qiladi (masalan Synura). Qoplasm organik yoki anorganik harakterda bo'lishi mumkin. Organik tangachalar yashil, tillarang, kriptofit (dinofita) suvo'tlarda anorganik tangachalar asosan kaltsiy karbonat yoki kremnezyomdan iborat kaltsiy karbonatlilarni **kokkolistlar** deyiladi.

Xivchinli va amyoboid suvo'tlarda hujayra organik tuzilishli "uchcha"larda ham joylashadi. Uycha devori yupqa va shaffof (masalan, Dinobryon) yoki mustahkam va rangli (masalan: Trachelomonas) bo'ladi. Suvo'tni ko'payishi davrida uycha saqlanadi,

yuzaga kelgan hujayralardan bittasi chiqib ketib o'ziga yangisini hosil qiladi.

Evglena suvo'tlarining hujayra qoplami –**pellikula** deyiladi. Uning qalnligi va elastikligiga ko'ra u o'zgarmas (masalan: Phasus, Lepocinclus,

Algin kislota, fukoidin, agarozalarning sturuktura birligi.

Rhabdomonas) yoki ma'lum darajada metaboliyali (o'zgarib turadigan) bo'lishi(masalaan:Astassia, evglena, Peranema) mumkin.

Dinofita suvo'tlarining hujayra qoplami **amfiesma** plazmolema va uning ostida joylashgan yassilangan vezikulalarning majmui **alveoladan** iborat. Bir qator dinofitalarning vezikulasidaselyulozali plastinkalar bo'lib, bunday amfiesma **teka** yoki **sovut** (masalan: Seratium, Peridinium) deyiladi.

Diatom suvo'tlarida plazmolemmanning tashqi tomonidan **maxsus** hujayra qoplami- Sovut hosil bo'ladi. Kimyoviy jihatdan u **amorf** kremnezyomdan iborat. Bundan tashqari Sovut tarkibida organik birikmalarning aralashimalari, temir, alyuminiy, magniy ham bo'ladi. Sovut tashqi va ichki tomonidan pektin moddasidan iborat qavat bilan qoplangan.

Monad tuzilishli xlamidomonadalar va volvokslarda hujayra devori o'ziga xos tuzilgan. Ulardaselyuloza yo'q, u glikoproteinlar (oqsillarni uglevodlar bilan birikishi)dan tashkil topgan. Uglevodlar galaktoza, arabinoza, mannoza va glukozadan iborat.

Suvo'tlarining ko'pchiligini hujayra devori yuksak o'simliklar hujayralaridagi bilan o'xshash, asosanselyulozadan tashkil topgan. Unda pektin, gemitsellyuloza va boshqa moddalar ham bor. Gemitsellyuloza turli geksozalar, pentozalardan iborat geteromer tarmoqlangan polimerdir. Pektin moddalar tarmoqlangan, galakturon kislotali polimer, ular Golji apparatida sintezlanib keyin po'stga chiqariladi.

Algin kislata D-mannuron va L-guluron kislotalar qoldig'ini tutgan polimer: Uning eriydigan tuzlari qo'ng'ir suvo'tlar hujayralari tarkibida bo'ladi.


Agar sovuq suvda erimaydigan, qaynoq suvda eriydigan fikokolloid bo'lib, u ikki polisaxarid agarosa va agaropektindan iborat.

Karraginanlar agarga yaqin fikokolloidlar hisoblanadi. Yashil suvo'tlarining polisaxaridlari ancha murakkab, ular D-glukoza, L-arabinoza, D-ksiloza, D-glyukuron kislota va L-ramnozalardan

iborat selyuloza yashil, sariq yashil (tribofitsalar), qizil va qo'ng'ir suvo'tlarida mavjud. Ular yuksak o'simliklardagidan farqlanib mannanlar va ksilanlardan iborat bo'lishi mumkin.

Alginanlar - tarmoqlanmaydigan uglevodlarning polimerlari hisoblanib, ularda fenol guruhi bulmaydi. Dinofita suvo'tlari po'stida sporopollenin va alginanlardan farqlanadigan fennolin polimer to'planadi.

Protoplast. Eukariot suvo'tlarning hujayralarida ham yuksak o'simliklardagi kabi quyidagi asosiy qismlar- yadro, endoplazmatik retikulum, Goldji apparati, mitokondriyalar, xloroplastlar, vakuolalar, periksismalar bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, yuksak o'simliklardan farq qilib, turli guruh suvo'tlarining hujayralari dasentriola va pirenoidlar, bir hujayralilarda esa stigma, qisqaruvchi vakuola va boshqa maxsus hosilalar mavjud.



Xivchinli apparat. Monad vegetativ hujayralar (zoosporalar va gametalar) va hayotiy davrasida monad bosqichini o'tayotgan uzun, anchagina yo'g'on (0,2 mkm ga yaqin) **xivchinga** ega. Suv o'tlarida ularning uzunligi, morfologiyasi, birikadigan joyi, harakatlanishi turlicha bo'ladi.

Xivchinlar hujayraning oldida (apikal), yonboshiga siljigan (subapikal), yoniga birikkan (lateral) va qorin tomonida (ventral) joyylanishi mumkin. Morfologiyasidan o'xhash tuzilishlilarni **izomorf**, o'zaro farqlansa (masalan: bittasi patsimon, ikkinchisi silliq) **geteromorf** deyiladi. Xivchinlar bir xil uzunlikda bo'lsa **izokont**, turlicha uzunlikdagilari **geterokont** deb ataladi.

Xivchinlarda harakatlanadigani (**undilopodiy**) oralig'i, bazal tana (kinetosoma) va ildiz farqlanadi. Xivchinlar silliq yoki tangachalar yoxud (mastigonema) tuklar bilan qoplangan bo'lishi mumkin, sinuralar, dinofitalarda mastigonema va tangachalar bor.

Mitoxondriylar. Eukariot o'simlik organizmlarni energiyaga bo'lgan talabini ular hujayrasidagi mitoxondriylar va xloroplastlar ta'minlaydi.

Mitoxondriylar tuzilishi va kimyoviy tarkibiga ko'ra turlicha bulgan qo'sh membranalı po'st bilan o'ralgan. Mitoxondriylar hujayra ichidagi oksidlanish jarayonlarini amalga oshiradigan markaz hisoblanib, uch karbon kislota davrsasi fermentlarini tutadigan nafas jarayonlarida ishtirok etadi. Energiyaga boy adenozin uch fosfat molekulalari mitoxondriylardan chiqqach, hujayra metabolizmidagi turli jarayonlarda foydalaniladi.

Mitoxondriylarning o'lchamlari, shakli va ularning soni turli suvo'tlarda turlichadir. Mayda mitoxondriylar odatda, yumaloq shaklda, o'lchamlari 0,3- 1 mkm keladi. Ipsimon tuzilishli mitoxondriylarni uzunligi 2 mkm va undan uzunroq eni 0,4 mkm bo'ladi. Bazi suvo'tlarining hujayralari yuksak o'simliklardan farqlanib (masalan Chlorella fassa) bitta, ancha tarmoqlangan ko'rinishdagi mitoxondriyga ega. U butunsitoplazma buylab yoyilib mitoxondriy retikulumini hosil qiladi. Bunday mitoxondriylarsitoplazmaning hamma qismlari bo'ylab joylashadi. Shunga qaramaysitoplazmaning qaysi qismida energiyaga muhtojlik ko'p bo'lsa o'sha yerda mitaxondriylarning to'planishi kuzatiladi.

Cuwo'tlari hujayralaridagi mitoxondriylarning tuzilishi va shakli ham yuksak o'simliklarnikidan xilma xilroqdir. Ular yuma-

loq, cho'ziq, ip, to't ko'rinishida bo'ladi. Bitta hujayraning turli davrlarida ularning shakli o'zgarib turadi. Boshqa eukariotlardagi kabi mitoxondriylar qo'sh membrana bilan o'ralgan. Ichki qavat buklamalar-**Krist** hosil qiladi. Kristlar disksimon (evglenalarda), naysimon (dinofitalrda), yassi yaproq (yashil, qizil, dinofita suvo'tlarida) bo'ladi. Oddisiy disksimoni hisoblanadi. Mitoxondriylar xilma xil tuzilishiga qaramay bir martagina hosil bo'ladi.

Plastidlar. Suvo'tlarni turli guruhlaridagi xloroplastlarni morfologik xususiyatlari turlicha bo'lishiga qaramay ular fotosintezlovchi birlik bo'lib, prokariot organizmlar va yuksak organizmlardagi kabi membrana bilan o'ralgan yassi xaltacha holdagi tilakoidlar hisoblanadi. Ularda quyosh yorug'ligi yordamida organik bo'limgan moddalardan organik modda hosil qilinadi va atmosferaga kislorod ajratiladi. Suvo'tlaridagi xloroplast va mitoxondriylarda adenozin ikki fosfatdan adenozin uch fosfat hosil qilinadi. Barcha fotosintezlovchi o'simliklarda, shu jumladan suvo'tlarning talakoidlarida xlorofil - "a" bo'ladi. Xlorofil - "b" suvo'tlari orasida faqat yashil va evglena suvo'tlari orasida topilgan. Xlorofil S₁ va S₂ qo'ng'ir, tillarang, diatom suvo'tlarida, kriptofitlarda faqat xlorofil S uchraydi. Yashil suvo'tlari yuksak o'simliklarga xos bo'lgan karatinoidlarni ham tutadi. Qo'ng'ir suvo'tlari hujayralarida fukoksantining ko'pligi ularni qo'ng'ir rangini belgilaydi. Qizil va kriptofit suvo'tlari uchun fikobilinlar, qizil-fikoeritin va ko'k-yashil fikotsianin harakterlidir, fikobilinlar yorug'likni tutish vazifasini bajaradi. Suvo'tlarning ko'pchiligi xloroplastlari qizil, kriptofit, hara va yashil suvo'tlardan tashqari endoplazmatik retikulum bilan qamralgan.

Xloroplastlarning morfologik jihatdan turli tumanligi tilakoidlarning joylanishlariga bog'liq. Eukariot suvo'tlarining ko'pchiligidagi (qizil suvo'tlardan tashqari) tilakoidlar kriptofitlarda 2ta, dinofitalar, tillarang, sariq yashil, qo'ng'ir, diatom suvo'tlarida 3ta, yashil va hara suvo'tlarida esa 2-6ta tilakoidlardan iborat tutamlar holida joylashgan. Qizil suvo'tlarida fotosintezlovchi tizim orasida fikobilisoma bo'lgan bitta uzun tillakoid mavjud.

Suvo'tlarning ko'pchilik turlari, ayniqsa bir hujayralilarda bitta ancha katta xloroplast konussimon, yassi, yulduzsimon, spiral buralgan. Xloroplastlari ikkita bo'lganlari ham uchraydi. Ko'p hujayrali va hujayrasiz tuzilishli suvo'tlarining ayrimlarida xloro-

plastlar binzasimon ham bo'ladi. Shuni alohida qayd qilish kerakki, tashqi muhit omissarining ta'siri – yorug'likning tarkibi va ta'sir kuchi, harorat, oziqni tarkibi kabilar xloroplastlarga katta ta'sir qiladi.

Suvo'tlarda xloroplastlar bilan uzviy bog'liq holda pirenoidlar bo'lib, tabiatiga ko'ra oqsilli (asosan ribuloza difosfat, karboksilaza fermentlaridan iborat), o'Ichami 3-12 mkm keladigan, odatda amilogen donachalari bilan o'ralgan, ularni hosil bo'lishida laminariya (qo'ng'ir suvo'tlarida) paramilon, evglenalarda lipidlar ishtirok etadi. Suvo'tlarining ko'pchiligidagi pirenoidlar xloroplast ichida, boshqalarida uni tashqarisida joylashadi. Pirenoidlarning soni 1-10 tagacha va undan ko'p bo'lishi mumkin.

Harakatlanadigan suvo'tlarning xloroplastlarida yoki uning atrofida u bilan vazifasiga ko'ra doimo aloqada bo'ladigan fotoreceptorlik vazifasini bajaradigan – **stigma** yoki **ko'zcha** bo'ladi. U odatda yumaloq, tayoqcha, linza yoki trapetsiya shakliga ega. Uzoq vaqt qorong'ida bulgan hujayrada stigma yo'qolishi mumkin, uni yorug'likka olib chiqilsa ma'lum vaqtdan keyin yana paydo bo'ladi.

Xloroplastlarni ko'k yashil suvo'tlaridan kelib chiqqanligini ularning bir qator xususiyatlari ko'rsatadi;

1. Xloroplastlar va mitoxondriylarning membranalaridagi maxsus tuzilma fosfolipid-kardiolipin bakteriyalar membranalariga xos, eukariotlarning membranasida yo'q.

2. Glaukotsitsitlarning xloroplastini po'stida peptidoglikan qavat mavjud.

3. Glaukotsistofitlar va qizil suvo'tlarning fikobilin pigmentlarida ko'k-yashil suvo'tlardagi kabi fikobilisomalarda tilakoidlarni yuzasida joylashgan.

4. Xloroplastlarning ribosomalari 70 s tipda bo'ladi.

5. Xloroplastlarda oqsilning sintezlanishi levomitsitin antibiotigi ta'sirida to'xtatib turiladi, u eukariotlardagi ribosomalarga ta'sir qilmaydi.

6. Xloroplastidagi DNK yopiq qo'sh spiral molekulaga ega.


Pigmentlar. Suvo'tlardagi fotosintezlovchi pigmentlarni uch guruhga bulinadi.

1. Xlorofill ko'zga ko'rindigan yorug'lik spektridagi ko'k va qizil nurlarni shimadiganlar.

2. Karatinoidlar, ko'rınadigan yorug'lik spektirining ko'k-yashil qismini shimadigan.

3. Bilinlar yorug'likni maksimal shimadiganlar.

Xlorofillar fotosintezlovchi pigmentlar orasida eng muhim ahamiyat kasb etadi. Xlorofil malekulasining asosini magniy ioni bilan bog'langan 4 ta spiral xalqa tashkil etadi. Xlorofil a,b va d, xlorofillidlarda bo'lmaydigan uzun fitol zanjiri bor.



Xloroplastlarning tuzilishi

Turli bo'limlarga mansub suvo'tlarning plastidlari xlorofillarning tarkibi bilan farqlanadi. Qizil suvo'tlardagi faqat xlorofilla, yashil va evglenalarda xlorofil a va b mavjud. Eukariot suvo'tlarning ko'pchiligidagi xlorofil a va s bor. Prokariot suvo'tlarda xlorofil a mavjud. Barcha fotosintezlovchi suvo'tlarda eng muhim xlorofil a hisoblanadi.

Karotinoidlar yorug'likni to'plash, yorug'likdan himoyalanish vazifalarini bajaradi. Karotinoidlarning asosiy ikki guruhi karotinlar va ksantofillar mavjud. **Karotinlar** petrolein eritmasida yaxshi, spirtda kam eriydi.

Suvotlarda **b** va **v** karotinlar uchraydi. Ksantofillar karo-tinoidlarning kislorodli hosilasi hisoblanib spirtda yaxshi, petrolein eritmasida kam eriydi.

Fikobiliproteinlar ko'k-yashil, qizil, kriptofit suvo'tlarida yorug'lik to'playdi. Fikobiliproteinlarga fikoeritrinlar, fikoeritriatinlar, fikotsianinlar va allofikotsianinlar mansub.

Fikobilin pigmentlar fikobilisomalarda tillakoid membranalarida. Fikobilinlarning tuzilishi joylashadi, ularning o'zaro nisbatlari suvo'tlarining o'sish joyiga bog'liq. Qizil suvo'tlarining ko'pchiligi dengiz va okeanlarning ancha chuqurida o'sadi, u joylarga yorug'lik spektrning qisqa to'lqinlari kirib boradi, shu boisdan ularda fikoeritrinlar ko'p bulganligidan rangi ham shunga bog'liq. Dengizlarning chuqurida tarqalgan ko'k-yashil suvo'tlar ham qizil rangda. Chuchuk suvlar planktonida uncha chuqur bulmagan joylardagi ko'k-yashil va qizil so'vo'tlarda ko'k pigment fikotsianin va allofikotsioninlar bo'ladi.

Ayrim pigmentlarni turli guruhi suvo'tlarida taqsimlanishi

Bulimlar	Xlorofillar				Karotinoidlar				Fikobiliproteinlar			
	a	b	c	d	β -karotin	Zaksantin	Fkokksantin	Diatoksantin	Peridinin	Fikoeritrinlar	Fikotsianinlar	Allofikotsianinlar
Ko'k-vashillar	+	+			+	+				+	+	+
Qizillar	+				+	+				+	+	+
Kiptofitlar	+		+		+	+				+	+	
Dinofitalar	+		+		+			+	+			
Evglenalar	+	+			+	+		+				
Yashillar	+	+			+	+						

G'amlangan maxsulotlar suvo'tlarda polisaxaridlar donalar xolida ko'p hollarda xloroplastlarda to'planadi. Yashil suvo'tlaridagina yuksak o'simliklardagi kabi xloroplast ichida to'planadi.

Suvotlarda g'amlangan moddalarni polimer zanjirida qndlarni bog'lanish tipiga ko'ra b-1.4 glyukanatlar (kraxmal,

bagryanka kraxmali, sianofitsin kraxmali) va v 1.3 glyukanlari(xrizolaminarin va paramilon) bulinadi.

Paramilon evglena suvo'tlarida, laminarin oxrofit va gaptopofitlarda hosil bo'ladi. Yashil suvo'tlarning kraxmali yashil o'simliklar kraxmaliga yaqin u amiloza va amilopektin bilan bir xil emas, molekulyar og'irligi granulasi kichik. Lipidlar suvo'tlarning ko'pchiligini hujayrasida turlicha kattalikdagi tomchi xolida to'planadi. Ularning soni hujayraning yoshi va funksional holatiga bog'liq.

Suvo'tlarning ko'pchiligidagi yumaloqsimon tig'iz tuzilma bo'lib, tarkibida polifosfatlar bo'ladi. Azotli birikmalar ko'k yashil suvo'tlaridasianofin donalar xolida arginin va asparagindan iborat.

Yadro va mitotik apparat. Suvo'tlarining ko'pchiligini hujayrasidagi yadro, eukariotlarniki bilan bir hil. Uning soni bitta hujayrada bir dona va undan ko'p bo'ladi. Ayrim suvo'tlarining hujayralari ko'p yadroli sifonokladiya va sifonal tuzilishlilardagi kabi, boshqalarida ko'p yadrolilik hujayra qarishi bilan ro'y beradi.

Yadro tashqi tomonidan qo'sh membrana bilan o'ralgan. tashqisi ribosomalidir. Ikkita membrananing oralig'i *prenuklear bushliq* deyiladi. Bu bo'shliqda xloroplastlar yoki leykoplastlar bo'lishi mumkin.

Yadroda doimo DNK va oqsildan iborat xromatin bo'ladi. Bundan dinofitalar istisno bo'lib, ularda gistonlar juda oz va xromatinli nukleosoma yo'q. Ulardagi DNK xromosomalarda maxsus joylashadi: xromosomalardagi xromotin iplar sakkiz ko'rinishda bo'ladi. Yadroda bittadan bir nechtagacha yadrochalar bo'ladi, ular mitoz davrida saqlanadi yoki yo'qoladi.

Mitoz suvo'tlarda turlicha sodir bo'ladi. Yadro pardasining holatiga ko'ra *yopiq, yarim yopiq va ochiq* mitozga farqlanadi. *Yopiq* mitozda xromosomalarning o'zaro ajralishi yadro pardasining saqlanishi bilan, *yarim yopiq* mitozda yadro pardasi mitoz davrining qutbiy zonalaridan tashqari holatda saqlanadi. *Ochiq* mitozda yadro pardasi profazada yo'q bo'ladi. Bo'linish urchuqlarining shakliga ko'ra *plevromitoz va artomitoz* farqlanadi. *Plevromitozda* metofaza bosqichida ekvatordagи plastinka hosil bulmaydi va urchuq qo'sh yarimurchuq holida yadroda yoki tashqarida bir-biriga burchak ko'rinishida joylashadi. *Ortomitozda*

metofazada xromosomalar qo'shqutbli urchuqning ekvatorida joylashadi. Shunga ko'ra suvo'tlarda quyidagi mitoz tiplari uchraydi:

ochiq ortomitoz - haralar, tillaranglar, kriptofitlarda;

yarim yopiq ortomitoz- yashil, qizil, qo'ng'ir suvo'tlar va boshqalarida;

yopiq ortomitoz- evglenalarda; (yopiq plevromitoz yadro ichida va yadrodan tashqarida ro'y beradi).

Yashil suvo't trebuksiyada **metotsentirik mitoz** ro'y berib metofazada sentriolalar metofaza plastinkasi yaqinida (urchuq qutublarida emas) joylashadi.

Yopiq mitoz monad tuzilishlardan *Pedimonas minor* va ipsimonlardan *Oedogonium cardiacum*: yarim ochiq mitoz *Chlamidomonas reingardi*, *Ulva mutabilis*; ochiq mitoz *Closterium*, *Zygnea*, *Clochaeta*, *Draparnaldia* turlarida kuzatilgan. Mitoz suvo'tlarida asosan qorong'ida ro'y beradi. Suvo'tlarida bu vazifani qisqarish xususiyatini yo'qotgan vakuola - puzula bajaradi.

Suvo'tlar hujayrasida hayvon hujayralaridagi kabi lizosimlar bo'lmaydi. Suvo't hujayralarida eukariot organizmlarga xarakterli bo'lgan peroksisomalar mavjudligi aniqlangan. Peroksisomalar mitoxondriylar kabi oksidlovchi reaktsiyalar yordamida kislorodni yo'qotadi. Suvo'tlar hujayrasida yuqorida gildardan tashqari turli qo'shilmalar ham mavjud.

Sitokinez- hujayrasitoplazmasini hosil bo'lган ikkita yosh yadrolar orasida to'siq devor yuzaga kelib ikkita mustaqil hujayrani paydo bo'lishi.

Suvo'tlarida sitokinezning ulardag'i fikoplast, fragmoplast, yohud har ikkala tuzilmani mavjudligi bilan variantlari mavjud. Fikoplastni shakllantiradigan hujayralar plastinka (*Fritschella*) yoki iplar (*Chamydononas*) hosil qilish bilan sodir bo'ladi.

Spirogira turkumiga mansub turlasitokinez anafazaning boshlaridiyoq *Kirchnella lunaris* suvo'tidasitokinez natijasida 4 ta avtospora hosil bo'ladi, birinchi mitozdan keyin 2 ta yosh yadrolar orasida ko'ndalang to'siq hosil bo'ladi va u ikkinchi mitozda qisman yoki butunlay yo'qoladi. Bu davrda har ikkala yosh yadro bo'linadi. *K.lunaris* suvo'tini interfaza davridasentriolalar uchratilmagan, ular mitozdan avval shakllanadi vasitokinezning ikkinchi mitozini oxirigacha bo'ladi.

SUVOTLAR TALLOMINING MORFOLOGIK TABAQALASHUVINI TIPLARI

Suvotlarining tanasi qattana yoki tallomli bo'lib alohida qismlar ildiz, poya, barg va gulga tabaqalashmagan. Qattanali tuzulishli suvo'tlar faqatgina morfologik turli tumanligi bilan farqlanadi. Ular orasida bir hujayrali, ko'p hujayrali, hujayrasiz sifonli va sifonokladial organizmlar mavjud. Ularning o'cham-lari ham huddi bakteriya hujayrasi kabi mayda va dengizlarda o'suvchi qo'ng'ir suvo'tlarida bo'yi birnecha o'nlab metrlar-gacha, yuksak o'simliklar florasidegi ulkanlaridan qolishmay-diganlari ham bor.


Suvotlarning shakli va rangi ham ko'pincha g'aroyibdir. Oddiy sharsimon yoki tomchisimon tuzulganlaridan boshlab, yuksak o'simliklarga o'xshab ketadigan kuchli tarmoqlanganlari ham bor. Suvotlaring rangi yashil, pushti, qizil, binafsha, sap-sardan to qoragacha, moviy, ko'k-yashil, sariqyashil, sariq, tillarang va qo'ng'ir tuslarda bo'ladi. Suvotlar tanasining bag'oyat darajada xilma xil tuzulishlarini, ularning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq holdagi birnecha tuzilmalarga ajratilgan.

Xozirgi kunda monad, gemimonad, sartsinasimon, ipsimon, turlicha yo'g'onlikdagi ipsimon, sifonal, psevdoparenhimatif, parenhimatif va katakinez - soddalashgan muhit sharoitida o'sish natijasida organizm belgilarini rivojlanmay qolishi tuzilish darajasining pasayishi hisobiga yuzaga kelgan ameboid tuzilmalarga ajratiladi. Suvotlarning tanasi morfologiyasi ularning sistematikasidagi eng muxum belgilaridan hisoblanadi.

Monad (xivchinli) tuzilma. Bu tuzilmaning muxum xarakterli belgisi xivchinlarining mavjudligidir. Xivchinlar yordamida harakatlanadigan suvo'tlar olamida keng tarqalgan. Ular evglenalar, dinofitalar, kriptofitalar, tillarang suvo'tlar orasida ko'pchiligini tashkil etadi, sariqyashil va yashil suvo'tlar orasida ham bor. Diatom va qo'ng'ir suvo'tlar orasida monad tuzilma vegetativ holda uchramaydi, ammo ko'payish davrida hosil bo'ladi. Qizil suvo'tlarning hayotiy davrida monad tuzilma aniqlanmagan.

Monad suvo'tlarning harakatlanishi ular hujayralari va koloniyalarining tuzilishida ikki tomonini o'zaro o'hshamasligiga olib kelgan. Hujayraning oldingi deb hisoblanadigan tomoniga xivchini birikkan. Hujayra asosan tomchi, radial yoki xivchinli

tomoni biroz ingichkalashgan bilateral simmetrik tarzda tuzilgan. Shunga qaramay monad tuzilmaga ega bo'lgan organizmlar orasida assimetrik, spiral, orqa qismi cho'ziq kabi ko'rinishlarda ham bo'ladi. Hujayrani shakli uning po'stini harakteriga bug'liq va u plozmolemma, pellikula, periplast, teka, organik yoki tuzlaridan tashkil topgan tangacha, uycha kabi bo'lishi mumkin



Suvotlar tallomining Morfologik tabaqalashuvini tiplari

1-Monad(*Chlamydomonas*); 2-Ameoboid(*Rhizochloris*); 3-Gemmonad(*Hydrurus*); 4-Kokkoid(*Pediastrum*); 5-Sartsinord(*Chlorosarcina*); 6-Ipsimon (*Ulothrix*); 7-Turi yo'g'onlikdagi ipsimon (*Fritschella*); 8-Soxta to'qima(*Furcellaria*); 9-To'qima(*Laminaria*); 10-Sifonal(*Caulerpa*); 11-Sifonokladial(*Cladophora*).

Monad tuzilishli suvo'tlarga hujayradagi osmotik bosimni nazorat etuvchi qisqaruvchi vaquola, shilimshiq tana, otiluvchi tuzilmani bo'lishi xarakterli xisoblanadi. Hujayradagi bita yadro uni o'rtasida joylashadi. Turlicha shakl va rangdagi xloroplastlari hujayrani o'rtasida yoki uni chekkasida bo'ladi. Ranglilar bilan bir katorda xlorofillsizlari (apoplastid) xam uchraydi.

Monad tuzilmalilar orasida tana o'lchamlaring kattalashirishga intilishi bilan yuzaga kelgan, shakli va tuzilishlariga ko'ra har-xil koloniyalar ham anchagina. Bo'lingan hujayralar tarqalib ketmaydi. Bunday holat *Ceratium*, *Coniananax* hujayralarida kuzatiladi. Hujayralarni o'zaro protoplazmatik iplar yordamida tutashishi ham ro'y beradi. *Cyclonexis* hujayrasida halqasimon, *Gonium* hujayrasida yassi, *Monadodendron* hujayrasida daraxtsimon shoxlangan, *Mycocochrasis* hujayrasida soyabonsimon, *Euspherella* hujayrasida ichi bo'sh yumaloq ko'rinishlardagi koloniyalar hosil bo'ladi. Yashil monad organizmlarga ma'lum belgilangan sondagi hujayralardan tashkil topgan hujayrasini vegetativ ravishda ko'paya olmaydigan **senobiylar** hosil qilish xarakterlidir. senobiydag'i hujayralar kattalashishi hisobiga o'sadi. Noqulay sharoit yuzaga kelganda monad organizmlar xivchinlarini yo'qotadi, harakatdan to'htaydi va shilimshiq bilan qoplanadi. Bo'linishini to'xtatmay hujayra o'ziga xos tashqi ko'rinishini yo'qotadi. Suvo'tning bunday holatiga **palmelloid** holat deyiladi, qulay sharoitlar yaratilishi bilan shilimshig'ini yo'qotib, xivchin hosil qilib avvalgi holatini tiklaydi.

Amyoboid (rizopodial) tuzilma. Amyoboid tuzilmaning eng harakatli belgisi hujayra qoplamining bo'lmasligi tufayli amyobasimon harakatni mavjudligidir. Amyoboid suvo'tlarning hujayrasida yadro, plastidlar, mitoxondriy va eukariotlarga xos boshqa qismlari, ba'zan qisqaruvchi vakuola, stigma, xivchin hosil qiluvchi bazal tana ham bo'ladi. Animal (hayvon bilan) oziqlanishi tufayli xloroplastlari ba'zi hollarda hech qanday belgi bermaydi, boshqa holatlarda o'lchamlari kichrayib tusi oqarib ketadi, xatto xloroplastlar yoki plastidlar butunlay yo'qolishi ro'y beradi.

Amyoboid organizmlarning ko'philigi biror substratga birikib oladi. Ular turlicha shakklardagi yupqa yoki qalin, dag'al yoki noziq, rangli yoki rangsiz uychalarni qurib oladi. Turlicha kattalik, shakklardagi shilimshiqli yoki shilimshiqsiz koloniyalarni ham hosil qiladi. Amyoboid tuzilmali suvo'tlar tabiatda keng tarqalmagan.

Ular o'sish sharoitlariga noilojlikdan maxsuslashuvlari, tarixiy taraqqiyotda boshi berk yo'lda ekanligidandir.

Geminonad tuzilma. Bu tuzilmaga harakatlanmaydigan, hujayrasining tuzilishi monad tuzilmaga mos bulgan suvo'tlar birlashtiriladi. Ularning hujayrasidagi xivchin o'zi o'ralgan shilimshiq ichida yoki xivchin hujayraning harakatsiz holida ham saqlanadi. Apiocystis, Getraspora, Schyzochlamus va boshqalarda harakatlanmaydigan xivchinsimon o'simtalari bo'ladi. Geminonad tuzilmali suvo'tlar hujayrasining tuzulishida ikki uchiga monad tuzilmalilar kabi turlichalik xos. Hujayra po'sti bor yoki yo'q, yakka yoki koloniya holida, erkin mustaqil holda yoki birikib o'sadi. Hujayralari bir yoki ko'p yadroli. Xloroplastini yo'qotgan hujayralarda uning vazifasini **sianellalar** bajaradi. Geminonad suvo'tlar shilimshiq yordamida yoki ularsiz koloniyalar hosil qiladi. Koloniyalarning shakli turliche, ko'pincha biror aniq shaklda emas. Geminonad tuzilmalarning yuzaga kelishi harakatchan monadlardan harakatlanmaydigan, xaqiqiy o'simlik shakliga o'tishdagi morfologik muxum tarixiy taraqqiyot hisoblanadi.

Kokkoid tuzilma. Bu tuzilma bir hujayrali va koloniya xolidagi vegetativ davrida harakatlanmaydigan suvo'tlarni birlashtiradi. Kokkoid hujayralar po'sti bilan o'ralgan va protoplasti yuksak o'simliklarga xos tuzilishlidir.

Organizmlarning tuzilishida monad belgini yo'qolishi, o'simliklarga xos bulgan tuzilmani yuzaga keltirishi suvo'tlar evolyutsiyasidagi muxum aramorfozlardan hisoblanadi. Ammo kokkoid tuzilmali suvo'tlar hujayrasining po'st bilan o'ralganligi hujayraning vegetativ bo'linishini yuzaga keltirmadi va shunga ko'ra, ular hali ko'p hujayrali tallom hosil qilish imkoniyatiga ega emaslar.

Kokkoid tuzilmali suv o'tlarning bag'oyat darajada turlichaligi, ularni xilma xillikka olib keladigan hujayra po'stiga g'aroyib shakldagi, dastlabki yumaloq, urchuq, yumaloqto'rtburchak trapezsiyasimon, tuxumsimon, noksimon spiral buralgan, yuraksimon, chuvalchangsimon, noto'g'ri poliedrik, yulduzsimon va shu kabi ko'rinishlarni hosil qilgan. Ularning morfologik jihatdan turlichaligi, hujayra po'stidagi turli o'simtalar-donadorlik, nina, ilmoq, shoxsimon o'simta kabilar bilan yanada turlichaligini oshiradi.

Kokkoid suvo'tlarning hujayralari bir yoki ko'p yadroli. Xloroplastlarni shakli va hujayradagi holatiga ko'ra turlicha yoki, butunlay yo'q, ularning vazifasini sianellalar bajaradi. Kokkoid suvo'tlarning hujayralari shilimshiq bilan yoki shilimshiqsiz o'zaro birkib turli shakklardagi koloniyalarni o'sishi uni tashkil etgan hujayralarning sonini ortishi bilan emas, balki kattalashishi hisobiga ro'y beradi.

Kokkoid tuzilma deyarli barcha (evglenalardan tashqari) suvo'tlarda keng tarqalgan. Tarixiy taraqqiyot nuqtai nazaridan kolloid tuzilma ko'p hujayrali tallomni hamda sifonal va sifonokladial tuzilmani yuzaga kelishidagi boshlama hisoblanadi.

Sartsinoid tuzilma. Bu tuzilmaning harakterli belgisi bo'lib, kokkoid tuzilmaning tashqi ko'rinishi vegetativ bo'linishini turli satxlarda ro'y berib, natijada tetraedrik yoki boshqa (ipsimon emas) oson ajralib ketadigan to'plamlar hosil qilishi hisoblanadi. Sartsinoidlar vegetativ hayoti davomida harakatlanmaydigan hayot kechiradi. Ular bir hujayrali yoki koloniyali, hujayrasi po'stli, ikki uchi o'zaro o'xshamagan organizmlardir.

Sartsinoid suvo'tlarning xilma-xilligi ularning hujayralari tashkil qilgan to'plamlarning shakli bilan bog'liq. Hujayralarning vegetativ bo'linishini yuzaga kelishi o'simliklar olamining tarixiy taraqqiyotidagi muhim aramorfozlardan hisoblanadi, bu ko'p hujayrali mikroskopik tuzulishli o'simliklarni yuzaga kelishidagi muhim bosqichlardandir.

Ipsimon (trixal) tuzilma. Bu tuzilmaning harakterli xususiyati bo'lib, harakatsiz hujayrani bitta yo'nalishda vegetativ bo'linishi natijasida ipsimon joylanishni yuzaga kelishi hisoblanadi. Ipni tashkil qilgan hujayralarni ikki uchi bir xil tuzilgan, yadro urchug'iga mos kelgan bir yo'nalishda o'sadi. Ularga o'simlik organizmlariga mos kelgan cheklangan magan darajada o'sish xususiyati va ko'p hujayrali makroskopik tallomni hosil bo'lish imkoniyati hisoblanadi. Ipdagi barcha hujayralar o'sish qobiliyatiga ega bulsa, u holda bunday o'sishni **diffuz** deyiladi. Agarda hujayrani o'sishi tallomning cheklangan joyida ro'y bersa, o'sish joyi yoki meristemmatik zona deyilib, bu holatda **meristema** zona ipni o'rtasiga to'g'ri kelsa **interkalyar** o'sish, ipni asosida joylashsa **bazal** o'sish deyidadi.

Ipsimon tuzilmaning oddiy holati uni tashkil qilgan hujayralar o'zaro morfologik jihatidan farqlanmaydi. Shu bilan birga ipsimon suvo'tlarning ma'lum qismlari ingichka yoki yo'g'onlashgan bo'lib, hujayralar o'z shakliga ko'ra farqlanadi. Ipning uchlaridagi farq substratga birikib o'sadiganlarida aniq bilinadi. Birikadigan hujayra ko'p hollarda xloroplastlari bo'lmagan rangsiz rizoidga aylanadi. Ip oddiy yoki ko'p qatorli suvda mustaqil holda yoki birikkan, bittadan yoki birlashgan bo'lishi mumkin.

Ipsimon tuzilma yashil, qizil, sariqyashil, tillarang suvo'tlar orasida ko'p tarqalgan. Uni yuzaga kelishi o'simliklar olamini rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, uni asosida ko'p hujayrali o'simliklarning bir qator xususiyatlari shakllangan deb xisoblaniladi.

Turli yo'g'onlikdagi ipli (geterotrixal) tuzilma. Geterotrixal tuzilma ipsimonning morfologik takomillashuvi oqibatida turli vazifalarni: birikish, tayanch berish, assimilyatsiyalanish, hosil qilish kabilarni bajarishga moslanish natijasida yuzaga kelgan. Geterotrihal tuzilmali tallomning ko'p qismi substrat bo'ylab gorizantal joylashib birikish vazifasini bajaradi va undan tikkasiga (vertikal) yo'nalgan assimilyatsiya vazifasini bajaruvchi qismlardan iborat. Bunday tuzilish har ikkala qisminning birortasini reduktsiyasi yoki takomillashib rivojlanib ketishi tufayli ro'y beradi.

Ayrim suvo'tlarda ipning tikka joylashgan qismi bo'g'im va bo'g'im oraliqlarga maxsuslashib, ulardan bo'g'imli tuzilgan yon shoxchalar chiqadi. Bug'imdardan bundan tashqari qo'shimcha iplar chiqib, bo'g'im oraliqlarni qoplovchi yopqichlar o'sib chiqishi mumkin. Substratga birikishni rangsiz rizoidlar bajaradi. Geterotrixal tuzilishdagi bunday shakl o'zgarishlar xara suvo'tlarida ro'y beradi. Geterotrixal tuzilma yashil, qo'ng'ir, qizil ayrim sariqyashil va tillarang suvo'tlarga xos.

Ipsimon tallomning morfologiya va vazifasiga ko'ra tabaqlashuvi va rivojlanishi suvo'tlarni morfologiya jihatdan taraqqiyotidagi muhim aramorfozlardan hisoblanadi. Bu morfologiya jihatdan yirik tallomlarni yuzaga kelishiga olib kelgan va psevdoparenximatik tuzilmani hosil bo'lishiga asos bo'lgan.

Psevdoparenximatoz (soxta to'qima) tuzilma. Psevdoparenximatoz tuzilmaning harakterli xususiyati bo'lib, yirik xajmli ko'p hujayrali geterotrixal tallomni morfologiya va fiziologiya

jihatidan tabaqlashib “to‘qima” hosil qilishidir. “To‘qima” hosil bo‘lish xususiyatiga ko‘ra xaqiqisidan farqlanganligi tufayli uni soxta to‘qima deyildi. Bu xildagi to‘qimaning ichida oddiydan murakkabga tomon takomillashuvni ko‘rish mumkin. Murakkab tuzilganlarida to‘qima tabaqlashib to‘q rangli mayda hujayralardan iborat assimilatsiya vazifasini bajaruvchi tashqi po‘stloq qavat, yirik, deyarli rangsiz hujayrali tayanch va o‘tkazish vazifalarini bajaradigan markaziy qavatga, ba’zan esa assimlyatsiya mahsulotlarini g‘amlovchi, yirik, rangsiz hujayrali qavatlardan iborat bo‘ladi.

Pseudoparenximatoz tuzilma suvo‘tlarning morfologiya jihatidan taraqqiyotdagi boshi berk muhim yo‘nalish hisoblanadi. Qadimda uni hosil bo‘lishi aramorfozlardagi muhim voqeа hisoblangan. Bu esa morfologiya jihatdan yirik suvo‘tlar taksonlarini ba’zan boshqa ko‘rinishdagi quruqlikdagi yuksak o‘simliklarni eslatadigan turlarni paydo bo‘lishiga sabab bulgan.

Parenximatoz (to‘qima) tuzilma. Suvo‘tlarning keyingi evolutsiyasidagi istiqbolli yo‘nalishlardan biri ipsimon va geterotrixal tallomni yuzaga kelishi, hamda birlamchi hujayrani turli yo‘nalishlarda bo‘lina olishi bu bilan parenximatoz to‘qimani yuzaga kelishidir. Hujayrani cheklanmagan o‘sishi va hajmiy morfologiya jihatidan yirik makroskopik tallomni yuzaga kelib unda tabaqlashgan yani turli vazifalarni bajarishga moslashgan to‘qima paydo bo‘lgan. Parenximatoz to‘qimalar ichida oddiy, tabaqlashganligidan diffuz holda o‘sadigan yassi yaproq tuzilishidan, assimiliyatsiya, g‘amlash, o‘tkazish, mustahkamlik berish kabi vazifalarni bajarishga maxsuslashgan to‘qimalar hamda eng sodda tuzilishli organlarni paydo bo‘lishi ro‘y beradi.

To‘qima tuzilma qo‘ng‘ir, qizil va yashil suvo‘tlarda uchraydi. Uning yuzaga kelishi suvo‘tlar tarixiy taraqqiyotdagi muhim aramorfozlardan hisoblanadi. Bu tuzilmaning yuzaga kelishi shu darajadagi morfologik xilma-xillikni shu bilan birga suvo‘tlar tomonidan yangi biotoplarni egallashlari, yuksak o‘simliklar quruqlik muhitida hukmronlik qilganlariday ularni dengizlarda dominantliklarini ta’minlaydi. Parenximatoz tuzilma suvo‘tlarning

morfologiyasidagi eng yuqori darajadagi tabaqalashgan tana tuzilmalari hisoblanadi.

Sifonal tuzilma. Sifonal (hujayrasiz) tuzilma birmuncha yirik makroskopik tuzulgan tallom ichida ko‘p miqdorda organellalari bo‘lgan, ko‘ndalang devorlarga ajralmay hujayralarga bo‘linmaganligi bilan harakterlanadi. Bunday tallomda ko‘ndalang devor (to‘sik) tasodifan masalan, uni jarohatlanishi yoki ko‘payish organlari hosil bo‘lgandagina yuzaga keladi. Har ikki holatda to‘siq ko‘p hujayrali organizmlarda hosil bo‘ladiganlaridan farqlanib yuzaga keladi.

Sifonal tuzilmani yuzaga kelishi kokkoid darajadagi tuzilmani polimerlanishi tufayli yuzaga kelgan deb qaraladi. Bu tuzilma darajasi ichida ham oddiyidan murakkabga tomon morfologiya va vazifasi jihatidan murakkablashib borishi kuzatiladi. Tashqi ko‘rinishidagi murakkablanishlarini ayrimlari yuksak o’simliklarni eslatadi.

Sifonal tuzilma ayrim yashil va sarikyashil suvo‘tlarda uchraydi. Bu tuzilmani yuzaga kelishi ayrim taksonlarni paydo bo‘lishiga va qadimgi geologik davrlarda dengiz va okeanlarda keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Ammo suvo‘tlarning bu morfologiya jihatidan evolyutsiyasi, hujayrani vegetativ bo‘linishi bilan ko‘payadiganlar evolyutsiyasidagi raqobatga dosh berolmay boshi berk tarixiy taraqqiyotga ega bo‘lib qoldi.

Sifonokladial tuzilma. Bu tuzilmaning asosiy belgisi bo‘lib, birlamchi hujayrasiz tallomdan segregat bo‘linishlar asosida ko‘p yadroli murakkab birlamchi tallomni hosil bo‘lishi hisoblanadi. Segregat bo‘linish asosida mitoz va sitokinezni o‘zaro bog‘lanmaganligi turadi.

Sifonokladial tuzilmani morfologiyasi ham turlicha bo‘lib, Volonia turkumida pufaksimon, Cladophora ipsimon tallomning qismlari tabaqalashgan holga ega.

Sifonokladial tuzilma faqat yashil suvo‘tlariga xos holos. Bu tuzilma morfologiya jihatidan turlicha tuzulishli tallomlarni hosil qilgan bo‘lsa ham tarixiy taraqqiyotda istiqbolli bo‘lmay boshi berk ko‘chaga kirib qolgan deb hisoblanadi.

SUVOTLARNI KO'PAYISHI

Vegetativ ko'payish. Suvo'tlardagi vegetativ ko'payish bir necha yo'llar: oddiy ikkiga bo'linish, kurtaklanish, ko'p hujayrali tallomni o'sishi, tallomni bo'laklarga bo'linib ketishi, tuganaklar va akinetalar hosil qilishi bilan ro'y beradi.

Oddiy ikkiga bo'linish bir hujayrali harakatlanadigan va harakatlanmaydigan suvo'tlarga xos bo'lib, u turli usullar bilan amalga oshadi. Eng oddiyi amyobali tuzilmalarda hoxlagan yo'nalishda ro'y beradi. Suvo't tanasi cho'zilib, uni o'rtasida ko'ndalang devor paydo bo'ladi va u tobora chuqurlashadi va organizm deyarli bir xil kattalikdagi ikki qismga bo'linadi. Sitoplazmani bo'linishi yadro bo'linishi bilan bir vaqtida amalga oshadi, natijada ikkita yangi amyoba hosil bo'ladi. Ba'zan bo'linish oldidan amyoba harakatdan to'xtab yumoloqlanadi. Bu vaktda unisitoplazmasi tiniqligi va ta'sirlanishini yo'qotadi, vakuola erib ketadi, ya'ni hujayra o'z belgilarini yo'qota boshlaydi. Bo'linish oxirida, telofazada hujayra cho'ziladi, undan keyin yangi hosil bo'lgan hujayrada amyobaga xos organoidlar paydo bo'ladi. Agarda bo'linish davridasitoplazmani to'liq ajralib ketishi ro'y bersa, eng sodda tuzulishli koloniya-plazmodiy yuzaga keladi. Bu plazmodiy miksomitsetlardagi plazmodiylardan farq qiladi. Miksomitsetlarda bu spora hosil qilish yoki jinsiy bosqichning o'ziga xos bosqichi bulsa, suvo'tlarda ko'payishning hali ohiriga yetmagani hisoblanadi.

Xivchinli suvo'tlarda vegetativ ko'payish birmuncha murakkabroq bo'lib; 1) hujayrasidagi o'zgarishlarsiz harakatdan to'xtamagan holda ko'payish; 2) hujayrasida qisman o'zgarishlar ro'y berib ko'payish; 3) hujayrani harakatdan to'xtab harakatlanmaydigan hujayrada qisman o'zgarishlar ro'y berib; 4) harakatlanmaydigan hujayrada to'liq darajada o'zgarishlar sodir bo'lib, sista holdagilbo'linish ro'y beradi.

Tillarang va evglena hamda yashil suvo'tlarning volvokslar tartibiga mansublarida ko'payish hujayrada o'zgarishlar ro'y bermay, harakatdagisi holatida ham bitta yo'nalishda ro'y beraveradi.

Harakatdan to'xtagan hujayrada qisman o'zgarishlar ro'y berishi bilan ko'payish volvokslarda mavjud. Ikkita xivchinlardan bittasini yangi hujayra oladi, ikkinchisini hosil qiladi. Agar xivchin bitta bo'lsa, u yangi hosil bo'layotganlardan birida qoladi, ikkinchisini hosil qiladi. Bunday holat bir xivchinli tillarang

suvo'tlarida ayrim evglenalarda va yashil suvo'tlardan xlamido-monadalarda sodir bo'ladi. Xloroplastning bo'linishi bilan pirenoid ham bo'linadi, agar ular ko'p bo'lsa yosh hujayralar orasida taqsimlanadi. Yalong' och tuzulganlarda stigma xloroplast bilan bir vaqtida bo'linadi, qalin po'stli suvo'tlarda stigma hujayrani bo'linish vaqtida yangi hujayradan bittasiga o'tadi yoki butunlay yo'qolib ketib yangi hujayralarda qaytadan hosil bo'ladi, qisqaruvchi vakuolalar ham taqsimlanadi.

Yuqorida qayd etib o'tifgan ko'payish barcha bir hujayrali monad tuzulgan suvo'tlarga xos. Ba'zi o'zgarishlar ham ro'y berishi mumkin. Maxsus uycha ichida yashaydigan yoki hujayrasi sovutli bir hujayrali suvo'tlar o'zaro teng yoki teng bo'limgan qismga bo'linadi. Bo'linish tugagach eski uycha yoki sovutni tashlab yangisini hosil qiladi.

Kokkoid tuzilmali suvo'tlardagi vegetativ bo'linish soddaligiga ko'ra amyoboidga uxshab ketadi. U bir yoki birnecha yo'naliishlarda ro'y berib, yakka hujayra yoki koloniyani hosil qiladi. Oddiy ipsimonlarning bo'linishi bitta, plastinka shakldagilarda ikkita, boshqalarda uch va undan ko'p yo'naliishlarda amalga oshadi.

Ipsimon tuzilmali suvo'tlarda vegetativ ko'payishni ikkinchi xili yani kurtaklanish ham ro'y beradi. Ipni uzunasiga o'sishi hujayrani uzayishiga olib kelsa, interkalyar usulida kurtaklanish ro'y berib, yonbosh qismini hosil qiladi. Yonbosh kurtakni hosil qilgan hujayra endi bo'linishdan to'xtaydi. Yashil suvo'tlardan *Draparnaldia* turkumining markaziy qismi va undan tarmoqlangan yon qismlari birmuncha maydarok hujayralardan iborat. Yonbosh shoxlanish yashil suvo'tlardan *Chaetophoraceae*, *Cladophoraceae* oilalarga xos va qizil suvo'tlarning barcha turlarida ham ro'y beradi. Suvo'tlarni bir hujayralilardan ko'p hujayralilargacha murakkablashib borishi bilan birga uning vegetativ ko'payishida ham takomillashuv ro'y bergen.

Koloniya hosil qilgan suvo'tlarda ko'payish bo'laklarga bo'linib ketishi, uni chekkasidagi hujayra yoki hujayralar guruhini ajaralib ketishi bilan amalga oshadi. Koloniyani ko'payishiga undagi hujayralarni jadal ravishda o'sishi yoki tashqi muxitning ta'siri hisoblanadi. Koloniyani ko'payishi uni ikki bo'lakga bo'linishi bilan ham ro'y beradi. Masalan, tillarang suvo'tlarda (*Synura*) hujayralari eng katta o'chamga yetgach, koloniya teng ikkiga bo'linadi.

Ko'p hujayrali ipsimon va parenximatoz tuzilmali suvo'tlardagi bo'linish davrida ulardagi o'sish joylarini joylanishiga bog'liq holda tallomning diffuz, interkalyar, apikal o'sishi ro'y beradi. Agar tallomdagi har bir hujayra bo'lina olsa, ularda diffuz o'sish ro'y berib, u Siphonophyceae da kuzatiladi. Ipsimon suvo'tlardagi interkalyar o'sish eng oddisi hisoblanadi. Apikal o'sish tukima tuzilmalilarda ko'p uchraydi.

Suvo'tlardagi vegetativ ko'payishlardan biri uni bo'laklarga bo'linib ketishi bo'lib u turlicha ko'rinishlarda; gormogoniylar, gonidiyalar, kokkilar, ipni bo'lakechalarga uzilishi, rizoidlarni o'sishi kabi bo'ladi. Bo'laklarga bo'linishning sababchisi mexanik ta'sir, masalan, suv to'lqini, uni oqimi, hayvonlarni g'ajishi yoki ular orasidagi mavjud aloqalarni buzulishi hisoblanadi. Keyingisi ko'k-yashil suvo'tlarida keng tarqqalgan bo'lib, gormoniylar yordamida amalga oshadi, sinfni nomlanishi ham shundan. Gormoniy hosil bo'lishidagi bo'laklarga bo'linishi trixomadagi birnecha hujayralarni haloqati bilan sodir bo'ladi. Har bir gormogoniy 2-3 yoki ko'proq hujayralardan iborat bo'lib, ular ajratadigan shilimshiq yordamida (agar bo'lsa) sirpanib yoki to'lkinsimon harakatlanib asosiy qismidan ajralib ketadi. Har bir gormogoniy yangi suvo'tni hosil qiladi. Gormogoniya o'xshagan hujayralar guruhi qalin po'st bilan o'ralgan bo'lsa ularni **gormospora** yoki **gormotsista** deyiladi. Keyingisi ko'payish va noqulay sharoitga bardosh berish vazifasini o'taydi.

Ko'k-yashil suvo'tlarning ayrim turlarida tallomdan ajraladigan bir hujayrali qismlarni **gonidiy**, **kokki** yoki **planokokki** deyiladi. Gonidiyalar shilimshiqli, kokkilarda aniq bilinib turadigan po'sti yo'q, planokokkilar ham yalong'och, ammo faol harakatlanadi.

Ipsimon tuzilmani bo'laklarga bo'linib ketib ko'payishi barcha guruh suvo'tlarga xos, bu ayniqsa yashil suvo'tlaridan Zygne-matales tartibida yaqqol nomoyon bo'ladi. Ipni parchalanishi uni xoxlagan joyidan bo'lmay, ma'lumi uzunlikni tashkil qiladigan joylarida, ammo ba'zi hollarda hamma ip aloxida hujayralarga parchalanib ketishi mumkin.

Tallomni bo'laklarga bo'linib ketishi har doim ham yangisini hosil bo'lishiga olib kelavermaydi. Dengiz qirg'oqlarining qoyalarida o'sadigan suvo'tlar suv to'lkini ta'sirida bo'laklarga bo'linib ketadi, ular ba'zan yoki ko'p hollarda butunlay parchalanib ketadi. Ularning bo'lingan qismlari yoki to'lik tallomlari qattiq

substratga suv oqimi ta'sirida birika olmaydi. Bundan tashqari birikish qismlari, qaytadan hosil bo'lmaydi bunday tallom balchiqqa yoki qumga tushsa o'sib ketadi.

Yashil, ko'ng'ir, kizil suvo'tlaridagi vegetativ ko'payish yuksak o'simliklarning vegetativ ko'payishlaridagi kabi, o'zining yakuniy natijasiga yetgan. Tallom qismlarini qaytadan shakllanish xususiyatini saqlagan to'qima tuzulishli maxsuslashgan hosilalarni yuzaga keltira boshlagan. Qo'ng'ir suvutlarning ko'pchiligidagi substrat bo'ylab joylashgan qismlarda po'stlok yoki yulduzsimon hosilalar paydo bo'lib, ular vegetativ ko'payishni amalga oshiradi. Masalan, *Laminaira longiceps* tallom hosil qilgan qo'ng'ir suvo'tlaridan *Sphaelaria turkuminining* turlari tallomni yuzasida "bolacha" kurtaklar paydo bo'ladi. Kizil suvo'tlarning parasporalari vegetativ ko'payishga o'tish hisoblanadi.

Bir hujayrali yoki ko'p hujayrali qishlovchi tiganaklar hara suvo'tlarida mavsumga bog'liq holda ko'payishga hizmat qiladi. Masalan, yashil suvo'tlardan *Ulothrichales* tartibining vakillar qalin po'stli g'amlangan moddasi ko'p bo'lgan maxsus hujayralar akinetalar yordamida ham ko'payadi. Noqulay sharoitda vegetativ hujayralar nobud bo'lganda, ular bardosh berib yashab qoladi. Yashil, qo'ng'ir, kizil va qora suvo'tlarning ayrimlari yangi tallom hosil qiladigan substrat buylab joylashgan o'simtalar hosil qiladi.

Jinssiz ko'payish. Suvo'tlarning jinssiz ko'payishi maxsus- langan hujayra-spora yordamida amalga oshadi. Spora yoki zoospora (xivchinli cnopa) oddiy vegetativ hujayralardan o'zining o'lchami va shakli, hamda yuzaga kelishi bilan ham farqlanadigan maxsus sporangiy deb ataladigan hujayralarda ham paydo bo'lishi mumkin. Spora va zoosporalar oddiy vegetativ hujayralardan o'lchamlarini ancha kichikligi bilan farqlanadi. Ular yumaloq, cho'ziqyumaloq, tuxumsimon, tetraedr, po'stli yoki po'stsiz bo'lishi mumkin. Sporangiyda hosil bo'layotgan sporalarni soni bittadan (*Oedogonium*, *Vaucheria*) bir necha yuzlab (*Cladophora*) bo'ladi. Suvo'tlar hayotida sporalar tarqalish vazifasini ham bajaradi.



Sporalar hosil bo'lishi va rivojlanish bosqichlariga ko'ra ekzo-va endosporalar (ko'k-yashil suvo'tlarning harakatsiz sporalar) aplonosporalar (avtospora, gipnospora, gemizoosporalar yashil suvo'tlarning harakatlanadigan sporalar), mono va tetrasporalar (qo'ng'ir va qizil suvo'tlarning harakatlanmaydigan sporalar) bispora va guruqlariga ajratiladi.

Gaploid aplanosporalar va zoosporalar prokariot va eukariot suvo'tlarda uchraydi. Ulardan ayrimlari, masalan *Volvox* turkumining zoosporalari voyaga yetgan hujayralarga aynan o'xshash bo'ladi. Zoosporalarning 1,2,4 yoki ko'p miqdordagi xivchinlari bor. Aplanosporalar ko'pincha sporangiy ichidayoq po'st bilan o'rilib, voyaga yetgan hujayraga o'xshashligi tufayli avtospora ham deyiladi. Aplanosporalar o'zoq vaqt tinim davrida bo'lishga moslashganligi tufayli gipnospora ham deyiladi. Xivchinlarini yo'qotgan, ammo qisqaruvchi vakuola va ko'zchasi mavjud zoosporani gemizoospora deyiladi.


Sporani tuzilishi va uni hosil bo'lishi suvo't sistematikasi uchun katta ahamiyatga ega.

Jinsiy ko'payish, jinsiy jarayon

Suvo'tlarning jinsiy ko'payishi jinsiy jarayon bilan bog'liq bo'lib, u ikki hujayrani qo'shilishi va yangi suvo't yoki zoosproraga aylanadigan zigota hosil bo'lishi bilan bog'liq. Jinsiy jarayonni yuzaga kelishi suvo'tlarning tarixiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan. Suvo'tlardagi jinsiy ko'payish bir qancha ko'rinishlarda boradi. Hozirgi zamon suvo'tlarida ham jinsiy jarayon juda soddaligicha qolgan. Bunga suv muhiti sabab bo'lib, u uzoq asr, vaqtlar davomida kam o'zgargan. Suvo'tlardagi jinsiy jarayon maxsus hujayra hosil qilmay va shunday hujayra hosil qilish bilan amalga oshadi.

		Plevromitoz	Ortomitoz
Y opiq	Tash-qarida		---
Yarim yopiq	Yad-roda		
Ochiq		---	
Suvo'tlardagi mitoz tiplarini umumlashtirilgan sxemasi			(S.A.Karpov, 2001; I.B.Raikov, 19924)

Jinsiy jarayonni maxsus hujayra hosil qilimay ro'y berishini eng soddasi gologamiya-po'sti bo'limgagan ikki vegetativ hujayram qo'shilishidir. Bir hujayrali xivchinili suvo'tlarda, masalan. Yashil suvo'tlardan Volvox turkumida voyaga yetgan ikkita vegetativ hujayrani o'zaro qo'shilishi bilan ro'y beradi. Xivchinsiz ikkita vegetativ hujayrani o'zaro qo'shilish jarayoni *konyugatsiya* deyiladi. Bu jinsiy jarayon yashil suvo'tlaridan faqat matashuvchilar sinfi vakillari uchun xos holos. Jinsiy jarayonda ishtirok etayotgan hujayralar gametalar vazifasini bajaradi. Hosil bo'lgan hujayra tashqi ko'rinishidan xech ham farqlanmaydi, ammo ular fiziologiya jihatidan, biri erkak, ikkinchisi urg'ochi vazifasini bajaradi. Zigota tinim davrini o'tagach unib, bitta (*Zyg nematales*) ikkita (*Desmidiales*) yoki to'rtta (*Mesataeniales*) o'simtani hosil qiladi.



Yopiq{1}, metasentrik{2} va ochiq{3} mitozlarni qiyoslash
diagrammasi(L.E.Graham, L.W.Wilcox, 2000)

Suvotlardagi jinsiy jarayon, shu jumladan bir hujayrali xivchinli tuzilganlarida ham, ko'proq hollarda hujayra borligini bo'linib maxsus hujayra-gameta hosil qilishi bilan ro'y beradi. Barcha suvo'tlarda, shu jumladan, yashil suvo'tlaridan *Conjugatophyceae* va qizil suvo'tlaridan tashqari erkak gametalar odatda xivchinli, urg'ochi gametalarda esa doimo bo'lavermaydi. Gametalar spora va zoosporalar kabi ham bo'ladi. Sodda tuzilgan suvo'tlarda gametalar vegetativ hujayralarda, murakkablarida maxsus hujayra gametangiylargacha joylashadi.

Gametalarning o'lchamlari turlicha, shunga ko'ra jinsiy jarayon bir necha xillarga bo'linadi. Agar qo'shilayotgan hujayralarning o'lchamlari va shakli bir xilda, o'xshash bo'lsa, bunday jinsiy jarayon **izogam** yoki **izogamiya** deyiladi. Haqiqiy izogamiya Volvocales tartibining bir hujayrali va koloniyali tuzilganlarida keng tarqalgan. Chlamydomonadles tartibining ayrim suvo'tlari-dagi jinsiy ko'payishda zoosporaga o'hshash 32 yoki 64 ta gametalar hosil bo'ladi. Agar qo'shilayotgan gametalar o'zaro o'xshash shaklda bo'lib, o'lchamlari turlicha, urg'ochi gameta erkak gametadan kattaroq bo'lsa, geterogam jisiy jarayon yoki **geterogamiya** ro'y beradi. Jinsiy jarayonda kattaroq, xivchinsiz harakatlanmaydigan ug'ochi gametaga tuxum hujayra va erkak spermatozoid yoki anterizoid ishtirot etsa **oogamiya** deyiladi. Tuxum hujayrali gametani oogoniyligi, spermatozoidlisi esa spermatangiy yoki ko'pincha anteridiy deyiladi.

Erkak va ug'ochi gametalar bitta suvo'tda yoki koloniyada (ikki uqli yoki ikki jinsli) yoki ikkita suvo'tda (ikki uqli yoki alohida jinsli) rivojlanishi mumkin. Izogam jinsiy jarayon ro'y beradigan suvo'tlarda **gomotallik** va **getrotallik** turlar bo'ladi. Dastlabkisida gametalar bitta tallom yoki koloniyada, keyingisida esa har xil hosil bo'lganlari o'zaro qo'shiladi, ular tashqi ko'rinishlari jihatidan o'zaro farqlanmaydi. Ularni "qo'shuv" va "oluv" belgilari bilan belgilanadi va shunga ko'ra qo'shuv-gameta (+ gameta) va oluv-gameta (- gameta) deb nomlanadi. Suvo'tlarda urg'ochi gametani **partenogenez** rivojlanishini urug'lanmasdan ham ro'y beradi. Bunday gametalar zigosporalarga o'xshab ketadi, ularni azigota yoki partenospora deyiladi. **Avtogamiya** deb ataladigan jinsiy jarayon ham uchraydi. Bunda hujayra meyozi yo'li bilan bo'linib torrtta yadroni hosil qiladi, ulardan ikkitasi qo'shilib diploidli yadro

zigotani hosil qiladi va u tinim davrini o'tamasdan o'chamlari kattalashib auksosporaga aylanadi. **Auksospora** ma'lum muddat davomida yetiladi, undan yangi hujayra rivojlanadi, o'chamlariga ko'ra u ona hujayradan katta bo'ladi.

Qizil suvo'tlarining ayrimlarida boshqa suvo'tlarida uchramaydigan oogamiyaning maxsus turi ro'y beradi. Erkak va urg'ochi gametalar xivchinini yo'qotgan. Urug'lanishda urg'ochi gameta o'zi hosil bo'lgan gametangiyidan chiqib ketmaydi erkak gameta spermatsiy **spermotogoni**y deb ataladigan gametangiyidan chiqib ketadi va suv oqimi bilan tarqaladi. Ogoniy ancha murakkab tuzilgan. Xloroplastsiz bu hujayra-**korpogon** deb ataladi. Birmuncha sodda tuzilishli qizil suvo'tlarda karpogonda plastidlar bo'ladi.

Florideophyceae sinfining suvo'tlarida karpogon maxsus tuzilishga ega. Hujayraning pastki yadroli qismi yumalok, yuqorisini cho'ziq-trixogina spermatsiyalarni tutish vazifasini bajaradi. Spermatsiy bir hujayrali yumaloq yoki tuxumsimon tuzilgan. *Bangiophyceae* sinfining vakillarida u yalong'och, po'stsiz, *Florideophyceae* sinfining suvo'tlarida karpogon yuzaga kelgan vaqtida u yupqa po'st bilan o'rالgan bo'ladi.

Hara suvo'tlaridagi jinsiy jarayon ham o'ziga xos ravishda ro'y beradi. Urg'ochi jinsiy tuzilma oogoniy va erkak anteridiy ko'p hujayrali tuzilgan va suvo'tlarning ko'pchiligidida bitta o'simlikda rivojlanadi, ammo ikki uylilari ham bor. Oogoniy cho'zik yumalok, uzunligi 1mm ga yetadi. Uni pastida kalta bandi, yuqorisida 5 yoki 10 hujayradan iborat tojsimon qismi bo'ladi. Anteridiy 0.5 mm kattalikdagagi yumalok shaklda va u 8 bo'lakdan iborat, juda ko'p jinsiy hujayralar-anterizoidlar hosil qiladi.

Urug'langan tuxum hujayra oogoniy ichida rivojlanadi. Uni o'chamlari turli sistematik guruh suvo'tlarda turlicha kattalikda va 0,3 mm dan deyarli 1mm gacha boradi. Oospora yetila borishi bilan uni po'sti qotib boradi suberin va kremniy tuzlari bilan shimila boshlaydi. Yetilgan oospora jigarrang-sarg'ish, to'q jigarrang hatto qora tusda, yaltiroq bo'ladi. Tinim davridan so'ng oospora unadi va yangi hara o'simligini hosil qiladi.

Suvo'tlarning hayotiy davrasи. Suvo'tlarning hayotiy davrasini ikkita asosiy guruh; jinsiy jarayon ro'y bermaydigan va jinsiy jarayon haqiqiy ravishda kuzatiladiganlarga bo'lib o'rganish qulay bo'ladi.

Haqiqiy jinsiy jarayon ko'k-yashil suvo'tlarida ro'y bermaydi, shunga ko'ra ular jinsiy usul bilan ko'paymaydi. Ko'k-yashil suvo'tlarning har biri rivojlanish davrida yetuk darajaga yetguncha morfologik jihatidan farqlanmaydigan bosqichlarni o'taydi. Ko'p hollarda rivolanishning ma'lum davrlarida ularning tashqi ko'rinishi boshqa turlarning yetuk darajadagisiga o'xshaydi. Masalan, Nostoc turkumining turlari rivojlanish davrida ostsillatoriyyasimon, silindro-spermumsimon va boshqa holatlarda bo'ladi.

Agar suvo'tning hayotiy davrasi bitta organizm rivojlanishining bosqichini tutsa **oddiy hayotiy davra** haqida gapiriladi. Rivojlanish jarayoni bir necha "oddiy" davralardan mahsuslashgan avlodlardan iborat bo'lsa murakkab hayotiy davra ro'y beradi. Har ikkala hayotiy davrada keskin chegara yo'q.

Bitta suvo'tning o'zidagi rivojlanish jarayonining turli bosqichlaridagi morfolagik jihatidan farqlar tur ichidagi xilma-xillikka olib keladi. Bunday xilma-xillik suvo'tning o'sish muhitidagi omillarning ta'sirida kuchayib, ekologik o'zgaruvchanlikka olib keladi. U yoki bu ekologik omil ta'sirida suvo'tning faqat morfologik belgilari o'zgarib qolmay, ularning xususiy rivojlanishlarida huddi yuksak o'simliklarda qiday o'zgarishlar ro'y beradi.

Ko'k yashil suvo'tlarida ro'y beradigan "hayotiy davra" atamasini faqat shartli ravishda qabul qilinadi. Shunga ko'ra ayrim tadkikotchilar ko'k-yashil suvo'tlarning rivojlanishini ifodalashda foydalaniладиган "hayotiy davra" atamasi o'rniga "siklomorfozni" taklif etishadi. Jinsiy jarayon ro'y beradigan suvo'tlardagi hayotiy davra muayyan ularning o'zlariga xos ravishda ro'y beradi. Bu jarayonni bayon etishdan avval suvo'tlarning hayotiy davrasidagi morfologiya va ularning yadrosidagi o'zgarishlarga nazar solaylik.

Jinssiz va jinsiy jarayon uchun xizmat qiladigan hosilalar ayni o'simlikni o'zida rivojlanishi ham mumkin. Gameta va sporalar (zoospora) hosil qiladigan o'simlikni **gametofit** deb atash qabul qilingan. Bu o'simlikni **gametosporofit** deb atash to'g'riroq bo'ladi. Suvo'tlarning ko'pchiligidagi jinsiy va jinssiz ko'payish hosilalari turli o'simlikda rivojlanadi. Spora hosil qiladigan o'simlik **sporofit**, gameta hosil qiluvchi **gametofit** deyiladi.

U yoki bu o'simlikdagi gametosporofitni rivojlanishi haroratga bog'liq. Qizil suvo'tlaridan Porphyra tenera turida harorat 15-17°S bo'lganda jinsiy jarayonni amalga oshiruvchilar, undan yuqori

haroratda esa jinssiz ko'payish hosilalari rivojlanadi. Umuman olganda suvo'tlarning ko'pchiligidagi gametalar pastroq harorat, sporalar esa yuqoriqoq haroratda paydo bo'ladi. Gametosporofitlarda u yoki bu ko'payish hosilalarini rivojlanishiga faqat harorat emas, muhitning boshqa omillari; yorug'likni ravshanligi, kun uzunligi, suvning kimyoviy tarqibi, shu kabilar bilan birga uning sho'rligi ham ta'sir qiladi.

Gametosporofitlik suvo'tlarning ko'pchiligi shu jumladan yashil suvo'tlardan volvokslar, kladoforalar, qizil suvo'tlardan bangiyalar va ayrim nemaliyalar, qo'ng'ir suvo'tlardan ektokarpalar, xordariyalarga xos hisoblanadi.

Gametofitlar, gametosporofitlar va sporofitlar tashqi ko'rinishdan farqlanmasada ular aniq bilinib turadigan morfologik farqlarga ega. Shunga bog'liq holda **izomorf** (o'xshash) va **geteremorf** (o'xshamagan) rivojlanish farqlanadi. Gametosporofitning ko'pchiligidagi o'zgarishli rivojlanishlar kuzatilmaydi. Ba'zan gametofit va sporofitlar morfologiyasi bo'yicha o'zaro farqlanmaydi, ammo turlicha ekologiya sharoitlarida o'sganda farqlanadi.

Geteromorf rivojlanishda gametofit va sporofit morfologiyasi bo'yicha ancha farqlanadi. Yashil suvo'tlaridan *Ascospiphonia* turkumida gemotofit ko'p hujayrali, bo'yli bir necha santimetr kelsa, sporofit mikroskopik darajada tuzilgan, bir hujayrali hisoblanadi.

Gametofit va sporofitni nisbatlari boshqacha ham bo'ladi. Qo'ng'ir suvo'tlaridan laminariya *japonica* turida gametofit mikroskop ostida ko'rsa bo'ladigan darajada kichik bo'lsa, sporofitni uzunligi 12 metrlagacha yetadi.

Suvo'tlarning ko'pchiligidagi gametofit va sporofit mustaqil o'simliklardir. Qizil suvo'tlarning ayrimlarida sporofit gametofitda (*Phillophora brodiaei*), ayrim qo'ng'ir suvo'tlarida esa (*Cyclosporophyceae*) sporofit tallomini uchida rivojlanadi. Suvo'tlarning rivojlanish davrsasi barcha sistematik guruhlarda bir xil tarzda ro'y bermaydi. Yashil suvo'tlarida barcha turdag'i rivojlanish xillarini ko'rish mumkin. Yashil suvo'tlarning ko'pchiligidagi vegetativ holati gaploid, ayrimlaridagina diploid holos. Tuzilishi oddiy bo'lgan suvo'tlar tartiblaridan Volvocales tartibida izomorf davrsasi ro'y beradi. Yashil suvo'tlarning murakkab tuzilganlarida, hususan *Ulothrichales* tartibida geteromorf rivojlanish ro'y beradi. Bunday holat *Ulothrix zonata* turida yahshi o'r ganilgan. Gametofit *U.zonata*

ba'zan hujayrasi bilan substratiga birikkan turlicha uzunlikdagi ipsimon. Jinsiz ko'payishi bazal hujayrasidan tashqari barcha hujayralarda hosil bo'ladigan zoosporalar yordamida amalga oshadi. Zoosporangidan chiqqan zoospora unib yuqoridagi hloroplastli va quyi xloroplastsiz bazal hujayra hosil qiladi. Yuqorisidagidan vegetativ hujayralar yuzaga keladi. O'sishida vegetativ davr tugashi yoki noqulay sharoit yuzaga kelishi bilan jinsiy ko'payishga o'tadi. Izogametlar ayni shu iplarda zoosporolar yuzaga kelganlarida hosil bo'ladi. Zoosporalardan farqlanib izogametalarning xivchinlari bor. Gametalarni qo'shilishidan yuzaga kelgan zigota ma'lum vaqt harakatda bo'lib keyin substratga birikadi, xivchinlari tashlab, qalin po'st bilan o'ralib bir hujayrali sporositga aylanadi. Sporofit yumoloq, silliq po'stli ayrim dengiz suvo'tlarida esa tuxumsimon va bandli bo'ladi. Qisqa yoki uzok davom etadigan tinim davridan so'ng sporofit bu davrda oziq moddalarni g'amlaganidan keyin zigosporani protoplasta bo'linib 4-16 zoospora yoki aplanasporalarni hosil qiladi.

Izomorf holdagi rivojlanish Ulvales tartibining suvo'tlariga ham xos. Gametofit va sporofitni bir biriga bog'liq bo'lmay rivojlanishi enteromorpha turkumi suvo'tlarida ro'y beradi. Gametofit sporofitdan tashqi ko'rinishiga ko'ra o'zaro farqlanmaydi. Ularni ko'payish davridagina farqlash mumkin.

Izomorf rivojlanish Oedogoniales tartibining suvo'tlarida bir muncha murakkab tarzda o'tadi. Oedogoniales tallomi tarmoqlanmagan uzun bir qator ipdan iborat. Jinssiz ko'payish hujayrasining oldingi tomonida bir tutam xivchinlari bo'lgan zoosporalari yordamida amalga oshadi. Ular har bir vegetativ hujayrada bittadan hosil bo'ladi. Zoosporalar ma'lum vaqt suvda suzib, keyin substratga birikadi va ipga aylanadi. Jinsiy jarayon — oogam. Anteridiy va oogoniylar bitta yoki alohida iplarda yuzaga keladi. Shunday qilib, Oedogoniales turlari orasida bir va ikki uylilari ham bor. Bir qator turlarida anteridiy oogoniy oddiy tuzulishli iplarda hosil bo'lsa, ikki uqli turlarda jinsiy dimorfizm mavjudligi bilan harakterlanadi. Bunday turlarda anteridiy pakana o'simlikchada hosil bo'ladi. Jinsiy dimorfizm kuzatiladigan turlarda anteridiy hosil bo'lmay **androsporangiy** deb atalib har bir androsporangiyda bittadan androspora chiqib, qisqa vaqt suvda suzganidan keyin oogoniya yoki uni yonidagi hujayraga o'rnashadi va unib pakana

erkak o'simlikka aylanadi. Bu o'simlik 1-2 yoki bir necha hujayradan iborat holos. Erkak o'simlikda darrov anteridiy yuzaga keladi, undan anterizoidlar chikib, oogoniyning mahsus tirqishi orqali kirib uni urug'lantiradi. Zigota uch qavatli qalin po'st bilan o'raladi, qizg'ish qo'ng'ir tusga kiradi va oosporaga aylanadi. Oospora unib 4 ta zoosporaga aylanadi va ularning har biri yangi suvo'tga aylanadi.

Qo'ng'ir suvo'tlarning ko'philigidagi gametofit va sporofitni morfologiyasi o'xshash bo'lishi va o'xshamasa ham ular mustaqil holda rivojlanadi. Shunga kura, qo'ng'ir suvo'tlarni rivojlanishida izomorf va geteromorf tarzdagagi rivojlanish kuzatiladi. Geteromorf rivojlanishda ulardan bittasi albatta mikroskopik tuzulishli bo'ladi. Ko'pincha u gametofit. Makroskopik tuzulishli tallom (sporofit) odatda substrat bo'ylab joylashadigan **protonema** deb ataladigan ipdan boshlanadi. Agar protonemada ko'payish hosilalari yuzaga kelib, ular keyinchalik yirik tallomni hosil qilsa, uni **pletizmotallus** deyiladi.

Qo'ng'ir suvo'tlarda geteromorf rivojlanishni Cutleriya misolida bayon etamiz. Uning bir yillik gametofit tallomini bo'y 15 sm atrofida keladi. Sporofit tallom bir yoki ko'p yillik, po'sloqsimon, diametri 10 sm atrofida. Uning sporangilarida 8-32 zoosporalar hosil bo'ladi Cutleriya turkumining turlarini gametofit va sporofiti ular tarqalgan sarhadning turli qismlarida ro'y beradi. Bu suvo'tini labaratoriyyada o'stirilganda zoosporalardan gametofitni emas, balki sporofit rivojlanishi kuzatilgan. Urug'lanmagan urg'ochi gametalarning unishidan sporofitni yuzaga kelishi ro'y berishi mumkin, ulardan rivojlangan gaploid sporofitlarda gametofitni o'simtalari rivojlangan.

Geteromorf rivojlanishni qo'ng'ir suvo'tlarga aynan mos keladigan Laminariales tartibiga mansub suvo'tlarda kuzatiladi. Yetilgan sporofit ancha katta o'simlik bo'lib, buyi 0,5-10 m keladi. Ayrimlari 20 m, eng kattalarini uzunligi esa 50 m gacha boradi. Sporofitda zoosporalarni yuzaga kelishi meyozi jarayoni bilan birga ro'y beradi. Har bir sporangiyyda urg'ochi va erkak gametofitni hosil qiladigan sporaqlarni soni teng bo'ladi. Zoosporangiyidan chiqqan zoosporalar ma'lum muddat suvda so'zib, substratda xivchinlarini yo'qotadi, yumaloklashadi va tinim davrini o'tamaydigan

embriosporaga aylanadi. Gametofit ayrim jinsli va mortolo
giyasidan farq qilmaydi.

Laminariyalarning gametofiti tarmoqlangan ipsimon ko'p
hujayrali, gametofit gametangiylar hosil qilguncha 1-4 oy yashaydi.
Muhit harorati ko'tarilsa u bir yilgacha yashashi mumkin. Urg'ochi
gametofitda tuxum hujayralar hosil bo'lib, ular tashqariga chiqqach
o'z faoliyatini to'xtatadi. Tuxum hujayra po'st bilan o'ralib, tinim
davrini o'tamay unadi va rivojlna boshlaydi.

Gametofitni rivojlanishi Fucales tartibiga mansub qo'ng'ir
suvo'tlarda o'ziga xos holda ro'y beradi. Gametofit bulinayotgan
parasporaning yuqorigi hujayrasidan boshlanadi. Gametofit
sporofit tallomining hamma qismi bo'ylab joylashadi yoki u
tallomning uchki qismida qalinchashgan o'rindiq-retseptakulda
joylashadi. Qizil suvo'tlarning rivojlanishida harakterli bosqich
hosil bo'lmaydi. Ularning spora va gametalari xivehinsiz. Qizil
suvo'tlarning rivojlanishi ancha murakkab jarayonlarni o'z ichiga
oladi.

Qizil suvo'tlarning erkak gametalari-spermatsiyalar bittadan-
spermatogoniylarda yuzaga keladi. Ulardagi xlorofillsiz ko'payish
hosilasini **karpogon** deyiladi. Karpogon urug'langandan keyin,
karpospora tutgan mahsus ip-gonimoblast hosil bo'ladi.

Qizil suvo'tlarning rivojlanishida jinsiy va jinssiz rivojlanish
navbatlashib turadi. Amnio, qat'iy ravishdagi jinsiy va jinssiz
avlodlarni almashinuv ro'y bermaydi.

Jinsiy va jinssiz ko'payish uchun hizmat qiladigan hosilalar
odatda har xil o'simliklarda rivojlanadi. Mono-, bi- va tetrasporalar
sporofitda, oogoniylar gametofitda rivojlanadi. Suvo'tlar barcha guruhlarining rivojlanishiga ularni tarixiy
tarqliyotiga nuktai nazardan qaraydigan bo'lsak, quyidagi asosiy
bosqichlarni ko'rishimiz mumkin;

1. Hujayrani bir necha bulaklarga bo'linishi va jinsiy
ko'payishidagisiklomorfoz.

2. Bo'linishni ma'lum sonda bo'lishi va belgilangan miqdordagi
yangi hujayralarni hosil bo'lishi. Sporani yuzaga kelishi.

3. Gologamiya asosidagi jinsiy jarayonni paydo bo'lishi.

4. Gametalarni hosil bo'lishi va izo-, anizo- va oogamiyani
sodirligi. Spora va gametalarni hosil qiluvchi maxsus hosilani

yo'qligi, hamma organizmlar imkoniyat darajasidagi gametosporadan iborat.

5.Qayta tiklanadigan sporofitni hosil bo'lishi. Gametosporofitning rivojlanishida ma'lum tartibda bo'lмаган almashinuvni va tiklanadigan sporofitni yuzaga kelishi.

6. Rivojlanishida sporofit va gametofitni navbatlanishi.

7. Rivojlanishida bir morfologik tuzulishni ikkinchisidan ustunlik qilishi (dominantligi).

8. Dibiontda keyingi avlodning o'simtalarini yuzaga kelishi.

SUVOTLARNING EKOLOGIYASI

Suvotlar-fotoavtotrof organizmlar. Ularni rivojlanishiga yorug'lik, harorat, uglerod manbai, organik bo'lмаган va organik moddalar hal qiluvchi ta'sir qiladi.

Suvotlar boshqa o'simliklar kabi gidrosfera, atmosfera va litosferadagi barcha yashash muhitlarni egallagan. Ularni tuproqda uni yuzasida, daraxtlar po'stloqlari, loydan qilingan devorlar kabilarda, shu bilan bir qatorda ularni o'sishi kutilmagan joylar, hatto qumliklarda ham uehratish mumkin.

Suvotlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, yuksak o'simliklardagi kabi tirik organizmlarni hayoti bilan bog'liq bo'lган va bog'liq bo'lмаганларга bo'linadi. Ko'pchilik omillar ayniqsa, abiotik, cheklovchi, ya'ni suvo'tni o'sishi va rivojlanishini to'xtatib qo'yadi. Cheklovchi sifatida ta'sir etuvchi omillar turli suvo't guruhlariga bir xil ta'sir qilmaydi. Suv muhitidagi cheklovchi omillarga harorat, svjni tiniqligi, oqim tezligi, unda erigan kislodorodni miqdori hisoblanadi. Quruqlikdagilar uchun ob-havo-harorat, namlik, yorug'lik, kabilar hamda suvo't o'sadigan joyni tuzilishi va tarkibi hisoblanadi.

Abiotik omillar. Abiotik omillarga harorat, yorug'lik, suv va suvo't o'sib turgan joyning tarkibi va xossasi, aerofit va suvdan tashqarida o'suvchi suvo'tlar uchun havoning holati va boshqa omillar kiritiladi.

Suvotlarning ko'pchiligi uchun suv doimiy o'sish muhiti hisoblanadi. Suvda erigan tuzlar va shunga ko'ra uni sho'rligi suvo'tlarni tarqalishiga ta'sir etuvchi omillar, cheklovchi darajadagi muhim omillardan hisoblanadi. Suvda erigan tuzlarni mikdori,

shunga ko'ra suvo'tlarni bunday suv havzalarida o'saolishlariga ko'ra **oligogalin, mezogalin, ultragalin** guruhlariga bo'linadi.

Bunday suv havzalarida o'sadigan suvo'tlarni turi va ularni mikdori suvni sho'rligi bilan bog'liq.

Har bir suvo'tlar guruhida turli darajada sho'rlangan suvlarda o'sadigan turlarini topish muimkin. Ko'k-yashil suvo'tlar, asosan chuchuk suvlarda, qisman sho'r suvlarda tarqalgan. Tillarang suvo'tlarning anchagini turlari dengiz suvlarda ko'p. Diatom suvo'tlari dengiz va chuchuk suvlarda deyarli bir xil darajada tarqalgan.

Ko'ng'ir suvo'tlari suvning sho'rligini bir oz o'zgarishini darhol sezadi. Xullas, suvo'tlar suvning sho'rланishini ancha katta darajada o'zgarishlariga moslashgan holda o'sish imkoniyatlariga ega.

O'sish muhitida suvo't uchun zarur bo'lgan makro va mikroelementlarning mavjudligi ularni rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Makroelementlar va ularning birikmalari (makrotrof biogenlar ham deb ataladi) organizm uchun ko'p mikdorda talab qilinadi. Ular orasida azot va fosfor eng muhim ahamiyatga ega. Azot barcha oqsil molekulasinga tarqibiga, fosfor oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini muhim ahamiyatga ega bulgan yadroning tarqibiy qismi hisoblanadi. Kaliy, kaletsiy, oltingugurt, magniy kabi elementlar ham azot va fosfor kabi zarur.

O'simlik uchun juda oz mikdorda zarur bo'ladigan mikroelementlar ham ular hayotida alohida ahamiyat kasb etib, ayrimlari turli fermentlarni tarkibiga kiradi. Mikroelementlar ko'pincha cheklovchi omil sifatida ham bo'ladi. Ularga 10 element: temir, marganets, ruh, mis, bor, kremniy, kobalt, molebden, xlor va vanadiy kiradi. Fiziologiya nuktay nazardan ularni uch guruhga bo'linadi:

Fotosintezni amalga oshrishda zarur bo'ladiganlari: temir, marganets, rux, xlor va vanadiy. Azot almashinuvini ta'minlovchilar: temir, bor, kobalt, molebden.

Boshqa metobalit jarayonlarni tezlashtirishda ishtirok etadiganlari: marganets, mis, bor, kremniy, kobalt. Turli sistematik guruhlarga mansub suvo'tlarning makro va mikroelementlarga bo'lgan talabi ham turlicha. Diatom suvo'tlari o'sish va rivojlanish uchun hamda qattiq po'sti sovutni hosil qilish uchun anchagini mikdorida kremniy tuzlari zarur. Kremniyni kamligi yoki ko'pligi tufayli diatom suvo'tlarning sovuti qalin yoki yupqa bo'ladi.

O'simlik suvlari o' dengizlarda o'sadigan suvo'tlarning deyarli bo'chi turlari uchun nitratlar va fosfatlar cheklovchi sifatida ishtiroy etadi.

Quyosh yorug'ligi o'simliklar hayotida suvdan kam bulmagan ahamiyatga ega. Yorutlik o'simliklarga fotokimyoviy reaktsiyalarini borishi uchun muhim manba va ularni rivojlanishini nazorat etuvchi omil hisoblanadi. Uning ortiqchaligi huddi yetishmovchiligiday suvo'tlarning rivojlanishida juda jiddiy buzilishlarga sabab bo'ladi.

Suv kuyosh nurini atmosferaga nisbatan ko'proq shimadi. To'lqin uzunligi uzun bulgan iliq nurlar suvning yuzasidayoq shimaladi, infraqizillar bir necha santimetr chuqurroqda, ultrabi-nafsha nurlar esa bir metr, to'lqin uzunligi 500 nm atrofida gilari esa 200 nm chuqurlikgacha yetib boradi. Suv havzasining yoritilganligi:

1. Suv yuzasini yoritilish sharoiti bilan.
2. Suv yuzasidan yorug'likni kaytarilish darajasiga.
3. Quyosh nurlarni suv qatlamida tarqalishi va shimalishiga bog'liq.

Dengizdagi suvo'tlari odatda 60 m, ba'zan 100-120 m, okeanlarning tinik suvlarda 140 m chuqurlikgacha tushib boradi. Ko'llarda 10-15, ayrim hollarda 20-30 metr chuqurliklarda suvo'tlari tarqalgan.

Suvo'tlarni ham yorug'likka nisbatan yuksak o'simliklar kabi **geliofil** (yorug'sevar) va **geliofob** (soyasevar) guruhlarga bo'linadi.

Suvo'tlarning turli guruhlarida pigmentlar fotoreceptorlarning tarkibiga bog'liq holda fotosintez jadalligi turli yorug'lik uzunligiga ega bo'lgan nurlarga bog'liq. Quruqlikda yoritilish deyarli o'zgarmas, shunga ko'ra fotosintez ham unga bog'liq. Yorug'lik suvdan o'ta borgan sari qizil va ko'k rang shimalib xlorofill tomonidan yaxshi shimalmaydigan yashil nyp chuqurroqqa kirib boradi. Shu tufayli chuqurroqda fikotsian, fikoeritrin va boshqa fotosintezlovchi pigmentlar bo'lgan qizil va qo'ng'ir suvo'tlar o'sadi. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, dengiz va okeanlarda suvo'tlarni chuqurliklar bo'yieha taqsimlab tarqalishida: yuqori qatlamda yashil, chuqurda qo'ng'ir, yana chuqurroqda qizil suvo'tlar tarqalgan. Ammo bu konuniyat ham nisbiy muqum emas. Suvo'tlarning ko'pchiligi yoritilishi eng kam sharoitda ham o'sa oladi. Ular kam yoritilgan joylarda pigment tarkibini o'zgartirib yoki uni oziqlanishida moslanishlar hosil qiladi. Euglenophyta,

Shrysohyta bulimlariga mansub suvo'tlar yorug'lik yetishmaganda va organik modda ko'pligida saprotrof oziqlanishga o'tadi.

Suvo'tlar tashqi muhitning haroratiga ko'ra oddiy sharoitlardan tashqari. qaynash darajasiga yaqin bo'lgan buloqlarda, muz va qorda ham o'sayotganligi ko'rindi.

Harorat omilining ta'siriga ko'ra, suvo'tlar turli haroratda o'sa oladigan **evriterm** va ma'lum haroratdagina o'sa oladigan **stenotermlar** guruuhlariga bulinadi.

Stenotermlarga kriofil-sovuqsevar, suvni muzlash darajasiga yaqin haroratda o'saoladiganlari kritiladi. Bunday Desmidiales, Ulothricales, Volvocales, tartiblarini suvo'tlari keng tarqalgan. Arktika va Antarqtikaning suvlarida 80 turga mansub kriofil diatom suvo'tlar aniqlangan. Hozirgacha 100 dan ortiq turga mansub kriofil suvo'tlar bor.

Yuqorida kayd etganimizday suvo'tlar anchagina issiqbuloqlar vulqonlarining ko'llari, sanoat qorhonalarida foydalanilgan issik suvlarda ham bemolol o'saoladi. Bunday sharoitda o'sadiganlarni **termofillar** deyiladi. Termofil suvo'tlar 35-52 dan 84°S va undan yuqori haroratli suvlarda ham o'sa olishlari aniqlangan. Bunday sharoitda 200 dan ortik turlarga mansub suvo'tlar o'sishi ma'lum. Oddiy sharoitli suvlarda o'sadigan **mezofillar** esa ko'pehilikni tashkil etadi.

Harorat omili suvo'tlarni suv havzasida vertikal hatto geografik jihatdan taksimlanishiga ham ta'sir qiladi. Plankton va bentos suvo'tlarining muayyan turlari belgilangan geografik sarhadlarda tarqalgan. Yirik tallomli qo'ng'ir suvo'tlar, masalan, *Macrocystis* shimoliy dengizlarda keng tarqalgan. Janubga borgan sari qizil suvo'tlar ko'payib, qo'ng'irlari ikkinchi darajaga tushib qoladi.

Suvo'tlarning geografik tarqalishida harorat bilvosita alohida turlarda fotosintezni tezlashishiga, shunga ko'ra boshqalarida pasayishiga, bu esa ma'lum turlarni barq urib rivojlanishiga, ikkinchilarini siqib chikarishga olib keladi.

Yuqorida bayon etilgan barcha abiotik omillar suvo'tlarning o'sish, rivojlanishi, geografik taqsimlanishiga hamjihat, o'zaro bir birini to'ldirgan holda ta'sir qiladi.

Suvo'tlarning o'sishi, tarqalishi kabilarga abiotik omillardan tashqari **trofik omillar** ham katta ta'sir qiladi. Suvo'tlar ekosis-

temada organik moddalarni hosil qiluvchi bo'lib hisoblanadi. Shu sababli muayyan ekosistemada ular bilan oziqlanadigan **konsumentlar** ham katta ta'sir qiladi. Ayrim baliqlar qo'ng'ir, yashil, qizil suvo'tlar yumshok tafqomini hush ko'rib iste'mol qilishadi. Qorinoyokli molyuskalar ham baliqlardan qolishmaydi. Ularning ommoviy ravishda ko'payishi suvo'tlarning rivojiga ancha sezilarli darajada salbiy ta'sir qiladi. Suvo'tlari orasida ham boshqa organizmlar bilan simbioz hayot kechirish uchraydi.

Suvo'tlarni o'sish muhit-substratga ko'ra, boshqa o'simliklar ustida-**epifit**, hayvonlar ustida-**zoofit** holda ham bo'ladi. Molyuskalarning chig'onoqlarini ustida Cladophora, Oedogonium va boshqa yashil, ko'k-yashil, diatom suvo'tlarning turlarida uchraydi.

Suvo'tlar boshqa organizmlarning to'qimlari orasida **endofit** sifatida ham o'sishi mumkin. Bunday endosimbioz ko'k-yashil, qo'ng'ir va boshqa bir hujayrali hayvonlar bilan birga bo'ladi. Ularda ishtirok etadigan suvo'tlarni *zooxlorell* va **zooksantell** deyiladi.

Suv paporotnigi *Azolla filiculoides* qaerda o'sishiga karamay u bilan birga doimo ko'k-yashil suvo'tlardan *Anabaena azolla* simbioz holda o'sadi. Har ikkala organizm orasida mahsus fiziologiyasi jihatidan aloqadorlik mavjudligi bilinib turadi. Suvo'tlar simbiozlari orasida zamburug'lar bilan hosil qilgan **lishayniklar** deb ataladigan mahsus o'simliklar guruhi alohida ahamiyatga ega (bu hakida alohida batatsil tuhtalamiz).

SUVO'TLARNI TARQALISHI

Suvo'tlar yer kurarsi bo'ylab turli suv, quruqlik va tuproq biotoplarida keng tarqagan. Bu organizmlarning quyidagi ekologiya jihatdan guruhlari ma'lum:

- Plankton suvo'tlar
- Bentos suvo'tlar
- Quruqlik suvo'tlari
- Tuproq suvo'tlari
- Qaynoq buloqlar suvo'tlari
- Muz va qor suvo'tlari
- Sho'r suvlardagi suvo'tlar.

Plankton suvo'tlar. Plankton suvning yuqorisi-yuzasi-neystonda-hayot kechiradigan organizmlar kiradi. Suvning yuqori qatlamida mustaqil holda yashaydigan o'sinlik turlari **fitoplankton** deyiladi. Plankton suvo'tlar xilma-xil suv havzalarida— okeanlardan tortib, to ko'lmaqlargacha bulgan joylarda o'sadi. Turli suv havzalarining plankton suvo'tlari sistematik jihatdan tarkibi doimo, hatto bir suv havzada, yilning turli fasllarida ham turlicha bo'ladi. U albatta suvning fizikaviy va kimyoviy holatlariga bog'liq. Suv havzasidagi suvo'tlar guruhi, har bir mavsumda soni va turlari jihatdan ma'lum darajada farq qiladi. Bunday holat ko'pincha chuchuk suv havzalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Qishda bir hujayrali evglenalar, dinofitalar, tillaranglar, sovuqsevar diatom suvo'tlari ko'proq uchraydi. Bahor va yozda suvning harorati ortishi bilan ko'k-yashil va yashil, evglena suvo'tlarining turlari ko'p bo'ladi.

Dengizlarning fitoplanktoni asosan diatom va dinofita suvo'tlardan tashkil topgan. Plankton suvo'tlari suv yuzasida qalqib o'sishi uchun mahsus moslamalarni hosil qilgan. Bir xil turlari turlicha moslamalar-o'simtalar, boshqalari koloniylar, shilimshiq hosil qilsa, uchinchilari tanasida solishtirma og'arliklarni kamaytiradigan modda (diatom suvo'tlarda moy tomchilari, ko'k-yashil suvo'tlarda gaz vakuolalari) xosil qiladi. Bunday moslamalar chuchuk suvo'tlarga nisbatan dengizlarda o'sadiganlarda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Suv yuzasida bo'lish uchun ularning o'lchamlarini kichkinligi ham muhim ahamiyatga ega.

Suvni yuzasida qalqib hayot kechiradiganlarni **epineyston**, uni ostidagilarni **giponeyston** deyiladi. Neyston organizmlar kichik suv havzalari (ko'lma, hovuz kabi) hamda dengiz va okeanlarda ham mavjud. Ayrim hollarda bu organizmlar juda ko'p mikdorda ko'payib suv sathini qoplab ham oladi.

Neystonda tillarang suvo'tlaridan *Chromulina* ayrim yashil suvo'tlari, masalan, *Chamydomonda* keng tarqalgan.

Bentos (suv tagi) organizmlariga suv tagi va undagi turli narsalarga birikib yoki birikmay, shu sharoitga moslashgan organizmlar kiradi. Bentos suvo'tlar muayyan sharoitda o'sishga abiogen va biogen omillar ta'siri ostida bo'ladi. Bentos suvo'tlarni o'sishi uchun fotosintezlovchi organizmlar kabi yorug'lik zarur. Undan foydalanish darajasi boshqa ekologik omillar: harorat,

biogen va biologiya faol moddalari, kislord, organik bo'limgan moddalar, eng muhimi bu moddalarini tallomiga shamilishi va suv oqimiga bog'liq. Odatda suvning oqimi kuchli bulsa bentos suvo'tlari ko'p bo'ladi.

Suv oqimining kuchi ayniqsa daryo, soy, kanal, irmoqlarda suvo'tlarni tarqalishi va rivojlanishiga katta ta'sir qiladi. Bunday sharoitli suv havzalarida bentosning **reofil** organizmlar guruhni shakllanadi. Suv oqimi va biogen moddalar yetarli darajada bo'lmasa bentos suv o'tlari yaxshi rivojlanmaydi. Biogen moddalarining manbai bo'lib suv oqimi va suv osti cho'kindilari hisoblanadi. Bentos suvo'tlarining rivojlanishiga ular bilan oziqlanadigan turli umurtqasiz hayvonlar va baliqlar ham ta'sir qiladi.

Bentos suvo'tlari o'sish joyiga ko'ra **epilit**-qattiq joyda, **epipielit**-yumshoq joyda, **epifit**-o'simliklar ustida o'sadigan guruhlarga bulinadi.

Perifiton-deb nomlanadigan organizmlar (suvo'tlar) guruhni ham bo'lib ular suv havzasida suzib yuradigan turli predmetlarda o'sadi.

Suvo'tlar orasida haqiqiy bentos turlari bilan bir qatorda hayotini ma'lum vaqtini bentosda, boshqasini planktonda o'tkazadigan turlar ham kam emas. Ularni ko'pchiligidagi o'sish joyiga birikadigan moslamalar yo'q, ayrimlaridagina shilimshiq bog'lamlar yoki uzun o'siqlar bor.

Qaynoq buloqlardagi suvo'tlar 32-52°C da ayrim hollarda esa 90°C gacha haroratda o'sa oladi. Ko'pincha mineral tuzlar yoki organik moddalar ortiqcha bo'lgan, masalan, zavod va fabrikalarning issiq oqova suvlarida o'sadi. Bunday suv havzalarda odatda asosan ko'k-yashil suvo'tlar, kamroq diatom va ulardan ham kamroq yashil suvo'tlar o'sadi.

Qop va muzlikda o'sadigan yashil, ko'k-yashil va diatom suvo'tlar **kriofillar** deyiladi. Ayrim vaqlarda ular juda ko'p mikdorda o'sib qor va muzni yashil, sarik, moviy, qizil, jigarrang, qo'ng'ir hatto qora tusda tovlanishiga ham sabab bo'ladi. Qorni zangori tusda bo'lishiga Rhaphidonema nivellis, qizil ranga kirishiga esa Chlamydomonada, jigarranglikni Ancilonema hordenskiodii hosil qiladi. Bu suvo'tlar qor yoki muzning yuza qismida bo'lib, ular erish harorati 0°С atrofi vaqtida ommaviy ravishda ko'payib, qor yoki muzni u yoki bu tusga kirishiga sabab bo'ladi.

Sho'r suv havzalarining suvo'tlarini **galobiontlar** deyilib, ular suvda erigan osh tuzining kontsentrasiyası 285 g/l dan 347 g/l gacha bulgan suv havzalarida tarqalgan. Suvning sho'rligi bundan ortishi bilan suvo'tlarning mikdori kamayib boradi. O'ta sho'rangan (gipertalin) suv havzalarida Dunaliella, Asteromonas, Pedimonas tarqalgan. Ayrim **gipergalin** suv havzalarining tagi ko'k-yashil suvo'tlari bilan qoplangan, ularni asosiy qismini Microcoleus, Aphonothece, Spirulina, Oscillatoria turkumlarining turlari tashkil qiladi. Suvning sho'rligi kamaya borishi bilan boshqa turlarga mansub suvo'tlar ham paydo bo'laboshlaydi.

Suvo'tlar asosan suvda hayot kechirsada, undan tashqari turli tuman muhitlarda ham keng tarqalgan. Suv muhitidan tashqari-dagilarni **aerofil**, **edafofil** va **litofil** guruhlarga bulinadi.

Aerofil suvo'tlarning o'sish muhiti fizik, kimyoviy jihatidan ta'sir etmaydigan toshlar, tog' qoyalari, daraht po'stloklari kabi qattiq substratlar hisoblandi. Ularni fakat atmosfera havosini namlanishi bilangina kanoatlanadigan hamda suv bilan yuvilib turadigan joylarda o'sadigan guruhlarga bo'linadi. Aerofil suvo'tlar haroratni doimiy o'zgarib turishi ta'sirida bo'ladi. Kunduzi ular qiziydi, kechasi soviydi, kishda muzlaydi. Bu guruuh suvo'tlari asosan Chlorophyta, Cyanophyta qisman, Bacillariophyta guruhlariga mansub bir hujayrali va ipsimon tuzulganlardan iborat.

Tuproq yuzasi va uning qa'ri ham suvo't uchun o'sish muhiti bo'lib, unga ma'lum darajada ta'sir ko'rsata oladigan suvo'tlar guruhi **edafofil** deyiladi. Suvo'tlarning rivojlanishi uchun fotorotof organizmlar kabi yorug'lik ham zarur. Shudgor qilingan tuproqda yorug'lik 1 sm gacha kirib boradi. Hayotiy xususiyatlarini saqlab qolgan suvo'tlarni shudgorlanmagan tupoqlarda 20 sm gacha, shudgorlanganlarida esa 2,7 m chuqurlikgacha uchratish mumkin. Suvo'tlar bu chuqurliklarda ko'pincha tinim holida bo'ladi.

Tuproq suvo'tlariga xos harakterli xususiyat bo'lib ularning "efemerligi"-tinim holatidan faol holatga tez o'taolishi va aksinchaligi. Tuproq haroratining keskin o'zgarishlariga ultrabinafsha va radiotaktiv nurlanishlarga chiday oladilar. Bu bilan ularning keng tarqalganligi ifodalanadi.

Tuproq suvo'tlari asosan mikroskop orqali ko'rsa bo'ladigan tuzulishli bo'lib, ularni orasida tuproq yuzasida o'sib bermalol ko'rsa, qo'l bilan tutib ko'rsa bo'ladiganlarga ko'k-yashil suvo't

Nostoc commune yurtimizning to'qbo'zrang tuproqlarida, asosan adir va uning yuqori qismlarida, boshoqdoshlar oиласига мансуб о'sимликлар тарқалган сархадлarda учрайди. Tuproq suvo'tlarining sistematik tarqibining asosiy qismini ko'k-yashil va yashil suvo'tlar tashkil qiladi. Tillarang va diatom suvo'tlar ichida ma'lum darajada harakterlilari ham bor.

SUVO'TLARNI АHAMİYATI

Suvo'tlar jamiyatda bir qator amaliy аhamiyatga ega bulgan, oziq-ovqat, energetik muammolarni xil qilishda, atrof-muhit muhofazasida kosmosni, yer qarini o'rganish, sanoat hom-ashyosini qidirib topish, qurilish materiali, farmatsevtika preparatlari, biologik faol moddalar, biotehnologiyaning ob'ektlari sifatida muhim аhamiyatga ega.

Suvo'tlar avvalo tabiatda organiq moddalar yaratish sifatida katta аhamiyatga molik hisoblanadi. Suv muhitidagilari usimlik va hayvonlarning nafas olishlari uchun zarur bulgan kislorodning yagona manbai bo'lib hisoblanadi. Rus olimi V.I.Vernadskiy fikricha, gidrosferadagi organizmlar orasidagi kurash, bu kislorod uchun kurash demakdir. Suv havzalarining biologik mahsuldorligi, baliqchilik suvo'tlari faoliyatiga bog'liq.

Daryolar, ko'llar va dengizlarda oziq-ovqat va kislorod manbai bo'lib hisoblanadigan suvo'tlari umurtkasiz hayvonlarning ko'pchiligi uchun yashash joyi va baliqlarni uvuldiriq sochish hamda urug'lanishi uchun joy hisoblanadi. Suvo'tlar suvdagi organizmlarni kislorod bilan ta'minlashdan tashqari ifloslangan suvni biologik usul bilan tozalashda muhim аhamiyaga ega. Suvda ularning ommaviy ravishda ko'payib ketishi ham biologik jihatdan ifloslanishga olib keladi.

Suvo'tlar vitaminlar (tiamin, riboflavin, folat, nikotin va askorbin kislota) mikroelementlar va bir qator fiziologik faol moddalarning manbai ham hisoblanadi. Chlorella suvo'tning 100 g tarqibidagi vitaminlar odamning 1 kecha-kunduzdagи ularga bulgan talabini kondiradi. Shu tufayli yurak-qon tomir va oshqozon kasalliklari bilan hastalangan bemorlarga ularning oziq-ovqatida suvo't bo'lishi taklif etiladi.

Suvο'tlar oziq sifatida ham ma'lum va mashhur qishloq-xo'jalik mahsulotlaridan qolishmaydi. Ularning tarqibidagi oqsil-larning protseneti ko'p (70% gacha). Chuchuk suv havzalari va dengizlarida o'sadigan 170 turga mansub, ulardan 81 qizil, 54 qo'nq'ir, 25 yashil, 8 ko'k-yashil suvo'tlar odamlarning iste'molida mumkinligi aniqlangan. Shu maqsadlar uchun Porhyra, Laminaria, Gelidium, Macrocytis, Undaria, Rhodymenia, Monostroma, Ulva, enteromoroha, Chondris mahsus ko'paytiriladi. Ular orasida Porphyia ko'p mikdorda mahsus suv havzalarida o'stiriladi.

Mikrosuvο'tlardan Chlorella Malaziya va Filippinda oziq maqsadlarida har yili 500 tonna dan ortiq miqdora foydalaniлади.

Meksikada va boshqa bir qator mamlakatlarda ko'k-yashil suvo'ti Spirilina mahsus ko'paytirilib yiliga 2000 tonna biomassa olinadi va uning kukunidan non mahsulariga 5-10% mikdorda qo'shiladi va boshqa maqsadlarda foydalaniлади.

Suvο'tlar chorvachilikda oziqqa qo'shimcha sifatida ancha keng qo'llaniladi. Bizning respublikamizda ham chorvachilik va pillachilikda suvo'tlardan foydalanish hisobiga o'tgan asrning 80-yillarida olingan foyda 290 mln. so'mdan iborat bulgan. Chorva mollarining ozig'iga xlorella qo'shib berilganda, bir qator ijobjiy o'zgarishlar kuzatilgan.

Tuproq suvo'tlari organiq modda toplash, fizik-kimyoviy xususiyatini mikrobiologik faolligini yaxshilash bilan tuproq unumdorligini oshirishda ham ahamiyati katta. Suvo'tlarni yuksak o'simliklarning faoliyatiga ijobji ta'sir etishi ham isbotlangan.

Dengiz suvo'tlaridan olinadigan fikokolloidlar (agar, agaroid, agaroza, karraginin, agropektin) alginat kislota va uning tuzlar- alginatlar, mannit, sorbit va boshqalar sanoatning turli sohalari uchun muhim ahamiyatga molik hom-ashyo hisoblanadi.

Fikokolloidlar oziq-ovqat, farmatsevtika, kimyo, mikrobiologiya, to'qimachilik, qog'oz-selluloza, parfyumeriya sanoati uchun eng zarur hom ashyodir.

Ilmiy maksadlarda (bakteriolgiya, amaliy mikrobiologiya va algobiologiya) hamda sanitariya-epidemiologiyada agar moddasi ko'p mikdorda ishlatiladi. Alginitlardan yelim, lak, bo'yok, plastmassa, sun'iy tolalar olishda, oziq-ovqatda (muzkaymok, mevalar sharbati, non mahsulotlari tayyorlashda) qo'llaniladi.

Laminanya suvo'tidan olinadigan laminatin gipotenzik ta'sir ko'rsatuvchi, fukosterin suteimizuvchilar qon tarqibida holesterin moddasini kamaytiruvchi sisfatida foydalaniladi.

Suvo'tlarni yig'ish va o'rganish usullari xilma-xil. Bu turli guruh suvo'tlarining ekologiya va morfologiya jihatidan o'ziga xosliklari, shu bilan birga ularni o'rganishning maksadlari bilan bog'liq.

Fitoplanktonni o'rganishda, agarda suvo'tlar yetarli darajada rivojlangan bo'lsa, ozginasini mikroskop orqali ko'rila veradi. Suvo'tlar bir qarashda yetarli darajada rivojlanmagan bulsa, turli ko'rinishlardagi plankton turi yordamida yig'ib olinadi. Plankton turi metal halqa va unga o'rnatilgan №77, 1sm² da 5929 teshikehasi bo'lgan kapron elakdan iborat. Fitoplanktondag'i suvo'tlarni miqdor jihatidan o'rganishda ko'pincha Rutner barometridan foydalaniladi. Fitobentosni o'rganishda ham suv havzasi tagining harakteriga ko'ra turlicha tadbir qo'llaniladi.

Perifiton-turli narsalarga birikib o'sayotgan suvo'tlarni pichoq bilan qirib, qisqich (pintset) orqali olinadi. Olingan namunalar 4% formalin eritmasiga solinadi. Yer usti suvo'tlari-daraxt yer yuzasi, tosh kabilardagi zangori dog'lar imkon boricha uni tagi bilan birga ko'chirib olinib, sterillangan kog'iz yoki 4% li formalinga solinadi. Tuproq suvo'tlarni yig'ish mahsus adabiyotlardagi usullardan foydalanib yig'iladi.

Suvo'tlarni laboratoriya sharoitida mahsus adabiyotlar bilan mutahassis yordamida sistematik jihatidan o'rganiladi. Suvo'tlarni saqlashda ham tadqiqotchining ko'zlagan maqsadiga ko'ra, turlicha chora va tadbirlar qo'llanidi. Suvo'tlarni tirik holda qattiq agarli oziqda har bir suvo't eng kamida uch namunada saqlanadi, chunki qattiq oziqda suyuqlikdagiga nisbatan suvo'tlar ancha-sekin o'sadi. Namunalar muzlatgichda harorat 6-16°С 300-350 lk. li (lyuminestsens yoki 15-25 vt li) chiroqlarni yoqib saqlandi. Bunday holda namuna 1-1,5 oydan so'ng yangi oziqqa o'tkazish lozim. 4% li formalinli idishlarga solingan suvo't namunalari uzoq vaqt shu holda saqlanishi mumkin.

MIKSOMITSETLAR

Miksomitsetlar-maxsus guruh organizmlar hisoblanib, hayotiy faoliyatida hayvonlar va zamburug'larga xos belgililar jamlangan. Shu boisdan mashhur botanik, mikolog A·De Bari ularni "zamburug"- hayvon" Mucozoa deb atagan. Miksomitsetlarning hayoti bir necha bosqichlardan iborat. Birinchisi-*amyoboid* bosqichda hujayrasi po'st bilan qoplanmagan, **osmotrof** erigan organik modda bilan hamda bakteriya, achitqi kabi hujayralarni yutib enditsitoz oziqlanadi. Ikkinchisi-*plazmodiy* bosqich davrida ameboidlar o'zaro birlashib shilimshiqqa aylanadi. Uchinchi bosqichda plazmodiy, plazmodiysimonlar sporalar hosil qiladigan tanaga, uning yuzasida yoki ichida tinim sporalarini hosil qiladi. Bir holatdan ikkinchisiga o'tishi tashqi muxitning omillari (yorug'lik ta'siri, oziq modda va boshqalar) bilan boshqarilib, ularning ta'sirida hujayrada yuz beradigan biokimyoviy jarayonlar irlari boshqariladi, mana shular eksperimental biologiya bilan shug'ullanuvchilarning e'tiboriga tushgan.

ZAMBURUG'LAR

Ekologik va trofik ko'rsatkichlariga ko'ra faqat osmotrof tipda oziqlanadigan geterotrof eukariotlar mansub. Mana shu holat zamburug'larning biotadagi o'mini belgilaydi. Zamburug'larning osmotrof oziqlanishi ularning morfologik, fiziologik va biokimyoviy xususiyatlari bilan bog'liq.

1) Zamburug'larning ko'philagini vegetativ tanasi kuchli tarmoqlangan, o'sishi cheklanmagan iplar- *gifa*, ularning yig'indisi *mitselliyydan* iborat. Mitselliyy odatda yashayotgan joyning ichiga (tuproq, o'simlik to'qimasi, hayvon ahlati va boshqalar) to'la botib kirgan bo'ladi. Ularning bu xususiyati **ekzoosmos** bilan tanasining hamma yuzasi orqali oziq moddani to'la shimish xususiyatini beradi.

2) Zamburug'lar tarqalgan substratlardagi organik moddalar yuqori molekulali polimerlar (oqsil, polisaxarid, nuklein kislota) holida bo'lib, polimerlarni oligo va monomerlargacha parchalay-

digan hujayraga olib keladigan depolimeraza fermentlarini ajratadi. Agarda hayvonlarda ovqat hazm qiluvchi fermentlar ichak ichiga ajralsa, zamburug'larda tashqariga ajraladi, zamburug' gifasi to'nikarilgan ichakdek bo'ladi.

3) Zamburug' mitsellysi substrat ichida bo'lganligi sababli tarqalishi cheklangandir. Shuning uchun ko'payishga xizmat qiladigan-sporaband va sporalar substratdan tashqarida bo'lib, uning yuzasida joylashib, havo yoki suv oqimi yordamida tarqaladi. Zamburug'larning ayrimlari-makromitsetlarda sporalar hosil qilinadigan joylarini ko'rish mumkin. Bu soyabonsimon va po'kak zamburug'larda yaqqol ko'rindi. Boshqa mikromitsetlarda spora hosil bo'ladigan joylarni mikroskopdagina ko'rish mumkin, ular ommaviy ravishda sporalarni hosil qilganida turli substratlarning rangini, ko'rinishini o'zgartiradi.

Filogenetika jihatidan zamburug' deb nomlanadigan ekomorfa monofilitik guruh bo'lmay ikki guruhga bo'linadi. Ko'pchilik qismi haqiqiy zamburug'lar (eumitsetlar) monofilitik va zamburug'lar olamini (Fungi) tashkil etadi. Kichik qismi zamburug'simon organizmlar deb ataladigani ayrim suv o'tlar bilan *Stramenopila* olamini tashkil etadi, bunga ikkita bo'llim Oomicota (oomitsetlar) va Labynthulomcota (katakli shilimshiqlar) mansub.

Zamburug' tallomi. Morfologiyasi jihatidan uch tipdagi tallom ameboid (plazmodiyli), mitselliyli va achitqisimon mavjud.

Ainyoboid tallom. Bu tipdagi tallom bir yadroli, hujayra devori bo'lmaydi. Hujayrasitoplazmatik membranadan tashqari tig'iz oqsilli qavat periplast bilan himoyalangan holos. Ko'p yadroli tallomning bunday tipini **plazmodiyli** deyiladi. Substratga birkishi, oziqlanishi uchun ildizsimon o'simta-rizomitselli yordi qilishi mumkin. Rizomitselli yadro bo'lmasa tallom bitta ameboid hujayradan iborat bo'ladi, uni **monitsentrik** deyiladi. Zamburug'larning ayrimlarida rizomitselli uzun, kengaygan joyli, u yerga yadro o'tib yadroli boshqa ameboid hujayrani hosil qiladi, uni **politsentrik** tallom dab ataladi. Eukariot tallomli zamburug'larda bir necha sporangiy bo'ladi.

Mitselliyli tallom. Bu tipdagi tallom hujayra devoriga ega, tarmoqlangan ip, hujayralarga bo'lingan yoki bo'linmagan. Gifa uchi bilan o'sadi, faqat uchi emas yon tarmoqni uchi ham o'sganligi

tufayli voyaga yetgan mitselliyyda gifalar chigali yuzaga keladi. Chigaldagi gifalar o'zaro qo'shilib anastomozalarni hosil qiladi.

Mitselliyning o'zgarishlari. Mitselliyydagi o'zgarishlar sharoitga moslanish natijasida yuzaga keladi. Tinim holatni, moddalar o'tkazish, oziqlanish uchun ho'jayin tanasiga kirishlar mitselliyyda o'zgarishlar hosil bo'lishni talab qiladi. Tuproqdag'i, suvdagi nematodalarni tutib oziqlanadigan yirtqich zamburug'lardagi gifalar turlicha halqa, to'r, yelimli ip, otadigan garpun (ipli nayza) ko'rinishlariga ega.

Mitselliyy sohta to'qima (plektenxima) meva tanalarida hosil qiladi. Rizomorflar, meva tanalarining soyaboni, sklerotsiyalar ustida yopqich "to'qima" ham bo'ladi.

Achitqisimon tallom. Bu tip tallom bitta yoki hujayralar zanjiridan (psevdomitselliyy) iborat. Achitqilarning ko'pchiligi kurtaklanib ko'payadi, yangi hujayra o'zidan oldingisidan ajrab ketmaydi.

ZAMBURUG'LARNING KIMYOVIY TARKIBI, METABOLIZMI

Zamburug'larning faoliyatida ro'y beradigan metabolitlar birlamchi va ikkilamchiga bo'linadi. Birlamchi metabolitlar zamburug'ning o'sishi uchun zarur, bular nuklein kislotalar, oqsillar, uglevodlar, kofermentlar lipidlar va boshqalar.

Ikkilamchi metabolitlar zamburug'ni sharoitga moslanishlari uchun zarur. Ular bir zamburug'da bo'lsa, boshqasida bo'lmasligi mumkin, ular odatda quyi molekulali birikmalar hisoblanadi.

Oqsillar. Zamburug'ning tuzilishini tashkil qiladigan oqsillar hujayra devori, membranalı tuzilmalar, xromosomalar tarkibida bo'ladi. Fermentlar tarkibidagi oqsillar hujayra ichidagi jarayonlarni va atrof muhit bilan aloqalarni ta'minlaydi. Bu haqda to'laroq zamburug'larning oziqlanishi qismida bayon qilinadi.

Tuzilmalardagi uglevodlar. Zamburug'larning hujayra devorini tuzilmaviy uglevodlar tashkil qiladi. Kimyoviy tarkibiga ko'ra ularni uch guruhga bo'lish mumkin: glukoza, boshqa monosaxaridlar va peptidlар bilan kovalent bog'langan uglevodlar (glikoproteinlar). Glukozaning polimerlari bu-glyukanlar, xitinlar vasellyuloza. Glyukanlar tarmoqlangan yoki tarmoqlanmagan b

yoki v bog'lar bilan bog'langan glukoza molekulalari hisoblanadi. Zamburug'larning ko'pchiliginini tashqi qavati shulardan iborat.

Xitin molekulasida glukoza qoldig'i aminoguruh bilan bog'langan, ularga sirkal kislota qoldig'i birikkan (atsetillangan). Atsetillanmagan xitin **xitozin** deyiladi, u ayrim zamburug'larda uchraydi, xolos.

TSellyuloza oomitsetlarning barchasida mavjud, hujayra devorining 10% massasini tashkil qiladi. Uzoq vaqtarsellyuloza zamburug'larda bo'lmaydi deb hisoblanilar edi.

Monosaxaridlarning boshqa polimerlari (mannoza, galaktoza va boshqalar) yuksak o'simliklarda galaktoza deyiladi. U barcha zamburug'larda uchramaydi. Achitqilarda mannozaning polimeri – mannanlar bor.

Zamburug'larning hujayra devorida peptidoglyukanlar, mannanoproteinlar va boshqalar mavjud. Ular hujayra devorida o'rta qavatni tashkil qilib atrof muhit bilan aloqa jarayonlarida ishtirok etadi.

G'amlangan uglevodlar. Zamburug'larda yuksak o'simliklar, suvo'tlardagi kabi kraxmal aniqlanmagan. Glukoza eumitsetlarda hayvon kraxmali glyukogenga yaqin b-glyukanlar holida to'planadi. Oomitsetlarda v glyukan laminaringa o'xshashi g'amlanadi. Zamburug' hujayralarida – qand spirtlar – mannit, sorbit, ksilit va boshqalar ham bor.

Lipidlar. Lipidlar muhim g'amlangan mahsulot hisoblanib, hujayrada tomchi holida g'amlanadi. Zamburug'larda yarim to'yingan yog' kislotalari ko'p bo'ladi. Lipidlar fosfolipidlar holida hujayra membranasining asosiy qismidan iborat. Zamburug'larda asosiy sterin ergosterin (C-28) mavjud.

Ikkilamchi metabolitlar. Pigmentlar. Zamburug'larda fotosintezlovchi pigmentlar yo'q, ular mitselliyni, o'sib turgan joyini turli rangga kiritadigan pigmentlarni hosil qiladi. Pigmentlarning ko'pchiligi karatinoidlar va aromatik birikmalarga mansub. Karotin hosilasi bo'lgan pushti pigment mog'or zamburug'larda jinsiy jarayonni tezlatadi: aspergillardagi qora-safsar pigmentlar sporalar hosil bo'ladigan joyda: to'q rangli melanin hujayra devorida to'planib uning mustaxkamligini ta'minlaydi.

Toksinlar va antibiotiklar. Zamburug'larning ko'pchiligi boshqa organizmlarga toksik ta'sir ko'rsatadigan birikmalar hosil

qiladi. Mikroorganizmlarga ta'sir qiladiganlari antibiotiklar, o'simliklarga toksik bo'ladiganlari – **fitotoksinlar**, odamlar va hayvonlar uchun toksinlarni-**mikotoksinlar** deyiladi. Antibiotiklarni tuproqdag'i zamburug'lar ko'p hosil qiladi. Ularning kimyoviy tarkibi va ta'sir mexanizmi turlicha. Pentsillinlar vasefalosporinlar bakteriyalarning hujayra devorini sintezlanishiga to'sqinlik qiladi, trixotetsin cukariot mikroorganizmlarda oqsil sintezini, grizeofulvin mitoz jarayonini buzadi. Zamburug'lar hosil qilaqigan fitoksinlar zararlangan o'simlikdagi hujayralarni halok qiladi.

Mikotoksinlar mikromitsetlar (mikroskopda ko'rsa bo'la-digan.), makromitsetlarga (yirik zamburug'lar) bo'linadi. Mikromitsetlar ancha havfli. Masalan, sariq aspergillidagi aflatoksin juda xavfli hisoblanib oziq bilan hayvon oshqozoniga tushsa jigar va boshqa a'zolarni zaharlab o'llimga olib kelishi mumkin.

Makromitsetlardagi toksinlarning klassifiksiyasini S. J. Alexopoulos (1998) bo'yicha keltiramiz.

A. Jigar, buyrak hujayralarini parchalaydigan toksinlar.

1- guruh. O'llimga olib keluvchi siklopeptidlar. (amanitinlar)-Amanita, Galerina hosil qiladi.

2- guruh. O'llimga olib keluvchi monometilgidrozinlar (gidrometrin) Gydromitre hosil qiladi.

B. Vegetativ asab sistemasiga ta'sir qiluvchi toksinlar. Ularning belgilari organizmga tushgandan 20 daqiqadan 2 soatgacha vaqtida namoyon bo'ladi.

3 guruh. Koprinlar-Caprinus hosil qiladi.

V. Markaziy nerv sistemasiga ta'sir qiluvchi toksinlar. Ularning belgilari organizmga tushganidan keyin 20 daqiqadan 2soatgacha vaqtida namoyon bo'ladi.

4-guruh. Gallyutsinogenlar –Psilicybe tanaeolus hosil qiladi.

G. Oshqozon ichaklarni zararlovchi toksinlar. Ularning belgilari organizmga tushganidan 30 daqiqadan 3 soatgacha ta'sir qiladi.

5-guruh. Zamburug'laning ko'pchiligi oshqozon ichakni zaharlaydi.

Fitogormonlar. O'simliklarning ayrim tekinxo'r zamburug'ları uning quyi molekulali o'stiruvchi moddalarni ajratadi. Xaltachali zamburug' Giberilla gibberillinlar deb nomlanadigan terpenoidlar shular jumlasidandir.

Zamburug'lar hujayrasidagi genom tuzilmalari bo'lib yadro (yadro genomi) mitoxondriy (mitoxondriy genom) plazmidlar hisoblanadi.

Yadro genomi. Zamburug'lardagi yadro genomi o'chamlariga ko'ra bakteriyalar, yuksak eukariotlarning orasida oraliq o'rinda turadi. Non va non mahsulotlarini tayyorlashda foydalilanligan achitqi zamburug'lar 15 xromosomaga ega, har bir hromosoma ichak tayoqchasi xromosomalaridan 5 marta kichik, T-fag DNK sidan 4 marta katta. Zamburug'lardagi xromosomalarni soni 2-28 ta, ko'pchilik turlarda 10-12 xromosoma mayjud. Oqsil sintezida ishtirok etadigan DNK ning uzunligi foiz hisobida yuksak eukariotlardagidan zamburug'larda ko'p.

Mitoz- zamburug'larda bir qator mahsus xususiyatlar bilan ro'y beradi.

1. Mitozning barcha bosqichlarida ko'pchilik zamburug'larda yadro membranasi saqlanadi (yopiq mitoz ro'y beradi).

2. sentriolalar xivchin hosil qiladigan zamburug'larda bor holos. Zamburug'larda ularning o'mida oqsil tuzilishli qutbiy tanalar bo'lib mitozda qutblarni bildiradi.

3. Xromosomalarning maydaligi, rivojlanish bosqichlarini tez almashgani ularda mitoz ro'y berishini qiyinlashtiradi.

4. Telefazani batartib ro'y bermasligidan yangi yadro xromosomalari sonini teng bo'lmasligiga (geteroploidiya)hodisasiga olib keladi.

5. Zamburug'larning ko'pchiligidagi mitoz bilansitokinez sodir bo'lmaydi, hujayralarga bo'linmagan turlarda sitokinez juda kam ro'y beradi. Shu boisdan hujayradagi yadro soni bittadan ko'p va aniq sonda emas.

Geterokarioz. Zamburug'larda yadro sonining ko'pligi yoki getero kariozlik bitta hujayrada ko'p muddat saqlanadi. Bu holat zamburug'larni muxit sharoitlariga tez moslashish imkonini beradi. "Geterokariozlik -fiziologik jihatidan moslashuvning shunday mexanizmiki, uning natijasida ko'plab qattiy genoplardagi sifatlarni miqdoriy o'garishlaridir" (R.Stanier).

Parasaksual jarayon. Ko'p yadroli vegetativ hujayralarda gaploid yadro ba'zan qo'shilib diploid yadroni hosil qiladi. Bu holat juda kam ro'y beradi. Geterokarioz hujayralarda yadrolar qo'shilsa, geteroalellarning biror joyida geterozigota diploid yadro hosil

bo'ladi. U sporaga o'tishi, natijada diploid geterozigotalar yuzaga keladi. Mitozlar natijasida diploid yadro gaploidga xromosoma-larning bir to'plamini yo'qotishi yoki boshqa holatlar sababi bilan gaploid holatga qaytishi mumkin.

Har ikkala jarayon ota ona genlardagi o'zgarishlar bilan shu boisdan fenotipdaligida ham sodir bo'ladi. Jinssiz jarayonsiz genlarda ro'y beradigan o'zgarishlarga **paraseksual** jarayon deyiladi.

Yadrodag'i davra. Zamburug'lar kabi ularning hayotiy davrasi ham turli-tuman. Asosiylari quyidagilar:

1. Jinssiz davra. Bu jinsiy ko'payishni yo'qotgan katta guruh takomillashmagan zamburug'lar uchun xos. Ularning yadrosi mustasnosiz mitotik tarzda ro'y bergenligi tufayli yadrolarning karraliligi aniqlanmagan.

2. Gaploid davra. Vegetativ tallomda yadro gaploid. Diploid yadro tinim davrini o'taganidan keyin meyoz bolinadi. Bu holat zigomitsetlar, hitridiomitsetlarning ko'pchiligidagi xos.

3. Cheklangan dikorionli gaploid davra. Gametangiyalar yoki gametalar qo'shilgandan keyin, ikkala ota-onadan olgan yadroda qo'shaloqlanish keyin yadrolari bir davrda qo'shilishi ro'y beradi. Bundan keyin yadrolar qo'shiladi, tinim davrini o'tamay meyoz bo'linadi. Hosil bo'lgan meyosporolar unishidan yangi tallom yuzaga keladi. Askomitsetlarning ko'pchiligidagi shunday.

4. Gaploid-dikarion davra. Bunday davra yuqoridagiga o'xshash, biroq dikariontli davri uzoqligidan davrada dominantlik qiladi (ba'zi diomitsetlarni ko'pchiligidagi).

5. Diploid- gaploid davra. Zamburug'lardagi izomorf davra suv o'tlaridan farqlanib suv muhitidagi xitridiomitsetlarda tavsiflangan.

6. Diploid davra. Vegetativ tallom diploid, gametangiyalar yoki gametalar shakllangandan so'ng meyoz ro'y beradi. Bu davra oomitsetlar va xaltachali achitqilarning ayrimlariga xos.

Mitoxondrial genom. Zamburug'larning mitoxondriylarida mitoxodriy mtDNK mavjud. U halqa shaklidagi DNK molekulasiidan iborat bo'lgan holda 20 dan 100000 gacha nukleoid juftliklardan iborat. Mitoxondrial DNK o'zining oqsilini hamda nafas zanjirida ishtirok etadiganlarni (tsitokromoksidaza va ATPfazalar) sintezlaydigan genlarga ega.

Plazmidlar va viruslar. Zamburug'larning genomida plazmidlar va viruslar ham bor. Ular yadro, mitoxodriy yokisitoplazmada bo'lib zamburug'larning fenotip belgilariga ta'sir qiladi. Viruslarning bo'lishi (zamburug'lardagi viruslarning hammasi hujayraviy organizmlardan farqlanib qo'sh zanjir molekulali RNK ega) mitselliylar meva tanalarda o'simlikni zararlash xususiyatlarini va boshqa belgilarini yo'qotadi.

Vegetativ mos emaslik. Tabiiy sharoitdan olingan zamburug'larning shtamlari laboratoriyyada o'stirilganda ularning gifalari o'zaro qo'shilmaydi yoki qo'shilgandan keyin o'lib qoladi. Bunday holat geterokarinlik, yoki vegetativ moskemaslik nomini olgan. Vegetativ mos emaslikni maxsus guruh genlar boshqaradi. Vegetativ mos emaslik zamburug'shtamlarini anastomozlar orqali plazmidlar va viruslar bilan zararlanishidan himoya qiladi deb taxminlanadi.

Zamburug'larning oziqlanishi. Zamburug'larning oziqlanishi o'simliklar hisobiga amalga oshadi. Shu boisdan ularda tirik o'simliklar va ularning qoldiqlaridagi polisaxaridlarni parchalaydigan faol fermentlar bo'ladi. Ular qatoriga pektinni gidrolizlovchi pektinazalar, gemitsellilozani parchalovchi ksilanazalar, sellobiozalar vasellyulazala, amilazalar mavjud. O'simlik hujayrasida selyulazadan keyin ligin ko'p. Ligin o'simlikning eng mustaxkam polimeri, faqat zamburug'lar (asosan daraxt tanasini yemiruvchi po'kaklar) liginni parchalaydigan lignazaga ega. Tekinxo'r zamburug'larning ko'pchiligi o'simlik epidermisini qoplagan mum, kutinni gidrolizlaydigan kutinazaga ega. Odamlar va hayvonlar terisi, soch, patdag'i keratin oqsilini parchalaydigan fermentlar tutadi.

Fermentlar ta'sirida gidrolizlangan moddalar hujayraga uch yo'l bilan tushadi:

1. Turgor bosim ta'sirida erigan holda nasos kabi so'rilib.
2. Moddaning kontsentratsiyasini farqi bilan faolsiz holda.
3. Maxsus oqsil molekulalari - tashuvchilar yordamida.

Zamburug'larning o'sishi va rivojlanishi. Mitselliyning o'sishi. Mitseliyni o'sishi sporani unishidan boshlanadi. O'simta hali hujayralarga bo'linmagan, qat'iy ravishda apikal o'sadi.

Achitqini o'sishi. Saxoromitset achitqilarni o'sishida; yadroni mitoz bo'linishi, kurtak hosil bo'lishi, kurtakka yadroni o'tishi,

kurtakni ajralishi hamda kattalashuvi ro'y beradi. Kurtakni ajralishida hitin hosil bo'lishi ahamiyatli, uni tasirida kurtak ajraladi. Achitqi hujayrasi to'xtovsiz kurtak hosil qilavermaydi. Eski hujayralar yoshlarda katta, achitqi hujayralarning populiyatsiyasida 50%, yosh hujayralar 25% bir marta bo'linganlar, 12,5% ikkita kurtak hosil qilganlar bo'ladi. Ko'p marta kurtak hosil qilgan hujayralar populiyatsiyada juda oz bo'ladi.

Zamburug'larning jinssiz ko'payishi. Zamburug'larning jinssiz ko'payishi harakatlanadigan va harakatlanmaydigan sporalar yordamida amalga oshadi. Zoosporalarda suvdagi hayoti, suv bilan bog'liq zamburug'larda hosil bo'ladi.

Zamburug'larning ko'pchiligi harakatlanmaydigan sporalar bilan bo'lganligi, ularni qadimdanoq quruqlikka chiqqanligini isbotlaydi. Sporalar endogen sporangiylarda hosil bo'laganlarini **sporangisporalar**, ekzogenlarini **konidiyalar** deyiladi. Sporangiylarda odatda juda ko'p (minglab) spora, ayrimlarida sporangiy mayda bo'lganda (**sporangiola**) bir nechta yoki hatto bitta bo'lishi mumkin. Endogenlar ekzogen sporalarning hosil bo'lishini boshlab bergen.

Konidiyalar zamburug'larning ko'pchiligidagi (askomitsetlar, bazidiomitsetlar, zigomitsetlarning ayrimlarida) hosil bo'ladi. Takomillashmagan zamburug'lar (Deuteromycetes) faqat konidiyalar hosil qilib ko'payadi. Konidiyalar rangsiz, rangli, bir hujayrali, to'siqli, bir yoki ko'pyadroli bo'lishi mumkin. Ular konidiyabandlarda yuzaga keladi.

Jinsiy ko'payish. Jinsiy jarayonning eng oddiy gametalarga tabaqalashmagan vegetativ hujayrani *somatogamiya* deb ataladigan qo'shilishi hisoblanadi. Bunday jarayon askomitset achitqilarga, bazidiomitsetlarning ko'pchiligiga va boshqa zamburug'larga xos. Ba'zan hujayralarni qo'shilmay uni ichida yadrolari qo'shilishi bilan o'tadi.

Ancha murakkab jinsiy jarayonga mitselliyning aloxida qismini maxsuslashuvi ularni keyin qo'shilishi bilan sodir bo'ladiganni **gametangigamiya** deyilib, u zigo va askomitsetlarning ko'pchiligiga xos. Va nihoyat, zamburug'larda boshqa eukariotlardagi kabi maxsuslashgan gametaning qo'shilishi *gametogamiya* xarakterli.

Izogamiya va geterogamiya jinsiy jarayoni suvo'tlarga, tuban zamburug'lardan esa xitridiomitsetlarga xos. Mitoz tarzda o'tadigan

oogamiya zamburug'larda umuman yo'q. Hatto oomitsetlarda ham erkak gametalar (spermatozoidlar yoki spermatsitlar) bo'lmaydi, oogoniydag'i tuxum hujayraning xususiy hujayra po'sti yo'q va oosfera deb ataladi. Xaltachali zamburug'larning ayrim turlarida oogoniy bor biroq, anteridiy yo'q, shu boisdan urug'lanish gifa yordamida sodir bo'ladi. Askomitsetlarning boshqalarida va bazidiomitsetlarning zangkuya zamburug'larda erkak gametalar-spermatsitlar bor, urg'ochi gametalar yo'q, ba'zan gametangiyalar ham. Ba'zi turlarda spérinatsitlar erkak gameta va konidiya (jinssiz ko'payish) vazifalarini ham bajaradi.

Zamburug'larning ko'pchiligi uchun hayoti davomida turlicha ko'rinishdagi sporalar hosil bo'ladi, bu holatga *pleiomorfizm* deyiladi. Masalan, takomillashmagan zamburug'lardan *Fusarium* ikki tipdag'i konidiyalar – katta, ko'p hujayrali, o'roqsimon **makrokonidiya** va ellips, bir hijayrali **mikrokonidiya** hosil qiladi. Pleiomorf zamburug'larda ularning rivojlanishidagi har bir bosqichni o'zining nomi bor. Aspergill (*Aspergillus*) va penitsill (*Penicillum*) qat'iyroq aytganimizda zamburug'ning nomi emas, ayrim askomitsetlarning anamorflari. Bu zamburug'larning nomlari (tellomorfa)- *Talaromyces, eurotium*. Yuksak zamburug'larning anamorflarning majmuyi avvalo askomitsetlarda takomillashmagan zamburug'lar yoki deyteromitsetlarda guruh hosil qiladi. Yadro davrasida meyoz yo'qligi tufayli ularni mitotik zamburug'lar deyiladi.

ZAMBURUG'LARNING EKOLOGIYASI

Zamburug'lar hamma joyda suv, tuproq, yog'och, o'simlik va hayvonlarning to'qimalarida tarqagan. Bunga ularning bir qator xususiyatlari sabab:

1. Zamburug'larning ko'pchiligidagi tarmoqlangan mitseliysi hisobiga hajmining kattaligi atrof muhit bilan bog'lanish imkoniyatlarining ko'pligi.
2. O'sish va ko'payishning tezligi, ko'plab miqdorda sporalarini hosil qilishi.
3. Metabolik jarayonlarning atrof muhit omillarining ta'sirida faolligi.
4. Biokimiyoviy irsiy o'zgaruvchanliklarning yuqoriligi natijasida yangi substrat va sharoitlarga tez moslashishi.

5. Noqulay omillarning ta'siri natijasida tinim davriga tez o'tishi, uzoq muddat davomida shu holatda qolishi, qulay sharoit yuzaga kelganda faol holga o'ta olishi.

Zamburug'larning ekologiya jihatidan bunday guruhash oziqlanish usullariga va yashash muhiti sharoitiga asoslangan. Oziqlanish usuliga ko'ra: tekinxo'rlar, simbiontlar, mikoriza hosil qiluvchilar, endofitlar, saprotroflar mavjud.

Tekinxo'r zamburug'lar. Zamburug'larning o'simliklar bilan aloqada tarihiy taraqqiyotning dastlabki davrlaridanoq boshlangan va fitotsenozlarning hozirgi zamondagi holatini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, tekinxo'r zamburug'lar o'simliklarning ayrim turlari sonini nazorat etgan va fitotsenozdag'i turlararo murakkab munosabatlarni shakllanishida ishtirok etgan. Ular ommaviy ravishda tarqalganlarni ko'p zararlaydi, ularning sonini kamaytirib boshqalarning rivojlanishiga imkon beradi. Keyingilari ham ko'p zararlana boshlaydi. Shunday qilib, fitotsenozdag'i turlar orasida muvozanat yaratiladi.

Zamburug'larning alohida guruhlari hayvonlarda tekinxo'rlik qiladi. Oomitsetlar, zigomitsetlar va askomitsetlarning orasida ko'plab taksonlarning vakillari hasharotlarni zararlashga maxsuslashganlari bor. Nematodalarning yirtqichlari boshqa umurtqasiz hayvonlarning tekinxo'rlari odatda tuproqda bo'lib, o'simlik qoldiqlari, tuproq chirindisi bilan oziqlanadi. G'anim paydo bo'lib qolsa unga hujum qiladi, ya'ni tekinxo'rlik obligat emas, fakultativ (majburiy emas). Zamburug'larning ayrim guruhlari tuproqda saprofit tarzda bo'lsa ham umurtqali hayvonlarga (terisi, tirmog'i, juni, pati) tushib qolsa tekinho'rlikka o'tadi. Bulardan tashqari *mikofil zamburug'lar* deb ataladiganlari ham bor, boshqa zamburug'lar makromitsetlarda tekinxo'rlik qiladi.

Simbiont zamburug'lar. Bu guruh zamburug'larning hayoti deyarli istisnosiz ravishda o'simliklar bilan bog'liq. Tekinxo'rlar kabi o'simlik hujayrasi bilan oziqlanadi, zarari bilan ho'jayin o'simlikka foyda ham keltiradi. Zararidan foydasi ko'p bo'lsa, o'simlik raqobatli bo'ladi. O'simliklardagi mikosimbiontlilik ildizda **mikoriza hosil qiluvchilar** va er usti qismida **endofit** zamburug'lar gurnhlari mavjud.

Mikoriza hosil qiluvchi zamburug'lar muayyan zamburug'larni o'simlik ildizini atrofidagi tuproqda rizosfera ildiz yuzasida (rizoplana), ildiz hujayralarida ko'p muddat davomida bo'lishi zambu-

rug'ga va o'simlikka ham foydali munosabatlarni shakillanishiga olib kelgan. O'simlik uchun foydalisi:

1. Mitselliylisiga so'ladigan yuza kengayadi.
2. Mikoriza hosil qiladigan zamburug'lar o'simlik o'zlashtirishi qiyin fosforli birikmalarning o'zlashtiriladigan holga aylantiradi.
3. Zamburug' mitseliysidan u hosil qiladigan biologik faol moddalar, vitaminlar, gormonlar va boshqalar o'simlikka o'tadi.
4. Mikoriza ildizni zararlashi mumkin bo'lganlardan himoya laydi. Mikorizalar: **endomikoriza, ektomikoriza, endo- ektomikoriza** holida bo'lishi ma'lum.

Endofit zamburug'lar. Adirlarda tarqalgan g'alladoshlarga mansub o'simliklarning poyasi va barg o'ramasidagi endofit deb nomlanadigan xaltachali zamburug'larning mitselliysi o'sadi. Endofitlarning ayrimlari o'simlikni zararlab askosporalar va konidiyalar hosil qilib generativ organlarning hosil bo'lishiga to'sqinlik qilishi bilan o'zini tekinoxor'day tutadi.

Saproterof zamburug'lar. Saproterof zamburug'lar yuksak o'simliklardi fotosintez tufayli bog'langan uglerodni ajratib beradi. Uglerodni tabiatda aylanishida zamburug'lar asosiy guruh hisoblanadi. Zamburug'lardagi fermentlar tufayli mustahkam biofermentlar, sellyuloza va lignin oxirgi mahsulot karbonat angidridgacha qaytariladi. O'simlik barglari, yog'ochi tuproqdag'i bog'langan jami uglerodning 2/3 qismi zamburug' tanasi orqali umumiyl almashinuvga qaytadi. Saprofit zamburug'larning ko'pchiligi quyidagi guruhlarga mansub.

1). Chirindilardagi saproterofitlar – tuproq chirindisi bilan oziqlanadigan zamburug'lar;

2). O'simlik qoldiqlari bilan oziqlanadigan zamburug'lar;

Ksilotrofitlar - qurigan daraxtlarni parchalovchilar, masalan (po'kaklarni);

3). Kopratroflar- o'txo'r hayvonlar go'ngi, va tezagida tarqalganlar;

Zamburug'lar orasida o'lgan hayvonlar tanasida suv muhitidagi xitridiomitsetlar, oomitsetlar suvdagi o'lik umurtqasizlar va baliqlarda tarqalgan.

ZAMBURUG'LARNI TABIATDAGI VA ODAMLAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI. ZAMBURUG'LARNING ZARARI

O'simliklarning kasalliklari. Tabiiy fitotsenozda zamburug'larning o'simliklarga zararli ta'siri uncha katta emas, undagilarning sonini nazoratida ishtirok etadi. Agrotsenozda va katta maydonlardagi o'rmonlarda holat butunlay boshqacha. Bu joylarda ommaviy ravishda kasallanish (epifitotiya), agarda maxsus kimyoviy tadbirlar qo'llanilmasa populyatsiyani hammasi halok bo'ladi. Agrotsenozdagi o'simliklarni ommaviy ravishda kasallanishi o'simlik va uning tekinxo'ri orasidagi munosabatlarni odamlar buzishi tufayli sodir bo'ladi. G'o'zada ayniqsa so'lish kasalligini yuzaga keltiruvchi vilt (*Verticillum dahliae*) hosildorlikni keskin pasayishiga sababchilardan biridir. O'simliklarning zamburug' kasalliklariga qarshi kurash choralarini amalga oshiradigan xalqaro tashkilotlar ham bor. Zamburug'lar, viruslar, ayrim bakteriyalar ta'sirida, o'simliklardiagi kasalliklarni o'rganadigan alohida fan "fitopatologiya" hisoblanadi.

Hayvonlar va odamlarning kasalliklari teri, tirnoq, sochlarni dermotomikozlar zararlaydi. Bundan tashqari *Candida*, *Cryptococcus*, *Rhizopus*, *Aspergillus* turkumlarining zamburug'larini sporalari nafas yo'llari, yaralar, jinsiy a'zolar orqali organizmning ichki a'zolariga o'tib tekinxo'r sifatida rivojlanadi. Biroq ularga organizmning immuniteti mustahkam bo'lsa zarari katta emas. Bu mikozlar kuchayib ketsa o'tkir kasalliklarni ro'y berishiga, hatto o'limga ham olib keladi.

Zamburug'lar teri mahsulotlari va uni o'mniga ishlatiladiganlarni, qog'ozda ham o'sib ularni yaroqsiz holga keltiradi. Kutubxonalar, arxivlardagilarni zamburug'lar ta'siridan saqlash uchun maxsus sharoitlar yaratishadi. Zamburug'lar ta'sirida ro'y beradigan biokorroziyani o'rganish ulardan himoyalanish maqsadida zavodlar, yirik kutubxonalarda, ilmiy tekshirish institutlarda tadqiqot ishlari olib boriladi.

ZAMBURUG'LARNING FOYDASI

Biologik faol moddalar hosil qiluvchi zamburug'lar.
Ko'plab zamburug'lar turli dorivor moddalarni hosil qiladi.

1. Antimikrob preparatlar – antibiotiklar. Ma'lumki, birinchi antibiotikni ingliz mikrobiolog A.Fleming Penicillium zamburug'idan ajratib penitsillin deb nomlagan. Bu antibiotiklar farmakologiyada buyuk kashfiyot qildi.

2. Immunmoduyatorlar. Ularning ayrimlari sut emizuvchilar immunitetini pasaytiradi, boshqalari mikrob infeksiyasiga qarshi bo'ladi.

3. Rakka qarshi moddalar – po'kak va agarika zamburug'laridagi (asosan ksilotroflar) polisaxaridlar.

4. Gormonal moddalar. Ayrim zamburug'larning alkoloidlaridan gormonal preparatlar olinadi.

5. Xitin – faollangan ko'mirdan ham kuchliroq adsorbsiyalash (so'rish) xususiyati tufayli yaralar kuygan joylarni tez tuzatadi.

Zamburug'larning ko'pchiligidan biopolimerlarni parchalaydigan faol fermentlar olinadi. Pektinozalar (pektin parchalovchi), proteazalar (oqsil parchalovchi), lipazalar (lipidlarni parchalovchi) zamburug'lar, mevalar va sabzavotlarni shirasini tiniqlantiruvchi, yuvish vositalariga qo'shimcha kabilar sifatida foydalaniladi. Zamburug'lardan an'anaviy ravishda organik kislotalar limon, itakon va boshqa kislotalar olinadi. Fitopatogen zamburug'lardan gibberillinlar, fuzikoksinlar olinadi, ular o'siliklardagi o'sish jarayonlarini tezlatadi. **Oziq va yem hashak zamburug'lari.** Bu zamburug'lar ichida ikki guruhning vakillari muhim hisoblanadi.

1. Achitqi Saccharomyces cerevisae. Bijg'ish natijasida qandni spirt va karbonat angidridga aylantirishi non, vino va pivo tayyorlashda hamda spirt ishlab chiqarishda qadimdan qo'llanilib kelinadi.

2. Xaltachali zamburug'larning va bazidiyani makromitsetlarning mevatanalari bizning issiq iqlimli respublikamizda tabiiy oziq mahsuloti sifatida juda kam foydalanilsa, Rossiya, Yevropa aholisi ularni shundayligicha, quritilgan va konservalangan holda istemol qilinadi. Bu zamburug'larni oziq sifatida iste'mol qilinishi xavfsiz emas, kuchli zaharlanishlarga hatto o'limga olib keladi.

MAXSUS QISM

Ilgari tuban o'simliklar deb qaralgan bu organizmlar (sensu stricta) mustaqil tarixiy taraqqiyotga ega bo'lgan guruhlarni (katta olam, olam) o'z ichiga olgan. Turli tadqiqotchilarda ularning soni bir xil emasligini ko'ramiz

Organizmlarning megasistemasi

Katta olam	Olam,	Bo'lim	Trofik guruhi
eubacteria	Gracilicutes	Cyanobacteria	Suvo'tlar
excavates	euglenobiontes	Euslonophyte	Suvo'tlar
		Acrasiomycota	Miksemitselar
Rhizariya	Cetcozoa	Chlorarchiophyta	Suvo'tlar
		Plasmidiophormycota	Miksomitsetlar
		Chytridiomycetes	Zamburug'lar
	Mycata	Zygomycetes	Zamburug'lar
		Ascomycetes	Zamburug'lar
		Basidiomycata	Zamburug'lar
	Myxomycotae	Myxogasteromycata	Miksomitsetlar
		Dictyosteliomycota	Miksomitsetlar
		Setaminophytace	Labyrinth-Comycota
			Miksomitsetlar
	Haptophytes	Dictyosteteliomycata	Zamburug'lar
		Ochrophyte	Suvo'tlar
	Cryptophytes	Prymnesiophyta	Suvo'tlar
		Cryptophyta	Suvo'tlar
	Alveolates	Dinophyta	Suvo'tlar
		Apicomplexa	Suvo'tlar
	Glaucophytes	Glaucocystophyta	Suvo'tlar
	Rhodophytes	Cyanidiophyta	Suvo'tlar
	Viridiplantae	Chlorophyta	Suvo'tlar
		Charophyta	Suvo'tlar

Jadval shuni ko'rsatadiki,keng manodagi so'z (Sensu Lato) - filogenetik tushuncha emas, zero suvo'tlar va zamburug'larning turli taksonlari turli joyda joylashgan. Bir katta olam ekologik - trofik guruhlari – o'simlik (suvo't), hayvon (xordalilar) va hayvonlarni o'z ichiga olgan.

Bundan 100 yil ilgari rus olimi K.A.Timiryazov istexzo bilan o'simlikni ham, hayvon ham yo'q, bitta bo'linmas organik olam bor. O'simlik va hayvonlar – o'rtacha kattaliklar, ularning bittasiga katta etibor berib, ikkinchisini etibordan qoldiramiz deganida katta mano bor. Hozirgi kunga kelib bu olimning chuqur mushoxadasiga ta'zim bilan qarasak arziydi.

PROKARIOTLAR

KO'K-YASHIL SUVO'TLAR BO'LIMI - CYANOPHYTA

Bo'lominning nomlanishi (grekcha "syanos" –ko'k) tallomning rangidan, ko'k rangli pigment fikotsianning ko'pligi bilan bog'liq. Ko'k-yashil suvo'tlarni "sianobakteriya" deb nomlanish ilmiy adabiyotlar, darslik, o'quv qo'llanmalarida ko'p uchramoqda. Bu ularning hujayrasini eubakteriyalar bilan ancha uzviy bog'liqligi bilan bog'lansa, oksigen fotosintezni amalga oshirishi ko'k-yashil suvo'tlaridagi tuzilish bilan eukariotlar xloroplastlari orasidagi o'xshashlik an'anaviy nom qolishiga asos bo'ladi. Biz bu guruh organizmlarni an'anaviy nomda "ko'k-yashil suvo'tlari" deb atalishi bilan birgasianobakteriyalar deyilishini ham tarafborimiz.

Ko'k-yashil suvo'tlari umumiy tavsifi quyidagicha. Hayotiy davrsasi davomida xech qachon xivchin hosil qilmaydi. Ko'k-yashil suvo'tlari bir hujayrali, koloniya hosil qilgan va ko'p hujayrali hisoblanadi. Hujayralari prokariot tuzilishli. Fotosintezni amalga oshiradigan pigmentlari tilakoidlarda jamlangan, sitoplazmada yakka va o'zaro teng uzoqlikda bo'ladi.

Hujayrasining rangi ko'kdan qizil va yashilgacha bo'lgan holda uning tarkibidagi pigmentlarning nisbatiga bog'liq. Pigmentlar yarim yumaloq yoki yarim disksimon fikobilisomalarda, ular qator bo'lib tilakoidlarning yuzasida joylashgan.

Muqobil polisaxarid-tsianofitsin kraxmali tuzilishiga ko'ra glikogenga yaqin. Poliedrian tanalar karboksisomalarda Rubisko fermenti bor. DNK hujayraning markazida membrana bilan o'ralmagan bo'ladi. Ko'k-yashil suvo'tlarining ko'pchiligidagi plazmidlar ham (DNKning xalqasimon kichik molekulasi) bor. Hujayra devorining tarkibiy qismi mureindan iborat. Hujayra ko'p hollarda polisaxaridlar iborat, shilliq g'ilof bilan qoplangan. Ko'payishi vegetativ va jinssiz. Jinsiy ko'payishi yo'q, shunga qaramay irsiy rekombinatsiya mavjud.

Ko'k-yashil suvo'tlar dengizlar va chuchuk suvlarda va quruqlikda ham tarqalgan.

Tallomi. Kokkoid tipdagi tuzilma bir hujayrali va koloniyalilarga xos. Ipsimon tarmoqlanmagani ostsillatoriya va nostok-


larga mansub. Geterotrixial tuzilma-shakli va vazifalari o'zaro farqlanadiganlar stsitonemalarga xos.

Trixomadagi barcha hujayralar morfologiyasidan o'xshashlarni **gomotsit**, ular bir xil bo'lmasa **geterotsit** deyilib vegetativ hujayralardan tashqari sporalar va geterotsistalar bo'ladi. Birinchisi ostsillatoriylar, ikkinchisi nostoklar va stigonemalar tartiblariga xos. Trixoma soxta va haqiqiy shoxlanadi. Soxta shoxlanish nostoklarda, xaqiqysi stigonemalarda uchraydi.

Hujayrasi. Ko'k-yashil suvo'tlarida hujayralari shakli va o'lchamlarga ko'ra turlicha. Ular shar, ellips, bochka, silindr ko'rinishlarga ega. O'lchamlarida eni 0,2 dan 50-80 mkm (ko'p hollarda 10mkm), Ularning uzunligi 0,2dan 100 mkm gacha, bazan 200 mkm bo'ladi. Ko'k-yashil suvo'tlarning sistematikasida ularning o'lchamlari turni aniqlashda zarur.

Ko'k yashil suvo'tlarning hujayralari hujayra po'sti va protoplastdan iborat.

Ular prokariotlarga mansubligi tufayli membranani tuzilmalari – yadro, xloroplastlar, endoplazmatik retikulum, Golji apparati, lizosomalar, mitoxondriylar, vakuola yo'q. Ulardan tashqari membranasiz tuzilmalardan mikronaylar, sentriola, mikrofilamentlar ham bo'lmaydi.



Hujayra devori. Hujayradagi plazlolemmaning usti unga malum ko'rinishdagi shakl beradigan, tayanch va ximoyalanish vazifalarini bajaradigan hujayra devori bilan o'ralgan. Hujayraning devori atrof muxit bilan moddalar almashinuvini oshiradi va uning harakatida ham ishtirok etishi mumkin. Qalinligi 35-50 nm, vegetativ hujayralarning hamda akineta va geterotsistalarda anche yo'g'onroq bo'ladi. Ko'ndalang to'siqlarida plazmadesmalar o'tadigan tirqishlar bor. Ular orqali shilliq ajrashini ham taxmin qilinadi. Bu suvo'tlar hujayra devorining tarkibida murein – peptidoglikan geteropolimeri mavjud.

Ko'k-yashil suvo'tlar hujayra devorining boshqa cubakte-riyalarinikiga yaqinligi: 1) lizotsim fermenti ta'sirida parchalanadi; 2) uni hosil bo'lishiga penitsillin antibiotiki tasir qiladi.

Hujayra devori ustidan o'rama yoki yopqich bilan o'ralgan. Ipni atrofida naysimon tuzilma – g'ilof bo'lib u bir necha qavatli yoki qavatsiz bo'ladi. Shilliq o'rama polisaxaridlar (galaktoza, mannoza, glyugoza, ramnoza) va uran kislotalari-glyukuron, gallakturonidan iborat. Uni tarkibida 2 % ga yaqin oqsil, juda oz miqdorda yog' kislotalari, fosfatlar bor. Shilliq g'ilofda gemitsellyuloza mavjudligidan xlor-rux-yod tasirida ko'k ranga kiradi. Shilliq g'ilof rangli ham bo'ladi. Muhit pH nordon sharoitdagilarda qizil, kuchli sho'rlangan muhiddagilarda ko'k-yashil tusga kiradi.

Hujayra devorida mineral tuzlar ayniqsa temir, kremniy, fosfatlar, sulfidlar bo'ladi. Ular mayda kristallar, donalar, nay kabi ko'rinishlarga ega. Bazan kaltsiy karbonat ko'p miqdorda to'planishi mumkin. Natijada storomatolitlar hosil bo'ladi.

Sitoplazma: plazmolemma. sitoplazma ancha qo'yiq va harakatsiz. Hujayraning o'rta kesimini rangi ochroqligidan unisen-troplazma, ranglirok joylarini-**xromatoplazma** deyiladi. sitoplazma plazmolemma bilan o'ralgan u hujayra devorining ichki qismiga taqalib turadi. U hujayra ichiga yo'nalgan buklamalarni ko'plab hosil qiladi. Plazmolemmaning kimyoviy tarkibi eukariotlar plazmolemmasidan farq qilmaydi, sterinlar yo'q xolos. Ularda kartinoidlar ko'p, fotoximoya vazifasini bajarishi mumkin.

TSentroplazmada DNKsitoplazma bo'ylab yoki atrofida joylashadi. DNK to'plangansentroplazmani **nukleoplazma** yoki **nukleoid** deyiladi. Eukariotlardagi DNK dan farqlanib gistonlar bilan bog'lanmagan. Bir hujayralilarida DNK soni $1,6 \cdot 10^9$ dan $8,6 \cdot 10^9$ gacha bo'ladi, o'lchamlari boshqa bakteriyalarnikiga yaqin.

Ribosomalar. Ular 70 S-prokariot tipda. Eukariot hujayralardidan mayda, xloroplastlar va mitoxondriylardagi bilan o'xshash.

Gaz vakuolalari. Ko'k-yashil suvo'tlarning hujayralardagi gaz vakuolalar yorug'lik yordamida ishlatiladigan mikroskoplarda yumaloq yoki noanik shakldagi tanalar ko'rinishida bo'ladi. Ular ko'k-yashil suvo'tlarning suvda qalqigan holda bo'lishini, tanasini nazorat etishni, suv qaridagi holatini, cho'kish va ko'tarilishni nazorat etadi.


Gaz vakuolalarining soni suvo'tning sistemadagi o'rni, yoshi, o'sish sharoitlariga bog'liq. Suvo'tlarining ayrimlarida gaz vakuolalar doimo bo'lsa, boshqalarida malum davrdagini hosil bo'ladi. *Gloeothrictia*, *Tolyphothrix*, *Calothrix* turkumlarida gaz vakuolalar garmogoniylardagi bo'ladi xolos.

Tilakoidlar. Bu suvo'tlardagi fotosintezda kislород ajraladi. Ularning tilakoidlari fotosintezlovchi pigmentlar bilan bog'liq. Tilakoidlar boshqa suvo'tlardagi shundaylarga o'xshaydi, faqat ular xloroplastlarda jamlanmagan. Tilakoidlarsitoplazmada bittadan o'zaro teng masofadagi uzoqlikda, proxlorofitlarda esa to'plangan holda joylashadi. Hujayradagi tilakoidlarning soni, ularning joylanishi, pigmentlarini kontsentratsiyasi hujayrani yoshi, o'sayotgan muxit sharoitiga bog'liq.

Pigmentlar. Tilakoidlarning membranalari yog'da eriydigan pigmentlarga ega. Xlorofillardan a, b, c va d mavjud. Xlorofillani bo'lishi bu suvo'tlar guruhini boshqa fotosintezlovchi bakteriyalardan farqlovchi muhim belgi bo'lib hisoblanadi. Xlorofill a yashil, evglena va xloraraxniofit suvo'tlar, strentofit va dinafitlarning ayrimlarida ham bor. Karatinoidlardan exinenon, miksoksantofill, ostsillaksantin va kantaksantin faqat ko'k-yashil suvo'tlarida uchraydi. v-karotin ularda eukariotlarga nisbatan katta nisbatlarda bo'ladi. b-karotin va zeaksantin ham bor. Xloroplastlarning asosiy karotinoidilyutenin karatinoidi bu suvo'tlarda yo'q. Ko'k-yashil suvo'tlarining karatinoidlarini anchagina qisminisitoplazmatik membranada va hujayra devorining lipopolisaxarid qavatida bo'ladi.

Suvda eriydigan fikobiliproteinlar, fikobilisomalar tilokoidlarning yuzasida joylashgan. Ularning 4 tipi: S-fikotsianin, allofikotsianin mavjud. Ulardan dastlabki ikkitasi deyarli barcha ko'k-yashil suvo'tlarda, qolgan ikkitasi ayrim turlardagina bor. Fikotsianin va fikoeritrinlarning nisbatlari yorug'lik tasirida o'zgaradi. Yashil yorug'likda fikoeritrin sintezlanib qizil, qizil yorug'likda ko'k-yashil rang hosil qiladi. Bunday xodisani **xromatik adaptatsiya** deyiladi.

Fotosintez. Eubakteriyalar orasida faqatsianobakteriyalar fotosintezda kislород ajratadi. Eukariotlardan farqlanibsianobakteriyalar elektron donori sifatida vodorod sulfiddan foydalananib sof oltin-gugurt hosil qiladi:



Bundaysianobakteriyalar fakultativ anoksigen fototroflar hisoblanib yetarli yoritilganda va aerob sharoitda, oltingugurt ko'p bo'lganda ham yashay oladi. Ostsillatoriyalardan tashqari fakultativ oksigen fotosintezni *Lynghya*, *Phormitum*, *Synechocystis*, *Prochlorothrix* turkumlarining shtammlari amalga oshiradi. Anoksigen fotosintez *Synechococeus elongates* turida ham aniqlangan, elektron donor sifatida tiosulfatdan foydalanadi.

G'amlangan mahsulotlar. Ko'k-yashil suvo'tlarining hujayralarida g'amlanadigan moddalarning ko'pchiligi to'planadi. Fotosintezda **sianofitsin kraxmal (glikogen)** hosil bo'ladi, yod tasirida to'q ko'k ranga kirmaydi. Ko'k-yashil suvo'tlar azotni tez o'zlashtirib **sianofitsin donalari** xolidasentro va xromatoplazma orasida to'planadi. Ularning kattaroqlarini yorug'lik mikroskopida ko'rish mumkin. Fosfatlar **polifosfat donalar** holida to'planadi. Polifosfatlarni bakteriyalar, zamburug'lar, eukariot suvo'tlar to'playdi, biroq yuksak o'simliklarda ular yo'q.

Karboksisomalar. Rubisko fermentida kristall shaklda to'planadi. Karboksisomalar hujayraning o'rtasida ko'p qirrali shaklda bir qavatli membrana bilan o'ralgan. Karboksisomalar geterotsistalarda yo'q. Lipidlarsitoplazmada mayda tomchilar xolida uni chekkasi bo'ylab joylashadi.

Nafas jarayoni. Eukariot suvo'tlarda nafas va fotosintez xloroplastlar va mitoxondriylarda amalga oshadi. Ko'k-yashil suvo'tlarida nafas jarayonlarining quyidagi tiplari mavud:

Obligat fototroflar yorug'likda, uglerod manbai anorganik modda bo'lgan sharoitdagilar; ularning ayrimlari auksotrof bo'lib organik moddaning ozginasini uglerod manbai sifatida emas, vitaminlar kabi foydalaniladi;

Fakultativ xemogeterotroflar qorong'uda ham o'saoladigan geterotroflar organik moddani (glukoza, fruktoza, bitta yoki ikkita disaxarid) o'zlashtirib yorug'da o'sadi, xemogeterotrof o'sishi yorug'dagilarga nisbatan sekin ry beradi.

Fotogeterotroflikda yorug'likda organik modda uglerod manbai sifatida foydalaniladi. sianobakteriyalar **miksotrof** oziqlanish xususiyatiga ega.

Akineta hosil qilish. Noqulay sharoit yuzaga kelishi bilan ko'k-yashil suvo'tlar qalin po'stli timim sporalarini hosil qiladi. Ular g'amlangan moddalar bilan to'la bo'lgan **Akinetalar** bir necha

yillar davomida noqulay sharoit tugagungacha hayotiy faoliyatini saqlay oladi. Masalan, **Anabaena** sporalari 64 yildan *Nostoc commune* 100 yildan ko'proqdan keyin ham unish qobiliyatini saqlagan.

Ko'payishi. Ko'k-yashil suvo'tlarning barcha tirik hujayralari ko'paya oldi. Bir hujayralilarning bo'linishi bilan ularning ko'payishi ham ro'y beradi. Ko'p hujayrali va koloniya hosil qilganlarining hujayralarini bo'linishi bilan ularning o'sishi, kattalashuvi ro'y beradi, ko'payishi bilan bog'liq emas. Hujayrani bo'linishi bir, ikki, uch yassilikda ro'y berib, turli morfologik ko'rinishida ifodalanadi. Ipsimon tuzilganlarida uzunasiga ko'ndalang ravishda bo'linishi ro'y beradi. Ayrimlarida bitta ipning hujayralari ikki yoki uch yassilikda bo'linishi natijasida ikki yoki ko'p qatorli trixoma (masalan, *Stigonema turcumida*) hosil bo'ladi. Ko'k-yashil suvo'tlar uchun hujayrani teng ikkita qismga – **binar bo'linish** xos. Hujayrani bo'linishi tez ro'y bersa, yetarli darajada kattalashaolmay qoladi, bu vaqtida **nannotsitlar** hosil bo'ladi.

Sianobakteriyalar uchun **vegetativ ko'payish** ko'proq xos. Bir hujayralilarda ko'ndalangiga oddiy bo'linish, koloniyani qismlarga ajralishi, ikki bo'laklarga bo'linishi bilan amalgalashadi. Oxirgi holatda faqat ko'payish emas, faol harakatga hatto tarqalishga xizmat qiladigan **gormogoniylar** yuzaga keladi.

Jinssiz ko'payish. Qalin po'sti bo'lmagan maxsus hujayra – ekzospora va endosporalar yordamida amalgalashadi. **Ekzsporalar** (beotsitlar) endosporangiyalar ichida hosil bo'ladi. Beotsitlar bakteriyalardagi endosporalar bilan almashtirmaslik uchun qo'llanilgan atama endosporangiyini po'sti yorilganidan yoki shilimshiq-langanidan keyin tashqariga chiqadi. **Ekzsporalar** mohiyatan endosporalarning boshqachasi, ular bittadan, yakka yoki zanjir ko'rinishiga ega.

Harakati. Ayirmsianobakteriyalar yorug'likdan to'la foydalish maqsadida harakatlanadi. Sirpanish suvo'tlarlar harakatining eng ko'p tarqalgan turi. Bunday harakat ipsimon tuzilishlarning ko'pchiligiga, bazi bir xujayrililarda ham ro'y beradi. Ostsillatoriyalarda sirpanish aylanish bilan amalgalashadi, boshqalarida unday emas. Yorug'likka tomon harakat ijobjiy **fototaksis**, aksinchasi – salbiy **fototaksis** hisoblanadi. Yorug'likni kuchi harakat tezligini (**fotokinez**), uni ko'payishi yoki kamayishi harakat yo'nalishini o'zgartiradi (**fotofobiya**).

Ekologiyasi va ahamiyati. Ko'k-yashil suvo'tlar hamma joylarda chuchuk suv havzalarining planktonida, bentosida, oqmaydigan, sekin oqadigan suvlarda, sho'rhoq, sho'r suv havzalarida tarqalgan. Bu suvo'tlar dengizlarning fitoplanktoni, **epilit** (*Scytomeia*) va **endolit** (*Mastigocoleus*) sifatida ko'p uchraydi. Ko'k-yashil suvo'tlarni qaynok buloqlar, artezian quduqlar, qor ustida, tog'larning nam qoyalari, tuproq yuzasi va uni ichida, boshqa organizmlar bilan simbioz holda ham tarqalgan.

Ko'k-yashil suvo'tlarning ko'pchiligi – mezofil, harorat odatda 40°C gacha oraliqda, mo'tadil 20 va 35°C oralig'ida ko'p tarqalgan. Ular orasida 65 -69°C da ham o'sadiganlari va 85°C da ham o'lmaydiganlari bor. Bu suvo'tlarni qorni ustidan, Antartikaning ko'llaridan, issiq saxrolar, ancha sho'r suv havzalardan ham topish mumkin. Ko'k-yashil suvo'tlar mo'tadil yoki bir oz ishqoriy muhitni xush ko'radi. Ayrim turlari tuproqda, qushlarning tezaklarida ham bor.

Ko'k-yashil suvo'tlar sodda hayvonlar (*Paulinella chromatophora*), yopiq urug'lilar (*Gunneria*), ochiq urug'lilar (*Cycas*, *Zamiya*), paprotniklar (*Azolla*), moxlar (*Blasia*, *Anthoceros*, *Sphangum*) lishayniklar bilan ham simbioz holda tarqalgan. Ko'k-yashil suvo'tlar boshqa organizmlar bilan hujayrasida va undan tashqarida birlashma hosil qiladi. Hujayradan tashqarida tabiatda keng tarqalgani zamburug'lar bilan lishaynik hosil qilganidir. Ko'k-yashil suvo'tlar jami lishaynik turlarining 8% tarkibida bo'lib, 1700 ga yaqin turlarda bu suvo'tlar bor. Odatiysianobiont bu-nostok.

Sharq mamlakatlari dagi sholipoyalarda o'g'it sifatida azolla paprotnigidan bir necha yuz yillardan beri foydalaniladi. Uning barglaridagi bo'shliqda *Anabaena azollae* bo'ladi (bu suvo'tlar mustaqil holda ham tarqalgan). Ko'k-yashil suvo't o'zlashtirgan atmosferadagi molekulyar azotdan o'simlik foydalanadi. Simbioz holdagi anabenada geterotsistalarining soni bir necha marta ko'p bo'ladi. Paprotnikdagagi simbiont bir kunda bir hektar maydonda 3 kg ga yaqin azot to'playdi.

Chuchuk suvlarda tarqalgan diatom suvo'ti *Rhopalodia gibba* hujayrasida bir hujayrali atmosferadagi molekulyar azotni o'zlashtirib to'playdigansianobakteriyalar bor. *Nostoc punctiforme* azot o'zlashtiruvchi hisoblanib, tuproqlarda keng tarqalgan, *Geosiphon* zamburug'ida endosimbont holda ham tarqalgan.

Ko'k-yashil suvo'tlar tabiatdagi jarayonlarda katta ahamiyat kasb etadigan vazifalarni amalga oshiradi. Ular yer kurrasida eng qadimgi fotosintezlovchi organizmlar hisoblanib, taxminan 3-3,5 mlrd yillar ilgari eng ko'p tarqalgan. Ular tufayli atmosfera kislorodga boyiy boshlagan.

Ochiq okeanlardagi fotosintez mahsulotlarining juda katta qismi pikoplankton hisobiga to'g'ri keladi. Pikoplanton asosan bir hujayrali kokkoid ko'k-yashil suvo'tlaridan tashkil topadi. Bu *Synechococcus* va *Synechocystis* turkumlarining suvo'tlaridan iborat. Okeanlarning fotosintez natijasida to'plangan mahsulotlarining 20% ni planktondagisianobakteriyalar hosil qilishi hisoblangan.

Atmosferadagi molekulyar azotni o'zlashtirgani tufayli ko'k-yashil suvo'tlar suv havzalari va tuproqdagi azotli birikmalar bilan boyishida faol ishtirok etishi bilan uni tabiatda davra bo'lib aylanishida ahamiyatlidir. Ular unumsiz joylarda tuproq hosil bo'lishida ishtirok etadi.

Ko'k-yashil suvo'tlarning ayrimlari, nostok kabilalar antibiotik bakteriotsin, sianobakterin hosil qiladi. Bu antibiotiklar ularning yashash uchun kurashlarida asqitadi deb hisoblanadi.

Ko'k-yashil suvo'tlarning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1). Ularning ayrimlarini istemol qilinadi.

2). Azot to'plovchilaridan tuproqning unumdarligini oshirishda qo'llaniladi.

3). Suv havzalarida suvo'tlarni haddan eiyod ko'payib "ko'karib" ketishini oldini olishda.

4). Ilmiy-tadqiqot ishlarida obekt sifatida qo'llaniladi.

Ko'k-yashil suvo'tlar eubakteriyalardan chiqib kelgan bo'lishi mumkin, bir qator farqlanadigan belgilarga (tuzilishdagi xilma-xilligi, fotosintezda kislorod hosil qilishi, geterotsistani mavjudligi, bakteriyalardagidek endosporalarni yo'qligi va boshqa.) ega. Eng qadimgi qazilmalarini yoshi Avstraliyaning g'arbiy tomonidan topilganida 3,5 mlrd yoshga ega deb taxminlanadi. U joylardan hozirgi *Oscillatoria* ko'rinishiga o'xshaganlari topilgan. Qadimgilarini ikkinchi isboti yana shu Avstraliyaning g'arbida sianobakteriyalar hosil qilgan stromatolitlarning yosh 2,7 mlrd yil deb belgilangan.

Ko'k-yashil suvo'tlarining taksonomiyasiga doir darslik, monografiyalarda ularning nomenkulaturasi haqida yakdil fikr yo'q. Stanositlarning nomenkulaturasi bo'yicha bir necha nuqtai-nazarlar mavjud. Bittasining tarafdorlari bakteriyalar nomenkulurasining Xalqaro kodeksi talablariga bo'ysunishi lozimligini takidlashib undasianobakteriyalarni fitobakteriyalar bo'limining ko'k-yashil fikobakteriyalar sinfi darajasida qarashni taklif etishadi. Sianobakteriyalarning bu nomenkulatura talablariga javob berdirish anche qiyinchilik tug'diradi.

Bu nuqtai-nazarda qarshisi bakteriyalarning nomenkulurasini Xalqoro botanik nomenkulaturaga moslash. Ko'k-yashil suvo'tlarining tur sifatida foydalilanildigan morfologiya belgilaridan trixomaning o'lchamlari, g'ilofining shakli, geterotsista hosil qilishi ko'p hollarda tashqi muhitning sharoitlari bilan bog'liq, shuning uchun, tafsiflangan bir qator turlar bir turning ekotiplari ham bo'lishi mumkin.

Hozirgi kundagi ko'plab suvo'tlarga oid kitoblarda ko'k-yashil suvo'tlar *Cyanophyceae* yagona sinfi kamida beshta tartibga: Chroococcales, Pleurocapsales, Oscillatoriales, Nostocales, Stigonematales mansubligi yozilgan. Bu tartiblarga 150 ga yaqin turni va 2000 tur (undan ko'p yoki oz bo'lishi mumkin) kiradi. Yuqoridagi tartiblarga mansub ko'k-yashil suvo'tlarning 16 Sp RNK sining taxligi ko'rsatganki Pleurocapsales, Nostocales va Stigeonematales da tabiylik mumkin, Oscillatoriales, Chroococcales-geterogen, filogenetik aloqada emas.

Xrookokklar tartibi – Chroococcales

Bu tartibga bir xujyrali va koloniya xolida tuzilgan, ko'payishi bir, ikki-uch yo'nalishda bo'lib nannotsit va kurtalanishni hosil qiladigan suvo'tlar mansub. Koloniyalari yumaloq, cho'ziq yumaloq, kubsimon shakllarda bo'ldi.

Mikrotsistis – *Microcystis* chuchuk suv havzalarining planktonida keng tarqalgan. Koloniyasi sferik yoki aniq shaklda emas, sharsimon hujayralari shilimshiq ichida. Hujayrasida gaz vakuolari bor. Bu turkumning suvo'tlari yurtimizning turli suv havzalarida uning 30 dan ortiq turlari tarqalgan, ulardan *M. aeruginosa*, *M. aerugtnosa f. skos-aquae*, *M. pulrerea* boshqalarida ko'proq uchraydi.

Gleokapsa - *Gloeocarsa* koloniya hosil qiladi. Hujayralari ovni yoki ellips shaklga ega. Har bir hujayrani xususiy shillig'i bor. Bo'linish natijasida hosil bo'lgan hujayralar ham shillimshik bilan o'raladi, natijada ko'p qavatli shilliq o'rama yuzaga keladi. Shilimshiq rangsiz, sariq, jigartusli kabi ranglarda bo'lishi mumkin. Turli suv havzalarda ayniqsa tez oqadiganlarida toshlar, tog' qoyalarida ko'p uchraydi. Respublikamizda bu turkumidan *G. minor* boshqalaridan ko'ra keng tarqalgan.

Merismopediya - *Merismopedia* yassi tabletkasimon koloniya hosil qiladi, hujayralari sharsimon, ikki yo'nalishdagina bo'linadi. Suv havzalarning planktonida, ularda *M. pulverea* boshqalaridan ko'p tarqalgan.

Xamesifon - *Chamaesiphon* bir hujayrali epifit suvo'ti turli suv havzalarida tarqalgan. Ellips shakldagi shilimshiqli xujyraga ega. Ekzosporalar hosil qilib ko'payadi.

Ostsillatoriyalar tartibi - Oscillariales

Bu tartib ko'p hujayrali gomotsit trixomali, g'ilofli, g'ilofsiz turlarni birlashtiradi. Ipsimon tuzilish deyarli tarmoklanmagan, gormogoniylar yordamida ko'payadi. Geterotsista, akinetalar yo'q.

Ostsillatoriya (*Oscilltoria*) - turkumining iplari shoxlanmagan, uni shilimshiq yopqichi bor yoki yo'q bo'lishi mumkin. Agar bo'lsa uning har birini o'zida, ostsillatoriya to'lkinsimon harakatlanish kuzatiladi. Turkum 100 dan ortiq turlarni birlashtirib, bizning turli ekologik sharoitli suv havzalarimiz va suvdan tashqarigi joylarda keng tarqalgan. Yurtimizda ostsillatoriyaning *O. brevis*, *O. formosa*, *O. pitineps*, *O. tenuis* barcha tabiiy va suniy suv havzalarida ayniqsa keng tarqalgan.

Spirulina - (*Spirulina*) turkumning suv o'tlarini trixomasi buralganligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bu turkumning 20 ga yaqin turlari yurtimiz sarxadida, ayniqsa *S. major*, *S. subtilissima*, *S. tennissima* keng tarqalgan.

Trixodesmum - *Trichodesmum* tallomining gomotsit koloniyalarni hosil qiladi. Bu turkumning suvo'tlari tropik va subtropik mintaqalardagi okeanlarning suvlarida keng tarqalgan, atmosfera azotini o'zlashtirishda dukkakli yuksak o'simliklardan qolishmaydi.




Ossillatoriyalar. 1. Oscillatoria; 2. Spirulina; 3. Lyngbya.

Lingbiya – *Lynglya* turkumiga mansub suvo'tlarining trixomasida biroz sezilib turadigin shilimshiqning borligi bilan ostsillatoriyanidan farqlanadi. Yurtimizning suv havzalarida lingbiyaning 20 ga yaqin turlari bor, ular orasida *L.limnetia*, *L.tenuissima* ko'p uchraydi.

Nostoklar tartibi – Nostocales

Bu tartibga mansub suvo'tlarning hujayralari shakli vazifalariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Ularda xaqiqiy shoxlanish yo'q. Ammo soxta shoxlanganga o'xshash ko'rinishli turlari bor. Vegetativ hujayralar bilan bir qatorda geterotsista va akinetalar ham mavjud. Trixomalari bir qatorli, geterotsistalar interkalyar va qisman terminal joylashgan.



Nostok – Nostoc.

Tabiiy sharoitdagisi va mikroskopdagi ko'rinishi.

Nostok – *Nostoc* turkumining koloniyasini kattaligi yong'ok-day, undan ham katta bizning sharoitimizda suvda tarqalganlari to'q ko'k-yashil, quruklikdagilari qora tusda, qalin shilimshiq bilan

o'ralgan. Trixomalari shilimshiq o'ramali. Odatda adirning yuqorigi, tog' oldi va tog'lardagi jilg'alarda tarqalgan. Tuproq ustida tarqalgan. *N.commune* respublikamiz sarxadlarida bug'doydoshlar oilasiga mansub o'simliklar bilan aralash xoda o'sgan. Tog' oldi va tog'larda dengiz sathidan 800 m dan to 2100 m gacha bo'lgan balandliklar yalangliklarida uchraydi. Yog'ingarchilik yoki xavo namligida suvo't rangi to'k ko'k-yashil, boshqa davrlarda quriganda qora tusda, uning biomassasi 1 km² maydonda 35 kg gacha boradi.

Anabena - *Anabaena* turkumi suvo'tlarini ipi shoxlanmag'an, shilimshiqli yoki shilimshiqsiz, bittadan yoki shilimshiq ichida tartibsiz holda joylashadi. Vegetativ hujayralarining shakli o'zaro o'xshash, bazan farqlanishi mumkin. Geterotsistalari odatda interkalyar bazan (yosh iplari) termial joylashgan. Anabena suv havzalari va tashqarigi joylarda keng tarqalgan. Yana bir xarakterli belgisi bo'lib, spora hosil qilishi hisoblanadi. Ko'pchilik turlari atmosferadagi molekulalar azotni o'zlashtirib uni bog'langan holga aylantiradi. Yurtimizdagи suv havzalari va boshqa turli ekologik muxitlarda anabenaning 50 dan ortiq turlari aniqlangan, ulardan *A.bergi*, *f.minor*, *A.cylindrica*, *A.ocillariooides* keng tarqalgan.

Afanizomenon - *Aphanizomenon* Trixomalari to'g'ri chiziq xolda, geterotsistali suvo't. Shilimshiqsiz to'plam xolidagi koloniyalarni hosil qiladi. Respublikamizdagи oqmaydigan suv havzalarida boshqalaridan *A.flus-aquae* ko'p uchraydi.

Kalotriks - *Calothrix* turkumiga mansub suvo'tlar simmetrik tuzilgan trixoma va iplari asosidan uchigacha ingichkalashib boradigan uzun o'simta bilan tugaydi. Geterotsistalari bazal joylashadi. Kalotriks turkumi bittadan yoki to'plangan xolda joylashib shilimshiq hosil qilmaydi. Yurtimizda 30 dan ortiq trlari aniqlangan, ulardan *C.brauni* boshqalardan ko'p uchraydi.

Gloeotrichiya - *Gloethichia* Koloniysi dirildoqsimon, shar, anik shaklga ega bo'lмаган holda, birikib yoki mustaqil holda o'sadi. Qamchisimon iplari koloniyada enli geterotsista va sporali tomoni shar markazida joylashadi. Bu turkumdan respublikamizda 10 dan ortiq turi, ulardan *G.intermedia* boshqalaridan ko'p uchraydi.

Rivulariya - *Rivularia* Koloniya hosil qiladigan, geterotsistali ipsimon trixomli, rangsiz tuk bilan tugallanadi. Har bir ipning asosida geterotsista joylashadi. Shilimshiqli koloniyalarda ip aniq

ko'rimishga ega. Bu turkumdan respublikamizdagi suv havzalarda 10 dan ortiq turlari aniqlangan.


Stigonemalar tartibi - Stigonematales

Bu suvo'tlarida hujayralar shakli va vazifalariga ko'ra tabaqalashganligi bilan harakterlanadi. Xaqiqiy shoxlangan bilan birga soxta shoxlangan ko'rinish ham mavjud. Iplari shilimshiq o'ramali, bazan shilimshiqsiz. Trixomalari bir yoki ko'p qator joylashgan iplardan iborat, turli shakldagi to'plamlarini hosil qiladi. *Stigonemalarga* ko'k-yashil suvo'tlat ichida morfologik jihatdan murakkab tuzilgan turlar mansub hisoblanadi. *Stigonema* turkumining suvo'tlari morfologiya jihatidan xilma-xilligidan suv havzalarda oz uchraydi.

Stigonema – *Stigonema* (-rasm. A). Trixomalari geterotsit, bir necha tipdagи hujayralardan tashkil topadi, xaqiqiy shoxlangan, har tomonga yo'nalgan. Shilliq g'ilofi keng, ko'p qavatlari. Hujayralar katta, shar yoki bochka ko'rinishida. Geterotsistalari yondosh yoki interkalyar joylashgan, sporalari kam. *Stigonema* turli suv havzalarida, namli qoyalar, tuproqda turli ko'rinishdagi to'plamlarini hosil qiladi. Respublikamizda bu turkumning 10 dan ortik turlari aniqlangan



1



2

Stigonemalar.

1-Stigonema turfascum(Engl. Bot.) Cooke; 2-Mastigocladus.

Mastigokladus – *Mastigocladus* tallomi geterotsit, murakkab tarzda shoxlangan, u xaqiqiy va soxta qo'rinishda ham bo'ladi. Asosiy ipdagи hujayralar malum darajada shar shaklida, shoxlanganlarida cho'ziksilindrsimon. Shilliq o'ramsi yupqa. Geterotsistalari interkalyar joylashgan, sporalari aniqlanmagan. Bu turkumning suvo'tlari ko'pincha issiq buloqlarda, bizning respublikamizda uning bir necha turi aniqlangan, ular orasida *M.laminosus* boshqalaridan ko'p uchiraydi.

EVGLENOBIONTLAR OLAMI - EUGLENOBIONTES

Evglenobiotlar olamiga ham avtotrof ham geterotrof. Ulardagi mitoxondriy ko'p hollarda disksimon-yassi tuzulgan organizmlar mansub. Odatda bir hujayrali monad, ameboidlari ham kam emas, ular orasida koloniya tuzilishiga ega bo'lganlari ham uchraydi. Xivchinlari silliq yoki qoplamlari. Hujayrasining qoplami plazmolemma yoki pellikuladan iborat. Hujayrada odamda peroksisiomalar bor. Yadrosi bitta, mitoz yopiq tarzda o'tadi, ko'payishi uzunasiga teng qismiga bo'linish bilan ro'y beradi.

Evglena suvo'tlar bo'limi - *euglenophyta* (*Euglenophycota*, *euglenophycinees*, *euglenozoa*). Bo'limni nomi uning xarakterli turkumiga - *euglena* (grekcha eu-yaxshi (aniq), glene- ko'z) bog'lab nomlangan. Evglena suvo'tlar quyidagi eng muhim belgilarga ega.

1. Ko'pchilik vakillari bir hujayrali monad, ayrimlari koloniyaga jamlangan.

2. Xivchinlari halqumdan chiqadi, ular ko'pincha 1-2 ta (kamdan kam qo'proq). Xivchin yuzasida ingichka tuklar bor.

3. Xloroplast uch qavat membrana bilan (dinofitalardagiday) o'ralgan, lamellalari uch tilakoidli. Xloroplastidagi DNK mayda dona holida. Xloroplastida xlorofil a va b bor (xlorofil s yo'q). Ko'pincha pigmentlardan muhimlari v-karotin, neoksantin va diadinoksantin. Xloroplastlari pirenoidsiz bo'lishi mumkin.

4. Ko'zchasitoplazmasida xloroplastdan narida karotinli bir qator globulalardan iborat. Har bir globulaning o'zini membranasi bor.

5. G'amlangan polisaxarid - paramilon, donalar holidasitoplazmada hosil bo'ladi.

6. Evglenalarning ko'pchiligida xloroplasti yo'q. Bunday geterotraflar saprotrof ham, fagotrof ham bo'lishi mumkin.

7. Mitoxondriylari disksimon kristli.

8. Hujayra po'sti - pellikula, asosan 80% oqsildan iborat, sellyuloza yo'q. 9. Mitoz yopik, yadrocha saklanadi.

10. Ko'payishi hujayrani oddiy uzunasiga bo'linish bilan ro'y beradi. Chuchuk suv havzalari va dengizlarda tarqalgan.


Tana shakli. Evglenalarning shakli urchuqdan oval, yassi yaprok ninasimongacha. Tanasining oldi yumaloklashgan, orqa qismi ingichkalashgan. Hujayra spiral buralgan ham bo'dadi, uzunligi 5 dan 500 mkm gacha undan uzunrok ham bo'ladi.

Xivchin apparati. Ko'rindigan xivchinlari 1, 2, 3, 4 va 7 ta bo'lishi mumkin. Xivchinlar hujayraning oldingi tomonidagi kolbasimon o'yik halqumdan chiqadi. Evglenalarda ko'pincha ikkita bir xil uzunlikda bo'limgan xivchin mavjud: bittasi oldinga (oldingi, yelka, dorsal tomonidagi) – ikkinchisi – orqaga (orqa, qorin, ventral tomondagisi) yo'nalgan. Xivchin ichida o'rama mavjudligidan yo'g'onlashgan, shu boisdan boshqa eukariotlar suvo'tlardagidan sezilarli ko'rindi. Evglenalarning xivchinlari eukariotlar aksonemalariga aynan o'xshash keladi.

Evglenalarning yorug'likni sezadigan ikkita: birinchisi *parafagellat tana* (parabazal shishma) fotoretseptorlikni bajaradi. Ikkinchisi – ko'zcha (stigma), u membranali 50-60 globuladan iborat. Globulalardagi astaksantin yoki exinenon ko'zchaga pushti-kizil rang beradi.

Hujayra po'sti. Evglenalarda hujayra po'sti *pellikula* deyiladi. Kimyoviy tarkibi 70-80% oqsildan hamda lipidlardan va uglevodlardan iborat. Pellikulasi qalin evglena suvo'tlari evglenasimon harakatlana olmaydi. Bunday qattiq pellikula *Lepocinellis*, *Phacus* va ayrimlari *euglena* turkumlariga xos. Pellikulani ostida ayirish organellalari – shilimshiq tana va mukotsistlar joylashadi. Shilimshiq tanalar *Colacium* turkumida subtratga birikadigan band, *Strombomonas*, *Trachelomonas* turkumlarida uycha yaratishda ishtirok etadi. Evglena suvo'tlarsista va palmelloid holatni hujayra atrofida qavatli shilliq o'rama hosil qiladi.

Ascoglena, *Trachelomonas*, *Strombomonas* turkumlarida uycha hosil bo'ladi. Unda monadlar bemalol joylashadi. Uychaning oldingi tomonida xivchin, ko'payganda yangi yosh hujayra chiqadi. Uycha rangsizdan to'q jigarrangacha bo'ladi. Bu temir va marganets oksidlarini to'planishi bilan bog'liq.



Evglena hujayrasining bo'linishi

Yadro. Evglenalarning hujayrasida bitta katta yadro bor. Xromosomalar bo'yalsa interfazada yaxshi ko'riladi. Mitoz yopiq sentriola yo'q. Mitoz davrida yadrocha saklanadi, metafazada cho'ziqlashadi. Telofaza davrida yadro gantelsimon ko'rinishni hosil qiladi. Sitokinez yadro bo'lingandan keyin membranani ichiga botishi bilan boshlanadi.

Xloroplast. Evglenalarda yulduz, yassiyaprok, tasma, disk o'rinishlarida pirenoidli, pirenoidsiz bo'ladi. Hujayrada odatda bir necha xloroplastlar mavjud. Harorat yuqori bo'lqanda UF-nurlar yoki antibiotiklaring tasirida plastidlarni yo'qotib rangsizlanadi. Xloroplast uchqavat membrana bilan o'ralgan. Ichki ikkita qavat yashil suvo'tlarning xloroplastlaridagi kabi, uchunchisi esa – tashqisi xazmlovchi vakuolanish deb qaraladi.

G'amlangan mahsulot. Evglenalarning ko'pchiligida g'amlangan mahsulot bu paramilon (*v-1-3-* bog'langan glyukan); ayrimlari leykozin va lipidlar g'amlaydi. Paramilon shar, ellips, halqa, tayoqcha shaklida, ayrim turlarda mayda, ko'p, boshqalarida katta (*paramiliya*) hujayrada bittadan bir nechagacha bo'ladi. Paramilon hujayrada ko'payib ketsa metoboliya sekinlashadi, harakat pasayadi.

Qisqaruvchi vakuola tanasining oldingi tomonida sferik shaklda va atrofida mayda vakuolalar qurshovida bo'ladi. Qisqargandagisi bo'shliqqa tushadi.

Mitoxondriylar Evglenalarning hujayrasida mitoxondriylar o'zaro to'r ko'rinishini ham hosil qiladi. Anaerob sharoitdagi evglenalarda mitoxondriylar bo'lmaydi.

Hayotiy davrasi. Evglenalar hujayrani teng ikkiga, oldingi tomonidan orqaga bo'lanishi bilan amalga oshadi. Evglenada tanglik holati sodir bo'lsa, qalin po'stlisista hosil qiladi. Uni hosil bo'lishi xivchinni yo'qolishi, paramilon donalarini ko'payishi, shilliq tanalar sonini ortishi kabi holatlar tasirida ham ro'y beradi. Sistalar oziq tarkibidagi azot, fosfor nisbatini kamayishi, oziq moddalarni ozligi tufayli ham hosil bo'ladi.

Evglenalarning ko'pchiligidagi jinsiy ko'payish malum emas. Jinsiy ko'payishni yo'qligi ularni jinsiy ko'payish ro'y bergungacha umumiyo'nalish evolyutsiyasidan ilgarirok ajralganligi tufayli ro'y bergen deb hisoblanadi. Boshqa nuqtai-nazar bo'yicha evglenalar jinsiy ko'payadigan ajdodlardan chiqib kelgan, birok keyinchalik uni yo'qotgan.

Evglenalar asosan chuchuk, sekin oqadagan, organik moddalarga boy suv havzalarida tarqalgan. Ularni bizning sharoitimizda hovuz, ko'lmaq, sholipoyalar, ariqlar, oqova suvlarni tozalaydagan inshoatlarning qurilmalarida uchratish mumkin. Tuproqda ularning rangsiz turlari ko'proq uchraydi. Evglenalar suvning rN 4,5-8,8 gacha, harorat 0 dan 30° S gacha, maksimal darajada rivojlanishi kuzga to'g'ri keladi.

Evglenalar orasida fotoavtotroflar, geterotroflar va miksotroflar mavjud. Jami evglenalardan 3/8 qismi fotosintezni amalga oshiradi, qolganlari – fagotrof va osmatroflar. Fotosintezlovchi evglenalar ham hatto geterotroflik qilaoladi. Geterotroflarning ko'pchiligi - saprotroflar, suvda erigan oziq moddalarni shimadi.

Evglenalar – turli tipdagi suv havzalarning biotsenozidan muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Temir, organik kislotalarning davra bo'lib aylanishida faol ishtirok etadi. Ular bilan ayrim umurtqasiz hayvonlarning lichinkalari oziqlanadi.

Miksotrof oziqlanadiganlari tabiiy suv havzalari, oqova suvlarni tozalashda ishtirok etadi. Sanitar gidrobiologiyada evglenalarning suvda mavjudligiga qarab biologik indikator sifatida qaraladi. Evglenalardan biologik tadqiqotlar olib borishda va boshqa bir qator maqsadlarda foydalilanildi.

Filogeniyasi. Bu jihatdan evglenalar yaxshi o'rganilgan guruh hisoblanadi. Evglenalarning evolyutsiyasida geterotroflik birlamchi ekanligi xaqidagi fikrlar ko'p. Fotosintezlovchi evglenalar qo'sh xivchinli fagotrof geterotroflardan chiqib kelgan deb taxminlanadi. Bu nuqtai-nazar molekulyar biologiya malumotlari bilan, fototrof evglenalarda yashirinsitosima, xivchin apparatini tuzilishi bilan isbotlangan.

Evglenalarni boshqa guruh organizmlar bilan qiyoslab yaqinlashtirish ijobiy natija bermagan. Evglenalarning evolyutsiyasi boshqa guruh suvo'tlardan ajralib qolganini ko'pchilik mutaxassislarda shubha yo'q.


Turli-tumanligi va sistematikasi. Botanik klassifikatsiyalarning ko'pchiligidagi evglenalar yagona sinf - *euglenophyceae* mansub bo'lib 50 ga yaqin turkum va 800-1000 turni o'z ichiga oladi.

Ushbu kitobda biz evglenalarning bitta sinfga va 6 ta tartibga- *Petalomonales*, *Rhabdomonadales*, *Heteroneatales*, *eutreptiales*, *euglenales*, *euglenomorphales* bo'lingan sistemani qabul qildik. Ulardan 2 tartib xaqida ma'lumot keltiramiz.

Evtreptsiyalar tartibi - eutreptiales

Bu tartibga ikkita o'zaro teng yoki deyarli teng uzunlikdagi xivchinli fototrof vakillar mansub.

Evtreptsiya-Eutreptia. Bu suvo't chuchuk suvlarda hamda dengizlarda ham tarqalgan. *Eutreptia* turkumiga mansub turlar metobalik xususiyatli, ko'zchali, uzunligi deyarli bir xil, ko'rindigan ikkita xivchinga ega. Yassi yaprok shaklidagi ko'plab



Evglena suvo'ti.

1-Halqum; 2-xivchin; 3-stigma; 4-kalta xivchin asosi; 5-uzun xivchin asosi; 6-xloroplastlar; 7-vakuola.

yorug'lik mikroskopida

xlorplastlari 25-30 donadan yulduz shaklidagi guruhlarga to'plangan. Paramilon donalari mayda. Palmelloid holat va tinim sporalari malum. *Eutreptia* harakati vaktida. palmelloid holatida ham bo'linaveradi.

Evglenalar tartibi – euglenales

Bu tartib fototrof va ulardan chiqib kelgan geterotrof oziq moddalarni osmotrof usul bilan shimagidan, ikkita o'zaro teng bo'limgan xivchinlari bo'lgan suvo'tlardan iborat.

evglena – *euglena*. Bu turkumga mansub suvo'tlar bitta ko'rinishdagan xivchinga ega. Ular turli darajada metabolitli, uzunasiga cho'zilgan, bazan spiral buralgan ham bo'ladi. Plastidlar turlicha shakkarda pirenoidli, pirenoidsiz. Oziqlanishi ko'pincha miksotrof. Paramilon mayda donalar holda to'planadi, ayrim turlarida yana katta paramiliyalar ham ko'rindi. *Euglena* harakati vaktida yoki harakatlanmaganida ko'payadi. Sista hosil qilishi mumkin, palmelloid holati ham malum. Bu turkumdan yurtimizning turli suv havzalarida 50 ga yaqin turi aniqlangan bo'lib ulardan *e.acus*, *e.proxima* boshqalaridan ko'p uchraydi.

Astaziya – *Astasia*. Bu turkum evglenaga juda o'xshagan, o'simlik qoldiklari chiriyotgan suvlarda tarqalgan turlardan tashkil topgan. Ularning hujayralarida ham bitta xivchin va ko'plab paramilon donalari mavjud, xloroplislari va ko'zcha yo'q. Harakatlanganda tanasini shakli o'zgaradi. Oziq moddalarni osmotrof shimagi.

Fakus – *Phacus*. Bu turkumning suvo'tlariga fotosintezlovchi yassilangan tanali, orqa tomonidan ko'pincha cho'ziq rangsiz o'simtasi bor bo'lgan suvo'tlar mansub. Xivchin bitta, plastidlari mayda, ko'p emas. Chuchuk turli havzalarda uchraydi. Yurtimizda bu suvo't turkumidan 30 ga yaqin turlari aniqlangan.

Traxelomonas – *Trachelomonas*. Turkumning suvo'tlari turli suv havzalarida keng tarqalgan. Uning yashil metabolik hujayrasi ichki yuzasi rangli uycha ichida joylashadi. Uycha dastlab rangsiz, keyinchalik sarg'ayadi nixoyat to'q jigar, deyarli qora rangga kiradi. Uychani shakli, nakshlari, teshigini ko'rinishi sistematik harakterga ega. Bu turkumdan yurtimizning suv havzalarida 30 ga yaqin turlar aniqlangan, ulardan *T.hispida*, *T.volvocina* boshqalardan ko'p uchraydi.

AKRAZIYALAR BO'LIMI – ACRASIO MYCOTA

Akraziyalar tabiatda keng tarqalgan, ularni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar yo'q hisobi. Ular quyidagi umumiy tafsifga ega.

1. Tanasisilindr shaklidagi fagotrof oziqlanadagan amyoba ko'rinishida. Farqli tomoni bitta katta lappaksimon psevdopodiyiga ega.

2. Harakatisitoplazmani zarb bilan oldinga tashlash bilan ro'y beradi.

3. Tanasini orqa qismida qisqaruvchi vakuolasi bor, bu joyda mayda, ipsimon psevdopodiyilar hosil bo'lishi mumkin.

4. Ko'payishi – sporalar hosil qilishi bilan ro'y beradi. Ayrim turlarida xivchinli boqich aniklangan.

5. Jinsiy ko'payishi xali o'rganilmagan. Pushti akrazis turida (*Acrasis rosea*) sporalar unib amyobaga aylanadi, ular bakteriyalar, achitqi zamburug' zoosporalari bilan oziqlanadi.

6. Mitoz va hujayrani bo'linishi natijasida yuzaga kelganlardan katta populyatsiya hosil qiladi.

7. Noqulay sharoitda (odatda birdaniga ro'y berganda) amyobasistaga aylanadi. Qulay sharoit paydo bo'lishi bilan amyobalar psevdoplazmodiyilar hosil qiladi, ulardan pushti daraxtchagacha o'xshash tuzilma – *sorokari* yuzaga keladi.

Akraziyalar hamma joyda uchraydi. ular tuproqda, o'simlik qoldiqlarida, ayniqsa hayvonlarning tezaklarida ko'p.

OPISTOKONTA – OPISTOCONTA OLAMI - AMOEBOBORA (MYXOBIONTA)

Amoebozoa oilasiga mansub organizmlarda tanasi bir yadroli amyoba ko'rinishida ular psevdopodiyli yoki psevdopodiysiz bo'lib ko'p yadroli plazmodiy, psevdoplazmodiy yani amyobalar koloniyasini hosil qiladi. Bu oilaga mansub organizmlardan haqiqiy shilimshiqlar – **Myxomycota** va distiostelalar – **Dictyosteliomycota** haqida ma'lumotlar keltiramiz.

HAQIQIY SHILIMSHIQLAR BO'LIMI - MYXOMYCOTA

Xaqiqiy shilimshiqlar quyidagi umumiy tavsifga ega:

1. Vegetativ tanasi u yoki bu darajada gigant amyoba ko'rinishiga (*plazmodiy* deb ataladigan) ega.


2. Ko'payganda plazmodiy turlicha shakllarda ichi spora bilan to'lgan idishga o'xshab qoladi. Bazan bu idishdagi spora oz yoki faqat bitta bo'lishi mumkin. Spora unganida bir yadroli amyoba-simon hujayra (miksamgyoba) yoxud bitta yoki ikkita (xivchin ikkita bo'lsa bittasi ikkinchisidan uzun) xivchinli zoospora (planotsit)ga aylanadi. Ko'p hollarda xivchinlar tezda yo'qolib zoospora miksamgyobaga bo'linib ko'payadi. Malum vaktdan keyin ular ko'shilishib zigotani hosil qiladi. Bir qator turkumda miksoamyobalar bo'lmaydi, jinsiy jarayon xivchinli hujayralar orasida ro'y beradi.

Vegetativ holatida ular diploid, sporalar hosil qilish oldidan yadro meyoz bo'linadi, shu boisdansistaga aylangan sporalari gaploid yadroga ega.

Tuproqda, o'lik organik qoldiqda tarqalgan, bakteriyalar, zamburug'larning zoosporalari, bir hujayrali suvo'tlar bilan oziqlanadi.


Protostelidlar sinfi – Protosteliomycetes

Bu sinfga mansub shilimshiqlar boshqalari orsida eng soddasи hisoblanadi. Ularning rivojlanishi –rasmda ifodalangan. Vegetativ holatida ko'p yadroli mayda plazmodiy, spora hosil qilish oldidan bir yadroli bo'laklarga bo'linib ketadi.



Ceratiomyxa:

1-Ceratiomyxa sporangiylari bilan; 2-Umumiy ko'rinishi.



Protostelitlarning rivojlanish sxemasi:

1-Unayotgan spora; 2-sistani hosil bo'lishi; 3-4- yadroni bo'linishi;
5-uchinchchi mitoz; 6-8-zoosporani hosil bo'lishi; 9-plazmodiyini hosil
bo'lishi; 10-sporahosil qiladigan hujayralar; 11-12-sporogenez.

Shilimshiqlarning bu sinfidan ayrimlarida jinsiy jarayon ro'y beradi.

Ceratiomyxa tarkumidan *C. fruticulosa* hamma joydag'i chiriyoqgan daraxtlarda ko'r uchraydi. plazmodiy shaffof, rangsiz yoki sarg'ish, ulardan yuzaga keladigan sporalari oq yoki sarg'ish tusda. Jinsiy jarayon ro'y berishi aniqlangan u miksogastriyalardagini eslatadi.

Shilimshiqlar sinfi - Myxomycetes

Shilimshiqlar sinfi turlarga boyligi (1000 dan ortiq) bilan bo'limda markaziy o'rinni egallaydi. Vegetativ tanasi ko'p yadroli plazmodiydan iborat. Yorug' quruq joydan (salbiy fototaksis) nam joyga (ijobiy gidrotaksis) tomon harakatlanadi. Shu boisdan ular substrat orasidan tarqalgan. Erigan organik moddalar bilan, qisman qattiq zarralar, masalan bakteriya, achitqi hujayralari bilan oziglanadi.

Shilimshiqlarning har xil turlarini laboriyatoriyada rivojlanishini o'rgangan olimlar ularda **protoplazmodiy**, **afanoplazmodiy**, **faneroplazmodiy** tiplarda bo'lishi aniqlangan. Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida bu tiplar morfologiyasidan o'xshash bo'lib keyinchalik bu o'xshashliklar yo'qolib ketadi.

Protoplazmodiy bu ko'p yadroli ameboid. Afanoplazmodiyda shilimshiq yopiq bo'lib suvsizlanishga chidamsizligi boshqalaridan ko'proq. Faneroplazmodiy tig'iz, tomirlanishli, ximoyalovchi shilliq yopqichi, qizil, sarg'ish, pushti, jigarrang va qora tusda. Sporangiylari plazmodiy yuzasida hosil bo'ladi. Miksogastra shilimshiqlarda bir necha tipdagi sporoforalar – plazmodiokari, sporangiy, psevdoetaliy va etalin hosil bo'ladi. Plazmodiokarp – aniq shaklga ega bo'limgan ko'rinishdagi spora hosil qiladigani u pardan bilan o'ralgan.

Sporangiy – sporali hosila, sharsimon qism va banddan iborat (bandsiz ham bo'ladi). **Psevdoetaliy** – bir guruh sporangiylarni yoni bilan qo'shilgan ko'rinishdagisi. **Etaliy** – bitta yirik meva tanasini hosil qilgan sporangiylarning guruhidir. Miksomitsetlarning meva tanalari o'ziga xos tuzilgan. Sporakarpning asosida steril hosila – **gipotallos** bor. U plazmodiyda meva tanani hosil bo'lishida ishtirok etmagan qoldiq bor. Sporakarpning asoasiy qismini sporalar egallaydi. Yetilgan sporalar havo oqimi bilan tarqaladi. Ular uzoq muddat (bir necha o'n yillardan) unishi qobiliyatini saqlay oladi.


Qulay sharoit yuzaga kelganda spora unib zoosporaga aylanadi. Bu harakatlanadigan hujayralar oziqni amyobaga o'xshab shishadi. Zoosporalar bir necha marta bo'lanishi mumkin va nixoyat xivchinlarini tashlab yumoloqlashadi, miksamyobaga aylanadi, kattalashadi va u ham bir necha marta bo'linadi. Sporalari unib miksamyobaga aylanadi. Zoosporalar va miksamyobalar qo'shilib zigotani hosil qiladi.

Bu sinfning vakillari tuproq, go'ng, chiriyotgan to'ngak kabilarda hayot kechirishadi.

Fizariyalar tartibi - Physarales

Bu tartib shishimshiqlar ichida eng ko'p turlarni jamlagan. Sporangiyda mayda donalar yoki kristalllar xolida ohak bor. Sporalar to'q tusda, deyarli qora. **Physarum** turkumining turlarida ohaq donalari bilan qoplangan alohida sporangiylari bo'ladi.

Bu turkumning orasida eksperimental biologiyada keng qo'llanadigan *P. polycephalum* mashxur. Uni oldin rangsiz, keyin sapsariq yoki sarg'ish yashil plazmodiyi soyabonli zamburug'larning soyabonini ostida uchraydi. Sporangiylari uzun bandlarda bir biriga tig'iz holda joylashgan. Ular bazan o'zaro qo'shilib ham ketadi.



Fuligo sporalar.

1,3-umumiyo ko'rinishi; 2-mikroskopda ko'rinishi; 4-sporalar.

Fuligo turkumi etaliysi hajmini diametri 20 sm va undan ham kattaligi bilan farqlanadi. *F.septica* turida plazmodiy ancha katta

sap-sariq. Peridiyda ohak ko'pligidan po'sqoleq bo'lib turib qopqora sporasi ko'rinish qoladi.

Litseelar tartibi - Liceales

Bu tartibning meva tanalari sporangiy, etaliy, plazmokarpalar ko'rinishlarida bo'ladi. Sporalari yorqin rangda, bazan deyarli rangsiz.

Lycogala epidemum turkumi boshqalar orasida taniqlisi. Bu shilimshiq hamma joyd qulay sharoit bo'lgan joylar ayniqsa chiriyotgan to'ngaklarda ko'p uchraydi. Plazmodiy qizil tusda. Etaliy guruh xolida joylashadi, dona shakldagilarini diametri 1,5 sm gacha boradi. Ular dastlab usti sillik peridiyni rangi pushti, ichi shilliqli bo'ladi. Shilliq peridiy kabi pushti rangga ega. Etaliy keyin to'qlashib kulrang-qo'ng'ir tusda kiradi. Etaliy ustida teshik paydo bo'lib undan sporalar atrofqa tarqaladi. Bunday ko'rinishida u zamburug'larning meva tanalariga o'xshash ketadi.


Trixiyalar tartibi - Trichiales

Bu tartibning vakillari ko'pincha yog'ochda tarqalgan. Ularning sporangiylari bandda yoki bandsiz joylashadi, yorqin rangli. Kapillitsiyning xaqiqiy iplari turlicha, biroq har bir tur uchun o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Ular shoxlanmagan yoki shoxlangan, spiral yoki halqa shaklidagi yo'g'onlanishlarni hosil qiladi. Peridiy, sporalar va kapillitsiy odatda sarg'ish rangga ega.

Bu tartibga mansub turkumlar orasida **Trichia** turlari bandsiz sporangiyga ega, ular qatorlar hosil qilib yoki bittadan joylashadi, plazmodysi sariq. Bu turkumning turlarini qurigan daraxtlardagi ko'chgan po'stlog'ida, po'stloqsiz daraxt tanasida sariq dog'lar hosil qilgan holda ko'rish mumkin.



1-Sporangiyalar;



2-kapillitsiy ipi va sporalar;



3-ochilgan sporangiy.

Trichia:

1-Sporangiyalar; 2-kapillitsiy ipi va sporalar; 3-ochilgan sporangiy.



Lycogala sp.


**DIKTIOSTIELLAR
BO'LIMI - DICTYOSTELIOMYCOTA**

Diktiostelalar bo'limiga mansub shilimshiqlarda vegetativ tana plazmodiy yani miksamyobalarning koloniyasidan iborat. Sporalarni hosil qilish vaqtida amebalarning barcha sirpanadi, ulardan ayrimlari sporalarga aylanadi. Diktiostelalar go'ng, tuproqda chiriyorotgan o'simlik qoldig'ida odatiy organizmlar bo'lib hisoblanadi.

Dictyostelium discoideum dastlab amyoba xolida bo'lib uzunasiga bo'linib ko'payadi. Oziq modda kamayganda amebalar mustaqilligini saqlagan holda sirpanadi, keyin ular o'zaro yaqinlashib jipslashadi, oziqga intiladi, po'st bilan o'ralib pufak ko'rinishiga aylanadi, protoplazma yo'qoladi. Uni ichiga yangi amebalar kirib ular pufakka aylanadi. Natijada malum uzunlikdagi band yuzaga keladi. Eng yuqariga chiqqan amebalar ham po'stga ega bo'ladi, shisha ichidagini saqlaydi. Ular sporani hosil qiladi.

Diktiostelalar va araziyalarning xususiyatlaridagi farqlovchilari

Belgi	Dicyosteliomycetes	Acrasiomycetes
Amebaniy plazmodiysi	Ip	Lappan
Mitotik apparati	Qutblarga tartuvchi tanaga ega	Qutblarga tortuvchi tanasi yo'q
Fermentlari	AMF va boshqalar	Malum emas
Shilliq migratsiyasi	Bor	Yo'q
Spora hosil qilishdan oldin vakuolalarning bo'lishi	Bor	Yo'q
Spirokarpdagi tabaqalanish	Band hujayralari o'smaydi	Band hujayralari o'sadi
Spora vasistning hujayra yon devorini tarkibi	TSellyuloza	TSellyuloza butunlay yo'q
Xivchin	Yo'q	Ayrim vakillarida bor
Jinsiy ko'payish	Ayrim vakillarida aniklangan	Malum emas



1



2

Dictyostellium discoideum.

1-psevdoplazmodiy; 2-plazmodiydan sporalarni hosil bo'lishi.

Shilimshiqning bu turi laboratoriya da agarli ichak tayoqchali oziqda o'sadi, 3-4 kunda rivojlanishini to'la o'tadi. Shu boisdan undan turli tadqiqotlar olib boriladi. Diktilosteliyalarni protosteliyalar bilan uzoq qarindoshligi bor deb taxminlanadi. Shu bilan birga araziyalarga o'xshashligi va farqlari ham bor.

HAQIQIY ZAMBURUG'LAR OLAMI- FUNGI (MYCOTA)

Haqiqiy zamburug'lar bu turli tuman tuzulishlarga ega bo'lgan. vegetativ tanasi hujayralarga bo'lingan, oddiy tuzilganlari bir hujayrali yoki rizomitselliya ega organizmlar. Hujayra devorida odatda xitin, mannan va glyukanlar: boshqa moddalar, hususan sellyuloza kam uchraydi. Mitoxondriylari yassi kristga ega. Diktiosoma Chytridiomycetlarning ba'zi turlarini hisobga olmaganda yo'q. Eng sodda tuzulishga ega bo'lgan turlaridagina xivchin bor.

Zamburug'larning ko'pchiligi uchun rivojlanishda qisqa muddat davom etadigan meyosporangiy hosil qilish bilan yakunlanadigan diplodavr harakterli. Zamburuglarning ekologiyasi ham anchagini turlicha: saprotroflar, tekinho'rlar va simbiontlar ham bor.

Zamburuglar olami odatda bir necha bo'limlarga bo'linadi.

1. Xitridiomitsetlar (Chitrydiomycota). Mitselliysi yaxshi rivojlanmagan yoki vegetativ tanasi bir hujayradan iborat, ba'zan hujayrasini po'sti yo'q, rizomitselliyli ko'rinishga ega bo'lgan turlari bor. Jinssiz ko'payishi bitta, qamchisimon xivchinli zoosporalar yordamida amalga oshadi. Jinsiy jarayon turli tipdagi geterogamiya yoki xologamiya ko'rinishida o'tadi. Hujayrasining devorida xitin va glyukanlar bor. Xitridiomitsetlardagina xivchinli bosqich mavjud.

2. Zigomitsetlar (Zygomycota). Mitselliysi yaxshi rivojlangan, ko'pchilik vakillarida u hujayralarga bo'linmagan. Jinssiz ko'payishi sporangisporalar yordamida qisman konidiyaga o'xshab bitta sporali sporangiylar bilan amalga oshadi. Jinsiy jarayon zigogamiya, mitselliyning hujayra devorida xitin va xitozan bor.

3. Askomitsetlar (Ascomycota). Mitselliysi yaxshi rivojlangan, hujayralarga bo'lingan. Achitqisimon ko'rinishga ega bo'lganlari ham uchraydi. Jinssiz ko'payishi konidiyalar yordamida, jinsiy jarayon ko'pincha gametangigamiya tarzida o'tadi. Jinsiy ko'payish natijasida hosil bo'ladigan sporalari endogen- xaltada yuzaga keladi. Hujayra devorida xitin va glyukanlar; achitqilarda – glyukanlar va mannanlar bo'ladi.

4. Bazidiomitsetlar (Basidimycota). Mitselliy yaxshi rivojlangan, hujayralarga bo'lingan. Achitqisimonlari ham ma'lum. Jinssiz

rivojlanishi konidiyalar orqali ro'y beradi. Jinsiy jarayon davrida sech qanday jinsiy hosilalar yuzaga kelmaydi. Jinsiy ko'payish sporalari ekzogen – bazidiyalarda hosil bo'ladi. Hujayra devorida xitin va glyukanlar bor.

Takomillashmagan zamburug'lar yoki deytromitsetlar alohida guruh sifatida ajratiladi, ularda jinsiy sporalarni hosil bo'lishi noma'lum.

XITRIDIOMITSETLAR BO'LIMI - (CHYTRIDIOMYCOTA).

Chytridiomycota bo'limi faqat bitta xitridiomitsetlar (**Chytridiomycetes**) sinfigan iborat bo'lib, ularni zamburug'lar olamida eng sodda va dastlabki guruh deb qaraladi.

Xitridiomitsetlar bo'limini quyidagi umumiy tavsiyalarini o'z ichiga oladi.

1. Evolyutsiyada ham unchalik o'zgarishlarga uchramagan. Eng oddiy, dastlabki tuzulishga ega bo'lgan turlarida vegetativ tana bitta hujayradan, ba'zan qattiq xujara devori ham yo'q. Boshqalarida rizomitselliyl bor yoki xaqiqiy mitselliyl bo'lsa ham hujayralarga bo'linmagan.


2. Xujara devorining asosi yuksak zamburug'lardagi kabi xitin – glyukanli.

3. Bo'limning zamburug'larini o'ziga xos farqlanuvchi hususiyati barcha zamburug'lar olami orasida uning vakillarini rivojlanishida xivchinli basqich – bir xivchinli zoospora va gametalar hosil bo'ladi.

4. Jinssiz ko'payishi odatda zoosporalar yordamida amalga oshadi.

5. Jinssiz ko'payish turli usullar bilan amalga oshishi mumkin. Shuni qayd etish kerakki, ko'pchilik turlarida jinsiy ko'payish aniqlanmagan yoki to'la isbotlanmagan. Bu zamburug'larda izogamiya, geterogamiya va oogamiya hamda gametangiyarlarni qo'shilishi va xatto samotogamiya ham ro'y beradi.

6. Xitridiomitsetlar chuchuk suv va dengiz organizmlari, qisman tuproqda uchraydi, ularning 1000 ga yaqin turlari mavjud.



Xitridomitsetlarning zoosporalarini sxematik tuzilishi.

1-Catenaria; 2-Monoblepharella; 3-Spizellomyces; 4-Rhyzophydiun.

Chitridiomycetes zamburug‘larining klassifikatsiyasida tallomini rivojlanishiga va jinsiy jarayonni qanday o‘tishiga e’tibor berilgan edi. Hozir zoosporaning tuzulishiga (ultrastrukturaga) alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xitridomitsetlarning ko‘pchiligini zoosporalari bir xivchinli. Yadrosi bitta. Uning shakli joylanishi sistematik belgi hisoblanadi. Xivchinida bazal tana bor. Bazal tanadan sitoplazma tomon xivchin ildizlarini hosil qiladigan mikronaylar ba’zi hollarda kattagina rizoplastlar yo‘naladi. Hujayrada bitta yoki bir necha mitoxondiriylar, mikrotana, endoplazmatik to’r va lipid tana bog‘lamлari bor. Lipid tana aerob xitridomitsetlarning, mitoxondiriylar va membranalisisternalar majmui – lipid globulalarini hosil qiladi. Bu majmuaning murakkablik darajasi o‘zgarib turadi, aloxidalaridan tartiblarni ajratishda foydalaniladi. Xitridomitsetlarning zoosporalarida uncha katta bo‘lмаган membranali tana bo‘лади, у hech qaysi organizmlarda uchratilmagan, у oqsil g‘amlasa kerak deb taxmin qilinadi.

Zoosporadagi ribosomalar sitoplazmada tarqoq yoki guruhlarga to‘planib joylashgan. Ular yadroni ustida xuddi yopqich ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Monoblepharidales tartibining vakillarida xivchin harakatda ishtirok etsa kerak deb hisoblanadigan *rumposola* deb nomlangan hosila ham bor.

Olpidiumsetlar tartibi - (Spizellomyctetes)

Tartibga anchragina oddiy tuzulgan vakkular mansub. Vegetativ tanasi hitta rizoomuselliyni hujayradan (sobiq zoospora) iborat.


Zoosporada bir necha lipid tomchilar va mikrotanalar bor. Aniq shakilga ega bo'lmagan yadro xivchin asosiga taqalib turadi. Jinsiy jarayon ma'lum emas.

Bu tartibga suvo'tlari, yuksak o'simliklar, umurtqasiz xayvonlar va zamburug'larning tekinxo'rlari, tuproq va suvdagi saprofitlar mansub.

Olpidium - *Olpidium*. Turkumidan boshkaram o'simligini niholida qerason kasalligini yuzaga keltiradi. Bu zamburug'ning zoosporasi karam-niholini ildiziga tushganda xivchinini yo'qotib, qalin po'st bilan o'raladi, o'simlik ildiz po'stini eritib, o'zining borlig'ini epidermis hujayrasiga qo'yadi, keyin ichkariroq kira boradi, po'stni ancha vaqtgacha hosil qilmaydi. Yadrosi ko'p marta bo'linib ko'p yadroli xolga o'tadi, po'st bilan o'ralib zoosporangiyga aylanadi, uzun naysimon o'simtasini xo'jayin tanasidan tashqariga chiqaradi va u orqali zoosporalari atrofiga tarqaladi, o'simlikni zararlash qaytadan takrorlanadi. Bu xol bir necha kun ichida ro'y bergani tufayli, o'simlikni zararlash ko'p marta davom etadi.



1



2

***Olpidium brassicae*.**


1-Kasallangan karam ko'chati; 2-uning ildiz bo'g'zidagi hujayralari.

Zoosporangiyarlarni rivoji to'xtasa, ular xuddi gametalar singari juftlashada. Bunday holat turli zoosporangiylardan chiqqan zoosporalar orasida ro'y beradi. Ikki xivchinli zigota ma'lum vaqtidan keyin karam ko'chati ildiz ustida po'st bilan o'ralib, zoospora kabi rivojlanishini davom ettiradi. Endi u po'st bilan tinim davrini o'taydigan sistaga aylanadi. O'simlikni kasallanishi birinchi barg hosil qilgan, tuproqda namlik ko'p bo'lgan vaqtida ro'y beradi. Kasallangan o'simlikning ildizi qorayadi, ingichkalashadi, ko'pincha quriydi.

Karamning qora son kasalliga qarshi kurash choralarining asosiysi tuproqdagi namlikning ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik, ekin almashtirish hisoblanadi.

Sinxitrium - *Sinchitrium* turkumidan kartoshka o'simligini tuganaklarida turli shakldagi bo'rtmalar – rakni qo'zg'atuvchi *Yendobioticum* hisoblanadi. Bu zamburug' ta'sirida tuganakdag'i o'sma ancha kattalashadi, qorayadi va yoriladi. Bu holat tuganak po'stiga zoospora tushib, ichiga kirib, uni ta'sirida kattalashganidan yuzaga keladi. Zamburug' hujayrasining o'lchamlari kattalashadi, ikki qavatli po'st bilan o'ralib **yozgi sista** deb atala-diganga aylanadi. Birozdan keyin unib, 5-7 yoki xatto 9 ta zoosporangiylardan iborat har birida 300 ga yaqin zoosporalar bo'lgan pufakchaga aylanadi.

Pufakcha yorilib zoosporalar atrofga tarqaladi. Bunday holat yoz bo'yi davom etadi. Kuzda kartoshka tugantagida qalinsistalar hosil bo'ladi, ular qishlaydi, tuproqda uzoq vaqt xatto 20 yilgacha saklanishi mumkin. Qulay sharoit paydo bo'lishi bilan unib zoosporalar hosil qiladi va kasallanish qaytadan yangi kartoshka tugantagida boshlanadi. Kasallik kartoshka tugantagidan olinadigan




Kartoshka tugantagida
sinxitrium

hosilni - 0-30 % gacha pasaytiradi. Bu kasalikka qarshi kurashning asosiy chorasi unga chidamli kartoshka navlarini yotishtirish hisoblanadi. Tuproqni nitrofening 2-2.5 % li eritmasi bilan dorilash ham foyda beradi.

Rizofidum – *Rhizophydiumpollinispi* turkumining zamburug'lari turli tuman substratalarda saprofit va tekino'r sifatida tarqalgan. *R. pollinis* – Pinus (qaragay) o'simligining suvdagi chang donasida rivojlanadi. Chang donasini yuzasidagi zoospora po'st bilan o'ralganidan keyin chang donasini ichiga tarmoqlangan o'simtasini kiritadi. U kattalashib ko'p yadroga aylanadi. Zoosporalar boshqa chang donalarini zararlay boshlaydi.

Polifagus – *Polyphagus euglenae* evglenalarda tekino'rlik bilan rivojlanadi. Bu zamburug'ning katta sporasi harakatdan to'xtaydi, po'st bilan o'raladi, har tamonga tarmoqlangan o'simtalarni chiqarib evglena hujayrasiga kiritadi. Sobiq zoosporaning yuzasida xaltasimon o'simta yuzaga keladi. Dastlabki yadro bir necha marta bo'linganidan keyin u ko'plab zoosporalarga aylanib ketadi. Oziq modda yotishmasa jinsiy jarayon boshlanadi. Bittasining tanasini o'rtasidan (erkak) uzun ipsimon hosila yuzaga kelib u boshqasiga (urg'ochi) yo'naladi. Maqsadiga yotganidan keyin o'simtani uchi kengayadi, unga erkakning borligi o'tadi. Zigota yana kattalashadi, ko'p qavatli po'st bilani o'ralganidan keyin tinim davriga o'tadi. Zigota unganidan keyingina kariogamiya ro'y beradi.



Rhizophydiumpollinispi. Qarag'ay o'simligini chang donasidagi zoosporangiy

Blastokladiyalar tartibi - Blastocladales

Blastokladiyalar o'simliklarning qoldiqlari, xasharoqlarning suvdagi o'liklarida saprotrof hayot kechiradigan unchalik katta bo'lmagan guruh zamburug' hisoblanadi. Bu tartibning vakillari uchun qalin po'stli tinim sporangiyarlari bo'lishi harakterli. Zoosporalar va gametalari aniq bilinib turadigan ribosomalar to'plamiga ega. Ular membrana bilan o'ralgan, xivchini qarama –

qarshi tomonidan yadro yaqinida joylashadi. Yadroni yonida mikrotanalar va lipid globulalaridan iborat cho'ziq majmua bor.


Allomitses – *Allomyces*


turkumining zamburug'lari dan izomorf ko'rinishdagi nasllarni almashinuvi ro'y beradi. Diploid mitselliya zoosporangiy-larga aylana oладиган zoosporangiy va tinim hujayralari rivojlanadi.

Zoosporangiy tinim hujayralardan yuzaga kelsa, undan gaploid zoosporalar, ulardan shunday ko'rinishdagi gametofitda unda ko'rinishi zanjir shaklidagi kattaroq (urg'ochi) gametangiy, boshqasida kichikroq (erkak) gametalar yuzaga keladi. Gametangiydan chiqqan gametalar o'zaro qo'shiladi, zigota meyoz davrini o'tamay tinim holatisiz yangi organizmga aylanadi. Bu endi faqat zoosporangiy va tinim hujayralarini hosil qiladi. Zoosporalar tinim hujayralari emas gametalarga o'xshaydi, biroq ular kattaroq va diploidli. Bunday rivojlanish cheksiz darajada takrorlanaveradi.

Fizoderma – *Physoderma* turkumining zamburug'lari orasida makkajo'xorida tekinxo'rlik qiladigan *Ph. zea* – *muydes* boshqalaridan ma'lum va mashxur. Uning sistasi sariq, qalin po'stli. Sistalar uzoq vaqt davomida unuvchanligini saqlay oladi. Qulay sharoit yuzaga kelsa kattalashadi tashqi po'st tushib ketadi. Rangsz ichki qobiq cho'zilib hosil bo'lgan tirqishdan tashqariga chiqadi. Sistani ichki borlig'i ko'plab zoosporalarga aylanadi. Zoosporalar ma'lum muddat faol harakatdan keyin gametangiyiga aylanadi. Ulardagi gametalar boshqa gametangiylardagilari bilan qo'shilib undan ingichka iplardan iborat kichkina mitselliya hosil qiladi.

Bunday rivojlanish tabiiy sharoitda makkajo'xorining bargini poyaga birikadigan joyida ro'y beradi. Makkajo'xorining bunday tarzda kasallangan hujayralardagi yadro kattalashib ketadi. Tezda mitselliya iplarida to'plovchi hujayralar paydo bo'ladi.





Physoderma:

1-2- xo'jayin o'simlik ichida hujayralarni unishi; 3-sistani unishi.

Ular bo'linib 3-4 ta yonmayon joylashgan bir yadroli hujayralar hosil qiladi. Ulardan har biri unib yangi ipga aylanadi, boshqalari sistaga aylanadigan shishma hosil qiladi. sistani o'nlab yadrosi bo'ladi. Shunday qilib *P. zea - maydes* zamburug'ini rivojlanishida avlodlarining geteromorf gallanishi sodir bo'ladi.

Monoblefaridlar tartibi – Monoblepharidales


Uncha ko'p bo'lmagan turlarni (10 ga yaqin hosil) o'z ichiga olgan bu tartibning zamburug'larini mitselliysi kupya drolik, hujayralarga bo'linmagan, substratga birikkan va undan tarmoqlangan gifalardan iborat. Hujayrasining devorida xitin yo'q.

Jinssiz kupayish gifani uchida yuzaga keladigan zoosporangiyalar yordamida amalga oshadi. Zoosporalarida ribosomalar markazdagi yadro atrofida guruh xolida joylashadi. Ko'plab yog' tomchilari hujayrani oldingi mitoxondriyalar orqa tamonidan joylashadi. Rumposa tanachasi pastki qismida bo'lib, xivchin ishida ishtirok etadi deb taxminlanadi.

Bu tartibning vakillarida suvo'tlaridagi kabi xaqiqiy oogamiya (oomitsetlardagiga o'xshamaydigan) ro'y beradi. Oooganiyda bitta yoki bir nechta turxum hujayra, anteridiyya 4-8 ba'zan undan ko'p spermatozoidlar hosil bo'ladi. Ular odatda bitta gifada bir-biriga yaqin joylashadi. Zigota tinim davrini o'tab yangi gifa hosil qiladi. Bu zamburug'lar gaploidlar hisoblanib chuchuk suv saprotroflari.

Manoblefaris – *Manoblepharis*. Gifasining uchidasilindr shaklda zoosporangiy hosil bo'ladi. Oval ko'rinishidagi zoosporalar

bir qator joylashib navbat bilan chiqadi. Ular dastlab sekin harakatlanadi, keyin suzib ketadi, qulay joyga joylashib, po'st bilan o'raladi, keyin rizoid va gifalarni hosil qiladi. Yangi sporangiy ko'pincha yon (simpodil) hosil bo'ladi, bitta tallomda zoosporalarining bir necha avlodlari yuzaga keladi. Fotorof, harorati ko'tarilishi bilan tallomda oogoniy, anteridiylar paydo bo'ladi.



A

B

Monoblefaridalar. A(1-5)*Monoblepharis*; B *Monoblepharella* sp.

Anteridiy oogoniy ustida yoki uni ostida joylanishi mumkin. Oogoniya bitta tuxum hujayra, anteridiyda 4-8 (ayrimlarida ko'proq) zoosporalarga o'xshash, kichikroq, ameoboid harakatlanadigan spermatozoidalr hosil bo'ladi. Ko'pchilik turlarida urug'langan tuxum hujayra keyinchalik oosporaga aylanadi. Ayrim turlarida zigota ooganiy ichida oosporani hosil qiladi. Zigota tinim davrini o'taganidan keyin mitselliyl hosil qiladi.

Filogeniyasi. Xitridiomitsetlarni an'anaviy ravishda qolgan barcha zamburug'larning birlamchisi deb qaralgan. Bu nuqtai – nazar genosistemmatik ma'lumotlari bilan ham tasdiqlangan. Sodda tuzilganlarida xivchinni bo'lishi keyin uni tashlab quruqlikda

yashashga o'tishi yashil suvo'tlariga xos; xivchinlar yashil suvo'tlarining ko'pchiligidagi moxlar va to'qimali o'simliklardan tartib xatto ginkgo o'simligida ham bor, ninabarglilar, gnetumlar va yopiqurug'lilarda yo'q.

Xitridiomitsetlar va boshqa barcha zamburug'lar birlamchi xivchinsizlardan kelib chiqgan degan nuqtai nazar ham bor.

ZIGOMITSETLAR BO'LIMI – ZYGOMYCOTA

Zigomitsetlar bo'limi quyidagi umumiyoq tafsiflarga ega.

1. Vegetativ tanasi odatda xujaylarga bo'linmagan ko'p yadroli mitselli. Ko'pchilik vakillarida mitselli achitqili dimorfizm ro'y beradi: bir sharoitda mitseliy, ikkinchisida kurtaklanayotgan hujayra ko'rinishida bo'ladi.

2. Hujayrasining devorida xitin va xitozan (deatsillangan xitin) bo'lib u pektin, qismansellyuloza bilan birga.

3. Jinssiz ko'payishda sporangiy tutgichdagi sporangiy yoki harakatlanmaydigan ko'plab sporangisporalar, yoxud oz sondagi sporalar – sporangiolalar, yoxud konidiyalar hosil bo'ladi.

4. Jinsiy jarayon bo'limga nom bergan – zigogamiya tarzida o'tadi. Ikkita gifani uchi yaqinlashadi, hujayra alohidalanadi xech qanday hosila hosil qilmay o'zaro qo'shilib zigota hosil qiladi. Tinim harakteriga egaligidan **zigospora** ham deyiladi. Qo'shila-yotgan hujayralar ko'pyadroli bo'lsa ham jinsiy jarayonda ulardan bittasi ishtirok etadi. Zigospora unib sporangiyyaga aylanadi.

5. Zigosporani unishida meyoq ro'y beradi shu boisdan zigomitsetlar gaploid hisoblanadi.

6. Asosan quruqlik saprotroflari ular tuproqda, o'txo'r xayvonlarining tezaklarida, oziq maxsulotlari kabilarda tarqalgan. Ular orasida zamburug'larni mevatanalarida, xasharotlar va boshqa xayvonlarda tekinxo'rlik qiladiganlari ham bor. Odamlarning tekinxo'rлari ham uchraydi.

Zigomitsetlar bo'limi uch sinfdan iborat:

1. *Zygomycetes* – bo'limining xaqiqiy vakillari:

2. *Glomeromycetes* – tabiatda vezilulyar – arbuskula mikorizalarini hosil qiladiganlar.

3. *Trichohycetes* – bo'g'imoyoqli xayvonlarning ichiga yoki xitinli qoplamida uchraydigan taksonomiya holati munozarali guruham zamburug'lar.

Zigomitsetlar sinfi – Zygomycetes

Zigomitsetlar sinfiga mazkur bo‘limga mansub zamburug‘larni juda ko‘pchiligi mansub. Bo‘limning tavsifida keltirilganlarining deyarli hammasi ularga xos.

Bitta tartib – *Mycorales* doirasida bu zamburug‘larning bir necha tarixiy yo‘nalishlarini, ulardan har bir odatiy sporangiylardan konidiyalarga bo‘lgan holatlarni namoyon qiladi. Buni quydagicha izohlash mumkin.

Sporangiydagi sporalarning hammasi rivojlanishining barcha davrlarini bir vaqtda o‘tkazib teng yotiladi. Konidiyalar navbat bilan rivojlanadi. Yuzaga keladigan zigota tinim davrini o‘taydi.

Eng katta sporangiylar ayni koprofillar – *Phycomycetes* sinfining vakillariga xos, chunki xayvonlarning tezagi muxum o‘sish joyi hisoblanadi.

Zygomycetes – asosan tuproq, o‘simlik qoldiqlari, xayvonlar tezagi, öziq ovqat qoldiqlarida tarqalgan.

Mukorlar tartibi -Mucorales


Bu tartibga mansub zamburug‘larda mitselliyl yaxshi rivojlangan, eski gifalarda ko‘ndalangan to‘siq paydo bo‘ladi. Ayrim vakillarida mitselliyl hujayralarga bo‘lingan. Jinssiz ko‘payishi sporangiylarda yuzaga keladigan sporangisporalar yordamida amalga oshadi. Sporalar sporangiy po‘stini yorilishi natijasida atrofga xavo oqimi bilan tarqaydi.

Jinsiy jarayon – zigogamiya tarzida o‘tadi.

Mukorlarning ayrimlarida odatiy zigotadan tashqari bitta hujayradangina iborat azigotalar (masalan, *Mucor tenuis* turida) hosil bo‘ladi.

Bu tartibning vakillari asosan turli substratlardagi saprotroflar hisoblanadi. Mukor (*Mucor* turkumining zamburug‘lari) yakka holdagi rangsiz, sporangibandlari bilan harakatlanadi, sporangibandlari morfologiya jihatdan tabaqalashgan vegetativ gifalar orasida tikkasiga yo‘nalib joylashadi. Sporangilar yumoloq, undagi sporangisporalar atrofiga tarqalishi sporangiy devorining yirtilishi bilan ro‘y beradi. Bu zamburug‘lar amillolitik va proteolitik harakteridagi faol fermentlik xususiyatiga egaligi tufayli dukkakli o‘simliklarning dukkaklari, g‘alladoshlarini donlarini bijg‘itishda, kartoshka tiganagidan spirt olishda ayrim

mumiakatlarda foydalaniładi. Ba'zi turlari odamlar, ay hayvonlari hamda parrandalarda bosh miya va boshqa organlarida mukoromikozlarni yuzaga keltiradi. Chorva mollari uchun qishga g'amlangan oziqlarni o'zidan qizib ketishi, po'panaklashini donlar, etli mevalar, olma, nok, kortoshka, ildizmevalar sabzi, lavlagi, sholg'om, turuplarni chiritadi.




Mukor – Mucor.

1-Sporangiylari; 2-mukorni rivojlanishi.

Absidiya-Absidia turkumida sporangiy mitselliyning egik joyida hosil bo'ladi. Sporangiylari noksimon. Bu turkumning ayrim turlarida zigogamiyada ishtirok etayotgan gifalarning uchini o'chamlari turlicha bo'ladi. Bu turkum zamburug'larini orasida odamlarda *A.corymbifera* bronxomikozni qo'zg'atadi. *A.septata* odamlarda o'pka mikozini qo'zg'atadi, ba'zi o'rta quloqda ham bo'ladi.

Fikomitses- *Phycomyces* turkuming zamburug'-lari xayvonlarning tezagida rivojlanadi, sporangiy va sporalar Mucor turkuming turidagiga o'xshaydi. Bunda sporangiy bandi 20 smgacha



Phycomyces.
Etilgan zoosporasi.

uzun, undagi sporalarning soni 70 – 80 nunggacha boradi. Zigosporalari mitselliyl ipagi bilan o’raladi. Bu turkumdan *Phycomyces blakesleeanus* turi genetik tadqiqotlarda keng qo’llaniladi.

Filobolus – *Phylobolus* turkumining turlari uy hayvonlarining tezagida rivojlanadi. Bemalol ko’rsa bo’ladigan sporangiybandlari shishgan hujayra – **trofotsistlardan** yuzaga keladi.

Sporangiylarida katta bosim yuzaga keladi, uni ta’siridan sporangiy halqa ko’rinishidan yirtiq hosil bo’lishi bilan uni 1,8 balandlikgacha 3,5 m uzoqlikgacha otiladi. Sporalar o’tlar ustiga tushsa uni istemol qilgan chorva mollarini xazm kanalida spora parchalanmaydi.

Bu zam’burug’ chorva mollarining nafas yo’lida yashaydigan uni o’limiga sabab bo’ladigan *Dictyocaulus vivipores* nematodasining tashuvchisi bo’lib xizmat qiladi. Bu yumaloq chuval-changning qurti zam’burug’ning sporangiybandigacha chiqib oladi u bilan “sayoxatga” chiqadi.

Tamnidium – *Thanidiun* va

Xetokladium - *Chaetoladium* turkumlaridan tamnidium ot tezagida rivojlanadiganida ancha uzun sporangiyband uni oxirida sporangiy hosil bo’ladi. Sporangiybandda ancha tarmoqlangan o’simtalar bo’lib ularning har birini oxirida 4-10 ta sporasini bo’lgan sporangiolalar bo’ladi. Bu sporangiolalardagi sporalarning soni bittagacha kamayishi mumkin.


Chaetocladium turkumining turlari mukor zam’burug’larining boshqa turlarida tekinxo’rlik qiladi. Ularning sporangiolalari birsporali.

Tekinxo’r zam’burug’ yaqinidagi xo’jayinning gifalari unga tomon o’sadi, tarmoqlanadi. Tekinxo’r gifasini uchi xo’jayining teshigidan keyin to’siq bilan ajraladi. Bu hujayraga xo’jayin gifani borlig’i o’tadi ya’ni so’riboluvchi hujayra hosil bo’ladi.




Phyllobolus.

Etilgan sporangiybandli filobolus.



Tamnidium Mortierella




Chaetocladium

Mortirella – *Mortirella* turkumuning turlarida ko'psporali sporangiyda (rasm) sporalar ikkitagacha, xatto bittagacha kamaygan. Zigota gifa chigali bilan o'ralib xuddi mevatananing birlamchisini hosil qilgan. *Mortiriella* asosan saprofit, mukorlarning ayrimlarida tekinxo'rlik qiladiganlari ham bor.

Endogonalar tartibi – Endogonales

Endogone va **Sclerogone** turkumidangina iborat bu tartibga yumoloq, sarg'ish bir necha millimetrdan 2-3 smgacha keladigan yer ostida mevatana – **sporokarp** hosil qiladigan turlar mansub. Sporokarplarni ichida zigota bo'ladi. **Endogone** turkumining vakillari aniq seziladigan piyoz, kuygan qand yoki baliq xidini beradi. Jinssiz ko'payishi ma'lum emas.



Endogone.

1-Mevatana; 2-8-jinsiy jarayon zigotani hosil bo'lishi.

Ikkala turning zamburug'lari tuproqda chiriyotgan yog'ochlikda va shunga o'xshashlarda tarqalgan. Sporalarning tarqalishini tuproqdagi xayvonlar ta'minlaydi. Jinsiy jarayonda yonmayon joylashgan turli yo'g'onlikdagi gifalarni oxirgi bir yadroli hujayralari ajraladi. Kichik hujayradagi yadro kattasiga o'tadi, keyin ikkala yadro katta hujayrani hosil qiladigan o'simtaga o'tadi. O'simtdan bir necha qavat to'st bilan o'ralagn zigota hosil bo'ladi.

Entomoftoralar tartibi – Entomophthorales

Entomoftoralarda mitselliyl uncha rivojlangan emas, dastlab bir hujayrali (senotsit) keyin ko'phujayraliga aylanadi yoki aloxida hujayralarga bo'linib ketadi. Jinssiz rivojlanish faqat konidivalar bilan amalga oshadi.

Jinsiy jarayon zigogamiya tarzida o'tib ko'pincha azigotalar hosil bo'ladi. Tinim sporalar zigosporalar va azigosporalar xolida.

Bu tartibga mansub vakillar asosan xasharotlarda, ayrimlari umurtqalilarning ichida tekinxo'rlik qiladi. Bu tartibning zamburug'larini ko'philigi xasharotlarda tekinxo'rlik bilan o'sadi. Entomoftoralar 12 turkumga mansub xasharotlarda, ulardan tashqari o'rgamchaklar, kanalarda ham uchraydi. Bu zamburug'lar orsida alohida xasharotga moslashmay, deyarli barchasida o'sadigan turlar ham anchagina. Entomophthora karamning okkapalagi, juda kup shiralar kabi 4-5 turkumga mansub xasharotlarda tekinxo'rlik qiladi. *E. coronata* bir qator xasharotlar bilan birga otlar, eshak va odamda ham mikozlarni qo'zgatadi.

Entomoftora zamburug'lar oziqlanayotgan xasharotning tanasi ichida bir hujayrali, bir oz tarmoqlangan mitselliyni hosil qiladi. Keyin o'lcham va ko'rinishlari turlicha bo'laklarga bo'linib ketadi, ular xasharot qoni orqali butun tanasi bo'ylab tarqaladi. Zamburug' xasharot ichki organlari bilan oziqlanib, uni konidiyalar bilan to'lgan xitinli po'choqqa aylantiradi.

Zamburug' hujayralari xasharotning boshi, ko'kragi, qorni xatto oyoqlarida ham bo'ladi. Jinssiz ko'payish va tarqalishi uchun xizmat qiladigan konidiyalar unib, xasharotning xalokatigacha ikki – sakkiz kecha – kunduz zarur xolos. Xasharotning o'limi qon aylanishining buzilishi va zamburug' ajiratgan zaharli moddalar va fermentlar ta'sirida ro'y beradi. Zamburug' hosil qilgan ferment xasharot tanasining ichki a'zolarini eritib yuboradi. Yaqinda o'lgan chigirtka tanasida qorin bo'g'imlarini cho'zilganini ko'rish mumkin. Uni yorilsa zamburug'li suyuqlik oqadi keyin mitselliya aylanadi, konidiya bandlarini hosil qiladi. O'lgan xasharotni qorin qismida ildizsimon **rizoid** deb ataladigan hosila hosil bo'lib, u xasharotni keyingi bahorgacha ushlab turadi.

Entomoftora zamburug'lari bilan zararlangan xasharotlarning tana qoplamini rangi, undan o'sib chiqqan mitselliyning belgilari sistematik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Bu zamburug'lar konidiyalar yordamida atrofga tarqaladi. Zamburug' bilan kasallanib o'lgan chigirtka biror o'simlikda boshini baland tutib oyoqlari bilan mahkam tutib qoladi. Bu holat uni tanasida zamburug' konidiyalarini tarqalish imkoniyatlarini oshiradi. Bu zamburug'lar tinim sporalarini ham hosil qiladi, shunga ko'ra u atrof muxitni noqulay

shareitlari, qishning sovug'ligi va qurg'oqchilikka oson chidaydi. Bahorda bu sporalargina xasharotni zararlaydi, xasharot topmasa, unib konidiyalar yordamida tarqaladi. Bu holat ko'p marta takrorlanadi. Tinim sporalar xasharot ichida ham jinssiz va jinsiy rivojlanish davrida ham hosil bo'lishi mumkin.

Xasharotlarning kasallanishi tuproq yoki o'simlik qoldig'idagi sporani xasharotga yuqishi bilan boshlanadi, kasallik geometrik darajadagi jadallik bilan rivojlanadi. Entomoftora zamburug'lar bilan xasharotlarning qurtlari ham 60 – 90 % darajada odatda urg'ochi xasharotlar kamroq, erkaklari ko'proq zararlanadi. Entomoftora zamburug'larini zararkunanda xasharotlarga qarshi kurashda ularni biologiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Bazidiobolus – *Basidiobolus* Turkumiga mansub zamburug'lar orasida kaltakesaklarning tezagida ko'p uchiraydigan *B. ranarum* harakterli hisoblanadi. Uning mitselliysi hujayralarga bo'lingan bir yadroli, substrat ichida bo'lib undan konidiyaband va konidiya chiqib turadi. Zamburug'ning kichkina konidiyabandi va konidiyasi tashqi ko'rinishdan pipobolusni eslatadi. Konidiyaband mitselliyyidan va bevosita konidiyadan ham hosil bo'ladi. Bazidiobolus konidiyabandida katta turgar bosim paydo bo'lib u do'mpayma asosidan yirtiladi, natijada konidiya atrofga tarqaladi.

Turkumning bu turi boshqalari kabi odamlarda kasallikni qo'zg'alishiga sabab bo'ladi. Afrikada granulamitoz – teripo'sti kletchatkasida kasallikni qo'zg'atadi.



Bazidiobolus ranarum

Perenosporalar tartibi – Perenosporales

Perenosporalar tartibining zamburug'lari sapronegliyalarga nisbatan quruqlik sharoitiga ko'proq moslashgan. Peronospora zamburug'larini o'sish joyiga moslashishiga ko'ra **gidrofil**, **zoofil** va **fitofil** larga bo'linadi. Ko'pchiligi fitofil hisoblanadi, shunga ko'ra ularda xavo va suv oqimi, o'simlik va xayvonlar yordamida tarqalishi imkoniyatlarini beradigan moslamalar ham hosil bo'lган. Bu zamburug'larning ko'pchiligidagi rivojlanishning ma'lum bosqichida harakatlanadigan zoosporalar paydo bo'ladi. Bularning hayotida suv endi xal qiluvchi omil vazifasini bajarmaydi, hayotning qisqa ma'lum bir davrigina suv bilan bog'liq xolos. Ularda zoosporalarni hosil qilish, uni zoosporangiyidan yoki sporangiylaridan itarib chiqarish uchun moslamalar paydo bo'lган. Quruqlik sharoitidagi mitselliylar, xavo namligi biroz o'zgarish bilan buralib, aylanib sporalarni atrofga tarqalish imkoniyatlarini hosil qilgan. Peronospora zamburug'lari odamlar ishtirokida ham muvoffaqiyatlari tarqaladi. Ular qishloq xo'jalik ekinlarida tekinoxorlik bilan o'sganligi tufayli bir maydondan ikkinchisiga, bir sarxaddan boshqasiga kishilarning faoliyatlari tufayli oson tarqaladi. Kasallangan o'simlik qoldigi yo'qotilmasa, tuproq sharoitlari o'zgarmasa, yildan yilga yangidan ko'payaveradi.


Peronospora zamburug'lar tabiatda benixoya keng tarqalgan. Bizda cho'l, adir, tog', yaylov sarxadlaridagi turli o'simliklarda tekinoxor holda o'sadi. Bu zamburug'lar o'sish xususiyatiga ko'ra efemerlar hisoblanib, spora hosil qilishi qisqa vaqtida ro'y beradi. Mitselliylar esa tezda o'ladi, sporalari yangi generatsiyani boshlaydi.

Peronospora zamburug'larning avj olib o'sib rivojlanishi erta bahorga to'g'ri keladi. Bu holat seryog'in kuzda ham takrorlanadi. Mitselliylar dastlab ingichka, uncha – muncha tarmoqlangan gifali, keyin hujayralarga bo'lingan bir yillik bo'ladi. Bundan tashqari, tinim davrini vegetativ holda o'tadigan, xo'jayin tanasining turli qismlarida qishlab keladigan, ko'p yillik mitselliyliga ega bo'lган zamburug'lar ham bor. Naslga g'amxo'rli day holat ham mavjud, takomillashgan xaqiqiy tekinoxorlarida urug'lanish ichki ro'y beradi, zigota xo'jayin tomonidan ko'p qavatli parda bilan o'raladi, jinsiy ko'payish uchun xizmat qiladigan hosilalari va undan oosporalarning soni ham beedad miqdorda bo'ladi. Bunday holat

bizning sharoitimizda keng tarqalgan tok - uzumidagi «shox» kasaligini yuzaga keltiruvchi *Plasmopara viticola* turida yaqqol namoyon bo'ldi.

Plazmopara - *Plasmopara* turkumining zamburug'lari tabiatda juda ko'p tarqalgan, bizda ulardan *P. viticola* tok o'simligining uzum boshida, uning irib ketishiga sabab buladi. Spora band monopodial ko'p marta tarmoqlangan, uchida spora tutgan uch - to'rt shoxchali ko'rinishga ega. Sporalari qovunsimon, zoosporalar hosil qilib unadi. Mitselliylar uzum bandi, uzumbosh donalarida un sepkandek g'uboralarini hosil qiladi. Xavo sernam kelsa, unga qarshi choralar qo'llamasra, kasallik 80 – 90% gacha yetishi mumkin.

Fitoftora - *Phytophtora* turkumining zamburug'larida mitselliylar oq po'panak ko'rinishda bo'lib, sporangiysi limon mevasi kabi ko'rinishga ega. Zoosporalari zoosporangiy ichida shakllanib, uning ichida chiqadi. O'simliklarning yer usti qismida tekinho'r rivojlanib, namlik yetarli bo'lganagina zoosporalar hosil qiladi.



Fitoftora zamburug'ini kartoshka o'simligida rivojlanishi.

Bu turkumning zamburug'lari ichida morfologiyasi bo'yicha o'zaro yaqin bo'lgnarli fizioligiyasiga ko'ra farqlanishlari jihatidan boshqalaridan ancha farqlanadi. Eng sodda tuzilgan

tekinxo'rlari uzoq vaqt tuproqda tirk holda bo'lishi mumkin. Ular tuproqdagi hohlagan o'simlik qoldig'i hisobiga oziqlana oladi. Fitoftoralar o'simlikning hamma qism va to'qimalarini zararlay oladi. O'simlik to'qimasidagi zamburug' uni chiritadi va u yerda zamburug'ni spora hosil qiladiganlari paydo bo'ladi. Tuproqda zamburug' o'simlikni zararlagandan keyin yana tuproqqa qaytadi. Fitoftolra turkumidan *Rh. infestans* kartoshka o'simligining barg to'qimasida gaustoriyali mitselliysi yordamida oziqlanib, yaproqda to'q tusli, yomg'irli vaqtarda qoramitir dog'lar hosil qiladi.

Kasallik poyaning barglaridan boshlanadi, keyin hammasini egallaydi. Oziqlangandan keyin yaproq ustitsasidan sporangibandlari chiqib turadi. Sporangibandlarning oxirida zoosporangiyolar rivojlanadi. Shamol, yomg'ir va boshqalar ta'sirida uzilib, tarqalgan sporangiy kartoshkaning yaprog'ini ustidagi bir tomchi suvga tushib, 6 – 8 zoospora hosil qilib unadi. Ma'lum muddatdan keyin yumoloqlanadi va o'sish nayini hosil qilib, o'simlik ustitsasi orqali uning to'qimasiga kiradi, bu bilan o'simlikning qaytadan kasalanishi ro'y beradi.

Fitoftoraning tuproqqa tushgan sporangiylari suv bilan katoshka tugunagiga kelib, uni zararlaydi. Ommaviy holda zararlanish kartoshkani kovlab olishda ro'y beradi. Tuganakda yaltiroq kulrang kartoshkani ekilsa, dastlab u hech qanday belgi bermaydi, uni yig'ishtirish davri boshlanishidan oldin o'simlik so'liydi, bu hosilning kamayishiga sabab bo'ladi.

XALTACHALI ZAMBURUG'LAR BO'LIMI – ASCOMYCOTA

Xaltachali zamburug'lar (*Ascomycota*) quyidagi umumiy tavsiflarga ega.

1. Vegetativ tana odatda tarmoqlangan, hujayralarga bo'lingan gaploid mitselliydan iborat. Hujayralararo to'siqda tirqishlar bo'lib u orqali hujayraning tuzilmalari, shu jumladan yadro ham o'tadi. Asomitsetlarning hujayra devori odatda ikki qavatli, hujayralari ko'pyadrol, erysiphales tartibining zamburug'larida biryadrol. Achitqi ko'rinishidagilari ham kam emas. Mitselliylar – achitqi dimorfizm ham ma'lum: bir sharoitda gif, boshqasida achitqi hujayralar bo'ladi.

2. Askomitsetlarning hujayrasini devorida xitin bo'lib jami polisaxaridlarning 20 – 25 % ni tashkil qiladi: bu xitridiomitsetlardagidan kam.

3. Vegetativ ko'payish mitselliyni bo'laklariga bo'linishi, achitqi hujayralarini bo'linishi tufayli ro'y beradi. Jinssiz (sporalar yordamida) ko'payishi keng tarqalgan. Vegetativ ko'payish amalda ekzogen spora – konidiyalar hosil qilish bilan sodir bo'ladi.

4. Jinsiy ko'payish turlicha o'tadi. Bu ko'pincha ko'pyadroli, gametalarga tabaqalashmagan gametangiyarlarni o'zaro qo'shilishi tufayli yadroni bittasidan ikkinchisiga o'tishi bilan sodir bo'ladi. Bu zamburug'larda **samotogamiya** – bitta mitselliyyagi yadroni ikkinchisiga o'tib qo'shilishi bilan ham amalga oshadi.

5. Xaltachali zamburug'larning juda ko'pchiligidagi jinsiy jarayonda yadro darxol qo'shilishmay juftlik – dikarionlik hosil qiladi, bu holatda yadrolar birvarakayiga ko'p marta bo'linadi.

6. Jinsiy jarayon hosilasi – meyosporaingiy **xalta** yoki **ask** deb ataladi. Bu endogen sporalar – aksosporalar postmeyotik yadrolar bo'linib ko'p hollarda 8 tani hosil qiladi. Askosporalarni hosil bo'lishida dikarionning ikkita yadrosi qo'shilishi - kariogamiya ro'y beradi. Askosporalarning hosil bo'lishi uchun xaltacha borlig'ini hammasi emas, uni bir qismi sarflanadi.

7. Jinsiy jarayon va askosporali xaltachalarni hosil bo'lishining intixosi har bir mazkur tur uchun o'ziga xos ko'rinishdagi mevatanalarni hosil bo'lishga olib keladi

8. Askomiitsetlarning hayotiy davrasida gaplodavr ustunlik qiladi. Dikariodavrlik hayotiy davrning qisqa muddatida ro'y beradi. Bu zamburug'lar gomotall va geterotall bo'ladi.

9. Askomitsetlarga mansublar kurrai zaminimizda uning hamma joyida tarqalgan. Askomitsetlar uchiramaydigan joylar yo'q hisobi.

10. Aksomitsetlarning ko'pchiligi antibiotiklar, vitaminlar, fermentlar va shu kabilar hosil qilishga ko'ra ular katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Ularning ayrim turlaridan ilmiy tadqiqotlardagi muhim ob'ekt sifatida, ayniqsa genetikada ko'p foydalaniadi.

Aksomitset zamburug'lar orsida eng katta bo'lim hisoblanib ularga turli olimlarning ma'lumotlariga ko'ra 30 dan 70 % gachasi mansub. Aksomitsetlarning rivojlanishida jinssiz ko'payish asosiy ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan bunga alohida to'xtalamiz.

Jinssiz ko'payish. O'simliklarda tekinxo'rlik qiladigan konidiyalar türk o'simlikda, xaltachalar esa o'simlik quriganidan, vegetatsiyasi tugaganidan, qishlaganidan keyin hosil bo'ladi.

Jinssiz ko'payish doimo amalda konidiyalar orqali kundałang to'siqli, shakli ellips, yumaloqroq bo'ladi. Suvli muxitda tarqalgalarda konidiyalar murakkabroq tuzilishga ega.

Konidiyalar rangsiz, rangli, odatda tarkibidagi melanin miqdoriga ko'ra jigarrang ko'rinishlarda, quruq yoki shilimshiqli bo'ladi.

Konidiyalar bevosita mitselliyydan, ko'p hollarda maxsus konidiyabandlardan, ba'zan juda ko'p miqdorda paydo bo'ladi. Konidiyabandlar yakka yoki uni to'plamlari – **koremiya** holidagi guruhlarga jamlanadi.

Aksomitsetlarning ayrim turlarida konidiyalar gifalarning chigalida yassi do'mboqcha - **sporodoxiy** hosil qiladi.

Loja sporodoxiyga o'xshaydi, konidiyabandlar tig'iz qatlamlı yassi holda bo'ladi. Bunday tuzilma o'simliklarda tekinxo'rlik qiladigan zamburug'larda ko'p uchraydi. Agar gifalarning siyrak chigalida konidiyabandlar umumiyligi shilimshiq ichida bo'lsa bundaylarni **pionnat** deyiladi.

Piknidalar eng murakkabi hisoblanadi, ular shar, ko'zga ko'rinishlarga ega ochiq yoki to'q rangli tig'iz qavat bilan qoplangan, uchida kichik tirqishi bor. Piknidalarning ichida kalta konidiyabandlar tig'iz qatlam hosil qilib joylashadi, ularda konidiyalar hosil bo'ladi. Ayrim tur askomitsetlarda konidiyalar piknidaning po'stini tashkil qilganidan ham hosil bo'ladi.

Konidiyalarni hosil bo'lishi ham turlicha: Artrokonidiyalar (artrosporalar) konidiyabandni yoki gifani bo'laklarga bo'linib ketishidan hosil bo'ladi. Alevrokonidiyalar (alevrosporalar) konidiogen hujayralarni to'siq bilan ajralgan qismidan hosil bo'ladi.

Xoloblastik blastokonidilar konidiya hosil qiladigan hujayrani shishgan qismidan hosil bo'ladi. Prokonidimy konidiyabandlarning devoridagi tirqishdan kurtaklanib chiqadi. Ular qalinpo'stli, bittadan joylashadi. Filokokonidiyalar fialidalar konidiogen hujayralarda yuzaga keladi.

Jinsiy jarayon. Askomitsetlarda maxsuslashgan hujayra ikkita gametangiyini ko'shilish **gametangiçamiva** odatiy jarayon hisoblanadi. Sodda tuzilgan askomitsetlardagi jinsiy jarayon zigomits-

lardagi zigogamiyaga o'xhash tarzda o'tadi. Turli jinsdagi gametangiylar morfologiyasiga ko'ra o'xhash yoki o'zaro kam farqlanadi. Ular mitselliyning o'simtasi, shoxchasi ko'rinishlariga ega, Ularni qo'shilishidan keyin darxol **kariogamiya** ro'y beradi, shu boisdan xaltachalar bevosita zigitadan hosil bo'ladi. Shuning uchun ularni rivojlanishida gaplo - va diploid davr ham bor.

Murakkab askomitsetlarda gamitangiylar murakkab tuzilishli va ular tabaqalashagan. Anteridiy bir hujayrali, askogenga quyiladi. Plazmogamiyadaan so'ng, yadrolar o'zaro qo'shilmay, yonma-yon joylashib dikarion hosil qiladi. Askogondan askogon gifa unib, undagi dikarion yadro birvarakayiga bo'linadi. Askogon gifa tarmoqlanadi va ikkita ikkiyadroli hujayraga aylanadi. Askogon gifalarning oxirida xaltacha rivojlanadi. Askogon gifaning uchidagi hujayra ilmoqsimon egiladi, dikarion yadro egilgan joyda joylashadi va bu vaqtida u ham bo'linadi. Turli jinsli bir juft yadro egilgan joyda qoladi, bitta yadro uni uchiga, ikkinchisi pasti – asosiga o'tadi. Keyin bir hujayrani uchki va asos hujayralarni qo'shilishidan dikarion tiklanadi, natijada ilmoq qaytdan hosil bo'lishi mumkin. Ilmoqning o'rtasidagi qo'shyadroli hujayradan xaltacha rivojlanadi, u kattalashish bilan dikarion bo'linadi, keyin yana bo'linib nixoyat sakkizta gaploid yadroli askospora shakllanadi.

Yuksak askomitsetlarning rivojlanishida jinssiz ko'payishda uzoq davom etadigan gaploid askogen gifalardagina qisqa vaqt dikarionlik va juda ozgina vaqt diploid yadroli yoki xaltachali diploid davr farqlanadi.

Askomitsetlarning ko'pchiligi uchun jinsiy jarayonni so'nib yo'qolib ketish ham harakterli hisoblanadi. Bu sinfning ayrim turlarida anteridiy butunlay yo'q bo'lsa ham u faoliyatda bo'lmaydi. Bunday holda ularning vazifasini vegetativ gifalarning konidiyalari ko'p hollarda maxsuslashtirilgan mayda spermatsiy deb ataladigan hujayralar bajaradi.

Askomitsetlar orasida gomotallik va geterotallik turlar ham, geterotallik bu yerda doimo binolyar, ya'ni qo'shallel xilida bo'ladi. Soda askomitsetlarda xaltacha bevosita mitselliyni o'zida, yuksaklarida esa maxsus o'rindiklar askokapr deb ataladigan hosila **mevatanada** yuzaga keladi. Mevatanalar yumoloq-kleystotetsiy, ko'zasimon-peritetsiy va savatsimon-apotetsiy xillarida bo'ladi.

Askomitsetlarning sinflariga bo'linishi ularning mevatanalarini tuzilishiga bog'liq.

Askomitsetlarning xaltachalarini shakli yumaloq, ovaldan ancha cho'ziqgacha ko'rinishlariga ega. Xaltachaning po'stini tuzulishi, vazifalariga ko'ra **prototunikat** va **eutunikat** guruhlariga bo'linadi. Prototunikat tuzulishlarda xaltachani po'sti yupqa, tabaqlashimagan, askosporalar o'z xolicha chiqadi. Eutunikat xaltachalarda po'st tig'iz, ochilishi maxsus moslamalar yordamidagi tufayli askosporalar faol tarzda chiqadi.


Eutunikat xaltachalarni tuzulishiga ko'ra **unitunikat**, **bitunikatarga** bo'linadi. Unitunikat xaltachalarni po'sti yupqa, bir qavatl, uchida askosporalarni chiqishi uchun maxsus moslamasi bor. Bitunikat xaltachalarni po'sti ancha qalinlashgan, apikal apparatsiz. Tashqi qavat qattiq, ichkisi muloyim. Askosporalar tashqariga ichki itarilish tufayli chiqadi.

Askosporalar ko'pincha sakkizta, biroq undan ko'p yoki oz bo'lishi ham mumkin. Askosporalarning kattaligi, ko'rinishlari ham turlicha. Askosporalarni shakli sharsimonidan ovalgacha, undan uzun, ipsimongacha, rangsiz, rangli, bir ikki yoki ko'p hujayrali, o'simtali, o'simtasiz, ko'pchiligidagi shilliq qavat bilan o'ralgan bo'ladi. Sodda tuzilgan askomitsetlarda xaltachalar bevosita mitselliya, murakkab "yuksak" askomitsetlarda maxsus o'rindiq – xaqiqiy mevatanalar-askokarplar va soxta mavatanalar – askostromalardan xaltachalar po'st peridiy bilan o'ralgan. Steril elementlar – parafizlar ham bo'ladi.


Askomitsetlarda mevatanalarning asosan uch tipi; 1) kleystotetsiy (kleystokarpiy) – sharsimon to'la yopiq; 2) peritetsiy ko'za, bakal shaklida, xaltachalari peridiy bilan o'ralgan; 3) apotetsiy savat, likop ko'rinishida, ustki yuzasida xaltacha va perifizlardan iborat qavat joylashadi.

Kleystotetsiy – yumaloq, to'pday, parafizlarsiz faqat tartibsiz joylashgan xaltachalar tutgan mevata. Yetilgan askosporalar kleystotetsiy po'sting yemirilishi bilan tashqariga chiqadi.

Peritetsiy – noksimon, yetilganda ingichka uchi ochilib, nosqovoqday



chaklini oладиган ярми очиқ меватана. Унинг по'сти бирмунча тиг'из, турлича тусда ва гарактерга ега. Меватананинг ичини тагиде yetilgan xaltachalar унинг учидағи түркіши орталықтарда таржалади. Yetilayotган xaltachalar орасыда споралари бо'лмаган һосила — **parafizlar** yoki **apikal parafizlar** жоюлашади. Parafizlардан ташқары перитетсида тиркіш томонға ўн алган калта ipsimon гифа — **perifizlar** ham болади. Xaltachalar, parafizlar va peritetsiyning ичкі тоқималари унинг маркази дегилади. Peritetsiy markazining ривожланыши унинг систематикасіда мұхим ахамиятта ега.



Askomitsetlarning mevatanalari:

1,2-kleystotetsiy; 3-peritetsiy; 4-apotetsiy; 5-apotetsiydagı xaltachalar.

Apotetsiy — саватча, ликоп, лаганча шаклидаги меватана, унинг юғори, тепа қисмінде халтасылар және парофизлардан иборат **gimeniy** қават жоюлашади. Гимений қават остыда гифалар чигалдан иборат yupqa **subgimeniy** yoki **gipotetsiy** жоюлашади. Apotetsiyning etdor steril қисмі — **ekstspul**, иккі қисмдан, меватананинг по'сти ташқи експул және уни ети ичкі **ekstspul** yoki **medulyar ekstspuldan** иборат. Ayrim askomitsetlarda esa apotetsiylarning et қисмі бо'лади. Apotetsiyдан askosporalar оданда бир қанчасы бирдан отилб чиқып таржалади. Apotetsiylar, euaskometsitlarning ичіда anchagina

takomillashgan hisoblanib, askosporalar boshqa mevatanalardagiga nisbatan faol tarqalish imkoniyatiga ega.

Haqiqiy mevatanalar bevosita mitselliya yoki gifalarning zinchigal – stromalarda hosil bo‘ladi.

Tabiatda tarqalishi va amaliy ahamiyati

Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra askomitsetlarga jami zamburug‘larning 75 % gacha turlari mansub. Tuproq mikobiontining ancha qismini askomitsetlar tashkil qiladi. Suvda ham askomitsetlar ko‘p. Askomitsetlar o’simliklani tekinxo‘rlari ularni quriganida ham keng tarqalgan. Odam va hayvonlardagi tekinxo‘rlar orasida askomitsetlar anchagini.

Askomitsetlardan odamlar qadimdanoq achitqi sifatida (non, pivo tayyorlashda) antibiotiklar olishda foydalanib kelinadi. Ba’zi askomitsetlarni (qo‘ziqorin, tryufellar) oziq sifatida odamlar istemol qilishadi.

Askomitsetlarning sistematikasi.

Morfologiyasi hamda molekulyar darajadagi tuzilishga ko‘ra askomitsetlarni asosan uch guruhgaga bo‘linadi.

1. Taftinomitsetlar (Taphrinomycota) ularni arxiaskomitsetlar (Archiascomycotina)- eng qadimgi va sodda tuzulgan guruh hisoblanib boshqa askomitsetlarning boshlamasi, ibtidosi deb hisoblanadi. Morfologiyasi turlicha, mitselliyligi, achitqili tuzilishli, mevatana hosil qiladiganlari ham bor.

2. Saxaromitsetlar (Saccharomycotina) yoki gemiaskomitsetlar (Hemiascomycotina) mitselliyligi, kurtaklaydigan achitqili ko‘rinishlarda.

3. Haqiqiy askomitsetlar, euaskomitsetlar (Ascomycotina) yoki pezizomitsetlar (Pezizomycotina) mitselliyligi haqiqiy mevatanali zamburug‘lar guruhi.

TAFRINOMITSETLAR KENJA BO‘LIMI – TAPRINOMYCONTA YOKI ARXIASKOMITSETLAR- ARCHIASCOMYCOTINA


Bu kenja bo‘lim Taphrinomycetes va Schizosaccharomycetes sinflaridan iborat. Xitin ayrim turlarda juda oz, boshqalarida umumyan uchramaydi. Askogen gifalari yo‘q. Jinsiy jarayon hamma

turlanda ham ma'llom emas. Rivojlanishida gaplo va diploidavr. sot gaploid davra ro'y beradi.


Tafrinomitsetlar sinfi – Taphrinomycetes.

Tafrinalar tartibi – Taphrinales

Mazkur tartibning zamburug'lari zararlangan joylarida gipertrofiya, deformatsiyalarni hosil qiladigan gulli o'simliklarning tekinkxo'rlari hisoblanadi. Tafrinalar hosil qilgan fitogormonlar, sitokinin tipidagi moddalar o'simlikda o'sishni tezlashishi hisobiga shakl o'zgarishlarni hosil qiladi.



A



Taphrina: A-kasallangan barg; Zamburug'ning rivojlanishi: B-Dikariofaza; C-Diplofaza; D-Gaplofaza

Mazkur tartib bitta *Taphrina* turkum ojadan iborat. *Taphrina* (*Taprina deformans*) misolida bu zamburug'larning rivojlanishini kuzatish mumkin. O'simlikni kasallanishi gaploid askosporalar ta'sirida boshlanadi. O'simlikning epidermis va kutikulasi orasida zamburug' rivojlanib g'orlasimon xaltacha yuzaga keladi. Ular qavat xolida joylashadi va u odatda qizil, sariq yoki pushti tusda bo'ladi. Xaltachadagi diploid yadro uch marta bo'linib, sakkizta askospora hosil qiladigan sakkizta gaploid yadroni hosil qiladi. Bu jarayonlarning ro'y berish davrida o'simliklarda (yaproqda) bujmayish yuzaga keladi.


SAXAROMITSETLAR KENJA BO'LIMI- SCHZOSACCHAROMYCOTINA

Bu kenja bo'lim saxaromitsetlar (*Saccharomycetes*) sinfi va bitta saharomitsetlar (*Saccharomycetales*) tartibidan iborat xolos. Saxaromitsetlar tartibiga mansub zamburug'larning ko'pchiligi mevalarda o'simliklarning turli qismlarida va tuproqda keng tarqalgan. Ayrimlari xasharotlar bilan birga uchraydi. Bu tartibdan spirtli bijg'ishni amalga oshiradigan achitqilar hamda bir litr oziq muxitda 6 grammgacha riboflavin – V₂ vitaminini hosil qiladiganlari katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.


Achitqilar yoki saharomitsetlar xaqiqiy mitseliy hosil qilmaydi, ularning hujayralari kurtaklanadi yoki bo'linadi. Hayotiy davrida uning ko'p vaqtida turlicha ko'rinishdagi bir hujayrali zamburug'larni **achitqilar** deb ataladi. Achitqilar zamburug'larga xos barcha belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan organotrof eukariotlar hisoblanadi. «Achitqi» atamasi botanika taksanomiyasida yo'q. Maxsulotni achishiga sabab bo'lувчи organizm sifatida nomlangan.

Saxaromitsetlar

(*Saccharomycetes*) yoki qand zamburug'lar turkumi tabiatda va ishlab chiqarishda madaniy deb hisoblanib foydalilanidigan guruhni o'z ichiga oladi. Bu guruh zamburug'lar qandlarni faol holda bijg'itib umumiy xajmdan 10-19% gacha spirtlar hosil cildi. Ularga vino, pivo va nec tayv'orlashda qo'llaniladigan zamburug'lar kiradi.



Bu turkumga mansub barcha turlo morfologiyasi bo'yicha o'zaro o'xshash:



**Achitqi zamburug'i
(*Saccharomyces cerevisiae*):**
hujayralari va kurtaklanayotgan
hujayrasi.

Achitqilar juda ko'p jarayon va xodisalarini o'rganish uchun yaxshi model bo'lib hisoblanadi. Achitqilarda radiobiologiya bo'yicha birinchi tadqiqotlar olib borilgan, sitologiya va genetikaga oid kashfiyotlar: stoplazmatik irsiyat, mitoxondriyalarning irsiy jihatdan mustaqqiligi kabi umumiy biologik ahamiyatga molik ishlar bajarilgan, xozir ham davom etmoqda. Achitqilar pivo, vino, yuqori darajadagi gardusli spirtli ichimliklar aroq, viski, brendi, konyak, jin, likyorlar ishlab chiqarishda, non maxsulotlarini tayyorlashda asosiy ahamiyatga ega. Ishlab chiqarishning achitqilardan foydalaniladigan soxalarida yangi texnologiyalarini jariy etilishi bilan yangiladi: selyuloza – qog'oz sanoatining qoldiqlaridan foydalanish, chorva yem-xashagiga qo'shimcha sifatida qo'shish, farmatsevtikada dorilarga bioximiyaviy pereparatlar olib, lipidlar, organik kislotalar, ferment va kofermentlar kabilar yo'lga qo'yildi. Oziq muxitlarida o'stirilgani alohida hujayralar yoki turli ko'rinishlardagi kolloniyalar hosil qiladi. Achitqi o'sayotgan suyuqlik loyqalanadi, cho'kma tushadi, satxi gazli pufakchalar bilan to'lib, u ko'tariladi, bu oziqning bijg'ishi oqibatida ro'y beradi. Achitqi ma'nosi shularni ifodalaydi. Aloxida hujayralarni eni 1 mkm dan 10 mkm gacha odatda 3-7 mkm keladi. Hujayra devori unga muayyan shaklni beradi, eski hujayralarda u birmuncha qalinroq, ko'p qavatli, ustidan shilliq kapsula bilan o'ralgan. Hujayrasining shakli ham turli tuman:

hujayralari yumaloq yoki qovunsimon, vegetativ kurtaklanish bilan ko'payadi. Ularning haploid hujayralari xaltachalar hosil qilsa, unda odatda to'rttadan ko'p bo'limgan sporasi bo'ladi. Bu zam-burug'lardan (*S.cerevisiae*) odamlar uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Achitqilarni biologiya fanlarning taraqqiyotidagi hissasi beqiyos darajada katta. Achit-

yumaloq, cho'ziq yumaloq, nayza va g'o'lasimon, limon va noksimon, ko'p burchakli va o'roqsimon ko'rinishlarda bo'lib, u hujayra qaysi usul bilan ko'payayotganligiga bog'liq. Achetqilarning koloniysi bakteriyalarnikidan ko'p faqlanmaydi. tusi esa oppoq, jigarrang, qo'ng'iroq, sarg'ish-pushtining turli tovlanishlarida, ayrimlarida esa mevaning pigmentini ko'p hosil qilganligi tusayli qora. Achetqilarning hayotiy davrasida jinsiy jarayon ko'p ro'y bergenligidan gaploid va diploid holat takrorlanib turadi, uning davomiyligiga ko'ra gaplo – va diplo davr farqlanadi. Gaploid achtqilar tabiatda ko'p vaqt bo'ladilar va gaploid holatda ko'payadi. Achetqilarning jinssiz ko'payishi odatda kurtaklanish bilan ro'y beradi, u hujayra ustida bo'rtma yuzaga kelishi bilan boshlanadi. Bo'rtma yumaloqlanib, hujayrada iz qoldirib uziladi. Kurtak doimo bir joyda navbat bilan yoki turli joylarda odatda hujayrani ikki uchida hosil bo'ladi. Agarda kurtaklar bir biri bilan o'zaro bog'langan holda qolib mitselliyo ko'rinishini eslatса **psevdomitselliyo** deyladi. Diploid holatiga o'tish ikkita hujayrani qo'shilishi kurtak hosil qilgan hujayra va kurtak yadrolarini qo'shilishi, qisqa muddatga dikarion hosil qilish bilan amalga oshadi.

Jinsiy jarayonga kelgan endogen askosporalar shakliga ko'ra farqlanib, 1-30, ko'pincha 1-4 ta bo'ladi. Achetqilarda ro'y beradigan moddalar almashinuvidan ma'lum va mashxuri spirtli bijg'ishdir. Bu achtqilardagi jarayon yaqol na'moyon bo'lgan aerop holda shiddatli o'tadi. Achetqilar oziq sifatidagi uglevodning manbai xolida turli qandlar, oddiy va ko'p atomli spirtlar, organik kislotalar va ko'plab birikmalardan foydalananilar. Ayrimlari parafinlar qatoridagi uglevodorodlarsiklik uglevodorodlar va aromatik tuzilishli murakkab birikmalarni ham uglevod manbai sifatida foydalilaniladi. Achetqilar o'sish davrida turli vitaminlarga ayniqsa V guruhga extiyoj sezadi, shu bilan birga bu vitaminlarni ko'p miqdorda hosil qiladi. Achetqilar o'sayotgan oziq muxitidan uni buzilishiga sabab bo'lsa ham, odam uchun zaharli moddalarni hosil qilmaydi.

Yuqorida bayon etganlarimiz asosan qand zamburug'larga ta'lqli bo'lib, kishilarning faoliyatida *S.cerevisiae* eng muxumi hisoblanadi. Achetqilardan sanoatda non, vino, pivo, spirtlar tayyorlashda foydalilaniladi.

Vino achitqilar yordamida urmu va salzai turning shirbatidan olinadi. Vinolarning turli xillarini oh'chuni tayyorlash jarayoniga va ishlatalayotgan achitqiga bog'liq. Spirtil biologik usul bilan olish uchun odamlar oziq ovqatida foydalilaniladiganidan tashqari yem xashak o'simliklari, yog'ochni qayta ishlash vaseyluloza sanoatining qoldiqlaridan ham foydalaniлади. Spirtil bijg'ishni glitserin to'planishi tamoniga surish ham mumkin. Pivo boshoqdoshlarga mansub o'simliklarning donlaridan olinadi, bijg'ish niyoyasida 6 % gacha spirtlar, oqsil, organik kislotalar, achchiq va oshlovochi moddalar hamda uglerod 4 oksidi hosil bo'ladi. Achitqi odam organizmida hosil bo'ladi, shunga ko'tra turli kasalliklarni davolashda ham qo'llaniladi. 500 grammi achitqi 1kg go'shini yeki tovuq tuxumidan 33 tasini yoki 4,1 litr sut o'rmini bosadi. Non maxsulotlarini tayyorlashda spirt olishdag'i jarayon ro'y beradi, hainirda achitqilar ta'sirida sut kislotali bijg'ishi bilan spirtli bijg'ish ro'y berib hosil bo'lgan uglerod 4 oksidi haminri oshiradi. Dastlabki jarayonda hosil bo'lgan sut kislotasi tandirdagi yuqori haroratda parchalanimaganligi tusayli non nordon maza beradi.

HAQIQIY AKSOMITSETLAR KENJA BO'LIMI – ASCOMYCOTINA

Bu bo'limga xaltachali zamburug'larning katta qismi mansub. Vegetativ tanasi hujayralarga bo'lingan. Jinssiz ko'payishi turli usullar bilan hosil bo'ladi konidiyalar yordamida amalga oshadi. Xaltachalari mevatanalarda hosil bo'ladi.

Evromitsetlar sinfi – Euromycetes. Evrotsiyalar tartibi – Eurotiales


Bu sinfning tartiblariga mansub zamburug'lar morfologiyasiga ko'ta sodda hisoblanib mevatanalari kleystotitsiy protunikat. Aksosporalarining soni ko'pincha 8 ta, undan ko'p yoki kam bo'lishi mumkin, ular doimo bir hujayrali, rangsiz yoki rangli, ba'zan o'ziga xos naqshli.

Evrotsiyalar tartibining zamburug'larini evolyutsiyasidagi spora hosil qilishining yo'nalishi jinssiz bosqichni takomillasluvi, jinsiyni yo'qotishga yo'nalgan. Shenday qilib, tartibning juda ko'p turlarida xaltachani hosil qilish juda kam ro'y beradi yoki umuman hosil

bo imaydi ya'ni shartli ravishda bular takomillashmagan zamburug'lar. Bu tartibning zamburug'larini turlari joylar, ayniqsa tuproqda keng tarqalgan.


Aspergillus - *Aspergillus* turkumining zamburug'larida konidiyabandlarning oxiri bo'rta ko'rinishda uni ustida konidiyalar zanjirini hosil qiladigan **fialidalar** joylashadi.

Penitsillum - *Penicillum* turkumida konidiyabandlar qo'lpanda shakliga o'xshaydi. Konidiyabandning oxirida sodda tuzulganlarida bir marta shoxlanish, uni ustida fialidalar joylashadi. Murakkab tuzulganlarida konidiyaband **metulalarda** tarmoqlanadi, ularning har birda fialidalar joylashadi. Penitsillar orasida konidiyalar hosil qilish kuchli namoyon bo'lsa, jinsiy rivojlanish shuncha kam ro'y beradi.



Penicillum zamburug'i.

Konidiyaband vakonidiyalari bilan



Konidiyabandlarining tuzilishi

Bu tartibning zamburug'larini ko'pchiligi saprotroflar. Sanoat metallari va maxsulotlari, yoqilg'i – moylash materiallarini issiq va

nam sharoitda zararlaydiganlari ham ko‘p. Ular orasida kerosin zamburug‘i (*Amorphothece resinae*) tuproqda saprotrof, aviatsiya yoqilg‘isida uni ishlatib bo‘lmaydigan holatga keltirali. Shu boisdan xozir yoqilg‘iga maxsus antiseptiklar qo‘shiladi.

Evrotsiyalarning ayrimlari xayvonlar va odamlarda **dermatomikozlar** (teri kasalligi), ichki a‘zolarning mikozlarini qo‘zg‘atadi. Odamlardagi mikozlarni *Penicillium* va *Aspergillus* turkumlarining ayrim turlari hosil qiladi. Evrotsiyalar orasida zaharlovchi moddalar taksinlar ajratadiganlari ham bor. *A.flavatus* yeryong‘oq (*Arachis*) mevasida, chorva yemida rivojlanib jigarni kuchli zararlaydigan aflatoksin zaharini hosil qiladi.

Penitsillarning ayrimlari qishga saqlab qo‘yilgan mevalarni zararlaydi. Bir qator turlarida sanoatda antibiotiklar (penitsillin, grizeofulvin, fumagillin va boshqalar), fermentlar (proteinaza, amilaza va boshqa), organik kislotalar (limon, fumar, glyukan va boshqalar) olinadi.

Penitsillin – *Penicillium chrysogenium* turidan olinadi.

Sordaromitsetlar sinfi – Sordariomycetes

Sordariyalar tartibi - Sordariales

Mevatanalari peritetsiy xilida to‘q rangli unitunikat xaltachalari to‘p jolashadi. Mevatanalari ba’zan gifalar chigali bilan siyrak o‘ralgan.

Askosporalari rangsizdan to‘qroqgacha, odatda bir hujayrali turlicha naqshli. Ko‘pchilik turlarisellyulozali substratlar xayvonlar tezagi tuproqda tarqalgan.

Bu tartibning vakillarini xaltachalaridagi sporalarning soni odatdagiday 8 tadan 100 va undan ko‘proq, 8 dan kam bo‘lishi ham mumkin.

Sordariya - *Sordaria* turkumining vakillari kaprofillar xisoblanadi. Peritetsiy yupqa qo‘ng‘ir tusli parda bilan o‘ralgan. Askosporalari to‘qrangli, shilimshiq o‘ramali.

Bu turkumning vakillaridan askomitsetlarning genetikasi va fiziologiyasini o‘rganishda foydalilanildi.

Podospora – *Podospora* turkumining zamburug‘larida peritetsiy noksimon ko‘rinishda, uni po‘sti terisimon, teshikcha atrofida g‘adir budirlilik bor. Sporalari xivchin shaklidagi shilimshiqli o‘sintali, o‘ramini umumiy shillig‘i yo‘q. Sordariya kabi bu zam-

burug‘lar ham o‘txo‘r xayvonlarning tezagida tarqalgan. *P.pan-ciseta* genetikaga doir ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llaniladi. Bu turning zamburug‘laridan hosil bo‘lgan mitselliyl **geterokariotik** harakatlarga ega.

Ofiostomalar tartibi – Ophiostomatales

Ofiostomalar tartibiga mansub zamburug‘larda mevatana-peritetsiy shaklida, perifiz va parafizlari yo‘q. Xaltacha yumoloqdan oval shakligacha, ular peritetsiyning tagida bog‘lam xolida hosil bo‘ladi. *Graphium*, *Sporothrix*, *Leptographium* va boshqa ayrim turkumlarida konidiyalar hosil bo‘ladi. Bu tartibning ko‘pchilik turlarining hayoti *Scolytidae* va *Platypodidae* oilalariga mansub qo‘ng‘izlar bilan bog‘liq. Ayrim turlari masalan, *Ophiostoma ulmi* va *O.novo – ulmi* qayrag‘och (*Ulmus*) turkumiga mansub daraxtlarda tekinxo‘rlik qiladi. Qayrag‘ochning bargi sarg‘ayib so‘liydi, novdaning uchi kuriydi. Kasallanish kuchli bo‘lganida daraxt tezda kuriydi, bunga bu zamburug‘ hosil qiladigan serotoulmin toksini hisoblanadi.

Diaportalar tartibi – Diaportales

Diaportalar tartibida mevatana peritetsiy u tirik o‘simlik va uning qoldiqlarida hosil bo‘ladi. Ular bittadan yoki stromada joylashadi. Stromalardan diatripodlari zamburug‘ gifasini o‘zidan, valsaid stroma gifa va substratdan iborat. Peritetsiy va stroma qo‘ng‘ir yoki qora to‘sda. Ko‘pchilik turlarida xaltachalar bitta yoki bir nechta to‘sqli.

Diaportalar saprotrof va tekinxo‘r bo‘lib ayrimlari o‘simliklarning muhim patogenlari hisoblanadi.

Diaporte – *Diaporthe* turkumining zamburug‘lari diatinob stromali. Bu turkumga mansub zamburug‘larning ko‘pchiligi saprotroflar, ular orasida havfli tekinxo‘rlar bor. *D.citrisitus* o‘simliklarida *D.phasolorum* dukkakli o‘simliklarning ko‘pchiligidagi, *D.perniciosa* mevali daraxtlarda rakni, mevalarida qo‘ng‘ir chirishni qo‘zg‘otadi.

Ksilyariyalar tartibi- Xylariales

Bu tartibni zamburug'larida peritetsiy to'q rangli terisimon, qattiq peridiyli. Ko'pchilik vakillarida mevatana turlichal tuzilishli stromani ichida joylashadi. Xaltachalari deyarli yumaloqdan cho'ziq yokisilindirsimongacha, apikal halqali xaltachalari peritetsiy ichida parafizlar bilan navbatlashib qatlam hosil qilib joylashadi. Askosporalari to'q tusli, bir yoki bir necha hujayrali.

Gipoksilon - *Hypoxylon* turkumining zamburug'larida stroma shar yoki yostiq shaklida, to'q tusli, askosporalarini po'sti yupqa. Stroma yog'ochsimon, odatda to'p holda joylashadi. Bu zamburug'lar saprotroflar, yog'och yoki quvvatsizlangan daraxtlarda tarqalgan.



Gipoksilon. chapda:mevatanasi va o'ngda umumiy ko'rinishi.


Ksiliariya – *Xylaria* turkumida stroma to'g'nog'ich yoki bug'i shoxiday tarmoqlangan ko'rinishda. Ularda dastlab konidiyal bosqich keyin peritetsiy rivojlanadi. Bu turkumga mansub zamburug'larning ekologiyasi yuqoridagi turkumga o'xshash tarizda o'tadi.

Gipokreylar tartibi – Hypocreales

Gipokreylar yumshoq yoki etli ochiq tusli stromalari bilan haraterlanadi. Ularda peritetsiyalar botib joylashgan. Xaltachalari ovaldansilindrgacha bo'lган ko'rinishlarda, odatda yupqa po'stli. Mevatanalarining ichida xaltachalar bilan apikal psevdoparafizlar – steril gifalar peritetsiyini to'ldirib yuqoriga yo'nalgan holda joylashadi. Askosporalarining shakli ovaldan tosilindir yoki ipsimon ko'rinishlargacha bo'lib, bir hujayrali yoki bir necha hujayradan iborat. Konidiyalar fidalalarda hosil bo'ladi. Konidiyal bosqich

ularni rivojlanish va tarqalishida xaltachali bosqichdan muxumroq ahamiyatli.



Gipokrea – *Hypocrea* turkumining zamburug'larida stromalari yostiq yoki yarimshar ko'rinishida bo'lib ochiq tusli. Peritetsiyalar bir qator joylashadi. Askosporalari cho'ziqsilindr shakildagi xaltachalarda joylashadi, ikki hujayrali, ular yetilganida aloxida hujayralariga bo'linib ketadi, shu tufayli xaltacha amalda 16 – sporali ko'rindi.



Zamburug'ning stromalari va alohidastromasi.


Bu turkumning turlari odatda o'simliklarning turli qoldiqlarida saprotorf hisoblanadi. *H.rifa* tuprog'da, yog'ochda, o'simlik qoldiqlarida, sellyulozali turli materiallarda tarqalgan.

Nektria – *Nectria* turkumi bu tartib zamburug'lari orasida eng ko'p (400 ga yaqin) turlardan iborat. Peritetsiyalari yostiqsimon stromalarni yuzasida joylashadi. Askosporalari qayiq shaklida, bir yoki ikki hujayrali. *N.cinnabariema* turli daraxt va butalarda, tekinoxo'r yoki saprotorf tarzda rivojlanadi. Peritetsiyalarni rivojlanishi bilan stromalari to'q qizil rangga kiradi. *N. galligena* ko'plab mevali daraxtlarda ularning tanasida "rak" kasalini qo'zg'atadi.



Daraxt tanasidagi zamburug' va mevatanasi

Gibberilla - *Gibberella* turkumida peritetsiyalar yumshoq terisimon to'q ko'k, qirmizi yoki qora-jigarrangdan qora ranggacha tuslarda bo'ladi. Askosporalari cho'ziq, bir to'siqli. *G. zae* *Fusarium graminearum* anaformali zamburug' makkajo'xorining so'tasida qizil chirishni hosil qiladi. Bu zamburug' bug'doy kabi o'simliklarda ham ularning nixoli, ildizi, poyasi, to'pgullarida ham rivojlanadi. Bu zamburug' nam iqlimli mintaqalarda bug'doyni kuchli zararlaydi. U hosilni kamaytirishi bilan birga donni zaharlaydi.





Kasallangan makkajo'xori so'tasi va donlari

G.fujikuroi, *Fusarium verticilloides* anaforma bilan nam va issiq iqlimli hududlardagi o'simliklarda tekinxo'rlik qilish bilan saprotrof tarzda ham o'sadi. Yaponiya va Osiyorning boshqa mamlakatlarda sholi o'simliklarning o'sishini tezlatadigan o'stiruvchi modda gibberillinlarni hosil qiladi. Natijada kasallangan sholi o'simligini bo'g'imoralig'i va barglari cho'ziladi, keyinchalik o'simlik sarg'ayadi, quriydi.

Klavitseps - *Claviceps* turkumida stromalar steril band va ma'lum darajada yumaloqlashgan peritetsiyaga botgan fertil qismdan iborat. Bu turkumdan. *C.purpurea* ma'lum va mashxuri. Boshoqli ekinlardan bu zamburug' bilan suli ko'p zararlanadi. To'q rangli qattiq sklerotsiyalarni xo'jayin o'simlikning gul tugunchani o'mida

hosil qiladi. Qishlab peritemiyalar joylashadi. Bu zamburug' dunyo bo'y lab eng ko'p tarqalganlardan biri hisoblanadi. Yetilgan sklerotsiy boshqoli o'simliklar o'rilgan paytda yerga ko'plab miqdorda gul tugunchasi o'rnidan tuproqqa to'qiladi va qishlab qoladi. Erta bahordayoq hraorat past bo'lsa ham (-3 dan – 5) gacha uzoq vaqt davomida unib, har bir sklerotsiyidan bir necha stromalar hosil bo'ladi. Stromalarning soni sklerotsiyning o'lchamiga bog'liq.



2

Shoxkuya.

1- Kasallangan bug'doy boshog'i; 2-unayotgan sklerotsiy; 3-stromani hosil bo'lishi; 4-stroma kesmasidagi peritetsiyalar.

Askosporalar boshoqli o'simliklar gullagan paytda, ayniqsa havo bulutli sernam o'simlikning kasallanishiga moyilligi ortgan paytda ayniqsa ko'proq zararlaydi, bir necha kundan keyin zararlangan o'simlikni gultugunchasida zamburug'ning konidiya bosqichi boshlanadi. Zamburug' bu davrda qo'llansa hid tarqatib, turli xashoratlarni jalb qiladi. Ular yordamida konidiyalar tarqaladi. Sklerotsiyalar nam hovli sharoitda qo'llansa hid xosil bo'lganidan bir xafka, quruq kelganida esa 2 xafka o'tiboq hosil bo'la boshlaydi. Ularni rivojlanishi sekin dastlab, sarg'ishjigarrang, keyin sapsar, qoramtrsapsar tuslarga kirib ro'y beradi. Ularning to'liq yetilishi donni qotishiga to'g'ri keladi.

Klavitseps boshoqli o'simliklarning hosilni kamayishida, uni sifatini pasayishiga unchalik katta ta'sir qilmaydi. Asosiy masala sklerotsiy tarkibidagi zaharli ta'sirga ega bo'lgan alkoloид muddasida. Klavitsepitoksikoz yoki ergotizmni qo'zg'atadigan sklerotsiydagи alkaloid odamlarning silliq muskullari va qon tomirlari hamda asab sistemasiga ta'sir qiladi. Klavitsepsdagi asosi alkaloid lizergin va izlizergin kislotalarning hosilalari bo'lib hisoblanadi. Tibbiyotda lizergin va izolizergin kislotalarni tutgan peptid alkoloидlar, peptid va pirouzum kislota yoki uning hosilalari eng qimmatlisi hisoblanadi.

Klavitsepsdagi alkaloidlarning nerogumoral ta'siridan tomirlar muskullar bilan birga qisqaradi, markaziy nerv sistemaga ta'sir qiladi.

Dotideomitsetlar sinfi – Dothideomycetes

Dotideomitsetlari hozir lokuloaskomitsetlar (*Loculoascomycetes*), askolokulyar (*Ascoloculares*) deb qaraladigan yoki bitunikat askomitsetlar (*Bitunicatae*) mansub. Lokuloaskomitsetlarni geterogen guruhligi isbotlangan va shu boisdan avvalgi holatda ko'rib bo'lmaydi. Xaltalari ikki qavtli po'st bilan o'ralgan. Xaltachalari bittadan yoki ko'p hollarda to'p holda parafizlarga o'xshaydi. Haqiqiy mevatanalari yo'q.


Dotideyalar tartibi – Dothideales

Dotideyalarga mansub zamburug'larda xaltachalar o'zaro zich joylashadi.

Askosporalarining rangi bo'z tusdan qo'ng'irgacha, bir hujayrali ko'ndalang to'siqli bo'ladi.

Bu tartibning zamburug'larida jinssiz rivojlanish konidiyalar bilan ko'payib tarqalish keng tarqalgan. Asosan saprotroflar, o'simliklarning qoldiqlarida tarqalgan, tekinxo'rлari ham bor.

Mikosferiella – *Mycosphaerella* turkumi 1000 dan ortiqroq turlardan iborat. Pseudoperitesiyleri to'q rangli xaqiqiy peritesiylarni eslatadi. Xaltachalari ikki hujayrali rangsiz askosporali, ular zinch joylashadi. Ko'pchiligi saprotrof bo'lgani holda iqtisodiy zarar keltiradigan patogenlari ham bor. Turli o'simliklarning barglarida turli rangdagi dog'larni hosil qiladi. O'simliklarning tirik barglarida faqat konidiyalar hosil bo'ladi, to'kilgan va qishlagan barglarda psevdotetsiyalar yuzaga keladi.



Mikosferiella:

A-kasallangan barg;

B-psevdotetsiy;

C-askosporali haltacha va sporalar.


Pleosporalar tartibi – Pleosporales

Bu tartibga mansub zamburug'larda askostromalar bir bo'shliqli psevdotetsiyli, shar yoki biroz yassilangan, qora rangda. Arxikarplari stromaning ichida shakllanadi, askosporalari to'q tusli, turlicha ko'rinishlarda jinssiz sporalanishi keng tarqalgan.

Pleosporalar o'simlikda odamlarning faoliyatida katta ahamiyat kasb etadigan darajada tekinxo'rlik qiladi.

Venturiya - *Ventaria* turkumining zamburug'lari mevali daraxtlarda "parsha"deb nomlanadigan kasallikni *V. inaequalis* olmada *V. pyrinia* nokda ko'zg'atadi. Madaniylashtirilgan va yovvoyi olmalarni bargi, novdasi, mevalari kasallanadi. Zamburug' kutikula ostida tigiz konidiyabandlarni hosil qilganidan uni yirtadi.

Zamburug' o'simlikdagi fotosintezni sekinlatadi, hosil kamayadi. Xaltachalari to'kilib qishlagan barglarda hosil bo'ladi.



Venturia.

Kasallangan olma barglari va mevalari hamda psevdotetsiy

Pezizomitsetlar sinfi - Pezizomycetes

Pezizomitsetlar sinfi tabiatda keng tarqalgan bitta pezizalar (*Pezizales*) tartibidan iborat. Mevatanalari apotetsiy, etdot, terisimon peridiyli yoki biroz shilimshiqli, ochiq rangli, kattaliklari 1mmdan 10sm undan katta bo'ladi. Mevatanalari ba'zan steril-bandli, fertil soyabonli ko'rinishlardaligidan bazidiomitsetlarning agarikalariga o'xshaydi. Mevatanalarni quyidagilari uchraydi:


1. Eugimnogimenial – apotetsiy rivojlanishining boshlanishiidan oxirigacha ochi ko'rinishli;
2. Paragimnogimenial – apotetsiy rivojlanishining boshlanishida yopiq keyin ochiladi;
3. Kleystogimenial – yetilgan apotetsiy yopik ko'rinishli (erostida rivojlanadiganlarida)

Pezizalarda xaltachalar operkulyat ya'ni u «qopqoqchasi» bilan ochiladi. Xaltachadagi yetilaborishi bilan askosporalarini tashqariga chiqaradi. Pezizalarning ko'pchiligi xaltachali bosqich ma'lum xolos, konidiyalar ba'zi turlarda hosil bo'ladi, biroq ular yangi avlodni yaratish va tarqalishida ahamiyat kasb etmaydi.

Pezizalarning ko'pchiligi turli substratlarda saprotorf, ba'zilari gina o'simliklarda tekinxo'r, bir qator turlari ekotomikorizalarni hosil qiladi. Bu zamburug'lar orasida kaprofoblar va ayniqsa kaprofillar ko'p.

Askobolus - *Ascobolus* turkuminig zamburug'larida apotetsiy mayda diametri bir necha millimetrlar hosil, subgimeniy yaxshi

rivojlangan. Yetilgan xaltalari gimeniy yuzasiga chiqib turadi. Askosporalari rangsiz, rangli, ko'pincha qirnizi tusda



Ascobolus: mevatanalari va undan askosporalarni chiqishi

Askoboluslarda jinsiy jarayon turlicha, xatto bitta turkum doirasida ham har xil tarzda ro'y beradi. Bu zamburug'larda askosporalar shilimshiqlarga o'ralib atrofga xatto 7 sm masofagacha otilib tarqaladi.

Qo'ziqorin - *Morchella* turkumida apotetsiyning balandligi 14 sm gacha boradi. Bu zamburug'lar jinsiy jarayon orqali rivojlanadi. Askogen va anteridiyları yo'q, somatogamiya ro'y beradi. Soyabonsimon qismi shar yoki konus shakilda, bir qancha chuqur ariqchali, rangi qoramtil kulrangdan to'qjigarranggacha, bu turga va mevatananining yoshiga bog'liq.



***Morchella*-qo'ziqorinlar**

Gimeniy soyabonning ariqchalarida uning atrofida joylashadi, xaltachalarisilindrsimon 8 tadan as-kosporali. Bu zamburug'larda xaltachalar bir varakay emas, navbat bilan yetiladi. *Morchella* turkumi ning zamburug'larini iste'mol qilinadi.

Gyromitra - *Gyromitra* turkumida apotetsiy kattaroq, muayyan shakilga ega emas, ba'zi turlarida band yo'q.

Bu turkumidan *G. Esculenta* yevropa xalqi xush ko'rib iste'mol qilishadi, undan zaharlanish hollari ham ro'y berib turadi. Uning mevatanasida giromitrin toksini o'sayotgan sharoitga nisbatan hosil bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra Rossiyada uni iste'molidan odamlarning zaharlanishi kam sodir bo'ladid. Germaniya yoki Chexiyada bu holat ko'p zamburug' mevatanasini quritganda giromitrin yo'qoladi degan ma'lumotlar ham bor.

Pezizomitsetlar orasida mevatanalari yerostida rivojlanadiganlari ham anchagina, ular tryufellar (*Tuberaceae*) oilasiga jamlangan. Tryufellarda mevatañalari tukanak ko'rinishda (tuber "tukanak" deb tarjima qilinadi).

Tryufellarning meva tanasi yumaloq yoki kartoshka tukanagi kabi, etdor yoki tog'aysimon bo'ladi. Tryufellarning mevatanasini kattaligi yong'oqday, kartoshka tukanagiday hatto undan katta, og'irligi bir kilogramgacha yetishi mumkin. Tryufellarning mevatanasi po'stini tepasi silliq, to'rlagan yoki poliedrik shaklidagi yirik tukchaga o'hshash hosila bilan qoplangan. Ichki qismini rangi marmarsimon ko'rinishda bo'lib, po'stini tashqi tomonidan boshlanib ichki vena, ichki tomonidan boshlanib tashqi vena deb ataladi, navbatlashib joylanadigan to'rsimon chiziqlar ko'rindi. Meva tanalarni ichidagi bu chiziqlar ayrim turlarida po'stning yoriladigan joyida tutashgan.



Gyromitra

Tryufellarning meva tanalarni ichki venasida gimeniy qatlamga o'xshash tahlamlar yoki mevatana ichida uyalar holida joylashadi. Bu holat sistematik ahamiyatga molik belgi bo'lib hisoblanadi. Tryufel zamburug'larning xaltachalari yumaloq qovunsimon, qopsimon ba'zan g'o'lasimon bo'lib 1,2,4 yoki 8 sporali bo'ladi. Tryufellar o'simliklar ildizi bilan mukoriza hosil qiluvchilar hisoblanadi, unga ko'ra ularni u yoki bu o'simliklarni atrofidan tepiladi. Tryufel mitselliysi odatda 3 tadan 7 tagacha mevatanlar hosil qiladi mevatanalar yetilgandan tuproq biroz ko'tarilib qoladi. Bu shu yerda zamburug' borligini belgisi hisoblanadi. Tryufellarning mevatanalari odatda 3-4 oy ichida ayrim turlarida kech kuzgacha yetiladi.

Tryufellarni ko'p mammalatlarning xush-ho'r ovqat shinavandalari sevib iste'mol qilishadi. Amaliy ahamiyatga ega tryufellar orasida qora frantsuz tryufeli yoki perigor tryufeli (viloyatni nomi) boshqalaridan xushho'r, sevib iste'mol qilinadiganlaridan hisoblanadi.

Qora frantsuz tryufelingning meva tanasi qirraliqish, qirraliqizg'ish yoki qo'ng'irqora, yong'oqday yoki o'rtacha kattalikdagi olmaday keladi. Eti dastlab qizg'ish, yetilaborishi bilan sapsar, qora yoki qo'ng'irqora bo'lib uni qora va oq hoshiyalar kesib o'tadi. Bu tryufel kuzda yetiladi, qishgacha terib olinadi uning uzoq vaqt saqlanib turadigan hushbo'y mevatanasiga bo'lgan talab ancha katta. Bu tryufeli Frantsianing janubiy sarxadlaridan ko'p terishadi. Undan tashqari Shvetsariya, Italiyaning shimalida va Germaniyaning janubida ham ko'p tarqalgan. Tryufellar bizning Markaziy Osiyoda ham uchraydi. Uning cho'l tryufeli Terfezia boudieri turi tarqalgan.



Rhytisma acerinum

1-kasallangan barg; 2-stromadagi apotetsiyalar; 3-apotetsiy kesmasi;

4-xaltacha; 5-alohida spora;

6-mitselliyning yuzaga kelishi.

Leotsiomitsetlar sinfi - Leotomycetes


Bu sinf vakillari ham apotetsiyga ega, ko‘p hollarda mayda, terisimon po‘stli, ular orasida qo‘ziqoringa o‘xshashlari ham bor. Apotetsiyalar bittadan yoki stromalarda joylashadi. Ayrim turlarida konidiyalar ham hosil bo‘ladi.

Leotsiyalar tartibi – Leotiales


Leotsiyalar bu sinf ichida eng ko‘p tarqalgan. Apotetsiyalar turlicha kattalikda tuzulishda, odatda kichkina terisimon likopcha shakldagilari ko‘p. Apotetsiyalarini eng kichiklarini diometri 0,2mmdan katta bo‘lmaganligidan leotsiyalarning ancha-munchasi xali o‘rganilib fanga kiritilgani yo‘q. Shunga qaramay ular orasida ancha kattalari (bo‘yi 2-3 sm, diametri ham shuncha) ham bor. Askosporalarining kattaligi, shakli va rangi turlicha, po‘sti odatda silliq bo‘ladi. Leotsiyalarga mansub turlarning ko‘pchiligi tuproqda, yog‘ochda, boshqa organik materiallarda saprotrof hisoblanadi. Ular organik qoldiqlarni parchalashda faol ishtirok etadi.

Monilia - *Monilia* turkumining zamburug‘lari *Rosaceae*, *Vaccinaceae* oilalarga mansub o‘simliklarda tekinho‘rlik qiladi. *M. fructigena* olma mevasida qora chirishni qo‘zgatadi. Infektsiyani qo‘ng‘izlar tarqatdi, u mevani iste’mol qilganida olma etiga tuxum qo‘yishda konidiyalar ham keladi. Zararlangan joyda qo‘ng‘ir dog‘ payda bo‘ladi u kattalashadi, bir necha kunda olmani hamma joyiga tarqaladi. Zararlangan olma iste’molga yaroqsiz xo‘lga keladi. Sklerotsiyalar qorayadi, ular qishlaganidan keyin apotetsiyalar hosil bo‘lishi mumkin, biroq ko‘p hollarda zamburug‘ konidiyalarni qaytadan hosil qiladi.

Sklerotiniya - *Sclerotinia* turkumining zamburug‘larida haqiqiy sklerotsiyalar mavjud, konidiyalar hosil bo‘lmaydi. **S.sclerotiorum** o‘simliklarning yerusti sabzavotlarni (ayniqsa sabzini) qishga saqlaganda zararlaydi. O‘simlikning zararlangan joylarida kiygizsimon oq po‘panak unda qora sklerotsiyalar hosil bo‘ladi. Bahorda ulardan apotetsiyalar rivojlanadi.



Monilia: Kasallangan va so'glom olma, nok, olxo'ri mevalari hamda konidiyaband va konidiyalar



Sklerotiniya: kasallangan limon va sabzi sklerotsiysi bilan.

Ritismalar tartibi – Rhytismatales

Ritismalar tartibining zamburug'larida stromalaridagi mevatilar yumaloq yassi, cho'ziq shakillarda va ularning yuzasi qora tusda ular substratning yuzasi yoki ichida bo'ladi. Stromada bitta yoki bir nechta gimeniy bo'lib ular dastlab psevdoparenxima bilan qoplangan. Sporalar yetilganida u yirtilib yuldizsimon ko'rinishni

hosil qiladi. Askosporalari ovaldan ipsimongacha shakkarda, rangi qo'ng'ir tusgacha.

Ritisma - Rhytisma turkumining zamburug'lari zarang (*Acer*) o'simligining barglarida qora yaltiroq dog'larni hosil qiladi. Zamburug'ning gifalari yaproqning ustidagi epidermis ostida rivojlanadi. Kuzga kelib bargda stromalar yetiladi. Bahorda to'kilgan barglarda uzun apotetsiyalar rivojlanadi.

Lofoderma - Lophodermium turkumining vakillari ninabargli o'simliklarda tekinho'rlik qiladi. *L.pinastri* ayniqsa qarag'ay ko'chatlarida "shyutte" deb nomlanadigan kasallikni qo'zg'atadi. Kasallangan ninabarg to'qiladi, unda cho'ziq qora apotetsiy hosil bo'ladi, u yetilganida uzunchoq yoriq bilan ochiladi. Voyaga yetayotgan qarag'ay daraxtlarning tanasini pastidagi barglar ham kasallanadi, biroq daraxtg'a katta zarar yetkazmaydi.

◆ Lekanoramitsetlar sinfi – Lecanoromycetes

Bu sinfga lishayniklar tarkibiga kiradigan zamburug'lar (mikobiont) mansub. Shu boisdan bu joyda o'ziga xos simbiozlikni tashkil qilgan hayotiy ko'rinish lishayniklar xaqida ma'lumotlar keltiriladi.

Umumiyo tavsifi Lekanoramitsetlar – lishayniklar asosan tallomi katta, qo'lga olib ko'rsa bo'ladigan organizmlar. Ularning orasida mikroskopdagina ko'rinaliganlari ham bor. Lishayniklar zamburug' va suvo'tdan tashkil topgan. Zamburug'ni **mikobiont**, suvo'tni **fikobiont** deb nomlanadi.

Mikobiont – tarkibidagi turlarning ko'pchiligini askomitsetlar, ulardan anchasini diskomitsetlar, kamrog'ini pirenomitsetlar tashkil qiladi. Lishayniklarning ozrog'ida mikobiont bazidiomitsetlardan (gemenomitsetlardan) iborat.

Fikobiont – bu asosan yashil suvo'tlar. Ko'p hollarda bu bir hujayrali kokkoid trebuksiyalar (*Trebouxophyceae*) sinfidan *Chlorella* tipidagi (bu turkumning turlari lishayniklar tarkibiga kirmaydi) suvo'tlardir. Ba'zan ko'k-yashil suvo'tlar *Nostoc* bo'lishi mumkun

Odatda muayyan turga mansub zamburug' qat'iy tur suvo'ti bilan morfologiya va biokimyoiy belgilari orqali farqlanadigan barqaror organizm majmuyni hosil qiladi. Shu tufayli u lishaynikda

tur sifatida qaraladi. Lishaynikdagi mikobiontni mustaqil nomi yo'q, uni nomi endi lishaynik nomi bilan ataladi. Fotobiont o'zini mustaqil nomiga ega.

Lishaynik tarkibini tashkil qilgan mikobiont, fotobiont tabiatda (lishaynik tarkibida emas) uchramaydi, biroq fakultativ lishayniklar mavjud.

Lishaynikdagi suvo't fotosintezda zamburug' foydalanadigan organik moddani hosil qiladi. Zamburug' suvo'tni suv va mineral tuzlar bilan ta'taminlaydi. Biroq doimo suvo't va zamburug' orasidagi munosabatlar hardoim ham shunday bo'lavermaydi. Bu tekinoxorlikga yaqin holat ham: zamburug' suvo'tni halok qilmay, uning faoliyatini pasaytirish ham ro'y beradi.


Lekanoramitsetlarni tabiatdan 13500 ga yaqin turlari aniqlangan. Fotobiontning turlarini xilma xilligi 100 ga yaqin xolos. Shunday qilib shu fotobiontning o'zi bir necha turdag'i mikobiont bilan birga bo'lishi mumkin. Ba'zan o'zaro yaqin qarindosh zamburug'lar, qarindosh suvo'tlar bilan birga bo'lishadi. Zero *Sladonia* turkumiga mansub juda ko'p turlar *Trebouxia* turkumining suvo't bilan birga. Shu bilan birga *Trebouxia* turkumining suvo'tlari o'zaro qarindosh bo'lgan zamburug'lar bilan ham birga.

Lishaynik tarkibida ikkitadan ortiq sherik: ayrim lishayniklarda uchta xatto to'rt organizim bo'lishi mumkin. Uch sherikdan ikkitosi fotobiont: yashil suvo't (birlamchi fotobiont) vasianobakteriya (ikkilamchi fikobiont) tabaqalashgan tashqi yoki ichki tuzulma – sefalodiylarda bo'ladi. Shunday qilib fotosintezlovchi yashil suvo'tsianobakteriyadan azot ham oladi.

Lishayniklarning morfologiysi. Tallomining kattaligi va shakli turli-tuman. Bir necha millimetrdan o'nlab santimetrlarga boradi. Deyarli barchasida uning vegetativ tanasining asosiy qismini zamburug' tashkil qiladi, ayrim lishayniklardagina zamburug' va suvo't deyarli tengdan iborat xolos.

Lishayniklarning vegetativ tanasini odatda uch asosiy: quyqa (po'stloqsimon), yaproq va buta ko'rinishlarda bo'ladi. Bu ko'rinishlarning oraliqlari ham bor.

Quyqa lishayniklar turlicha ranglar va ko'rinishlarda substratga yopishib turadi undan ajratib olib bo'lmaydi. Bunday lishayniklarni u o'sayotgan substrat bilan birga olinadi.



Yaproqsimon lishayniklar yassi, bo'laklar hosil qilgan, substrat ustida unga birikmay yoki bir qismi bilan birikib joylashadi.

Buta shaklidagi lishayniklar tarmoqlangan ko'rinishlarga ega, ular tik osilib yoki yon tomon yo'nalishida o'sadi. Lishayniklarning kesmasi yassi, doiraviy ko'rinishlarda bo'ladi.

Lishayniklarning anatomiya tuzulishi gomeomer (ayrimlaridagina) va getegomer (ko'pchiligida) bo'ladi.

Gomeomer tuzulishli lishayniklarda suvo't va lishaynik deyarli teng darajada "aralashib" joylashadi. Bunday tallomining asosini fotobiontning iplar, u ajratadigan shilliq zamburug' gifalari bo'ladi.



Lishayniklarning anatomiysi.
1-gomeomer tallom; 2-geteromer tallom

Geteromer tuzulishli lishayniklarda aniq farqlanadigan po'stloq, fotobiont qavati va o'zak mavjud. Tallom agar yassi – dorsoventral tuzilgan bo'lsa, yuqorigi va pastki po'stloq, gifalardan iborat o'rta qism, siyrak o'zakdan tashkil topadi.

Suvotli qavat yuqorigi po'stloq bilan o'zakni orasida bo'ladi. Ba'zi lishayniklarda po'stloq u yoki bu darajada bo'lmasligi mumkin. Masalan, *Peltigera* turkumining vakillarida ular ancha katta yaproq ko'rinishga ega bo'lsa ham pastki po'stloq yo'q. *Sladonia* turkumidagilarda po'stloq bor yo'q hisobi.

Lishayniklardagi metabolizm. Lishayniklar **lishaynik kislotasi** deb ataladigan moddalarni ajratadi. Ular tog' qoyalarida o'sganida yemiradi, tuproq hosil bo'lishida bizning O'rta Osiyo sharoitida xususan g'arbiy Tyann-Shanda mumiyo hosil bo'lishida ishtirot etishi xaqida ma'lumotlar bor.

Vegetativ ko'payish. Lishayniklarning juda ko'pchilik turlarida asosiy ko'payish vositasi bu -vegetativ ko'payish. U bo'laklarga bo'linib yoki maxsus hosila – sorediy izidiylar hosil qilish bilan amalgalashadi. Hayvon, odamlar bosib olganda sinib bo'linadi, shamol yoki boshqa ta'sir tufayli tarqalib yangi tallomga aylanadi.


Sorediya – bitta yoki bir necha fotobiontni o'ragan zamburug' gifasi u suvo'tlar joylashgan joyda tallomini yuzasida, ayrim lishayniklarda zich tuzulma – **soral** ko'rinishda hosil bo'ladi. Serediylardan tashkil topgan lishayniklar ham mavjud. Qulay sharoitda ular rivojlanib yangi lishaynikni hosil qiladi.

Izidiylar lishaynik tallomidagi zamburug' gifasi va fotobiont hujayralardan iborat o'simta. Izidiylar u hosil bo'lgan tallomga, po'stloqga, fotobiont qatlamga, o'zakga ham o'xshaydi. Tallomdan uzulganidan keyin qulay sharoitda rivojlanadi.

Sorediy va izidiylar o'zaro morfologiysi, o'lchamlari bilan ancha farqlansa ham izidiya o'xshaydigan sorediylar, mayda izidiylarni sorediy ko'rinishidagilari ham bor.

Jinssiz ko'payishi. Lishayniklarni jinssiz ko'payishi haqida gaplar munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ko'pchilik turlarida turli tuman ko'rinishlaridagi piknidiylar bor, ularda sporalar hosil bo'ladi. (rasm) Shunga qaramay mikologlarning ko'pchiligi bu sporalar konidiylar, jinssiz ko'payishni ta'minlaydigan sporalar

emas, jinsiy jarayonni amalga oshiradigan spermatsiyalar deb qarashadi.



Lishayniklar. Yuqorida Cetraria; pastda Cladonia.

Jinsiy ko‘payishi. Jinsiy ko‘payishda mikobiont (arxikarp) mevatanalarni hosil qiladi. Lishayniklarning ko‘pchiligida u apotetsiyalar, ozchiligida peritetsiy, psevdotetsiyalar yuzaga keladi. Bazidiomitsetlardan iborat mikobiontlarda bazidiomitsetlarning asilloforalar va agarikalaridagi kabi mevatanalar hosil bo‘ladi. **Lixenillashgan** askomitsetlarda mevatanalar ko‘pyillik, bazidiyali zamburug‘i bo‘lganlarida bir yil, uncha ko‘p bo‘limgan muddat yashaydi xolos.

Peritetsiyalar tallomga ma'lum darajada cho'kkon, uning uchi qora nuqta xolida ko'rindi. Sporali xaltachalar hosil bo'ladigan peritetsiyini ichi to'q yoki ochiq rangli parda – **ekststipul** bilan o'ralagan. Peritetsiyini xaltachalar, parafizlar hosil bo'ladigan pastki va yon qismlari gimeniy qatlamni hosil qiladi. Ayrim lishayniklarda parafizlar umuman hosil bo'lmasligi yoki erta shilliqcha aylanib ketadi. Tirqish atrofida perifizlar hosil bo'lishi mumkin, ular gifa iplaridan iborat bo'lib peritetsiy ichini ximoyalaydi.

Apotetsiyalar lishayniklarda turlicha ko'rinishlar va kattaliklarda bo'ladi. Qo'yqa va yaproqsimon lishayniklarning juda ko'pchiligidagi apotetsiyining diametri 2 mm gacha tugmacha ko'rinishida bo'ladi. Apotetsiyalar tallomning yuza tamonida *Nephroma* va *Nephromopsis* turkumlarida uning pastki tomonida joylashgan, yetilishi bilan yuqoriga qayriladi. *Sladonia* turkumiga mansub lishayniklarda apotetsiy kichkina shar ko'rinishida jigarrang yoki qizil bo'ladi. Ba'zi quyqasimon lishayniklarda apotetsiy chiziq, tarmoqlangan chiziq ko'rinishidaligi bilan ularni **gisterotetsiy** deb ataladi.

Apotetsiyalarda markaziy yassi qism, uni o'ragan gardish bor. Yassi qismni yuzasida gimeniy qavat u xaltalar va parafizlardan iborat. Parafizlar xaltachalaridan balandroq, ularni uchi jigarrang, yashil va boshqa ranglarda bo'lib tig'iz joylashib ximoyalovchi qavat - epitetsiyini hosil qiladi. Gimeniy qavatni ostida gifaning zinchigalidan hosil bo'lgan gipotetsiy joylashadi, ularda xaltachalar yuzaga keladi. Xaltachalar **lekonar**, **letsidiy** va **biator** tiplarida bo'ladi.

Lishayniklardiagi xaltachalarsilindr, to'g'nog'ich, nok kabi ko'rinishlarda kattaligi uzunasiga 40 – 75 mkm, eniga 15-25 mkm keladi, ayrimlarida bo'yi 400 mkm, eni 90 mkm keladiganlari ham bor.

Lishayniklarning ko'pchiligidagi xaltachalar unitunikat, bosh-qalarida bitunikat tipida ochiladi. Xaltachadagi sporalarni soni ko'pincha 8ta, undan oz yoki ko'p bo'lishi ham mumkin. Ayrim lishayniklardiagi xaltada bitta katta spora bo'lsa, 200 tagacha maydalari ham bo'ladi. Sporalar odatda rangli ham, rangsiz ham bo'ladi.

Sporalarning shakli shar, tuxum, urchuq, nina kabi ko'rinishlarda, cho'ziqlari to'g'ri, egik, spiral buralgan, bir hujayrali, ikki hujayrali, ko'phujayralardan iborat bo'lishi mumkin.

Sporalarni mevatanalardan atrofiga tarqalishi ko‘pchiligidagi faol, faol bo‘lmaqda ro‘y beradi, qulay sharoitga tushsa fotobiont bilan yangi lishaynikni hosil qiladi.

Lishayniklarning ekologiyasi Lishayniklar atrof muxitning ko‘plab omillariga deyarli befarq holda bo‘lganligidan uzoq muddat davomidagi qurg‘oqchilikga, yuqori va past haroratga chidamli organizmlar. Ular boshqalar bo‘lmaydigan daraxt po‘stlog‘i po‘stsiz yogochli tuproq barg xayvonlarning suyagi toshlarni yuzasi xatto beton temir kabilarni yuzasida ham o‘saveradi. Lishayniklar sekin o‘sganligidan moxlar yoki to‘qimani o‘simliklar ularni o‘sayotgan joyidan siqib chiqaradi.

Lishayniklarning ayrim turlari atrof muxitning ifloslanishiga juda sezgir (masalan *Lobaria pulmonaria*), boshqalari bunga beparvo, poleotorantli, masalan, *Hypogymnia physodes*. Ular orasida muayyan substratda, turli joylarda o‘sadiganlari ham bor.

Lishayniklarni bir necha ekologiya guruhlari bop, ularda asosiyлari quydagilar.

Epigey lishayniklar oziq moddalari kam, boshqa organizmlar avvalo yuksak o‘simliklar uchun noqulay tuproqlarda tarqalgan. Tundra, o‘rmontundiraning juda katta xududlari asosan buta ko‘rinishidagi lishayniklar bilan qoplangan. Bu joylarda *Cladonia*, *Alectoria*, *Cetraria*, *Stereocanlon* turkumlarining turlari juda ko‘p.

Nam o‘rmonlarda yaproqsimon lishayniklardan *Peltigera*, *Nephroma* va boshqa turkumlarning zamburug‘lari moxlar bilan birga uchraydi. Bu guruhni epibiofit lishayniklar deb nomlansa to‘g‘iroq bo‘ladi. Epigey lishayniklarni tuproq hosil bo‘lishida ahamiyati katta.

Epifit lishayniklar daraxt tanasi, shoxlari, butalarda tarqalgan. Ular yaproq va quyqa ko‘rinishlarda, buta ko‘rinishidagilari kam. Ba’zan daraxt tanasining po‘stlog‘ini ustida o‘sadiganlarini epifleoid po‘stloq ostidagilarni gipofileoid guruhlariga farqlanadi.

Epiksil lishayniklar qurigan hamda ishlov berilgan yog‘ochda o‘sadi. Bu ekologiya guruhiga quyqa, yaproq va buta ko‘rinishidagi lishayniklarning ko‘pchiligi mansub. Epiksillar boshqa substratlar amalda deyarli uchramaydi, ularga *Cladonia botrytes* misol bo‘ladi.

Epilit lishayniklar toshli substratda tarqalgan, ular asosan quyqa va yaproq shakliga ega. Buta ko‘rinishidagilari kam uchraydi. Epilit

lishayniklar orasida qoyalarning yoriqlaridagilarni endolitlar tashkil qiladi.

Lishayniklarni suv sachirab turadigan joylarda tarqalganfari ham bor. Ularga misol sifatida *Dermatocarpon* turkumining turlarini keltirish mumkin.

Lishayniklarni ahamiyati. Lishayniklar atrofidagi moddalarni, shu jumladan radiotaktivlarni ham shimib to'plash xususiyatiga ega. Lishayniklarda rux, kaltsiy, kaliy va qo'rg'oshin kabi kimyoviy elementlar moxlar va gulli o'simliklardagidan ancha ko'p miqdorda to'planadi. Lishaynik fikobiontidagi fotosintezlovchi pigmentlardan xlorofill b va v miqdori gulli o'simliklardagidan ancha kam bo'ladi.

Lishaynikdagi ikkilamchi moddalar asosan organik birikmalar bo'lib, hozirgi kunga kelib ularning turi 300 ga yaqinlashib qolgan. Bu miqdordan 100 ga yaqini faqat lishayniklarda uchraydi xolos. Bu moddalarning biologik ahamiyati xali o'rganilmagan emas, bu borada bir necha farazlar bor. Lishaynikdagi ba'zi moddalar bakteriyalardan ximoya qiladi. Lishayniklarning ko'pchiligi yuqorida takidlagonimizdek juda sekin o'sadi, noqulay sharoitning og'ir paytlarida lishaynikdagi moddalar yashash uchun kurashdagi muxum "qurol" bo'lsa ajab emas. Lishaynikdagi moddalar zamburug' va konkurent hisoblanadigan moxлarni o'sishini, gulli o'simliklar urug'larini unish xususiyatlari pasaytirishini aniqlangan.

Lishaynikdagi moddolar ularning sistematikasi uchun ahamiyatli: ma'lum turlar ma'lum moddalarni hosil qiladi. Lishayniklarning kimyoviy tarkibini murakkabligimi yoki boshqa bir qator tashqi omillar ularning o'sish tezligiga katta ta'sir qiladi. Litofil lishayniklar eng sekin, bir yil davomida bor yo'g'i bir necha millimetrgina o'sadi xolos. Qo'yqa lishayniklari boshqalardan ancha sekin o'sganligidan ayrimlari yoshi masalan rizokarpon (*Rhizocarpus*) 4000 yil, astspitsiliya (*Aspicilia*) 1000yil o'sishi aniqlangan. Yassiyaproq va butasimon shoxlangan lishayniklar esa o'rtacha 50 – 100 yil umr ko'radi. Lishaynikni bir yilda qancha o'sishini bilgan holda, tallomni o'chab uni yoshini aniqlash mumkin, bu usul lixenometriya deyladi.

Lishayniklar ham boshqa o'simliklar kabi ular o'sayotgan joy havosidan ta'sirlanadilar: ayrimlari havo tarkibini biroz o'zgarishiga ham chiday olmay halok bo'ladi, boshqalari axoli doim yashaydigan, havosi ifloslangan joylarda moslashib o'saveradi. Bu

xususiyatni o'rganish bilan indekatsiya ekologiyasi maxsus yo'naliishi lixenoindikatsiya shakillangan. Lishayniklarni yevropadagi sanoati rivojlangan shaharlarda o'sishi o'rganib quydagi umumiy qonuniyatini aniqlangan.

Shaharda sanoat qanchalik kuchli darajada rivojlangan bo'lsa, xavosi shunchalik ifloslangan, bu sarxadda lishayniklarning turi, ularni miqdori va o'sish darajasi shuncha kam.

Xavoning floslanishi ortishi bilan avvalo butasimon shoxlangan lishayniklar, keyin yassi yaproqsimon, ulardan keyin quyqa xolidagi lishayniklar yo'qolib ketadi. Shahar markazi, sanoatga boy sarxad-lari va uning atrofida o'sadigan lishayniklarning turlari, miqdori, o'sish darajasini turlichaligi aniqlangan. Lishayniklarga oltингugurt turt oksidining miqdori $0,05 \text{ mgm}^2$ dan ortishi bilan xaloqatli ta'siri boshlanadi.

Lishayniklar beogeotsenozning bir qismi sifatida, shu bilan birga avtogeterotrofligi tufayli o'zida quyosh energiyasini to'playdi, organik va organik bo'limgan moddalarni parchalaydi. Boshqa o'simliklarni o'sish uchun noqulay bo'lgan, masalan toshlar ustida o'sadi ularni yemiradi. Tundrada asosiy o'simlik bo'lib hisoblangan lishayniklar u yerlardagi bug'ularning asosiy ozig'i bo'lib hisoblanadi. Bug'ulardan tashqari lishayniklar boshqa uy hayvonlari uchun xam yaxshi ozuqa hisoblanadi.

Lishayniklarning kishilarni oziq ovqatida ahamiyati deyarli yo'q hisob. Yaponiya mamlakatida uimblikariya (*Uimblisaria esculenta*) deb ataladigan lishaynikdan turli taomlar tayyorlashda foydalaniлади. O'rta sharq mamlakatларининг axolisi cho'llarda o'sadigan aspitsiliya lishaynigini (*Aspicilia escalehta*) iste'mol qilishadi. Misrda esa everniya lishaynigini (*Evernia lurfuraceae*) maydalab uning kukunini nonga qo'shishadi, hamda ziravor sifatida ishlataladi. S vitaminini ko'pligi bilan azaldan mashxur hisoblanadi. Everniya, ramalina, parmeliya tarkumlariga mansub lishaayniklar xozir ham zebi-ziynat maxsulotlariga xushbo'y xid berishda ishlatalib kelinadi. Lishayniklarning ko'pchiligi antibiotik moddalar hosil qiladi. Uneya (*Usnea hirta*), kladoniya (*Sladonia deformis*) Alektoriya (*Alectoria ochraeica*) hosil qiladigan usnin kislotasi asosida tibbiyotda shamollahsga qarshi ishlataladigan "binan" dorisi tayyorlanadi. Lishayniklar orasida zaharlilari yo'q. Letariya (*Lateria*) turkumidan *L.vilpia* turida zahar xususiyatiga ega bo'lgan

vulpin kislotasi sut emizuvchilarda nafasni qiyinlashtiradi, tomir tortishish, qon bosimini oshirishni yuzaga keltiradi. Xayvonlar iste'mol qiladigan ksantoriya lishaynigi (*Xanthoria parietina*) ularga zaharli ta'sir qiladi.

Lishayniklarni qadim zamonlardan beri turli mamlakatlarning axolisi tabobatda ham ishlatib kelishadi. Ilgarilar tabiblar o'simlik tashqi ko'rinishiga ko'ra, odamning ichki a'zolaridan biriga o'xshasa, uning kasallanishi bilan bog'liqligi bor, deb hisoblashgan. Masalan, Lobariya lishaynigi, odamning o'pkasiga o'xshashligi tufayli, uning kasalligida usneya soqolsimon bo'lganligidan sochni, sarg'ish-pushti Ksantoriya sariq kasalligini davolashda ishlatishgan.

Lishayniklarni antibiotiklik xususiyati 70 dan ortiq turlarda aniqlangan. Dastlab everniya lishaynidan (*Evernia prunastri*) teridagi turli yaralarga qarshi qo'llaniladigan, "Evozin" dorisi olin-gan. Keyinchalik "Evozon₂" olinib, u o'pka kasalliklarini davolashda foydalanilgan. Yaponiyada antibiotik xususiyatli teridagi aktinomikoz va boshqa kasalliklarda keng qo'llaniladigan "**Usnin**" olingan.

Sobiq ittifoq davrida usnin kislotasining natriyli tuzi—"binan" olinib, stafilokokk, streptokokk, pievmokoklar, tuberkulyoz tayoq-chasi yuzaga keltiradigan kasalliklarga karshi foydalanildi. Uning kislotasini o'simliklarda ham foydalanilganda ancha yaxshi samara berishi aniqlangan.

Lishayniklardan zebi – ziynatda turli mamlakatlarda keng foydalaniladi. Ulardan olingan moddalarodekalon, duxilar,sovunlar tarkibiga qo'shilganda ularni xushbo'yligi ortadi va nixoyat, lishayniklardan to'qimachilikda qimmatli hisoblangan bo'yoq olinadi, u yorug'lik ta'sirida o'chmasligi bilan sun'ylardan ustun va shu tufayli kadrlanadi.

Lishayniklarning sistematikasi. Lishayniklarning sistematikasi mikobiontning sistematikasi asosida yaratilgan. Fotobiont mutaxassislarining fikricha klassifikatsiyada ahamiyatli emas. Qadimdan klassifikatsiyada (diagnostikada ham) ularning kimyoviy tarkibi xususiyatlaridan foydalanilgan. Keyingi paytda mutaxassislar orasida bu belgilarning ahamiyati ortib bormoqda.

Lekanoralar tartibi - Lecanorales

Lekanoralar tartibiga umuman lishayniklarning juda ko'pchiligi mansub. Tallomining morfologiysi o'lchamlari kabi turlicha. Apotetsiyalarini rivojlanishi odatda gimnokarp tipda. Ko'pchilik turlarida xaltachalar unitunikat, uchi yo'g'onlashgan, lekonar xilda ochiladi. Lekanorlar turli geografik mintaqalarda, har xil o'sish joylarida tarqalgan. Tartib doirasida bir necha kenja tartiblar ajratiladi.


Peltigeralar kenja tartibi - Peltigerales

Bu kenja tartibga birmuncha katta yaproqsimon tallomli lishayniklar mansub. Ko'pchilik turlarida fitobiont –sianobakteriyalar. Fotobionti yashil suvo'tlari bo'lgan turlardasiyanobakteriyalarsefalodiylarda jamlangan.

Peltigera - *Peltigera* turkumining vakillar moxlar bilan birga, yaproqsimon tallomi 20-30 sm gacha diametrli, chekkasi buralgan ko'rinishlarda. Yuqorigi va pastki tomoni farqlanib usti yam-yashil, silliq pastida po'stloq yo'q. Tallomini tagi qo'ng'ir, qora yoki kulrang-zangori. *Peltigera* turkumining ko'pchiligidagi fotobiontsianobakteriya *Nostoc* uning tallomi ichida alohida hujayralarga bo'linib ketgan.

Apotetsiy tallomining yuqorisini qirralarida rivojlanadi. *Peltigera* turkumining turlari og'ir metallarning tasiriga chidamli ekanligi aniqlangan. Bu turkumning lishayniklarda azot to'plash-tirish, fotosintez, og'ir metallarni to'planishi bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarda test-obekt sifatida foydalaniлади.

Lobariya - *Lobaria* tallomi yirik, sorediya va izidiyalar joylashadigan qovurg'asimon qismlari baland turadi. Bu turkumning turlari tropik va subtropik mintaqalarda keng tarqalgan.



Peltigera: umumiy ko'rinishi va kesmasi



Lobariya

L.pulmonaria turi yonbosh joylashgan gomf yordamida daraxt tanasining asos qismiga birikadi. Tallomni usti to‘q jigarrang, tagi oqishroq kichkina rizoidi bor. Apotetsiyalar kamdan kam hollarda hosil bo‘ladi. Havoning ifloslanishiga o‘ta sezgir, ilgari Rossianing o‘rmonlarida keng tarqalgan bo‘lib, hozir deyarli yo‘q hisobi.

Lekanoralar kenja tartibi – Lecanoriales


Bu kenja tartibning lishayniklari quyqa, yaproq va buta ko‘rinishlarida bo‘lib unda po‘stloq aniq bo‘linib turadi. Fotobiontlari *Trebouxia*, *Trentepohlia* turkumlariga mansub yashil suvo‘tlar.

Parmeliya - *Parmelia* tallomi yaproq shaklida, lekonar apotetsiyali, substratga biriktiruvchi qismi bor. Toshlar, daraxtlar ustida iplari tutamlari xolida osilib o‘sadi. Sorediyalar tallomni yuqorisidagi ariqchasimon o‘yiqlarda rivojlanadi.

Sentrariya - *Cetraria* tallomi butasimon, dorsovenral bo‘lakkaldan iborat. “Islandiya moxi” deb ataladi. *C. islandica* bosh-qalaridan ko‘p tarqalgan. Nam tallom yer bag‘irlab, qurigan butasimon ko‘rinishni hosil qiladi.

Usneya - *Usnea* tallomi radial tuzilishni epifit buta, substratga gomf yoki rizoidlari orqali birikadi. Iekanar apotetsiyli. *U.longissima* uzunligi 1 m ga yetadigan tarmoqlangan tutamni hosil qiladi. Bu turkumning lishayniklari atmosfera havosining ifloslanishiga ancha chidamsiz. Shu boisdan bu turkum lishayniklarning mavjudligi yoki yo'qligi shu joyning atmosferasini ifloslanganlik darajasini belgilaydi.

Evernial - *evernia* turkumining lishayniklari epifit, setrariya kabi uning butasi dorsoventral tuzulishli bo'laklardan tashkil topgan. Bo'laklari dixotomik tarmoqlanadi. Apotetsiyllari lekanar tipda, tallomi oqish yashil, pasti oqroq tusda.



Usneya barbata

Kladoniyalar kenja tartibi – Cladoniales

Kladoniyalarning tallomi quyqa va yassiyaproqroq tuzilganlarida dorsoventral va tayoqcha bandli voronka, buta kabi ko'rinishlarga ega. Dorsoventral tuzulishlarni birlamchi tallom, undan yuqoriga yo'nalganlarini **podetsiy** deyiladi. Ayrim turlarda birlamchi tuzilish yaxshi rivojlangan, podetsiyalar sezilarsiz, boshqalarida aksincha birlamchi tallom sezilarli, podetsiyalar esa to'r ko'rinishli. Fotobionti yashil suvo't *Trebouxia* turkumining suvo'tidan iborat.

Bu kenja tartibining lishayniklari unumidorligi kam tuproqlarda qarag'ayzorlarning ostida ko'p uchraydi, qarag'aylar tanasining pastida to'nkalarda ko'plab turlari tarqalgan.

Kladoniya – *Cladonia* turkumining lishayniklarida podetsiyalarni ichi kovak xolida. Kovak ochiq yoki berk bo'ladi. Birlamchi tallom yassiyaproq, qisman quyqa ko'rinishida. Podetsiyllarning ko'rinishi bog'oyat darajada turli tuman ko'rinishlarda. Ko'pchilik turlarida podetsiyni uchi voronkasimon tuzulgan uni **skifa** deyiladi.

Podetsiy po'stloqli, po'stloqsiz, uni qirrasida letsidey tipdag'i jirarrang yoki qizil tusli apotetsiylar joylashadi. Xaltachalarda 8 tadan bir hujayrali rangsiz sporalar bo'ladi.




Kladoniyalar


Teloshistalar kenja tartibi – Teloschistinae

Bu kenja tartibning lishayniklari tallom quyqa, yassiyaproq yoki buta ko'rinishida, capsariqdan pushti, qizil tusgacha. Fotobionti yashil suvo'ti *Trebouxia* turkumidan. Askosporalarning rangi odatda oq tusli.

Ksantoriya - *Xanthoria* turkumining lishayniklari sariq, qizil tusda bo'ladi. Tallomi substratga maxkam yopishib bir birini malum darajada qoplab turadi. *X. parietina* ko'pincha daraxtlarning po'stloqlarida, bizning sharoitimizda tog'lardagi toshlarning ustida, quyosh nuri kun davomida tushib turadigan joylarda keng tarqalgan.



1



2

Ksantoriya: 1-daraxt shoxchasida; 2-apotetsiylar

ERIZIFOMITSETLAR SINFI – ERYSPHOMYCETES



Erizifomitsetlar sinfi bitta unshudring (*Erysiphales*) tartibidan iborat xolos. Yopiq (kleystotetsiy) mevatanadagi xaltachalari (bittyayagona xaltachalisi ham bor), yuzasida turlicha o'simtlari bo'lishi

bilan harakterlanadi. Konidiyabandlari doimo o'sib turadi, to'siqlar bilan bo'g'imlanadi. Konidiyalar ko'pincha marjon ko'rinishni hosil qiladi, bittadan ham bo'ladi. Bu sinfga mansub zamburug'larning hammasi yuksak o'simliklarda ularning yuzasida (ektofit) mitselliyl hosil qilib (un sepganday) tekinoxorlik qiladi.

Mitselliyl zararlangan o'simlikning bargi, poyasi, qisman gul va mevalarining yuzasida bo'lib gaustoriy epidermisda, bazan barg mezofilida bo'ladi. *Loveillula* turkumida mitseliyl xo'jayin o'simlikning to'qimasida rivojlanadi. Mitselliyl rangsiz, bir yadroli hujayralardan iborat.

Zamburug'ning hayotiy davrini oxirida (hamma turlarida emas) kleystotetsiyalar hosil qiladi.

Sferoteka – *Sphaerotheca* hosil qiladigan kleystotetsiyada bitta xaltacha yetiladi xolos. Undagi sporalarning soni "ananaviy" 8 ta bo'lishi mumkin, biroq ko'pchilik turlaridan undan kam, masalan, *erysipha cichoracearum* turida faqat 2 ta bo'ladi. Xalta hosil bo'lishi bilan kleystotetsiyning po'sti (peridiy) shakllanadi. U ikki qavatli, ichki va tashqi qavat o'zaro farqlanadi. Tashqi qavat yo'g'on gifalardan tashkil topib ximoyalash vazifasini, ichki qavat yupqa po'stli gifalardan iboratligida tezda erib u oziq vazifisini bajaradi. Tashqi qavatdan turlicha tuzulishdagi o'simtalar chiqadi. Ularning ko'rinishi turkumlar sistematikasida muhim belgi hisoblanadi.



Erysiphalar yuqorida tok bargidagi oq g'uborlar; pastda kleystotetsiylardan askosporalarni chiqishi; o'ngda kleystotetsiyarlarning xillari.

Sferoteka turkumining zamburug'lari kleystotetsiyalaridagi o'simtalar vegetativ gifalarga o'xshaydi, bitta xaltachali. Bu zamburug' ko'plab o't o'simliklarida tarqalgan.

Podosfera – *Podosphaera* turkumining kleystotetsiyalaridagi o'simtalarning uchi dixotomik shoxlangan. Bu tur – *P. leucotricha* olma, nok daraxtining bargi novdada oq, sarg'ish rangdagi dog'larni hosil qiladi. Bu zamburug'ning tarqalishida marjon ko'rinishdagi konidiyalar asosiy ahamiyat kasb etadi. Kleystotetsiyalar yuzaga kelsa ham undagi xaltachalar yetimasligi mumkin. Bizning sharoitimidza bu zamburug' olma daraxtiga zarar yetkazadi.

Erizifa - *erysipa* turkumi kleystotetsiyidagi o'simtalar vegetativ mitselliya o'xshaydi, undagi xaltachalarning soni ko'p. Bu turkum zamburug'lari asosan o't o'simliklarni kasallantiradi. Keng tarqalgan turlardan biri e. *cichoriacearum* turli oilalarga mansub o'simliklarda tekinxo'rlik qiladi. E. *cichoracearum*, f. *cucurbitacearum* qovoqdoshlar oilasiga mansub o'simliklarda katta zarar keltiradi. Asosan bodring, qovun, xandalak, oshqavoq kuchli zararlanadi quriydi. Erizifa turkumidan e. *graminis* – hozirgi paytda aloxida turkum *Blumeria* boshqoli o'simliklarda tekinxo'rlik qiladi.

Mikrosfera - *Mikrosphaera* kleystotetsiyini ustida uni aylanasi bo'ylab qattiq o'simtalar joylashadi. Kleystotetsiyda bir nechta xaltachalar hosil bo'ladi. Bu turkumning zamburug'lari daraxt va butalarda kasalliklarni hosil qiladi. Konidiyalari marjon ko'rinishida hosil bo'ladi.

Untsinula - *Uncinula* turkumining kleystotetsiyalarida bir nechtadan xaltachalar hosil bo'ladi, uni ustidagi o'simtalarni qattiq, daraxtlar va butalarni kasallantiradi. O'simtani uchi qarmoqsimon egilgan, spiral buralgan, kanidiyalari bittadan, marjon ko'rinishini hosil qilmaydi.

U. necator tok-uzum barglari yashil novdalarida rivojlanadi. Ommaviy ravishda ko'payishi uzum hosiliga katta zarar keltiradi.

Fillaktiniya – *Phyllactinia* turkumining turlarida kleystotetsiyining ustidagi o'simtalar ancha murakkab tuzulishli:

- tepasida ingichka kuchli tarmoqlangan gifani uchi shilimshiq ajratadi, o'rtasidagilari tikanga o'xshaydi.

Kleystotetsiyning o'simtalari uni substratda tutib turish, yetilganidan keyin tarmoqlanishni osonlashtirishni bajaradi. Shamol tasirida uzoqlarga tarqaladi. Konidiyalari yirik, bittadan ancha uzun konidiyabandlarda hosil bo'ladi.

Daraxt va butalarda tekinxo'rlik qiladi. *P.suffulta* bizda tut daraxtining barglarini orqa tomonidan un sepgandek g'uborlarni, kuzga kelib undagi to'q rangli kleystotetsiyalarni ko'rish, qo'lbarmoqlari bilan sezish mumkin.

Labulbeniomitsetlar sinfi – Labulbeniomycetes

Bu sinf bitta labulbeniyalar (Laboulbeniales) tartibidan iborat xolos. Ular faqat askomitsetlar ichida emas, umuman zamburug'lar orasida maxsus o'ringa ega. Ularning vegetativ tanasini *retseptakul* deyiladi. Ular bo'g'imoyokli xayvonlarda asosan xasharotlarda ularning xitin qoplamida, tanasini ichida rizoidsimon tarmoqlangan qismlari bilan oziqlanadi. Labulbeniyalarda mitselliyning hujayra devori odatda qalin, to'q tusli.

Askosporalari urchuqsimon, yetilganda ikki hujayrali: bittasi bazal uzun, ikkinchisi apikal kalta. Xasharotga tushgan askospora xitin po'stda rivojlanadi. Askosporalari 4 ta, peritetsiyalari mayda parafiz va perifizlari yo'q, faqat xaltacha bor xolos.

Labulbeniyalarning ko'pchiligi ikki jinsli, ular orasida bir jinslilari ham bor.

Bu tartibga 1500 dan ortiqroq turlar mansub. Ular hamma joyda tarqalgan. Ular kattiq qanotli qo'ng'izlarda ko'p uchraydi. Ko'p hollarda zamburug' bitta xashorot-xo'jayinda tekinxo'rlik qilishga maxsuslashadi, u xasharotning muayyan joyda o'sadi. Labulbeniyalar iqtisodiy jihatdan ahamiyatga ega emas.

BAZIDIOMITSETLAR BO'LIMI – BASIDIOMYCETES

Bazidiomitsetlar quyidagi umumiy tavsiflarga ega.

1. Vegetativ tanasi askomitsetlardagi kabi hujayralarga bo'lingan mitselliya ega. Achitqisimon ko'rinishga ega bosqichlari ham bor.

2. Vegetativ ko'payishi mitselliyni hujayralarga bo'linib ketishi, achitqisimonlarni kurtaklanishi bilan amalga oshadi. Jinssiz

ko'payishi faqat konidiyalar orqali ro'y beradi, biroq bu holat bazidiomitsetlarda juda kam sodir bo'ladi. Zangkuya zamburug'larida (Uredinales) jinssiz ko'payishi maxsus nomda aloxida o'tadi.

3.Jinsiy ko'payishi hech qanday maxsus hosilalar hosil qilmay **somatogamiya** tarzida ro'y beradi.

4.Jinsiy jarayonda askomitsetlardagi kabi yadrolar dikarionlik hosil qiladi keyin ular bir vaqtida bo'linadi.

5.Jinsiy jarayon natijasida bazidiya hosil bo'ladi, u meyosporangiyga to'g'ri keladi, endi meyospora deyilmay ekzogen hosil bo'ladi va **bazidiospora** deyiladi. Bazidiyalar butun, yaxlit yoki to'sik bilan ajraladi. Bazidiomitsetlarning ayrimlarida bazidiyalar maxsus sporadan hosil bo'ladi.

6.Jinsiy jarayon va bazidiosporali bazidiylarni yuzaga kelishi juda ko'p turlarda turlicha kattaliklar va ko'rinishlardagi mevatanalarni rivojlanishi bilan bog'liq.

7.Hayotiy davrida dikariodavr ustunlik qiladi. Dikarion mitselliylar uzoq muddat hatto yuz yillab hayotiyligini saqlash qobiliyatiga ega, xususan mevatanalar dikariot mitselliyydan tashkil topadi. Bo'limning zamburug'lari orasida diploidlari ham uchratilgan.

8. Bazidiomitsetlar barcha geografik kengliklardagi turli tuman substratlarda tarqalgan. Ularning orasida saprotrof, o'simliklarning tekinxo'rlari va mikoriza hosil qiladiganlari ko'p. Bazidiomitsetlarning orasida odamlar va xayvonlarda tekinxo'rlik qiluvchi, lishayniklarning mikobiontlari, suv sharoitida tarqalganlari ham bor, biroq ular ozchilikni tashkil qiladi. Bazidiomitsetlarning juda ko'pchiligi istemol qilinadigan ovqatda foydalaniladiganlari ham bor. Ularning ayrimlarini maxsus qurilmalarda ko'paytiriladi. Bir qancha turlaridan biologik ilmiy tadqiqotlarda foydalaniladi.

Hayotiy davrasi. Bazidiyasi mitselliya hosil bo'ladigan bazidiomitsetlarning hayotiy davrasini biror soyabonli zamburug'da ko'rish oson bo'ladi. Gaploid bazidiosporalar gaploid mitselliyni hosil qiladi. Keyin dikarionlik yuzaga keladi. Bunday mitselliylar uzoq vaqt davomida bo'ladi. Bu mitselliylar gaploid mitselliyyda xechqachon bo'lmaydigan o'rama-bog'lamlar bo'lishi bilan harakterlanadi. U bazidiya hosil bo'lishida ishtirok etadi. Askomitsetlardan farqlanib bazidiomitsetlarning mevatanalari dikarion gifalardan tashkil

topgan. Xaltacha hujayralari va bazidiyalarni hosil qiladiganlari o'zaro, bir biriga to'la mos keladi.

Bazidiosporalar va askosporalar tashqi ko'rinishida ancha o'xshash: ular yumaloq yoki oval shaklida, kattaliklari ham deyarli bir xil. Asosiy farq ularning rangida: bazidiosporalar rangsiz, ko'ng'irning turlicha tuslarida, sapsar yoki deyarli qora. Bazidiosporalarning juda ko'pchiligidagi bazidiosporalar bir hujayrali, ikki undan ko'p hujayralilari ham bor.

Bazidiyalar turli belgilariga qarab tavsiflanadi. Xolobazidiya (golobazidiya) va fragmobazidiya: birinchisi to'siklar bilan ajralmagan, ikkinchisi to'siqli.

Xolobazidiya – bu kattalashgan qari hujayra, u tabaqalashib ostki – **gipobazidiy** va ustki – **epibazidiyli** ham bo'ladi, unda bazidiosporalar shakllanadi, bu **geterobazidiya**. Geterobazidiya maxsus tinim sporalaridan hosil bo'lsa uni **teliobazidiya** deyiladi.

Bazidiomitsetlarning sistematikasi. Bazidiomitsetlarning sistematikasi bayon etilgan adabiyotlarda ilgari bitta sinf, bir necha tartib keltirilgan. Bo'lim uchta sinfdan iborat.

1. Uredinomitsetlar (Uredinomycetes) yoki Teliomitsetlar (Teliomycetes) bazidiyalari to'siqli (**fragmobazidiya**) ular tinimdag'i sporalaridan (**teliospora**) hosil bo'ladi.

2. Ustilaginomitsetlar (Ustilaginomycetes) yoki ustomitsetlar (Ustomycetes). Bazidiyalar to'siqli yoki yaxlit, to'siqsiz, ular ham tinim sporalarida (bu sporalar ilgarigi mitselliyyidan yuzaga kelgan) rivojlanadi. Exobasidiales tartibining zamburug'lari ham ultratuzulishli va biokimyoiy xususiyatlariga ko'ra Ustilaginomycetes sinfiga mansub.

3. Xaqiqiy bazidiomitsetlar (Basidiomycetes). Bu sinfning zamburug'lari bo'limning asosiysini tashkil qiladi. Bazidiyalar mitselliyyda, ko'p hollarda maxsus mevatanalarda (**bazidioma**) hosil bo'ladi. Bazidiylar gipo – va epibazidiylardan iborat emas.

Uredinomitsetlar – Uredinomycetes yoki tellomitsetlar – Teliomycetes sinfi

Uredinomitsetlar rivojlanishida juda ko'p hollarda maxsus mitselliyyidan hosil bo'ladi telospora bor. Sinfga mansub

zamburug'lar asosan o'simliklarning tekinxo'rlari, saprotroflari kam.

Zangkuyalar tartibi – Uredinales

Bu zamburug'larning 5000 dan ortiq turlari bo'lib hamma turlari yuksak o'simliklarning xaqiqiy tekinxo'rlar hisoblanadi. Ular o'sgan joyida temirzangiga o'xshash nuqta, chiziq ko'rinishidagi zang – ko'ng'ir tusdag'i metall zangiga o'xshashni hosil qiladi (bu zamburug'larni nomlash shundan).

Bu zamburug'lar endofit, gaustoriyalı mitselliylar xo'jayin to'qimasida joylashadi. Mitselliylar pushti rangli moy tomchilari bor, ular sporalarda ham mavjud. Aynan ana shu zang ko'rinishini beradi.


Zangkuyalarning ayrimlarida zamburug'ning faoliyati bitta o'simlikning o'zida, boshqalarida gaploid mitselliylar bitta o'simlikda, dikariotlisi ikkinchi o'simlikda rivojlanadi. Shu sababli birinchilarini **bir xo'jayinli** ikkinchilarini **turli xo'jaynli** deb nomlanadi.

To'siqlari bo'lgan bazidiyalar (**fragmobazidiyalar**) tinimda bo'lgan teliosporalarni unishidan hosil bo'ladi. Teliosporalar bir hujayrali bo'lishi yoki ikki, undan ko'p hujayrali ham bo'ladi. Barcha holatlarda har bir hujayra dikariotli.

Bazidiosporalar sterigmalarda hosil bo'ladi. Kasallanishga moyil bo'lgan o'simlikga (odatda yaproqqa) tushgach unib to'qimaga kiradi, bu bilan zamburug'ning gaploid rivojlanish bosqichi boshlanadi.

Bir yadroli gaploid mitselliya dikomitsetlarning peritesiyalariga o'xshash piknidiyalar hosil bo'ladi. Ularning maqsadi urug'lanishni amalga oshirish.

Piknidiyalar xo'jayin o'simlik barglarining epidermisini ostida shar shaklida chigal ko'rinishida bo'ladi. Undan kalta gifalardan iborat perifizlar chiqib turadi. Ularni orasida spermatsiyli xidli suyuqlik bo'ladi. Bu suyuqlik xasharotlarni jalg qiladi, spermatsitlarni bitta spermagoniyadagisi ikkinchisiga o'tkazadi.



Zangkuyalardagi piknidiyalarning xilama-xilligi.

Dikariontlikdan keyin yangi boshqa sporalarni hosil qiladigan etsidiylar rivojlanadi. Ular odatda kasallangan bargining ostida bo'ladi. Etsidiylarda zinch joylashgan etsidiosporalar marjon ko'rinishida yuzaga keladi.

Etsidiylarning bir necha ko'rinishlari mavjud:

etsidium – unda hosil bo'ladigan sporalar shar shaklida, anchasi po'st bilan o'raladi;

seoma – sporalari po'stsiz;

resteliya – po'st (peridiy) asosi bilan o'sib shoxga o'xshash ko'rinishni oladi, u zararlagan to'qimadan chiqib turadi;

peridermium – peridiyi bor, sporalar gifa chigalidan yuzaga kelgan yassilikda hosil bo'ladi.

Zamburug'ning rivojlanishidan bu davrida o'simlikning turli joylarida shish, buralish, bujmayishlar yuzaga keladi.

Zangkuya zamburug'ining rivojlanishi turli xo'jayininlarda ro'y bersa etsidiosporalarni hosil qilish davrida xo'jayin o'zgaradi. Etsidiosporalar gaploid mitselliyl zararlagan o'simlikda rivojlanmaydi. Bunday holatda etsidiosporalar butunlay boshqa o'simlikga tushishi kerak. Etsidiospora unadi, o'sish nayini ustitsalar orqali to'qimaga kiritadi, u yerda gaustoriyalı dikariogen mitselliyl hosil

qiladi. Mitselliya yozgi bir hujayrali oval shaklidagi uredinosporalar to'plami hosil bo'la boshlaydi. Bu sporalar ham o'simlik bargining epidermis ostida yoki yashil novdada hosil bo'ladi. Atrolga tarqalgan bu uredinosporalar o'zi hosil bo'lgan xo'jayin kabilarni zararlay boshlaydi. O'simlikning vegetatsiya davrida bu sporalar ko'plab marta hosil bo'ladi.

Xo'jayin o'simlik qurishi bilan uredinosporalar teliosporalarga aylanadi. Bu davrga kelib zamburug'ning ham rivojlanishida yangi davr – teliosporalarning to'plami hosil bo'ladi. Teliosporalarni qishqi (bizning sharoitimidza kuzgi, qishlab qoladigan) sporalar paydo bo'ladi. Ularning hujayrasini po'sti qalin, deyarli qora tusda bo'ladi. Teliosporalar qishlab qoladi. Ular bir, ikki, ko'p hujayrali bo'lishi mumkin. Tinim davrini o'taganidan keyin bazidiyalar bo'lib unadi.

Shunday qilib, zangkuya zamburug'larining to'la rivojlanishi davrida besh xil sporalar hosil bo'ladi.

Zangkuya zamburug'laridagi sporalar

Belgi	Sporalanishni nomi	Sporani nomi
O	Piknidiy (spermagoniy, piknida)	Piknidiospora (spermatsiy)
I	Etsiy (etsidiy)	Etsiospora (etsidiospora)
II	Urediniy (uredosporalash)	Uredinospora (uredospora)
III	Teliy (teleytsporalash)	Teliospora (teleytspora)
IV	Bazidiya	Bazidiospora

Melampsora - *Melampsora* turkumining zamburug'larida teliosporalar qo'shib o'sib yassi po'stloqni hosil qiladi. Etsidiy peridiysiz. Bu turkumning zamburug'lari bir xo'jayninli, ikki pallalilarda va turli xo'jayninlilari ham bor.

Koleosporiy - *Coleosporium* turkumida ham sporalar yassi po'stloqni hosil qiladi. Ular avvalo bir hujayrali, keyin ustma-ust joylashgan to'rtta hujayraga bo'linadi, ulardan har biri bazidiyalarni hosil qiladi. Bu turkumning barcha turlari turli xo'jaynli. Etsidiylar yorqin pushti tusli etsiosporali. Uredinlar bargning orqasida joylashadi, uni tepasida sariq dog' hosil bo'ladi.

Kronartiy - *Cronartium* turkumining teliosporalari marjon xolida joylashib ustuncha hosil qiladi. Etsiy peridiyali. *Cronartium*

turkumining barcha turlari turli xo'jaynli gaplodavri ninabarglilarda, dikariodavri ikkipallalilarda o'tadi.

Xrizomiksa - *Chrysomyxa telosporalari* yakka turgan tarmoqlangan dikariondan hosil bo'ladi. Etsiy peridiyali. Ko'pchilik turlari ikkixo'jayinli tekinox'rlar hisoblanadi.

Uromitses - *Uromyces turkumi* 500 dan ortiq turlasardfsdklrni o'z ichiga oladi, teliosporalari bir hujayrali. Etsiy peridiyali. No'xatda (**U.pisi**) tekinox'rlik qiluvchi O va I davrini, sutlamada (**Euphorbia**) II III davrini o'taydi.

Gimnosporangiy - *Cemnosporanogium* teliosporalari ikki hujayrali, shilimshiqlanadigan uzun bandli. Etsiy peridiyali. Gaplodavri ranodoshlar (olma, nok kabi) dikariodavri archa, qarag'ay o'tadi.

Puktsiniya - *Puccinia* teliosporasi ikkihujayrali, bandi shilimshiqlanmaydi. Etsiy peridiyali. Bu turkum zangkuya zamburug'ları orasida eng ko'p 2000 dan ortiq turlarni birlashtiradi. Bir xujayinli va ikkixo'jayinlilari ham bor.

Bug'doyning chiziqli zang zamburug'i - *P.graminus* piknidiyalari zirkdoshlar (Berberidaceae) oilasining xususan zirk (Berberis) va magoniya (Mahonia) o'simligida hosil bo'ladi. Etsidiosporalari bug'doydoshlarda rivojlanadi.

P.graminis rivojlanishida morfologiyasidan deyarli farq qilmaydigan (sporasini kattaligi, shakli bilan), faqat aloxida tur o'simlik – boshoqdoshni zararlaydiganlari ham bor. **P.graminis f. sp. Tritici** asosan bug'doya kabilari mavjud. Bu zamburug'ni rivojlanishi zirk o'simligi bilan bog'liq. **P.graminis** zamburug'ining har bir maxsuslashganlarida o'z navbatida yana aloxidalashganlari – fiziologik rasalari xo'jayin o'simlik navlarini zararlashi bilan farqlanadiganlari ham bor. Zararlash darajalari quydagicha besh birlik bilan belgilanadi.

0 – zararlanmagan;

1 – juda mayda uredinali nekrotik (o'lik) joy mavjud;


2 – uredinlar u yoki bu darajada rivojlangan uni atrofi rangsizlangan;

3 – uredinlar yaxshi rivojlangan nekriz joyi oz yoki yo'q hisobi;

4 – uredinlar yaxshi rivojlangan, nekroz yo'q.

Yil sernam ayniqsa baxorni oxiri, yozning boshlarida yomg'ir ko'p yoki kuyoshning nurli kunlarida kam bo'lgan yillari bizning

respublikamizda ham bu zamburug' yoki uni sherigi *P. striiformis* bug'doyda sariq zangkuyani ko'zg'atadi, u kuzgi bug'doyda qishlab qoladi.



P. graminis rivojlanishida zirk bargining kesmasida yuqorida piknidiyalar va etsidiyalarni rivojlanishi

Fragmidium - *Phragmidium* teliosporalari yetilganda ko'ndalang to'siq bilan 3-10 ta li bir qator hujayralarni hosil qiladi. Bu turkumdan bir xo'jaynli *P. rubiidae* qoraqt o'simligida tekinxo'rlik qiladi.

Ustomitsetlar – Ustomycetes yoki ustilaginomitsetlar - Ustilaginomycetes sinfi

Ustomitsetlarda bazidiya telomitsetlardagi kabi odatda tinim sporalaridan yuzaga keladi. Teliosporasizlari ham bor. Deyarli hamma vakillari o'simliklarning tekinxo'rлari bo'lib hisoblanadi.

Qorakuyalar tartibi – Ustilaginale

Qorakuya zamburug‘larning hammasi zangkuyalar kabi ko‘plab gulli o‘simliklar tekinxo‘rlari. Bu zamburug‘ bilan zararlangan joy (asosan generativ qismlar) quyganday qorayib qoladi. Bunda zararlangan o‘simlikning to‘qimasini ichida juda to‘q rangli **ustosporalar** yoki qorakuyasporalar ko‘plab miqdorda hosil bo‘ladi. Ular bittadan yoki yetilgan davrida o‘zaro qo‘silib hosil qiladi.

Qorakuya zamburug‘larida mitselliylar dikariotli, **endofit**, ko‘p hollarda hujayralararo tarqalgan yoki to‘plangan, jamlangan holda bo‘ladi. Zamburug‘ning mitselliysi to‘qima ichida darrov tashqi ko‘rinishdan belgi hosil qilmaydi. Bazi hollarda u o‘simlikning rivojlanishni tezlatadi, ayrim xollarda zararlaganligidan belgi beradi. Bunday holatni bizning sharoitimidza makkajo‘xorida yuzaga keladigan bo‘rtma qorakuya xali yetilmagan holda ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ustošporalar yetilib xo‘jayin o‘simlik to‘qimasini yirtib chiqqananidan keyin darrov unadi, yillar davomida unish qobiliyatini saqlashi ham mumkin. Unganida bazidiyalarni hosil qiladi.


Qorakuya zamburug‘larini rivojlanishida bitta umumiy xususiyat: zaralash faqat zamburug‘ning dikariot davrida ro‘y beradi. Ko‘p hollarda u quyidagicha sodir bo‘ladi. Ustosporalar tuproqqa zararlangan urug‘ bilan birga tushadi, u yerda unib bazidiyani hosil qiladi. Bazidiyada 2ta “+” va 2ta “-” belgili sporalar yuzaga keladi. Bazidiosporalar o‘zaro ariqchasini hosil qiladi va dikariost mitselliylar yuzaga keladi. U endi o‘simlikni nixol hosil qilishdan avval yer yuzasiga ko‘tarilib chiqquncha zararlaydi. Keyin mitselliylar o‘simlikning o‘sish konusiga o‘tadi.

Xo‘jayin o‘simlik yetarli darajada voyaga yetganda, mitselliylar bo‘laklarga bo‘linib qalin po‘stli ustosporalarga aylanadi. Xuddi shunday tartibda bug‘doyning qattiq qorakuyasi – *Trilletia caries*, sulining chang qorakuyasi – *Sphacelotheca panici* – *miliacei*, arpaning qattiq qorakuyasi *Ustilago hordei* va boshqa qorakuyalar rivojlanadi.

Bug‘doyning chang qorakuyasini qo‘zg‘atuvchisi *Ustilago tritica* rivojlanishini davom etdirishi uchun shu kasallikga moyil o‘simlikning gulini urug‘chisiga to‘planadi, u yerda unib to‘rt hujayrali bazadiy hosil qiladi. Biroq bazidiosporalar rivojlanmaydi.

dikarion hosil qiladi. Undan dikarion mitselli yuzaga keladi, u chang nayi orqali tugunchaga keladi. Bunday guldan rivojlanigan urug' tashqi ko'rinishidan xech qanday belgi bermaydi. Tuproqqa tushib xech qanday o'zgarishlarsiz unadi. Yosh o'simlik rivojlanishi bilan undagi dikariot mitselli ham rivojlanadi, shakllanayotgan boshoqqa o'tib ustosporalarga aylanadi. Tinim davrini o'tamay unadi. Bu davrda gulagan boshoqdan shamol tasirida tarqalgib rivojlanishning yangisi boshanadi.

Makkajo'xorining bo'rtma qorakuyasi (*Ustilago zea*) o'simlikning muayyan joyi poyani bo'g'im oralig'ini yoki so'tasini zararlaydi. Uning sporalari juda ko'p miqdorda hosil bo'lib steril gifalar va xo'jayinning to'qimasidan iborat parda bilan o'ralgan. Sporalar yetilganidan keyin parda yirtilib ular atrofga tarqaydi.



Bug'doydagি qorakuyalar ularning sporalari

Sorosporiy - *Sorosporium* turkumning turlarida ustosporalar ipsimon gifalardan iborat parda bilan o'ralgan to'pchaga jamlangan. Ipchali parda yo'qolganidan keyin to'pcha oson titilib ketadi. Teliosporalari yumoloq shaklida, to'q tusli.

Tilletia - *Tilletia* turkumning teleytosporalari yumoloq yoki oval birmuncha katta. Ulardan muhimi bug'doyda kattiq, sassiq qorakuyani hosil qiladigani *T.tritici* va *T.foetida*.



Makkajo'xorining bo'rtma qorakuyasi-Ustilago maydis

Ekzobazidiyalar tartibi – Exobosidiales

Uncha ko'p turlarni (20 ga yaqin holos) jamlangan ushbu tartibning zamburug'lari gulli o'simliklarda tekinxo'r sifatida tarqalgan. Bazidiyalar ko'ndalang to'siqsiz (xolobazidiya), ularni uchidagi sterigma larda 2-4 bazidiyalar hosil bo'ladi. Ayrim turlarida bazidiyalar to'p-to'p yuzaga keladi.

Ekzobazidiya - *exobasidium* kasallangan o'simliklarda shishmalar, to'qimalarni gipertrofiyasi hosil bo'lib, odatda qizil yoki pushti rangda. Zararlangan to'qimaning ko'ngdalang kesmasida mitselliyning siyrak chigali ko'rindi. Kutikula ostidagi chigalda bazidiyalar joylashadi.

Ushbu turkum zamburug‘larini Ustilaginales tartibiga hujayrasining devorini kimyoviy tarkibi, xo‘jayin va tekinxo‘r orasidagi munosabatlar va molekulyar sistematikaning malumotlari yaqinlashtiradi. Bazidiosporalar hosil bo‘lishdan oldingi kariogamiya bazidiya tagidagi mitselliylar hujayralarida hosil bo‘lishi ustosporalarning gomologi deb qarash imkonini beradi.

Xaqiqiy bazidiomitsetlar sinfi – Basidiomycetes

Bazidiyalardan rivojlanadigan ko‘p hollardagi gaploid bazidiy deyarli hamma vaqt maxsus mevatanalarda (bazidioma) joylashadi. Ular turli tuman ko‘rinishlarga ega va dikariot mitselliyyidan tashkil topgan. Bu mevatanalarning juda ko‘pchiligin maxalliy axoli zamburug‘ deb atashadi.

Bu sinf zamburug‘larining ekologiyasi turli tuman saprotoflar, mikoriza hosil qiluvchilar va o‘simliklarning tekinxo‘rlari ham bor. Lishayniklar tarkibidagilar ham shu sinfga mansub. Bu sinfdan suvdagi zamburug‘lar va odamlarda tekinxo‘rlik qiluvchilari ham borligi aniqlangan.

Geterobazidiyalar kenja sifi – Heterobasidiomycetidae

Geterobazidiomitsetlar mevatanalar hosil qiladi va boshqa bazidiomitsetlardan bazidiyalarini tuzulishi bilan farqlanib ular **geterobazidiya** deyilib u ikki qism – gipobazidiy va epibazidiydan iborat. Geterobazidiylar ko‘ngdalang to‘siqlar bazan bo‘ylamasiga 4 ta hujayraga bo‘lingan. Bazidiyalar bir hujayrali, juda kam hollarda ko‘phujayrali. Ular odatda ikkilamchi konidiyalar xolida unadi. Mevatanalari do‘ng, yostiq ko‘rinishiga ega. Bazidiyalarini gimeniy qatlam ko‘rinishida joylashadi.

Bu kenja sinfning ko‘pchilik turlari o‘simliklarning qoldiqlarida saprotrof holda tarqalgan.

Aurikulyariyalar tartibi – Auriculariales

Bu tartibning vakillarida mevatana keng yassi, piyola ko‘rinishlarida. Bazidiyalar yumolok, epibazidiya (1-) 2-4 hujayrali ko‘ndalang to‘sikli. Sporalari bir hujayrali, rangsiz.

Aurikulyariya - *Auricularia* turkumida mevatanalar ancha katta, dirildiqsimon. Uning barcha turlari qurigan yog'ochlikda saprotrof holda tarqalgan. Yaponiya va Xitoyning bazi viloyatlarida uni xush ko'rib istemol qilishadi. Gimeniy to'lqinli-qirrasimon, qirmizi-jigarrang tusda. Bazidiyalarisilindr shaklida 4 bazi-diosporali.

GIMENOMITSETLAR

Gimenomitsetlar bazidiomitsetlarning orasida eng ko'p tarqalgan va axoli o'rtasida mashxur hisoblanadi. Bazidiyalar bir hujayrali, ular o'zi hosil bo'ladigan mitselliyydan yuzaga keladi, ular mevatanalarda turi steril elementlar bilan navbatlanib gimeniyda joylashadi. Steril elementlar rivojlanishga, morfologiya va vazifalariga ko'ra farqlanadi. Ular gimeniy gifalarini uchi-gifidlar, yetilmagan bazidiy – bazidio, gimeniydan chiqib turadigan yirik hujayralar – sistidlar kabi ko'rinishlarda bo'ladi. Shu boisdan bu o'rinda "parafiz" lar atamasi qo'llanilmaydi. Mevatananining gimeniyli yuzasi – gimenofor yassi tishchali tikanli, buklama; juda ko'p hollarda naysimon yoki plastinka – yassi yaproq ko'rinishlariga ega. Shuni hisobiga hosil bo'ladigan sporalarni tarqalish yuzasi kengayadi.

Mevatanalarning ko'rinishi, kattaligi ushlab ko'rildigandagi holati turli-tuman. Ular o'sayotgan joyida po'stloq, qoratuyoq, band va soyabonli "zamburug'" ko'rinishlarida bo'ladi.

Gimenomitsetlarning gimeniyları hosil bo'la boshlaganidayoq ochiq, dastlab yopqichli, bazidiyalar yetilishi bilan ochiladi.

Mevatananining yuzasi terisimondan yog'ochsimonchaga, tog'ayga o'xshashdan yumshoq – yetilgach voyaga yetaborgan sari quriydi yoki chiriydi. Go'ngtepalar, chirietgan daraxt to'ngaklarida uchraydigan *Coprinus* turkumida bazidiyalar yetilaboshlashi bilan soyabon qirrasidan siyoxni eslatadigan suyuklik hosil qilib erib ketadi. Shu boisdan bu zamburug'ni bizda "siyoh zamburug'i" deyiladi.

Gimenomitsetlarning mevatanalari bir yillik, ko'p yillik bo'ladi. Ko'p yilliklarida gimenofor tagida yangisi hosil bo'ladi, u halqa ko'rinishini hosil qilganidan uni soniga ko'ra mevatananining yoshini aniqlash mumkin. Tabiatdan 80 yoshgachalilari ham uchratilgan.

Mevatanalarning kattaliklari ham turlicha. Soyabonning diametri 2 sm dan (undan ham kichik) 70 sm gacha boradiganlari, og'irliklari bir necha milligrammdan to 20 kglargacha ham bo'ladi.

Bazidiosporalarning rangi har bir turda deyarli o'zgarmaydi. Rangsizlaridan, pushti, to'q-sapsar, qurumqoralar ham bor. Bazidiospora gimenoforga tus beradi. Gimenomitsetlarning sporalari xavo yordamida atrofga tarqaladi. Ularning tarqalishida qushlar, chig'anoqlilar va boshqa xayvonlar ham ishtirok etadi.

Gimenomitsetlar kurrai zaminimizning barcha joylarida tuproqda, yog'ochli o'simliklarning qoldiqlarda tarqalgan. Mitselliylarda odatda ko'pyillik substrat ichiga botib kiradi.

Bu guruhning ko'pchilik turlari saprotroflar. Bir qanchasi yog'ochlikda rivojlanib uni chiritadi (ksilotroflar). Bu zamburug'lar yog'ochni parchalamaganida u ko'p yillar davomida chirimas edi. Hazonrezgilidagi to'kilgan barglarni asosan gimenomitsetlar parchalaydi.

Gimenomitsetlar nekrotrof tekinxo'rlar hamdir. Bu o'rinda saprotroflik va tekinxo'rlik bir biriga juda yaqin. Po'kak zamburug'lari tabiatda tekinxo'r ham, saprotrof ham hayot kechiradi. Gimenomitsetlarning ko'pchiligi tuproq saprotroflari, ularning mitselliysi tuproqning chirindili qavatida keng tarqalgan.

Gimenomitsetlarning orasida mikoriza hosil qiladiganlari ham ancha, ular ko'proq ektomikorizalar xolida kiradi.

O'txo'r xayvonlarning tezagida koprotroflari (*Coprinaceae*) bor. Karbofil turlari, kuygan daraxtda, gulxan yoqilgan joylarda **Pholiota** turkumining zamburug'lari uchraydi.

Bu guruh zamburug'lar orasida mikofillari, ulardan Astero-phora turkumining turlari Russulales tartibining zamburug'larini mevatanalarida kichkina mevatana hosil qilib o'sadi. Gimenomitsetlarning bazi turlarini maxsus o'stirilib, mevatanalari odamlarning istemolida foydalaniladi.

Gimenomitsetlarning sistematikasida ananaviy tarzda afilloforalar (*Aphyllphorales*) va agarikalar (*Agaricales*) tartiblariga bo'lib o'rganilgan. Xozirgi kunga kelib bu sohaning mutaxassislari ularni muayyan taksonomik qoidasiz afilloforasimonlar va agarikasimon gimenomitsetlarga bo'lishni maqsadga muvofiq deb qabul qilishgan. Biz ham bunga maqullaymiz.

AFILEFORASIMON GIMENOMITSETLAR

Mevatanalarining shakli, o'lcamlari, ustti ichki tuzulishi turlicha. Ular po'stloq va boshqa ko'rinishlarda, band va soyabonli bo'ladi. Gimenofori silliq, buklamali, tishsimon, ko'pincha naysimon, biroq yassi – plastinka ko'rinishiga ega emas. Mitselliyning gifasi rangsiz yoki biroz rangli.

Mevatanalarining ko'rinishlari ham turli tuman. Gimenoforni shakli yelpug'ich tuyoh, yostiq, buyraq kabi odatda mevatananining pastki tomonida bo'ladi.

Mevatanalarni hosil qilgan gifalar **generativ**, **vegetativ** deb nomlanadiganlardan iborat. Generativ gifalardan bazidiyalar hosil bo'ladi. Vegetativ gifalar asosiy va bog'lovchilarga bo'linadi. Bog'lovchilari odatda ko'p tarmoqlanadi, buraladi, turlicha yo'g'onliklarga ega. Asosiy gifalar tarmoqlanmaydi, hujayrasining devori qalin, cheklanmagan o'sadi.

Mevatanalar tuzulishiga ko'ra:

- 1). monomitik – faqat generativ gifalardan tashkil topgan;
- 2). dimitik – generativ va asosiy gifali;
- 3). trimitik – barcha uch tip gifali bo'ladi

Afilloforasimon gimenomitsetlarning ko'pchiligi saprotroflar, yog'ochda, to'kilgan barglarda, chirindili tuprog'da tarqalgan. Quvvatsizlangan daraxtlarda o'sib uni kurishiga sabab bo'ladi-ganlari, o't o'simliklarda tekinxo'rlik qiladiganlari, lishayniklarning mikobiontlari ham bor.

Afilloforasimon gimenomitsetlar orasida imoratlarning yog'ochida tarqalganlari ham bor. Xonodon uylarining sinchini tashkil qilgan yog'ochni, taxtapol yog'ochini shu guruuh zamburug'lar parchalaydi.

Afilloforasimon gimenomitsetlarga mansub tartiblarni tavsliflashdan oldin ko'plab darsliklar, qo'llanmalar, monografiyalarda bayon qilinganidek "po'kak zamburug'lar", "Po'kaklar" tushunchasi xaqida qisqacha to'xtaymiz. Bu guruuh ilgari mevatanalarining yaxshi rivojlanganligi plastinka yoki libirint shaklidagi gimenofori tufayli afilloforadoshlar oilasi sifatida qaralgan. Hozir bu guruuhnai tartib va oilalarga bo'lib o'rganiladi.

Po'kak zamburug'lar qurigan yog'ochda, qari tirik daraxt tanasida, saprotrof, tekinxo'r holda rivojlanib ularni qurishiga sabab bo'ladi. Mitselliysi daraxt tanasining ichida, mevatana uni yuzasida

yoniga yopishganday hosil bo‘ladi. Mitselliylar mevatanasi ko‘p yillik.

Po‘kak zamburug‘lar odatda barcha daraxtlarda emas har bir tur **bloxida** daraxtda tekinoxorlikni hosil qilgan. Ko‘pchiligi qari, quvvatsizlangan daraxtlarda rivojlanib daraxtzor, o‘rmonlarning “sanitarlari” hisoblanadi. Singan, jarahotlangan daraxtlarda po‘kak **zamburug‘lar** tez ko‘payadi.

Afilloforasimon gasteromitsetlarni mutaxassislar uchtadan o‘ntagacha tartiblarga bo‘ladilar. Biz ulardan eng muhimlari xaqida **malumotlar keltiramiz.**

Kantarellalar tartibi – **Cantharellales**

Bu tartibga mansub zamburug‘larning mevatanalari turli tuman **ko‘rinishlarga ega**. Gimenofori silliq, buqlamali.


Tartibning vakillari tuproq, yog‘ochda saprotrof, qisman o‘simliklarning tekinoxorlari hisoblanadi.

Kantarella - *Cantharellus* mevatanasi etdor, katta bo‘lakli, voronkasimon soyabon va bandli. Gimenofori panshaxasimon buqlamali, bandida joylashadi. Sariq kantarella (*C.cibarius*) mevatanasini odamlar istemolda foydalanishadi. Bu zamburug‘da xasharot qurtlari bo‘lmaydi.

Kraterella - *Craterellus* turkumining zamburug‘larini mevatanalarida gimenofor do‘ngli yoki burushgan. *C.cornucopioides* turi varaksimon mevatanali kulrangdan deyarli qaratustegacha.



Cantharellus cibarius



Kantarellalarning mevatanalari:

chapda- *Craterellus cornucopioides*; o'ngda-*Ramaria flava*.

Ramariya - *Ramaria* yirik ancha tarmoqlangan mevatanali. Rangi ochiq tusli. Tuproqda, chirindida, qisman yog'ochda uchraydi. *R.flava* turi istemol qilinadi.

Klavariadelfus - *Clavariadelphus* turining mevatanalarisilindr shaklida, sarg'ish tusli.

Poriyalar tartibi – Poriales

Yaqqol geterogen bu tartibning zamburug'larini shakli, ustini tuzulishi, anatomiyasi jihatidan turlicha. Gimenofori, silliq, do'ngli, naysimon, qisman yassi-plastinka ko'rinishida. Poriyalar tartibiga po'kak zamburug'larning ko'pchiligi mansub, yuqorida takidlaganimizdek yog'ochni chiritadi. Ular turar joy imoratlarining yog'och qismida ko'p tarqalgan, tuproqda ham bor.

Mevatanalarining o'lchamlari turlicha bo'lib, kichkinalarini eni 1 sm diametrli, undan ham kichik, eng kattalarida esa eni 1 metrgacha, og'irligi 20 kg dan ham ortadi.

Mevatanalarning usti mumsimon, dirildoqsimon, etdor terisimon, po'kaksimon, yog'ochsimon, kiygizsimon, g'ovak kabi bo'ladi. Mevatananining ichi oq, sutsimon, qo'ng'ir, yog'ochsimon sariq, biroz pushti kabi tusga ega.


Ko'pchiligining gimenofori naysimon tuzulgan. Sporalarini tuzulishi g'o'lasimon yumoloq ko'rinishlargacha, odatda rangsiz

bo'ladi. Po'kaklarning ayrimlarigina o'sib turgan daraxtlarda, ko'pchiligi quriganlarida o'sadi.

Chinpo'kak - *Fomes fomentarium* bog'lar, ko'chalardagi daraxtlarda ot tuyog'isimon mevatanaga ega bo'lgan zamburug'ni ko'p ko'rgamiz. Mevatanasining tepasi charmday yoki yog'ochday qattiq, pastida naysimon gimenofori bor. Bazidiosporalar bazidiyalardan naychaga undan tashqariga chiqib havo oqimi bilan atrofga tarqaladi. Mevatana odatda bir yoki ko'p yillik bo'lib, kelasi yili avvalga gimeniy qatlam ustida yangisi hosil bo'ladi.

Mevatana kesmasidagi katlamlarni soniga qarab uning yoshini aniqlash mumkin. Uch yillik yoki undan ko'proq yoshli mevatanalar ham uchraydi.

Daedaliya - *Daedalia* turkumning zamburug'lari ko'p yillik, yog'ochda ko'ng'ir tusli chirishni hosil qiladi. Gimenofori labirintsimon, har yili yangisi hosil bo'lmay yangi bazidiyalar shu gimenoforni o'zida yuzaga kelaveradi. Bu turkumning ayrim turlari tog' sharoitida olichada uchraydi.



Daedaliya chapda-yonidan ko'rinishi; o'ngda-ustidan ko'rinishi.

Gimenoxetalar tartibi – Hymenochaetales

Bu tartibning zamburug'larini gifalari jigarrang tusli. Mevatanalari po'stloqsimondan terisimon ko'rinishlarga, yarimdoirali soyabonli. Gimenofor xaqiqiy naysimon tuzulishli. Sporalari yupqa po'stli, yetilaborgansari rangli bo'ladi. Po'kak daraxtda uzoq yillar davomida bo'ladi, bunda uni quritmaydi.

Fellinis - *Phellinus* turkumning mevatanalari ko'p yillik, uning shakli bir turga mansublarida ham o'zaro farqlanadigan ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Boshqa po'kak zamburug'lardan farqi

shundan iboratki, ular ko'p hollarda tirik daraxtlarda tarqalib uning tekinxo'rligi meyorida, (daraxtni qiritmaydi).



Chin po'kak- Inonotus

Inonotus - *Inonotus* turkumning mevatanalari dastlab yumshoq, suvli, keyinroq etli po'kakga aylanadi. Mevatana ko'p yillik. Yurtimizda katta chinor, yong'oq, tut, qayrag'ochda tanasini ichida "oq chirishni" hosil qiladi.

Poliporalar tartibi – Polyporales

Bu tartibga mansub zamburug'larning mevatanalari, uning gimenofori turli tuman ko'rinishlarga ega. Farqlaydigan tomoni ularda ikki davrli o'sish mavjud.


Polypora zamburug'larda arang ko'rinaligan yoki ancha uzun bandli, voronka yoki soyabonga o'xshash oq, oqish, po'kaksimon teri, terisimon, kattiq etli mevatani bo'ladi. Gimenofori bir qavatlari naysimon, qisman yassiyaproqsimon tuzulgan. Sporalari g'o'lasimon. Polypora zamburug'lar yog'ochlarda rivojlanadi.

Polyporus - *Polyporus* turkumning zamburug'lariga bandi soyabon chekkarog'i, o'rtasida joylashib, soyabonni ustdi tangachasimon qoplami borligi bilan harakterlanadi.

AGARIKASIMON GIMENOMITSETLAR

Agarikasimonlarga mevatana etdor, yumshoq soyabonsimon, bandi soyabon o'rtasiga o'rnashgan zamburug'lar mansub. Gimenofori yassi yaproqsimon yoki naysimon tuzilgan. Yassi yaproqsimon gimenofor mevatana bandi bilan tutashgan, unga yetib tutashmagan, yoxud bandgacha yetib borgan hollarda bo'ladi.


Gimenofordagi yassi yaproqlarning qirrasi bir tekis silliq yoki tishsimon qirqilgan ham bo'ldi. Agarikasimonlarga mansub zamburug'larda band soyabonga birikadigan joyi atrofi **trama** deyilib unda gifalarning joylanishi 4 xil ko'rinishda bo'ldi.



- 1) Yo'g'on gifalardan tuzulgan noto'g'ri trama;
- 2) G'o'lasimon hujayralardan iborat, yassi yaproq gimenofor yo'nalinishiga mos holda joylashgan to'g'ri trama;
- 3) O'rtasi yassi yaproqsimon gimeroforni yo'nalinishiga mos holda joylashgan yupqa qismi bo'lib, unda ikki tomonga qarab ketgan qatlamlili bilateral trama;
- 4) Bilateral trama o'xshash ammo, ag'darib ko'yilganday joylashgan invert trama.

Agariklar asosan organik chiqindiga boy tuproqlar chiriyotgan to'nkalar, daraxtlarda o'sadigan, ko'pchiligi mikorizalar hosil qiluvchi zamburug'lar hisoblanadi. Ayrimlarigina tekinxo'r hisoblanadi.

Yassi – plastinka shaklidagi gimenofor bandga birikkan yoki birikmagan bo'lishi yoki qirrasi bo'ylab bandni pastiga yo'nalgan bo'lishi mumkin. Bazi agarikoid gimenomitsetlarda, masalan, *Russula* turkumida gimenofor ochiq holda shakllanadi bu – *geminokarp mevatana*. Bu guruhning ko'plab vakillarida mevatana *gemiangikarp* yani u dastlab yopqichli bo'ldi.



Soyabon va plastinkali gimenoforlarning tuzilishi

Umumi yopqich soyabon va bandni yopadi, shu boisdan u avval shar yoki tuxum ko'rnishli. O'sa borishi bilan band uzayib yopqich yirtiladi, band asosida yopqichni yirtig'i qoladi. Yopqich umumi va qisman bo'ladi. Umumi yopqich zamburug' mevatanasini soyaboni va bandi bilan to'la holda o'rab oladi. Bunday yopqich *Amanita* turkumining turlari uchun xos.

Qisman yopqich soyabon qirasini band bilan bog'laydi. Band uzayganda yopqich yirtilib uni yirtig'i bandda va soyabon qirrasida qoladi.

Agarikasimon gimenomitsetlar tuproq, o'simlik qoldiklari, qisman yog'ochda saprotrof holda o'sadi. Ulardan juda ko'pchiligi daraxt ildizlari bilan mikorizalar hosil qiladi. Juda oz turlari tekinxo'rlik qiladi. Agarikoid gimenomitsetlar orasida odamlarning oziq-ovqatida foydalaniladiganlari ham anchagina. Bu guruh zamburug'lar orasida zaharlilari, xatto o'limga olib keladiganlari ham bor.

Agarikoid gimenomitsetlarni ko'pchilik mutaxassislar uchta tartibga bo'lishadi. Biz ham shunga rioya qilamiz.

Boletlar tartibi – Boletales

Bu tartibning zamburug'larida mevatanalari etdor, deyarli doimo soyabon va bandli. Gimenofori naysimon yoki yassi – plastinka shaklida. Gimenofor soyabondan oson ajraladi. Tartibning vakillari asosan mikoriza hosil qiluvchilar, saprotroflari ham bor.

Boletlar tartibi morfologiyasidan ancha farqlanadigan to'rtta oilani birlashtirgan.

Konioforalar (*Consophoraceae*) oilasiga mansublarda mevatana yassi cho'ziq, po'stloqsimondan terisimongacha, yumshoqlari ham bor, to'qjirrang yoki qo'ng'irrangsimon kulchalar ko'rinishida bo'ladi. Gimenofori silliq, buklamali. Sporali massasi zangqo'ng'ir rangda. Yog'och yuzasi hamda ichida mitselliyl hosil bo'ladi. Ayrim turlari imoratlarning yog'ochligida ularni chiritadi.

Serpula - *Serpula lacrymans* turini Rossiya, yevropaliklar "uy zamburug'i" deyishadi. Yog'ochli imoratlarning yog'ochligida uni ustida ko'zga yaxshi ko'rinaligan, ushlab ko'rsa bo'ladigan po'panaklarni chiriyotgan ustun, poltaxtada hosil qiladi.

Boletdoshlar (Boletaceae) oilasiga mansub zamburug'larning mevatanasi morfologiyasi bo'yicha anchagina o'xhash ko'rinishlarida bo'ladi. Ular faqat bir yilikgina bo'lib qolmay, efemer birnecha kun o'sadigan etdor soyabon va bandga ega. Soyabonning tagida bandidan oson ajraladigan naysimon gimenofori bor. Soyaboni va gimenofori tuzulishi sistematik jihatidan muhim belgi hisoblanadi.

Boletdoshlarga mansub zamburug'larning mevatanalarini o'lchamlari turlicha. Soyabonining eni birnecha santimetrdan to yarim metrlarga boradi, shunga ko'ra ularning og'irligi ham bir necha grammdan xatto 4 kg gacha, ammo bunuday kattalari juda kam uchraydi. Odatda o'rtacha kattalikdagい soyabonning eni 10-15 santimetrlilari ko'p tarqalgan.

Bolet zamburug'lar asosan o'rmonlarda daraxt ildizlari bilan ektotrof mikorizalar hosil qilib o'sadi, ular biror ekologik yoki geografik muxitga bog'lanmagan, kosmopolitlar hisoblanadi. Ayrim sarkadlarda bu oilaga mansub oq zamburug' bir hektar maydonda 500 kg, maslenok deb ataladigani esa xatto 1000 kg gacha hosil beradi. Bu zamburug'laring ko'pchiliginini oziq-ovqat sifatida istemol qilinadi. Ularning orasida zaharlilari yo'q.



Boletedoshlar oilasiga mansub zamburug‘lar

Oq zamburug‘ - *Boletedulis* boshqalaridan eng ko‘p tarqalgan, tansiq oziqa sifatida sevib istemol qilinadi. Albatta bizning sarxadlarimizda unchalik ko‘p uchramasa ham, istemolda ishlataladi. Soyaboni oqish, sarg‘ish ichi ham oq bo‘ladi. Quritilganda va qaynatib pishirilganda qoramaydi, shu tufayli **oq zamburug‘** deyiladi.


Paksilladoshlar (Paxillaceae) oilasining zamburug‘larida gimenofor yassi – plastina u, bandning pastiga ko‘plab anastomozlar bilan birikkan. Sporalardan iborat kukuni oq, oqish tusda. Bu oiladan Paxillusturkumining turlari (**P.involutus**, **P.atrotomentosus**) Rossiyaning turli xududlarini axolisi tomonidan qadimdan istemol qilib kelinadi. Yevropada uni zaharli deyishadi. Unda **atrotsitlarni** parchalaydigan modda borligi aniqlangan.

Gomfidadoshlar oilasi – Gomphidiaceae turkumlarida mevatanalar etdor, o‘rtacha kattalikda, soyaboni shilliqli, gimenofor yassi plastinka shaklida, sporalari to‘q qo‘ng‘irdan to qoragacha tusda.

Gomphidius glutinosus turi Rossiyaning o‘rmonlarida keng tarqalgan. Istemol qilinadi, biroq ko‘p hollarda u shilimshiqli tufayli kam teriladi.

Russulalar tartibi – Russulales

Mevatanalarida soyabon va band o‘zaro aniq farqlanib turadi. Gimenofori yassi-plastinka ko‘rinishida noto‘g‘ri tramali. Mevatanasi oson bo‘laklarga bo‘linib “sinadi”. Ayrim turlarida sutli yo‘llari bor. Sporalari naqtli parda bilan qoplangan. Bu tartib bitta oiladan iborat xolos. U ikkita turkum, ko‘plab turlarni birlashtirgan.



Russulalar tartibining zamburug‘lari

Laktaris - *Lactarius* turkumida mevatana sindirilsa undan turlicha rangdagi sutshira ajraladi. Ayrim turlarida sutshira xavoning tasirida rangini o‘zgartiradi. Bu turkumning ayrim turlarini yangiligidan tuzlab va boshqacha tarzlarda istemol qilinadi.

Russula - *Russula* turkumida mevatana sutsiz. Gimenoformi tashkil qilgan yassi-plastinkasi tarmoqlangan, bandiga yaqinlarida tarmoqlanish kuchliroq namoyon bo‘ladi. Sporalardan iborat kukunni rangi uning turlarida sof oqdan sapsariqgacha.

Russula turkumi 150 dan ortiqroq turlardan iborat, ular turli tuman joylarda tarqalgan, ko‘pchiligi istemol qilinadi.

Agarikalar tartibi – Agaricales

Agarikalar tartibiga agarikoid gimenomitsetlarning ko‘pchiligi mansub. Bu guruh gimenomitsetlarga nisbatan aytilganlarning ko‘pi shu tartibga taalluqli.

Mevatanalari doimo bir yillik, odatda yumshoq, tez eriydi. Gimenofori yassi-plastinka ko'rinishida. Sporalardan iborat kukuni turlicha ranglarda.

Agaricales – asosan tuproqda va tuproqning yuzasidagi chirindi, hazonda saprotrof holda, qisman mikoriza hosil qiluvchilar hisoblanadi. Bu turkumgi istemol qilinadigan va zaharli zamburug'larning ko'pchiligi mansub. Istemol qilinadiganlari maxsus ko'paytiriladi.

Pleurotes - *Pleurotus* turkumida mevatana deyarli bandsiz, gimenofori yassi-plastinka ko'rinishida. Bu turkumning turlari tirik yoki qurugan daraxt tanasida odatda bir guruh mevatanalarni hosil qiladi.

Bu turkumning turlari ko'plab mamlakatlarda maxsus ko'paytiriladi. Ulardan *P.ostreatus* turini gifalari nematodani bir tomchi suyuqligi bilan jalb etadi, zamburug' gifalari nematoda tanasiga kirib uni xalok qiladi.

Armillaria - *Armillaria* daraxt tanasini chiritadi. Mevatanalari bir guruh bo'lib hosil bo'ladi. Mevatananing bandida aniq ifodalangan halqa bor (armilla – lotincha bilak uzuk manosini bildiradi). Vegetativ gifalari hayotiy davri davomida diploid harakterda. Zamburug' kuchli taraqqiy etgan **rizomofa** hosil qiladi. Bu turkumning ko'pchilik turlarini **A.mellea** turiga mansub deb hisoblanilar edi. Ularning ko'pchiligi 200 dan ortiqroq turlarga mansub daraxtlarda saprotrof, tekinxo'r holda tarqalgan. Bu o'rinda ularning ko'pchiligi irlsiy jihatidan aniq farqlansada "qiyofadoshlar" ko'p.

Plyutey - *Pluteus* turkumining zamburug'lari daraxtlarning to'nalari, chiriyotgan tanasida o'sadi. Soyaboni qo'ng'ir-kulrang tusda qo'ng'iroksimon, keyinchalik do'ng, yassi ko'rinishda. Yassi – plastinkalari pushti rangda, har biri aloxida joylashadi. Bu turkumdan *P.atricapulus* boshqalaridan keng tarqalgan. Mevatanasi bir mucha katta, soyaboning diametri 4-10 sm gacha, ayrimlarida u 20-24 sm gacha boradi. Soyaboni kulrang-jigar tusli, bandi ingichka, uzun.

Amanita - *Amanita* turkumida mevatana ingichka kalta, umumiylarda pardalardan o'raladi. Mevatana kattalashgan sari bandini pastida qopsimon yirtiq qoladi. Soyaboni qirrasida turlicha kattalik

va o'lcamlardagi oq momiq bo'ladi. Soyabonni rangi oq, yashilroq, kulrang-sapsar, qizil-ko'ng'ir, qizil bo'lishi mumkin.

Gimenofor qo'shimcha yopqich bilan yopilgan. Yassi-plastinkalari yakka, ko'shilib o'sgan, band pastiga yo'nalgan, oq yoki sarg'ish rangda.


Bu zamburug' daraxtlarning ildizlari bilan mikoriza hosil qiladi. Juda katta maydonlarda tarqalgan. Bu turkumda *A.muscaria* barcha mintaqalarda uchraydi. Tarkibida xolin, muskarin alkaloidi, zaharli moddalardan asab tizimiga tasir qiluvchilari bor. *A.phalloides* turi o'limga olib keladigan zaharli hisoblanadi. Yevropa, qisman Rossiyada zamburug' dan zaharlinish bilan o'limni ro'y berishi 90-95 % shu turga to'g'ri keladi.

Agarikus - *Agarius* turkumning mevatanalari oqdan qo'ng'ir-gacha bandi soyabonidagi yassi-plastinkalar xoli joylashadi, yopqichi yo'q. Bandi soyabondan oson ajraladi. Juda ko'pchilik turlaridagi mevatanalarning yassi plastinkalari oq yoki pushti rangda bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan yassi-plastinkasi to'qlashib boradi. Agarikus turkumining barcha turlari saprotroflar hisoblanadi.

Bu turkumdan *A.bisporus* turi butun dunyo bo'ylab eng ko'p miqdorda ekib ko'paytiriladi. Bazidiyasida faqat 2 ta bazidiospora hosil bo'ladi. Ular chirindiga boy tuproqlarda, qurib, nam bo'lgan daraxt tanalarida tarqalgan. Bu turkumning zamburug'lari yer kurrasining deyarli barcha sarxadlarida uchraydi, ularni Markaziy Osiyoning cho'l va sarxadlarida ham uchratish mumkin. Agarikusning ayrim turlari AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Daniya, Niderlandiya, Germaniyada maxsus qurilmalarda ko'plab o'stililadi va axolining istemolida ishlataladi. Soyabonlarining eni 2-5 sm dan 20-25 sm gacha bo'ladi. U yarimshar ko'rinishda, etdor, tig'iz, tanasi silliq, tolasimon, oqish, biroz jigarsimon tusda bo'ladi. Bandi soyabonning o'rtasida birikadi. Silliq ichi g'ovak, gimenofordagi yassi yaproqsimon qismlari dastlab oq, yetilaborishi bilan avval pushti, keyin jigarrang sapsarsimon tusga kiradi. Bu zamburug' tuproqdagagi chirindini faol parchalashi bilan harakterlanadi. Agarikus zamburug'lar orasida yagona qishloq xo'jalik ekini hisoblanadi.

Siyoh zamburug'i - *Coprinus* turkumida mevatanalari tuxum, qo'ng'ir yokisilindr shaklidagi soyabon ko'rinishida bo'ladi. Soyabonning rangi odatda oqish, kulrang, silliq, uzunasiga yo'lli.

Yassi-plastinkasi aloxida turadi. Sporalarini rangi to'q, yetilaborishi bilan to'qlashib keyin sapsar-qora rangga kiradi, nixoyat siyoh tusli suyuqlikka aylanib ketadi. Shu boisdan bu zamburug'ni shunday ataladi.



Coprinus umumiy ko'rinishi


Psilotsibe - *Psilocybe* turkumi 150 ga yaqin turlardan iborat. Ko'pchilik turlarida mevatanalari mayda ingichka bandli, soyaboni konus yoki qo'ng'iroq shaklida. Mevatanani bosilsa yoki sindirilsa ko'k rangga kiradi. Tarkibida odam organizmi uning asab tizimiga kuchli tasir qiladigan kimyoviy birikmalari bor.

Inotsibe - *Inocybe* turkumida soyaboni odatda konus yoki ko'ng'iroq shaklida, o'ita qismi biroq qavariqli, bazan tekis ko'rinishda. Soyabonning po'sti tolali-shoyi, yaltiroq, tangachalar bilan qoplangan. Eti yupqa, sindirilsa yoki bosilsa rangini o'zgartiradi. Yassi-plastinkalari bandning pastiga cho'zilgan, dastlab biroz qo'ng'irroq keyin to'qlashib jigar rang tusga kiradi. Bandini shoyisimon, ichi g'ovak, bazan tangachali. Bu turkumning zamburug'larini orasida istemol qilinadiganlari hamda zaharlilari bor. Zaharlanish alomotlari 1,5-2 soatdan keyin ro'y beradi, so'lak

oqadi, terlaydi, kaltiratadi, ko'rishi pasayadi, nafas olish qiyinlashadi.

GASTEROID BAZIDIOMITSETLAR

Gasteroid bazidiomitsetlar yoki gastromitsetlar anchagina polifilitik guruh. Bazidiosporalari mevatananing ichida yetiladi, mevatananing peridiysini sinishi, parchalanish bilan tarqaladi. Mitseliy yo'g'on arqonsimon ko'rinishni hosil qiladi, ulardan tuproq ostida mevatanalar yuzaga keladi. Ayrim turlarida mevatanana tuproq ostida qoladi, boshqalarida tuproq yuzasida bo'ladi.



Gasteroid bazidiomitsset

Mevatanalarida peridiy-tashqi po'st aniq namoyon bo'ladi. Uning qalinligi qog'ozday – yupqa, birnecha qavatli qalin ham bo'lishi mumkin. Ikki qavatli peridiyda ichki – entoperidiy va tashqi – ekzoperidiy, uch qavatlarda o'rta – mezoperidiy bo'ladi.

Peridiyning tagida, (ichkarida) mevatananing **fertil – sporalar** hosil qiladigan joyi – **gleba** joylashadi. Gleba yupqa devorli monotip mitselliyan yoki dimitik – generativ va tayanch beruvchi skelet gifalardan iborat. Glebada turlicha shakldagi bo'shliklar bo'lib ular **trama** deb ataladigan to'siqlar bilan ajralgan.

Glebada sporalarning hosil bo'lishi bir necha tiplarda bo'ladi:

bir tekis, tartibli xilida bazidiyalar glebada tartib bilan joylashadi (*Tulostoma turkumida*);

lakunar xolida takomillashmagan birlamchi to'qimada yoriqlar paydo bo'ladi, ularni bir biridan ajratib turgan to'siqlarda bazidiyalar tartibsiz joylashadi (*Seleroderma*, *Nidularia* va boshqa turkumlar);


a) qorallloid xolida glebaning o'rtaidan chekkasiga yo'nalagan qorallsimon bo'shliqlari bor, ularning devorlarida bazidiosporalar hosil bo'ladi (*Lycoperdon*, *Gastrum* va boshqa turkumlarda);

b) ko'psoyabonli xolida gleba mevatananing turli joylarida bir biriga bog'liq bo'lмаган holda hosil bo'ladi (*Clathrus* va boshqa turkumlarda);

v) birsoyabonli xolida gleba ichida xuddi ustunsimon qism, uning yuqorisida peridiyning ichki qismi bo'ylab yon tomonlarga xuddi soyabon ko'rinishni hosil qilganday sporalar yuzaga keladigan qismlari bo'ladi.

Gasteromitsetlarning barchasida bazidiyalar bir hujayrali, ularning ko'rinishi turli tuman shakkarda: tuxum, shar kabi bo'ladi.

Bazidiosporalar baziyyidlarga nisbatan simmetrik holda joylashadi, ularda ko'p hollarda 4 ta bo'ladi. Gasteromitsetlarning ko'pchilik turlarida bazidiosporalarning soni 6 dan 14 gacha ham bo'ladi.



Tuproq yuzasidagi gasteromitsetlar

Bazidiosporalarning bazidiyalarda joylanishi ham turlichal: bandsiz yoki uzun band ustida joylashadi. Sporalarning po'sti yupqa, qalin ko'pqavatli, ko'p hollarda to'qrangga ega.

Bazidiosporalar dastlab bir yadroli, keyin ikki yadroliga aylandi, keyingilari unganida dikariotik mitselliyl hosil qilishi mumkin.

Ciasteromitsetlarning ko‘pchiligi saprotroflar. Deyarli hammasi quruqlikda tarqalgan. *Niva* turkumining zamburug‘lari dengiz suvlaridagi yog‘ochlikni chiritadi.

Likoperdalar tartibi – Lycoperdales

Bu tartibga mansub zamburug‘larda mevatanalari o‘rtacha kuttalikda, biroq juda katta gigantlari ham bor. *Langemannia gigantea* soyabonining diametri 80 sm gacha yetadi. Mevatanalari doimo yer ustida joylashadi, shakli shar, nok, yulduz kabi ko‘rinishlarda bo‘ladi. Peridiy 2-4 qavatli. Gleba g‘ovak, avval oq, keyin to‘qlashadi.

Bu tartibning mevatanalarini shakli shar, nok ko‘rinishida, ikki qavati peridiyli, ular tuproqda, daraxtlar tanasining pastida, chiriyoqtan yog‘ochda tarqalgan.




Likoperdon mevatanasi uning kesmasi

Likoperdon - *Lycoperdon* turkumi boshqalaridan keng tarqalgan. Peridiy ikki qavatli, ekzoperidiy yuzasida tangacha, o‘siq, donadorlik dastlab bo‘ladi, keyin ular yo‘qoladi. Pardasimon

endoperidiy doimo saqlanadi. Endoperidiyni tepasida kichkina teshikcha bo'lib, mevatana bosilganda undan sporalar atrofga tarqaladi. Bu turkumning zamburug'lari yer qirrasi bo'ylab turli ekologik sharoitlarda keng tarqalgan.

Geasterlar tartibi – Geasterales

Geasterlarda mevatanalari yetilgan paytida yulduzsimon ko'rinishga ega bo'ladi. Peridiy ularda uch qavatli ekzoperidiy bilan mezoperidiy o'zaro mustaxkam birikkan. Mezoperidiyning hujayralari gigroskopli u ko'ringanda har ikkala qavat radial yoriladi, aloxida bo'laklarga bo'linadi, natijada 4-12 turli yulduz ko'rinish hosil bo'ladi. Endoperidiyning ustida teshik hosil bo'lib undan sporalar atrofga tarqaladi. Bu turkumdan yer yulduzi (*Geaster*) bizning tog'oldi mintaqamizda ham onda-sonda uchraydi.



Geaster-er yulduzi

Nidulariyalar tartibi – Nidulariales

Nidulariyalarda mevatananing diametri 0,5-1,5sm keladi xolos. Rivojlanishning dastlabki davrida monolit tuzulmaday, voyaga yetganida ularning peridiyi yoriladi u voronka, bokal ko'rinishida,

uni ichida yumoloq yoki linza shaklidagi tanachalar peridiolalari bo'ldi.

Peridiolalarning ichki po'sti gimeniyini noto'g'ri joylanishidan tushkil topadi. Peridiolalar mevatanadan hammasi to'laligicha tushib ketadi, ularning pardasi yirtilgan sporalari atrofga tarqaladi. Peridiolalar yomg'ir tomchilarini tasirida otilib chiqadi. Bu tartibning vakillarisellyulozali substratlarda barcha mintaqalarda tarqalgan. Ularning mevatanalari yog'och qirindisi, chirindi, xazonbarglar, o'simlik qoldiqlarida uchraydi. Ayrim turlari bevosita tuproqda tarqalgan.

Sferobolus - *Sphaerobolus* turkumidan *S.stellatus* boshqalaridan eski chiriyotgan yog'ochda ko'p uchraydi. Yumoloq mevatanasining diametri 2 mm keladi xolos. Peridiyi anatomiya tuzulishi turlicha 6 qavatdan iborat



Sferobolus


Birinchisi gifalarning siyrak qavatidan; 2) dirildoqsimon qavat; 3) psevdoparenximatoz qavat; 4) gifalari tangantal joylashgan qavat; 5) ustunsimon qavat; 6) glebani o'ragan qavat. Mevatana yetilganda uni usti yulduzsimon 5-8 bo'lakli ko'rinishni hosil qilib yoriladi.

Fellalar tartibi – Phallales

Bu tartibning mevatanalari Protubera turkumidan boshqalarida yer ustida joylashadi. Ular to'la holda yoki qisman tuproqdag'i mitselliyydan yuzaga kelib u yuqoriga ko'tarila boshlaydi. Mevatana shar, tuxum yokisilindr shaklida bo'lib oq tig'iz parda (**volva**) bilan o'ralgan.

Peridiy yorilib yetilgan mevatana bir necha metrdan ham odamning dimog'iga seziladigan yokimsiz xidga ega. Bu xid xasharotlarni jalb qilib sporalarini tarqalishiga sabab bo'ladi.

Fallus - *Phallus* turkumining mevatanalari kichkinligida katta tuxumday, u oq parda bilan o'ralgan bo'ladi. Peridiy mevatana yetilaborib uning bandi ancha uzayib glebani yuqori ga ko'taradi. Bu paytda uning o'sishini tezligi 1 minutiga 5 mm gacha uzayadi. Gleba etdor, dirildoqsimon bo'ladi, kichkinasini istemol qilinadi.



Fallus

DEYTEROMITSETLAR

Deyteromitsetlarni (takomillashmagan zamburug'lar, mitospora zamburug'lar) vegetativ tanasi hujayralarga bo'lingan yoki aloxida hujayrali (achitqi), ko'payishi faqat jinssiz yo'l-konidiyalar hosil qilib yoxud kurtaklanib, jinsiy ko'paymaydigan zamburug'lar deb tulqin etib kelingan. Bu tushuncha asosida barcha yuksak tuzulishli zamburug'larning anamorfalari jamlangan.

Bu guruh zamburug'larining tabiatini va kishilarning hayotiy faoliyatidagi ahamiyatini aloxida ta'kidlash lozim.

Deyterimitsetlar tabiatda barcha iqlim mintaqalarida juda keng tarqalgan. Ularning ko'pchiligi tuproq saprotroflari, undagi zamburug'larning ko'pini tashkil qiladi. Juda ko'plari qurigan o'simlik qoldig'ida, xayvon substratida saprotroflardir. Bu zamburug'larning hammasi organik moddani parchalashda va tuproqdagi jarayonlarda faol ishtirok etadi. Masalan, *Trichoderma* sellyulozani faol parchalovchi hisoblanadi. Deyteromitsetlarning bazi saprotroflari oziq va sanoat maxsulotlarini po'panaklanishiga sabab bo'ladi.

Deyteromitsetlarning juda ko'plari yuksak o'simliklarda, qishloq xo'jalik ekinlarida tekinxo'rlik qilib ularni so'litaladi, dog'lar hosil qiladi, chiritadi. Deyteromitsetlarning ayrimlari odamlar va xayvonlarda kasalliklarni ko'zg'atadi.

Deyteromitsetlarning bazilari oziq-ovqatda o'sib unga toksinlar ajratishi bilan o'ta xavfli zaharlanishlarni yuzaga keltiradi.

Deyteromitsetlarning ko'pchiligi antibiotiklar (pentsillin, grizeofulvin, fumagillin, trixopetsil va boshqa), turli fermentlar va organik kislotalarni hosil qidi.

Xasharotlarda tekinxo'rlik qiladiganlari (*entomofil zamburug'lar*) va fitopatogen (*mikofil zamburug'lar*) zamburug'lar zararkunandalarga qarshi biologiya usuli bilan kurashda foydalilanildi.

Deyteromitsetlarning sistemasi bo'yicha xozirgi kunda:

Spora hosil qiladigan joyini tashqi ko'rinishiga ko'ra; Konidiyalarning ontogeneziga ko'ra; telemorfalari bo'yicha ish tutish xaqida fikr, muloxazalar bor. Biz ushbu kitobimizda deyteromitsetlarning sistemasi bo'yicha eng ko'p qo'llani-layotganlari bo'yicha keltiramiz

Gifomitsetlar (shartli) sinfi - Hyptomycetes

Gifomitsetlarda konidiyabandlari bittadan, qisman koremiyaga yoki sporadoxiylarga jamlangan. Ularga bitta formal *Hyphomycetales* tartibi mansub xolos, ekologiya, morfologiyasi byicha deyteromitsetlarni ichida eng ko‘p tarqalgan. Shunga ko‘ra ularni tabiatda va inson hayotida ahamiyati ham shunchalik. Gifomitsetlar orasida o‘simliklar, xayvonlar va zamburug‘larda tekinxo‘rlik qiluvchilar ham ko‘p. Ko‘pchiliginini iqtisodiy jihatidan ahamiyati ham katta. Zararkunanda xasharotlarda va fitopatogenlarini tabiatdagi sonini ko‘payishi populyatsiyasining miqdorini nazorot etishda ahamiyatli.

Suv muxitidagi gifomitsetlar aloxida guruhni tashkil qiladi. Ular suv ichidagi chiriyotgan barglar kabilarda rivojlanadi. Gifomitsetlar uchun yuksak o‘simliklarning qoldiqlari, gazeta qog‘oz, kitob kabilari ham substrat bo‘lib hisoblanadi.

Gifomitsetlarning ko‘pchiligidan mikrobiologiya sanoatida antibiotiklar, fermentlar va boshqa moddalar olishda foydalaniлади.

Aspergill - *Aspergillus* gifomitsetlar orasida eng ko‘p tarqalganlaridan biri. Tuproq uninng tabiiy tarqalgan joyi. Asperil hosil qilgan g‘uborlarni nam joyda qolgan non, turli pishiriqlar, murabbo, namli sharoitdagi qog‘ozda va shu kabilarda uchratish mumkin. Shu tufayli aspergillar saprotroflardir. Bu turkum zamburug‘lari orasida zaharli moddalarini hosil qiluvchilar, odamlar va xayvonlarda tekinxo‘rlik qiluvchilar ham bor.

Aspergillarda mitselliylar ko‘p hujayrali tarmoqlangan, o‘sayotgan joyiga botib kirgan bo‘ladi. Hujayralari ko‘p yadroli. Aspergillarning po‘panak qismi konidiyabandlar va konidiyalardan iborat bo‘ladi. Konidiyabandlar turlicha o‘lchamda bo‘lib, u bitta hujayradan tashkil topadi. Mitselliylar va konidiyabandlari rangsiz, bazan jigarrang yoki sarg‘ish tusga ega. Konidiyabandning tepasi yumoloqlashgan, ularda radial yo‘nalgan bir hujayrali konidiyalardan tashkil topgan zanjir joylashadi. Yetilgan konidiyalar zanjirdan uzilib, xavo oqimi bilan tarqaladi.

Aspergillarning ko‘pchiligi konidiyalar yordamida, yani jinssiz ravishda ko‘payadi. Ammo ularning orasida xaltachalilar kabi, jinsiy ravishda ko‘payish xam xos. Bunday turlarning g‘uborlarini orasida bevosita ko‘rib bo‘lmaydigan sariq tusli yumoloqlar ham hosil bo‘ladi. Ular kleystotetsiyalardir. Ammo ular xaltachali zambu-


rug'lardan farqlanib, kleystotsiy ichida xaltachalari yo'q, ular **mitcelliy** chigalidan iborat xolos.

Aspergill zamburug'lari yuqorida kayd etganimizday tabiatda **keng** tarqalgan va katta amaliy ahamiyatga ega. Ulardan *A.niger* turigu mansublari limon, shovul, glyukonat, fumar kislotalari, **biotin**, tiamin, riboflavin vitaminlari olishda foydalaniadi. *A.fumigatus* shtamlari orasida parrandalar va odamlar nafas yo'li **kasalliklarini** ko'zg'ataturuvchilari ham bor.

Penitsill - *Penicillin* turkumining zamburug'lari gifomitsetlari orasida eng keng tarqalgan hisoblanadi. Tabiiy manbasi ko'proq **hisoblanib**, shimoliy kengliklarda ko'proq uchraydi. Bu turkumning **zamburug'lari** Aspergilga xos bo'lgan ekologiya muxitlarida uchraydi. Mitsellliy rangsiz, ko'p hujayrali, kuchli tarmoqlangan ko'rinishga ega. Aspergildan farqlanadigan tomoni konidiyalar hosil qiladigan joyidir. Konidiyabandlarning tuzilishi odam qo'l panjasiga o'xshab ketadi. Shu tufayli ruscha adabiyotlarda uni "kistevik" deb ataladi.

Oddiyroq tuzilgan penitsillarda konidiyabandlarni ustida bittadan hujayra va uning yuqori qismida konidiyalar zanjiri joylashadi. Murakkab tuzilganlarida konidiyabandlarni ustida bir necha birmuncha uzun hujayralar – **metullalar** bo'ladi. Ularning ustida konidiyalar zanjiri malum tartibda joylashadi. Ayrim penitsillarda konidiyabandlar **koremiya** xilidagi tutamlargm jamlanadi.

Penitsillin g'uborlarida ham aspergillardagi kabi kleytotetsiylar hosil bo'lib, ular noqulay sharoitdan saqlanish uchun xizmat qiladi deb hisoblanadi.




Aspergill


Penitsillarga ular penitsillin antibiotikgi hosil qilishi malum bo‘lganidan keyin etibor kuchaydi. Penitsillin antibiotigi yiringli kokko, gonokokko, anaerob bakteriyalarning ayrimlariga, osteomielitda, peritonitda, endokarditlarda yordam beradi.

Penitsillar orasida qog‘oz, qog‘oz maxsulotlarida o‘sib, ularni chiritadiganlari ham bor. Penitsillardan *P.roqueforti*, *P.camamber* pishloq tayyorlashda qo‘llaniladi. Ba’zi penitsillar qishga saqlangan mevalarni chiritadi.

Alternariya - *Alternaria* tabiatda keng tarqalgan, turli organik qoldiqlarda, g‘o‘za bargida uchraydi. Alternariya g‘o‘za o’simligi yaxshi oziqlantirilmaganda barglarida qora dog‘lar hosil qiladi, g‘o‘za ko‘sagida ham to‘la ochilmagan ko‘sakning nam tolalarini qaraytiradi. Ko‘p hujayrali konidiyalari marjonsimon ko‘rinishga ega.



Penitsill



Kasallangan barg va konidiyalari

Vertitsill - *Verticillum* zamburug'larda konidiyabandlar mutovka xolida shoxlangan. Yonbosh tomonidagi shoxchalar (ularni fialidalarda deyiladi) cho'ziq shaklda bo'lib, uchi o'tkir bo'ladi. Fialidalarda bittadan yoki tutamlar xolida konidiyalar joylashadi. Konidiyalarning shakli yumoqoq, tuxumsimon, cho'ziq yumolok, odatda rangsiz, bazan biroz bo'yalgandek ko'rindi. Vertitsillarda xlamidosporalar, skleroyitlar, mikrosklerotsiyalar deb ataladigan hosilalar yuzaga kelib, ular yordamida zamburug' noqulay sharoitdan saqlanadi.



Vertitsill

1-kasallangan g'o'za shoxi, bargi, novdasi; 2- qulupnay mevasi.

Vertitsill zamburug'larda mitselliyni o'sishi davrida konidiyalar yordamida jinssiz ko'payish bilan birga tinim davri ham ro'y beradi.


Vertitsill zamburug'lar orasida tekinxo'rlari ham saprotroflari ham bor. Ular bizning sharoitimidza, umuman olganda ham o'simliklarda so'lish vilt kasalligini qo'zg'atadi. Bu kasallikning asosiy belgisi barglarni so'lishi, yani, ulardagagi turgor taranglik holatini yo'qolishi, poyadagi o'tkazuvchi to'qimalarda qoramtilrangni hosil bo'lishi hisoblanadi.

G'o'zaning so'lishi barcha g'o'za eqiladigan mintaqalarda tarqalgan. Kasallanishning dastlabki belgilari g'o'zani shonalash davrida, uning pastki barglaridagi tomirlanishlar orasidagi sarg'ayish ro'y beradi. Bu barglar so'lib tushib ketadi. Asta sekin barcha barglar so'liy boshlaydi. O'simlik o'sishdan to'xtaydi, ko'saklari so'lib bevaqt ochiladi. O'simlikning so'lishiga uning suv o'tkazuvchi to'qimasini zamburug' yelimsimon modda bilan tiqiltirib qo'yishi sabab bo'ladi. Zamburug' o'simlikka zaharli tasir qiladigan modda ham ajratadi. Har ikkila omil o'simlikni so'lishiga va nixoyat uning qurishiga olib keladi.

Zamburug' o'simlikka ildizi orqali o'tadi. Uning qoldiqlarida qishlaydi. So'lish kasalligini asosan *V.dahlia* ko'zg'atib turli oilalarga mansub 350 dan ko'proq tur o'simliklarida tarqalgan.

Fuzariya - Fusarium turkumining zamburug'larida rivojlanishida konidiyalar hosil bo'ladi xolos. Bu turkumga mansub zamburug'lar ikki xil makro va mikrokonidiyalar hosil qiladi. Makrokonidiyalar zamburug' o'sayotgan joyini yuzasida yuzaga kelgan mitselliylarda hosil bo'ladi. Ular ko'p hollarda 3 – 5 to'siqli, biroz egilgan, o'roqsimon, qisman lantsetsimon ko'rinishlarda bo'ladi. Konidiyalarni asosida aniq bilinib turadigan yoki yaxshi ko'rinnmaydigan band mavjud. Makrokonidiyalar pushti, ko'k, yashil, oqish kabi yorqin ranglarda bo'ladi.

Mikrokonidiyalar mitselliyyda oddiy yoki murukkab tuzilgan konidiyabandlarda zanjir, kallak xolida yoki mitselliylar gifalarining orasida to'plamlar ko'rinishida hosil bo'ladi. Konidiyalar bir hujayrali, kamdan-kam bitta yoki 2-3 to'siqli, odatda cho'ziq yumaloq, tuxum, bazan nok ko'rinishida bo'ladi. Bu zamburug'larning mitselliysi ko'pincha oq, oqish pushti yoki jigarang ko'rinishlarga ega.



Fusarium. Makrokonidiyalar

Bu turkumning mitselliysida xlamidosporalar – qalin po'st bilan o'ralgan gifaning bir hujayrali qismi, shu bilan birga tinim davrini o'taydigan sklerotsiyalar ham hosil bo'ladi.

Fuzariy turkumining zamburug'lari tabiatda keng tarqalgan. Ular tuproqda, turli organik oziqlarda, suvda uchraydi. Xasharotlarda tekinxo'rlik qiladiganlari, odamda va issiq qonli xayvonlarda kasalliliklar hosil qiladiganlari ham bor.

Bu zamburug'larning ko'pchiligi o'simliklarda kasallik qo'zg'atadi. U ko'p hollarda so'lib qolishga sabab bo'ladi. Nam joyda saqlangan donlarni aynitadi. Bu zamburug'lar biologik jihatidan faol moddalar hamda antibiotiklar hosil qiladi.

Melankoniyalar (shartli) tartibi - Melanconiales

Bu tartibga mansub zamburug'larning konidiyabandlari yakka holda bo'lmay, ular yassi, biroz do'mboq yoki egilgan asosda tutumlar xolida joylashadi.

Bunday xildagi spora hosil bo'lishiga **atservula** deyiladi. Atservulani asosi mitselliylar gifalarini tig'iz chigalidan iborat. Atservula odatda o'sayotgan joyda epidermis ostida joylashadi. Konidiyalar yetilganda ular tashqariga tarqaladi.

Melankoniyalarda mitselliylar doimo o'sayotgan joyiga botib kirgan yoki xo'jayin o'simlik to'qimasida joylashadi. Melankoniyalarga mansub zamburug'larning ko'pchiligi saprotroflar hisoblanib, tekinxo'rliklari ham bor. Tekinxo'r melankoniya zamburug'lar o'simliklarda **antraknoz** deb ataladigan kasallikni qo'zg'atadi. Bunda o'simlikning barglari yo'qoladi. Mevalari chiriydi. O'simlik kuchsizlanadi. Antraknoz holatda barglarda dog'lar, mevalarda, urug'larda, novdalarda chuqur chaqalar hosil bo'lib, modda harakati buziladi. Zararlangan joylarda ko'p miqdorda zamburug'ning sporalari paydo bo'ladi. Antraknozga qarshi kurashda turli fungitsidlar sepiladi. Tok antraknozni *S.phaceloma* uzumda kasallik qo'zg'atadi. Zamburug' tok zangi, novdalari, barglarini zararlab, qora dog'lar hosil qiladi. Bu kasallik bahor sernam kelgan yillari kuchayadi: bir mavsumda zamburug' 30 martagacha avlod beradi. Unga qarshi kurashilmasa, tok qurib qoladi.

Yong'oq marsoninasi - *Marsonina juglandes* yong'oqning bargi, bandi va mevasi (po'chog'ida) qora dog'lar hosil qiladi. Uning sporalari odatda bargning orqasida hosil bo'ladi. Bizning sharoitimidza yong'oq bu kasallik bilan ko'p kasallanadi.

Sferopsidlar (shartli) tartibi - Sphaeropsidales

Sferopsidlar tartibiga mansub zamburug'larda sporalar piknidalarda hosil bo'ladi. Ularni bevosita ko'rish mumkin.

Piknidiyalarning ko'rinishi xaltachali zamburug'dagi peritetsiy-larga bazan apotetsiyalarga o'xshaydi. Piknidalar sharsimondan nok ko'rinishigacha bo'lgan shakkarga ega. Piknidalar voyaga yetgan sari ularning ichida bo'shliq yuzaga kela boshlaydi. O'sha joyda konidiyalar yuzaga keladi. Konidiyalar rangsiz, rangli, bir, ikki yoki ko'p hujayrali bo'ladi.

Sferopsid zamburug'lar saprofit, tekinxo'r bo'lishi mumkin. Ko'pchiligi o'simliklarning turli joylarida nekrozlar hosil qiladi,

ayrim hollarda zararlangan qismi qurib qoladi.

Fillostikta - *Phyllostieta* turkumining zamburug'lari yuksak o'simliklarning barglarida, qisman novdasida qora xoshiyali doirasimon, cho'ziq yoki burchakli dog'lar hosil qiladi. Zararlangan barg to'qimasi tushib ketadi, bu bilan barg teshikli bo'lib qoladi. Bunday kasallikni fillaktitozlar deb ataladi. Fillostikta danakli o'simliklar, texnika ekinlariga katta ziyon yetkazadi.

Septoriya - *Septaria* turkumining zamburug'larida konidiyalar biroz egik, ninaga o'xshashgan, rangsiz, ko'p sondagi to'siqli, yoki to'siqsiz bo'ladi.

Septoriyalar tekinxo'rlar bo'lib, o'simliklarning turli qismlarida turlicha kattaliklar va ranglardagi dog'lar hosil qiladi. Septoriya turkumining zamburug'lari kurrai zaminmiz bo'ylab keng tarqalgan, ular nam iqlimli sharoitlarda, ayniqsa ko'p uchraydi. Septoriya bug'doydoshlar, murakkabguldoshlar, labguldoshlar, ranoguldoshlar, soyabonguldoshlar oilalarida ayniqsa ko'p uchraydi. Ular qo'z-g'atadigan kasallikni **septorioz** deb ataladi. Bu kasallikka qarshi kurash asosan ular qishlaydigan qoldiqni yo'qotish hisoblanadi.

TUPROQDAGI DEYTEROMITSETLAR

Tuproqning muhim tarqibiy qismi bo'lib undagi mikroskop bilan ko'rsa bo'ladi, undagi moddalarning almashinushi muhim ahamiyatga ega bo'lgan juda ko'p miqdordagi o'simliklar va xayvonlar hisoblanadi. Xech mubolag'asiz shuni aytish lozimki, tabiatda tuproq hosil bo'lish jarayonlarini ko'p qismi undagi o'simliklar, suvo'tlar, aktinomitsetlar va zamburug'larning faoliyatiga bog'liq. 1 gr tuproqda bir necha mingdan 100 minglabgacha zamburug'larning sporalari bo'ladi. Tuproqdan topilganlarining hammasi ham xaqiqiy tuprog' zamburug'lari bo'lmaydi. Zamburug'lar tuproqdagi organik qoldiqni organik bo'limganlariga aylantiradi. Tuproqdagi zamburug'lar murakkab organik birikma-larning transformatsiyasini ta'minlab, moddalarning tabiatda davra bo'lib aylanishini taminlaydi. Bu bilan o'simliklarning tuproqda o'sishi yaxshilanadi. Tuproqda tarqalgan zamburug'larning ko'pchilik turlari deyteromitsetlar sinfiga mansub hisoblanadi. Bu zamburug'larni laboratoriya sharoitida suniy ozuqa muxitida o'stirib oson ajratib olsa bo'ladi. Shu tufayli tuproqda tarqalgan zamburug'lar orasida boshqalaridan deyteromitsetlar ularni geografiya jihatdan tarqalishi yaxshi o'r ganiladi. Har bir tuproqda iqlimi mintaqalarga xos bo'lgan zamburug' turlari bilan birga

umumiylari ham mavjud. Ular faqat tur jihatidangina emas. miqdori bo'yicha ham farqlanadi. Tuproqdag'i o'simliklar qoplami, uning tarkibi ham zamburug'larning tarqalishiga va boshqa bir qator biokimyoviy jarayonlarga tasir qiladi. Tuproq hosil bo'lishining turli bosqichlarida ham shunga xos va mos boshqalaridan miqdori bo'yicha ham ortiq bo'ladigan zamburug'lar malumligi aniqlangan.

XASHAROTLARDAGI DEYTEROMITSETLAR

Zamburug'lar orasida xasharotlar tanasida tekinxo'rlik qilib o'sadiganlari ham bor. Ular orasida eng ko'p tarqalganlari bo'lib muskardinlar (frantsuzcha qand solingen meva degani) hisoblanadi. Italiyalik A.Bassi, 1835 yili birinchi marta tut ipak qurtining kasallanganlarida qand sepib quygandek ko'rinish paydo bo'ganini uni boveriya bassini zamburug'i ko'zg'anganini aniqladi. Shunga ko'ra bu kasallikk'a yuqoridagi nom berilgan. Keyinchalik bu kasallik juda ko'p xasharotlarda tarqalganligi aniqlandi. Zamburug' faqat xasharotlarda emas, o'simlik qoldiqlarida ham saqlanib qolaveradi.

Xasharotlarning asosiy patogenlaridan biri aspergilliyoq kasalligini qo'zg'atadigan aspergill (*Aspergillus*) turkumining zamburug'lari hisoblanadi. Bu zamburug' asosan saprotrof hisoblansa ham xasharot tanasida rivojlanib, zaharli moddalar ajralishi bilan xasharot halok bo'ladi. Xasharot tanasiga kirgan zamburug' 32-48 soatda uni sporalar bilan to'ldiradi. Zamburug'ning tasiri u ajratadigan zaharli moddaning kuchiga bog'liq. Xasharotlarda girzutella (*Hirsutella*), kaniotiri (*Caniotium*), ashersoniya (*Aschersonia*), gipokrella (*Hypocriella*) turkumining zamburug'lari ham tekinxo'rlik qiladi.

DEYTEROMITSET LISHAYNIKLAR

Shartli ravishda olingen bu guruh lishayniklar sorediyalar bilan ko'payadi. Ular tabiatda keng tarqalgan bo'ylab 100 dan ortiqlari tavsiflangan. Ayrimlarida mevatanalar ham uchraydi. Sistematik o'mini aniqlashda ularning ultrastrukturulari, biokimyo va molekulyar biologiya malumotlaridan foydalaniladi.

Bu guruhdan *lepraria* (*Lepraria*) deb nomlanadigani tabiatda keng tarqalgan. Ular toshlar, tog' koyalari, daraxtlarning tanasida kukunsimon g'uborlar hosil qiladi. Bu g'uborlar odatda oqishkulrang (*L.aeruginosa*), bazan yashil-sarg'ish (*L.chlorina*) yoki tillarang-sarg'ish (*L.candelaria*) ranglarda bo'ladi.

Riziariya imperiyasi morfologiya, ekologiya va genetik jihatidan juda xilma-xil guruh hisoblanib fototrof va geterotrof flagellat, amyobaflagellat va amebalarni birlashtiradi. Ularning nomlanishi bu guruh organizmlarnig ko‘pchiligidagi filoz va retikulyar psevdopodiy va aksopodiylar mavjudligini anglatadi. Riziariya olami T. Kavale-Smit (T. Cavalier – Smit, 2002) tamonidan molekulyar nuktasi nazaridan ajratilgan. Bu imperiyagaserkoza olami mansub.

SERKOZOALAR – SERCOZOA OLAMI

Bu olamga xlororaxnofit suvo‘tlar, fikomiksinlar (ilgari zamburug‘lar bilan birga o‘rganilgan plazmodiofora shilimshiqlar), gaplostoridiyalar, ilgri geterokontlar bilan bog‘langan taumatomonadlar, serkomonadlar, evglifidlar mansub.

XLORORAXNOFITA – CHLORORACHINOPHYTA SUVO‘TLAR BO‘LIMI

Ushbu bo‘limni nomlanishi *Chlororochinion* (grek. *chloros*- yashil, *arachnos*- to‘r) nomi bilan bog‘lik. Xlororaxnofit suvo‘tlar quyidagi umumiy tavsifga ega.

1. Flagellat yoki ameboid floiz psevdopoidli. Chlororochinion meroplazmodiy holda koladi.

2. Xivchinli boskich davrida hujayra spiral aylanadigan xivchinga ega.

3. Xloroplastlarida xlorofil a va v bor. Xloroplastlarida 4-menbrana bilan o‘ralgan. Lamellalar 1-3 tilakoidli. Karatinoidlar xakida malumotlar yo‘q.

4. Xloroplastlari noksimon ko‘rinishli pirenoidli.

5. G‘amlangan oziq modda – 1-3 glyukan (paramilonda).

Xloroplastdan tashqaridasitoplazmatik vezikulalarda to‘planadi.

6. Mitochondriyning kristlari naysimon tuzulishli.

7. Trixotsistlari bor.

8. Ko‘payishi hujayrani ko‘ndalangiga bo‘linishi yoki zoosporalar yordamida amalga oshadi.

9. Dengizlarda tarqalgan.

Xlororaxnofita suvo'tlar evolyutsiyani o'rganadigan biologlarni xloplastlaqni kelib chikishi va evolyutsiyasi tomonidan etiborni tortadi. Xloraraxnofita va kriptomonadlarda nukleomorfalar yadroni endibiozlanib xloroplastlarga aylangan degan qarash bor. Turli guruh eukariotlardagi xloroplastlar kanday hosil bo'lagani haqidagi boshlama fikrni hosil qiladi. Xlororaxnofita suvo'tlar 5 turkumga: *Chlororachnion*, *Lotharella*, *Gynnochlora*, *Cryptochlara*, *Bigelowiella* mansub bo'lib xozircha 6 tur, xali nomlanmagani bor. Bu bo'lim D. A. Hibbert, R.E. Noris (1984) tomonidan fanga kiritilgan. Xlororaxnofitalarga mansub turkumlar o'zaro prenoidlarning ultra tuzilmalari va nukleomorflarning joyylanishi bilan o'zaro farqlanadi. Xlororaxnofita suvo'tlarning hujayralari po'stsiz, bir yadroli xloroplastlari ko'p. Ular 4 membrana bilan o'ralgan. Xlororaxnofitalarning hujayrasini tuzilishida yadrosini kadimiyligini, uni periplast bo'shilqdasitoplazma endosimbionti va eukariot ribosomalari bilan birga joylashganligi etiborga loyik. Nukleofotmaning xususiy genomi 3 ta to'g'ri chiziqli xromosomasi mavjud (380000 ga yaqin genomli). Genom 300 ga yaqin oqsilni kodlaydi. Boshqa barcha DNK tutganlar kabi nukleoforma mustaqil tuzilma. U xloroplastlarni bo'linishidan oldin bo'linadi. Nukleoforma kriptofitlarda ham bor ularning tuzilishi tashkillanishi o'xshash bo'lgani bilan kelib chikishiga ko'ra farqlanadi. Kriptofitlarning nukleofirmasi kizil suvo'tlarning endosimbiotlaridan xlororaxnofitlarni yashil suvo'tlarnikiday kelib chiqqan.

Xlororaxnofita suvo'tlarning ko'payishi hujayrani ikkiga bo'linishi bilan vegetativ, zoosporalar yordamida jinssiz, izo va anizagamiya tarzida jinsiy amalga oshadi. Hayotiy davrida kokoid, monad bosqichlarini o'taydi.

Xloraraxnofitlar suvo'tlar iliq dengizlarda tarqalgan, ular miksotroflar: bu foto sintezlovchi organizmlar bakteriyalar, flagellatlar va mayda eukariot suvo'tlarini yutadi.

Xlororaxnofita suvo'tlar xloroplastlarida xlorofill a va v bo'lishiga qaramay xlorofill v tutgan evglena va yashil suvo'tlarida filogenetik aloxidalangan. Xlororaxnofita suvo'tlari monofitik guruh hisoblanadi.

PLAZMODIOFORALAR- RLASMODIOFOROMUCOTA BO'LIMI

Plazmodioforalar bo'limi quyidagicha umumiy tavsiflanadi.


1. Turli xo'jayinlarining hujayrasini ichida tekinxo'rlik bilan hayot kechiradigan vegetativ tanasi ko'pyadroli protoplast.

2. Plazmodiosforalarning rivojlanishida birlamchi, sporangiy hosil qiladigan plazmodiy va ikkilamchi yoki sporongiy yoki plazmodiy hosil qiladi.

3. Ayrim turlarida mitoz bo'linish davrida yadrocha malum muddatgacha saklanadi, xromosomalari qo'shuv alomatiga o'xshash shaklini hosil qiladi.

4. Rivojlanishida unib zoosporalar hosil qiladigan (xakikiy shilimshiqlaridagiday) qalin po'st bilan o'ralgan tinim davrini o'taydigan spora hosil qiladi.

5. Plamodiaforalarning barchasi oldingi qismida ikkita xivchini bo'lgan zoosporalarni hosil qiladi. Ular morfologiyasidan o'xshash bo'lsa ham turlicha uzunlikka ega: bittasi ikkinchisidan uzunrok.



Plasmodiophora brassicae 1- karam o'simligi ildizidagi shishmalar; 2-ildizdagи hujayralari.

Bu bo'lim plazmodioforalar (Rlasmodiophoramyctes) sinfidan iborat xolos. Unga 30dan ortiq turlar.(1 tartib, 1 oila) mansub bo'lib ular gulli o'simliklarning turli qismlarida bo'rtmalar hosil qiladi. Ular orasida karam va boshqa butguldoshlar oilasining o'simliklarida tarqalgan *Plasmodiophora brassica* muhim vakil hisoblanadi.

Plasmodiophora brassica karam o'simligini ildizida anchagini katta shishma hosil qiladi uning rangi asta to'klashadi keyin shu joy chiriydi. Sog'lom o'simlikda ildiz uning 1/30 qismini tashkil kilsa zararlanish kuchayganda bu mikdor 1/2 ga yaqinini tashkil etadi. Tekinxo'r o'simlik hujayrasida gipertrofiya va giperflaziyani hosil qiladi. Ayrim hujayralar plazmodiyidan yuzaga keladigan sporalar bilan to'ladi. U endi chiriy boshlaydi. Keyingi yili ular birlamchi zoospora xolida unib karamning ildiz to'kiga yopishadi keyinrok uni ichiga kiradi, ildiz shishmasi chiriy boshlaydi. Tekinxo'rning rivojlanishida gaplo – va diplo- modiofora bilan zararlanishi tuprogdag'i ph 5-6 da faol kechadi.

XROMALVEOLAT SALTANATI CHROMALVEOLATA

Bu imperiya fotosintezlovchi, ular bilan bog'lik bitta yoki ko'plab S_1 , S_2 , S_3 xlorofilli kiriptofit va gaptosifit suvo'tlar mansub.

KRIPTOFITA - CYPTOPHYTA BO'LIMI.

Bo'lim *Cryptomonos* turkumi (grek kryptos- yashirin, monos-shaxs) nomiga ataladi. Kriptofit suvo'tlar quyidagi tavsifga ega.

1. Kriptofit suvo'tlarning deyarli hammasi darsoventral tuzilishli. Darsal (orqa, yelka) tomoni qavarik, ventral (oldi, qorin) yassilangan, uzunasiga yo'nalgan ariqchali. Ayrim turlarida hujayrasini oldingi tomonida halqum bor.

2. Hujayrasining oldingi tomonida bir xil uzunlikdagi ikkita xivchini bor.

3. Xloroplastlari 2 ta xususiy va xloroplastli o'ralskan endoplazmatik to'rining 2 ta membranasi bilan qoplangan. Lamellalari ikki yoki uch tilakoidli. Xloroplastdagagi DNK kichkina nukleoidlar xolida xloroplast stromasi bo'ylab tarkalib joylashgan.

4. Xloroplastlarida xlorofil a va S_2 bor. Xlorofilning yashil rangi bir qator karationidlar fikobiliprotein pigmentlar bilan bekilgan. Fikobiloproteidlar tilokoidlarning ichida joylashgan.

5. Nukleomorfa 3 xromosomali tirqishli ko'sh membrana bilan o'ralskan. Yadrochada replikatsiya ro'y beradi.

6. g'amlangan oziq modda kraxmal, u periplast bo'shliqda g'amlanadi.

7. Stigma barcha vakillarida mavjud emas.

8. sitoplazmada to'rsimon kristli bitta mitoxondriy mavjud.

9. Hujayra periplast bilan o'ralskan.

10. Hujayrada trixotsistlar bo'lishi mumkin, ularning yirikrog'i xalkuming atrofida plazmolizmma tagida hujayralarning yuzasi bo'ylab joylashgan.

11. Mitoz ochik,sentriolasiz.

12. Ko'payishi hujayrani teng ikkiga bo'linishi bilan vegetativ tarzida o'tadi.

13. Chuchuk hamda dengiz suvlarida tarqalgan.

Kriptofitlarning deyarli hammasi bir hujayrali, xivchinlari yordamida harakatlanadigan, ayrimlari shilimshiq bilan o'ralib palmelloid holatga o'ta oladigan suvo'tlar.

Hujayra tuzilishi. Hujayrani shakli tuxum, ellips, nok, dukkak, urchuk kabi ko'rinishlarda, hujayrasining oldingi tomoni xuddi kesilganday undan uzunasiga yo'nalgan ariqcha o'tib oxirgacha yetmaydi.


Ariqchani mavjudligi uzunligi turkumining sistematikasida muxum belgilaridan biri hisoblanadi. halqum qopsimon ko'rinishli uni atrofida trixotsitlar joylashadi. Trixotsitlari (**edjektosoma**) membrana bilan o'ralgan.

Kriptosomalar atrof muxitdag'i pH, suvidagi bosim, harorat o'zgarishlarini tez sezadi. Hujayraning oldingi qismida kiskaruvchi vakuola joylashgan.

Kriptomonad suvo'tlarining hujayrasida ikkitadan mono tanachasi bor. Nima vazifani bajarishi haqida xozircha malumot yo'q. Hujayra periplast bilan o'ralgan, hujayrasining oldida tanasining uzunligicha teng ikkita xivchin joylashadi. Harakatlanganda har ikkalasi oldinga yoki bittasi oldingi, keyingisi orqaga yo'naladi.


Kriptomonad suvo'tlarining halqumi xloroplast bilan bog'langan, xivchinli apparat bilan emas. Ayrim kriptomonad suvo'tlarida ijobiy fototoksis ro'y beradi.

Kriptomonad suvo'tlarining hujayralarida bitta yoki ikkita xloroplast bo'lib ular ko'k-yashildan sarg'ish, qo'ng'ir to to'q qizilgacha rangga ega. Xloroplast yo'q bo'lishi ham mumkin. Xlorofil a dan tashqari xlorofill S₂ mavjud. Kriptomonad suvo'tlarining hujayralarida allofikotsianin yo'q. Fikobiliprotzin pigmentlardan kriptofikatsianin va kriptofikoeritrin qizil va ko'k-yashil suvo'tlaridagi fikobilipro-



Kriptomonas hujayrasini
tuzilishi

teinlardan farq qiladi. Ular tilokoidlar ichdagi bo'shliqlarda joylashganligi tufayli kriptomonad suvo'tlarining tilakoidlari boshqa suvo'tlardan yo'g'onroq.



Cryptosoma pyrenoidifera

Fotosintezlovchi har bir kriptosoma suvo't fikobiliproteidning bitta tipiga yoki fikoeritrin yoki fikotsianing ega, xech kachon ikkilasi birga bo'lmaydi. Kriptomonad suvo'tlarda alloksantin, a va v karatinlar, kurokoksantin, zeyaksantin va monodoksantinlar ham bor. Xloroplastlarda prenoidlar bo'lishi mumkin. Xloroplastlari to'rt membranalni. Har bir tur membrana orasida periplast bo'shliq bo'lib ularda ekariot tipli RNK 80 S ribosomalar joylashadi. Nukleoderma ko'rinishidagi raduslangan yadro bir ikki qavat bilan membrana bilan o'ralgan, uchtagina xromosoma 240, 225 va 195 ming just nukleotidlari bor. Nukleoderma xloroplastni bo'linishidan oldin mitoz yo'li bilan bo'linadi. Bo'lingan nukleotidlarni xloroplastlarni oxirida joylashadi.

Kriptofit suvo'tlarning xloroplastlari qizil suvo'tlaridan kelib chiqqanligi filogenetik taxlil bilan isbotlangan.

Kriptofit suvo'tlarining asosiy g'amlinagan moddasi kraxmal u xloroplastning uchinchi va to'rtinchli membranalarning orsida to'planadi. Kraxmalning bu joyda g'amlinishi faqat shu suvo'tlarga xos. Kizil suvo'tlari kabi amilozadan ko'ra ko'prok amelopektin to'playdi. Yod tasirida bu kraxmal kizil ranga kiradi. sitoplazmada

lipid tomchilari ham bo'ladi. Kriptomanad suvo'tlar orasida avtотroflar, geterotroflar (saprotif va faktroflar) va miksotriflar ham bor. Ko'pchiligi rivojlanish davridasiankolamin (V12) va tiamin (V1) vitaminlarga muxtoj bo'ladi. Kiroptifit suvo'tlarning o'sishi rivojlanishini organik moddalar tezlatadi. Rangsiz vakillarida fagotroflik sodir bo'ladi. *Chroomonas pachmanni* miksatof oziqlanadi.

Kriptomanad suvo'tlarning hujayralardagi bitta yadro ko'pincha pastrokda joylashadi. Mitoz xloroplast bo'lingandan keyin boshlanib u ochik tarzda ro'y beradi. Yadroga yo'qolmaydi. Sentirola yo'q. Kriptomanad suvo'tlarda xromosomalarning soni 40 tadan 210 gacha. Ko'payish davrida hujayra harakatlanishini saklaydi. Kuchli yoritilish va azot yetishmasligi tinim davrining yuzaga kelishini tezlatadi. *Chroomonas acuta* turida xologam jinsiy jarayon kuzatilgan.


Kriptofit suvo'tlar haqiqiy plankton vakillari hisoblanib sho'r ko'llarning, balchig'idan, chuchuk suvlarda parchalanadigan qoldiqlarda tarqalgan, ular oligotroflar orasida ahamiyatlilardan. Kriptomanad suvo'tlarning ko'pchiligi harorat o'zgargan bo'lsa ham uchrayveradi. Stenoterm vakillar orasida *Cryptomonas* turkumining suvo'tlari qor va muzning yuzasida ham bo'ladi. Bu suvo'tlar bizning respublikamiz sharoitida qish va yoz faslida uchraydi. Rangsiz vakillari oqava suvlarda organik moddalar bilan ifloslangan havzalarda tarqalgan.

Kriptofit suvo'tlar suv havzalarida kislorod, uglevod, azot va fosforni davra bo'lib aylanishida, organik moddani minerallardan hosil bo'lishida ahamiyatli.

Kriptofit suvo'tlarning evolyutsiyasida *Sryptomonas* turkumiga yaqin turlar boshlangichi hisoblanadi. Rangsiz bu vakillarda nukleoforma, plastidlar yo'q, ularda fagotsitoz ro'y beradi.

Kriptominad suvo'tlarning boshqa suvo'tlar orasidagi o'rni xozir ham muammoli. A.Pasher ularni xrizomonadalardan, kriptomonalarni, peridinlarni ajratgan. U kriptomonal va peridinlarni bo'limiga birlashtirgan. Ko'pchilik algologlar buni kabul qilishmaydi. Chunki, kriptofit suvo'tlar dinofitalardan yadro, xivchinli apparatni tuzilishi, nukleoformani bo'lishi, pigmentlarini tarkibi, biokimeviy xususiyatlari bilan farq qiladi. Shu

boisdan kriptofit suvo'tlar dinafit suvo'tlarga filogenetik qarindosh emas desak bo'laveradi.




Chroomonas türkumining turlari

Sistematikasi. Kriptofit suvo'tlarning 100 ga yaqin chuchuk, 100 dan ortiq dengizlarda tarqalganlari aniklangan. Ularning tuzilishlarini elektron mikroskop orqali o'rganilganidan keyin sistematikasida o'zgarishlar ro'y berdi.

Algologiyaga oid xozirgi adabiyotlarda kriptofitlar bitta Crytophyceae sinfi va jkkita tartibga bo'linadi.

Rhodomonas turkumi odatda qizil rangli bitta plastidi bo'lgan monad tuzilishlilarni birlashtiradi. Pirenoidlari bor. 20 ga yaqin yirik edjektosomalari arikcha yaqinida joylashadi. *Chroomonas* turkumi N-simon havorang, ko'k yoki ko'k-yashil rangdagi pirenoidli chuchuk suvlar va dengizlarda tarqalgan turlardan iborat. Rangi 645 kriptonitsianin va 630 krip-totsianin bilan belgilanadi. *Chroomonas* turkumining suv o'tlarida arikcha yo'q, birok halqum bor. Ayrim vakillarida bakteriyani xazmlovchi vakuolalar bor ayrim turlari stigmaga ega.



Rhodomonas sp.

Cryptomonas turkumi chuchuk suv havzalari va dengiz planktonida ko'p uchraydi uning hujayralari qo'ng'ir tusli ikkita plastidga ega. Prenoidlari bor.

Chilomonas turkumining suvo'tlari organik moddalarga boy suvlarda uchraydi. Hujayralari rangsiz lekoplastli, unda tilakoidlari yo'q, biroq periplast bo'shlikda nukleomorfa bor va pigmentlari yo'q bo'lsa ham kraxmal to'planadi. Ikki xivchinli. Perooplastning ikki qismi yopqich xolida. Bir necha edjektosomalar halqum bo'ylab joylashadi *Ch. paramecium* uxtiotokcin hosil qiladi, biroq uning kontsentratsiyasi juda kamligidan balliqlarga tasir qilmaydi.

Ganiomonas turkumining suvo'tlari chuchuk suvlar va dengizlarda tarqalgan. Uning rangsiz hujayralari ikki tomonдан siqilgan, ularda plastitlar yo'q. Hujayrasining oldingi qismida xalqa xolida yirik edjektosomalari, maydalari plazmolemma ostida joylashadi. Arikcha va halkqum bor. Xivchinlari hujayraning

oldingi qismida yelka tomonidan chiqadi. Ayrim turlari fagotsitozni umalga oshiradi.

PRIMNEZIOFITA – PRYMNESIOPHYTA BO‘LIMI

Bo‘lim *Prymnesium* turkumi (grek. prymnesion – dum, langar zanjiri) bilan nomlanadi.

Primneziofit suvo‘tlari quyidagi tavsifga ega.

1. Ko‘pchiligi bir hujayrali monad tuzilishli ikkita o‘zaro teng yoki teng bo‘lmagan xivchinli.

2. Xivchinlar orasida tuzilishga ko‘ra xivchindan farqlanadigan ipsimon o‘simta **gaptonema** joylashadi.

3. Xloroplast 4 membrana bilan o‘ralgan. Periplast bo‘shlikda anaztomoz tibullardan iborat periplast to‘r bor. Lamellalar uch tikloidli xloroplastlardagi DNK xloroplast stromasida donalar xolida sochilgan. Pirenoid bor.

4. Xloroplastda xlorofil A₁ S₂ va S₃ yoki S₂ bor. Qo‘sishimcha pigmentlardan fikoksantin va uning hosilalari v-karatin, dianoksantin va diatoksantin bor.

5. Ko‘zcha bo‘lsa u hujayraning oldida xloroplastda yoki undan tashqarida joylashadi, u bir qator pigmet globulalardan tashkil topgan.

6. g‘amlangan modda xrizolaminarin, u xloroplastdan tashqari vokuoizada, Pavlova turkumida paramilon to‘planadi.

7. hujayraning utsisellyulozali organik tangachalar yoki donachalar bilan qoplangan. Tangachalar Golji apparatida yuzaga keladi.

8. Har bir hujayrasitoplazma endoplazmatik to‘rnning perifirik g‘o‘lachalari bilan o‘ralgan.

9. Mitoxondriylari nayli kristli.

10. Primnezemlarda mitoz ochik, pavlovalarda yopiq. Hujayra ariqcha hosil kilib bo‘linadi.

11. Ko‘pchiligi dengizlarda, bir necha turlari chuchuk suvlarda tarqalgan.

Primneozifit suvo‘tlarining ko‘pchiligi bir hujayrali, mayda qisman monad fototroflar hisoblanadi. Hujayrasining shakli

yumolokdan ovalgacha, yassilangan. Hayotiy davri davomida ayrim vakillari kokkoid, ip, amebid va palmeloid holat ham ro'y beradi.

Hujayrasidagi ikkita o'zaro teng yoki teng bo'limgan xivchini apikal, subapikal yoki lateral joylashadi. Ko'pchilik hollarda ular sillik, Pavlova turkumida uzun xivchin nafis tuklar va tangachalar bilan qoplangan.

Primneziofit suvo'tlarning hujayrasida gaptonema deb ataladigan maxsus tuzulma xivchinlar orasida joylashgan ingichga ip ko'rinishiga ega. Ayrim vakillarida uning uzunligi 160 mkm gacha yetadi boshqalarida birnecha mikron keladi xolos. U silliq yoki mayda organik tangachalar bilan qoplangan.



Primnezofit suvo'tlar hujayrasini qoplagan tangachalar

Gaptonema hujayraning fagotrofiyasida kaltsiy magniyni tez birikishi uchun xizmat qiladi. Gantimeniyasi uzunlariga bakteriya-larga vam ayda suvo'tlarida yutadi xolos. Hujayradagi fosforning mikdori fagotrafiyaga tasir qiladi, bakteriyadagi fosfor prineziofit suvo'tlarning hujayralari uchun fosfor manbai bo'lib hisoblanadi.

Primneziofit suvo'tlarning hujayralarini plazmolemmasini chetida plazmatik to'rning g'o'lachalardan iborat qismi joylashadi. Hujayra plazmolemmasining yuqorisi birnecha qator tangachalar bilan qoplangan. Anorganik tuzilishli tangachalarni **kokkolitlar** deb atalib ular galokokrkolitlar va geterokokkolitlar tuzilishlariga ko'ra farqlanadi. Primnezifit suvo'tlarning prymnesiophyceae sinfiga mansublarini hujayralarda 1-2 ta tillarang qo'ngir tusli bir pirenoidli xloroplastlar mavjud. Pavlovophyceae suvo'tlarning xloroplastida ko'zcha joylashadi. Hujayrada yadro uni markazida joylashadi bitta yoki birnecha mitoz davrida yo'qolib ketadigan yadro mavjud. Pavlovophyceae suvo'tlarida mitoz yopik.sitokinez membranani ichiga botib kirishi yoki bo'linish zonasida vakuolalarni qo'shilishi bilan sodir bo'ladi. Yuzaga kelgan har bir hujayra ona hujayradan tangachalarning yarmini oladi, ikkichi yarmini o'zi tuzib oladi.

Primneziofit suvo'tlarda jinsiy ko'payish ro'y beradi. Ayrimlarida hayoti davomida bir necha tipdagisista hosil bo'ladiganlari ham bor.

Primneziofit suvo'tlarning oziqlanishida fototrofiya, osmotroflik, fagototroflik boshqacha aytganda miksotrof oziqlanish odatiy xol. Primneziofit suvo'tlarning ko'pchiligi ochik dengizlarning planktonida, ayimlarigina chuchuk va sho'rtob suvlarda tarqalgan. Birlamchi oziq yaralishida ahamiyatli.

Primnoziofit suvo'tlarni tillarang suvo'tlar bilan o'rganilgan. Nukleotiddagi genlarning joylanish tartibini filogenetik taxliliga ko'ra primneziofitlar ikkita Prymnesiophyceae va Pavlovophyceae (B. Edvarseu et al. 2000) sinflariga bo'linadi.

Pavlavofittsalar – Pavlovophyceae sinfi

Sinf *Pavlova* (rus balerinasi Anna Pavlova nomiga bag'ishlangan) turkumi bilan nomlangan.

Sinfga mansub suvo'tlar quyidagi umumiy tavsifga ega.

1. Deyarli istisnosiz tarzda monad tuzilishli, subapikal yeki lateral joylashgan.

2. Gaptонemasi yorig'lilik mikroskopi orqali ham arang ko'rindi.

3. Uzun xivchini ko'pincha nafis tuklar bilan qoplangan.

4. Ko'zcha ayrim turlaridagina xloroplastda yoki uni tashqarisida bo'ladi.

5. Hujayrasi organik tangachalar bilan qoplanmagan, mabodo bo'lsa primnoziofitlardagina farqlanadi.

6. Mitoz yopik.

7. Dengizlar, sho'rtob suvlarning, chuchuk suv havzalarning planktonida uchraydi.

Mazkur sinf bitta Pavlovales tartibi, to'rtta turkumdan iborat.

Pavlova turkumi bir hujayrali, xivchinli, kalta gaptонemali, tegishli sharoitda palmelloid holatga o'ta oladigan, harakatlanaetgan davrida shaklini o'zgartira oladigan suvo'tlarni birlashtiradi. Hujayrasidagi xloroplast limon - sariq tusda. Kupchiligi sho'rtob suvli sharoitlarda tarqalgan, chuchuk ko'llarda uchraydiganlari ham bor.

Primneziofitsalar – Prymnesiophysales sinfi

Sinfga mansub suvo'tlar quyidagi tavsifga ega.

1. Hujayralari apikal xivchinli.
2. Gaptonemasining uzunligi turlicha, bo'lmasligi ham mumkin.
3. Organik tangachalari murakkab shaklda.
4. Hujayrasida odatda ikkita xloroplast mavjud.
5. Ko'zcha yo'q.
6. Mitoz ochik.
7. Rivojlanishida gaploid va diploid davr murakkab tarzda o'tadi.
8. Dengizlar, sho'rtob suvlar va chuchuk suv havzalarining planktonida uchraydi.



Primneziofitlar sinfiga mansub suvo'tlar

Chrysochromulina turkumi *Prymnesiales* tarkibiga mansub bo'lib ameboid boskichni hosil qiladigan asosan dengizlarda tarqalgan turlardan iborat. Hujayrasidagi xivchinlari bir xil uzunlikda, gaptonemasi uzun, hujayrasida 2- 4 ta tillarang – sarik tusli xloroplast mavjud. Ko'pchiligi miksotrof oziqlanadi. Hujayrasini yuzasida turlicha ko'rinishdagi organik tuzilishli tangachalar bo'lishi mumkin. Ikkiga bo'linish bilan ko'payadi.

Prymnesium turkumi bir hujayrali ikki xivchinli, organik tangachalar bilan qoplangan, katta gaptonemali. Sho'rlanganligi turlicha bo'lgan suv havzalarda tarqalgan.

Pleurochrysis turkumi *Coccolithophorales* tartibiga mansub bo'lib 5- 10



Pleurochrysis

~~mkm~~ uzunliklardagi xivchinga ega, gaptonemasi kalta. Hujay
rauning yuzasida organik tangachalari bor.

Sitoplazmasida ikkita jigarang tusli har biri pirenoidli
~~xromotosori~~ bor.

STRAMINOPIL – STRAMINOPILA OLAMI

Straminopillar nomi grek: stramen-somon, ichi bo'sh nay, *Pilatuk* so'zlaridan tashkil topgan.

Straminopillar – xilma-xil guruh hisoblansada, filogenetika jihatidan yagonaligi tufayli aloxida olam sifatida karaladi. Strominopillar Letpe etal, (1994) fikricha "xivchinlarida uch mastigonemagi va mitoxondiriylaridagi kristlari naysimon tuzilishli protistlar bo'lib ular shunday organizmlardan kelib kelib chikkan". Bulardan tashqari subapikal yoki yonbosh geteromorf xivchinlari bor. Hujayrasining devorisellyulozali (bazan kremniy ham bo'ladi), g'amlanadigan maxsuloti – v- 1-3 glyukan. Fotosintezlovchilarida xloroplastli genom xalqa shaklida, xlorofill S bor. Xlorofill a, xlorofil v yo'q, karotinoidlar bor. Xloroplastlardagi lamallalar uch tilokoidli.

Fotosintezlovchi straminopillar oxrofita bo'limiga mansub (S. Noek van der et al. 1995). Oxrofitlar guruhiga xozirgi kunda Solidophyceae, Shrysophyceae, Shrysomerophyceae, Dictyochophyceae (silikoflagellatlar), yeustigmatophyceae, Phaeothamniophyceae, Fucophyceae (*phaeophyceae*), Pedinellophyceae, pelagophyceae, *phaeothamniophyceae*, *pinguiophyceae*, Raphidophyceae, *schizocladophyceae*, *synurophyceae*, *tribophyceae* (*xanthophyceae*) mansub. Bu guruhga oomitsetlar va gifoxitridiomitsetlar ham kiritilgan. Bulardan tashqari ilgari zamburug'larga kiritilgan labirintulidlar va geterotrof tillarang suvo'tlardan bukozoetsidlar ham mansub. Mazkur olam doirasida avto – va geterotroflarning kaysi biri birlamchi ekanligini mloekulyar – biologik uslublar ko'rsatgan. Strominopillar getetrof guruh sifatida yuzaga kelgan. Molekulyar filogenetika metodi primnezofitlarni strominopillarga yaqinligini isbotlaydi.

OOMIKOTA – OOMYCOTA BO'LIMI.

Oomikota bo'limiga mansub organizmlar kuyidagi umumiy tavsiflardan ega.

1. Ko‘pchilik vakillarining vegetativ tanasi yaxshi rivojlangan aloxida hujayralarga bo‘linmagan litselliyl ko‘rinishida, ayrimlaridagina-rizomitselliyl.

2. Jinsiy ko‘payishi ikkita yoki bitta (qisman) xivchinli. Tabaqalashganlarida zoosporangiy hosil bo‘lgan joyida ajralib zoosporalarga aylanmay bevosita gifaga aylanadi.

3. Jinsiy jarayon-izogamiya yoki o‘ziga xos oogam tipda o‘tadi. Anteriyya gametalar hosil bo‘lmaydi.

4. Oziqlanish-saproprof va tekinxo‘rlik bilan o‘tadi. Ayrim guruhlarining rivojlanashida kuruklik sharoitiga o‘tishga moslanishlar namoyon bo‘lgan.

Oomitsitlar-Oomycetes sinfi

Bu sinfga mansub zamburuglarda mitselliyl yaxshi rivojlangan. Mitselliyning aloxida bir qismi rivojlanaoladi. Jinsiy ko‘payishi zoosporalar yordamida amalga oshadi. Perenosporales tartibining ayrim turlarida zoosporangiy zoosporalar hosil kilmay bevosita gifaga aylanadi, ya’ni konidiya vazifasini ham bajaradi.

Jinsiy jarayon-o‘ziga xos oogamiya tarzda anteridiy gametalar hosil qilmay ro‘y beradi. Saprofitlar va kuruklik sharoitdagilari tekinxo‘rlar hisoblanadi.

Saprolegniyalar-Saprolegnales tartibi


Vegetativ tanasi yaxshi rivojlangan u tarmoklangan yo‘g‘on gifulardan va ancha ingichka substratga birikadigan joyidan boshlanadigan rizoidlardan iborat (tuzilishiga ko‘ra xitridiotitsetlardan Monoblerharidiales tartibining vakillariga o‘xshaydi). Gifaning po‘stidasellyuloza bor. Gifaning uchida zoosporangiy, oogoniylar va anteridiylar hosil bo‘ladi. Chiriyotgan oziq substratdagi zoosporalar rivojlanib mitselliyliga, 3-4 kundan keyin ko‘zga yaqqol ko‘rinadigan po‘panakga aylanadi. Noqulay sharoitda gifa gemmalar – bir xil shaklida bo‘lmagan tig‘iz po‘stli xlamidosporalarni hosil qiladi. Ular vegetativ ko‘payishi, turni saqlab kolishda xizmat qiladi.

Sharsimon ko‘rinishli ooganiyada birnechta tuxum hujayra bo‘ladi. Anteridiy ingichkasilndrsimon hujayralar ko‘rinishiga ega.

Saprolegniyalardagi jinsiy jarayon peronosporalar tartibining vakillarida ro‘y beradiganga o‘xshash, farqi jinssiz sporalarni hosil qilishadi.

Saprolegniyalar asosan suv muxiti saprotraflari, ayrimlari balik baqalar, umurtqasiz xayvonlarning tuxumlari, voyaga yetganlarining tunasida tekinxo'r holda rivojlanadi. Ko'pchilik turlari chuchuk suv havzalarida bizning sharoitimidza ham tarqalgan.

Saprolegnia turkumining turlari bizda ham keng tarqalgan. Suvli idish ustiga tuxum oksilini ipga osiltirib ko'yilsa birnecha kundan keyin u po'panak bilan koplanadi. Bu saprolegniya turkumining biror turi. Bu turkumming turlarida diplenetizm va dimorfizm xodisasi namoyon bo'ladi. Bir muncha uzun zoosparangiyda ikki xivchinli zoosparalar suvda suzganidan to'xtab xivchinini tashlab qalin kobik bilan o'ralgansistaga aylanadi. undan ikki xivchinli buyraksimonzoosparalar chiqadi. Ular ancha muddat suvda suzib yurganidan keyin supstratda unib gif aqolsiz qiladi.



Saprolegniya zamburug'ini hasharot murdasida rivojlanishi va urug'lanish.

Saprolegniyani rivojlanishdagi diplenetizm bu zoosparanisistaga aylanishi va yana harakatlanadiganni hosil qilishi. Dimorfizm bu xivchinlar joylanishini o'zgartirolishi. Bu tuxumning ayrim turlarida dilanetizm xodisasi birnecha marta (poliplanetzim) takrorlanadi; xivchinlarining joylanishi bir marta o'zgaradi holos. Zoosporalardan bo'shagan zoosporagiyda yangi zoosporangiy hosil bo'ladi. Bu holat odatda birnecha marta takrorlanadi.

Jinsiy jarayonda odatda sharsimon, to'siq bilan mitselliyydan ajralgan oogoniy hosil bo'ladi. Ayrim turlarida ooganiyda birnecha, boshqalarida bitta tuxum hujayra bo'ladi.

Saprolegniyalarning ko'pchiligi saprotoflar bo'lishiga qaramay ayrim tekinxo'rлari suvi kislorod bilan yaxshi taminlanmaydigana akvariumdagi baliklar, ularning tuxumlarini xalok bo'lishiga sabab bo'ladi.

OXROFITA – OCHROPHYTA BO'LIMI

Bo'lism *Ochromonas* turkumi (grek. ochro- nimsarik, monos-shaxs) bilan nomlanadi. Oxrofit suvo'tlar quyidagi tavsifga ega:

1. O'ziga xos sifanokladial va sartsinoid tuzilishdan tashqari barcha tip tuzilgan tallomlarni o'z ichiga oladi.

2. Xivchinlarini uzunligi o'zaro teng emas. Uzuni ikki qator mastigonema bilan qoplangan. Ikkinchisini bazal qismi shishmali, fotosintezda ishtirok etadi.

3. Xloroplastlarining po'sti 4 membranali: 2 tasi xloroplastning xususiy membranasi, 2 ta xloroplast endoplazmatik to'rini.

4. Periplast bo'shlikda anastomoz kanallardan iborat to'r mavjud.

5. Lamellalari uch tilakoidli.

6. Turli sinflarda xlorofill A₁, S₁, S₂, S₃ turlicha nisbat va hollarda. Assosiy karotinoidli pigmentfukoksantin.

7. Ko'pchilik vakillarida xloroplastdagi DNK hammasi xalqa simon nukleoid xolida.

8. Pirenoid bo'lishi bo'lmasligi mumkin.

9. G'amlanadigan asosiy maxsulot-xrizolaminarin xloroplastdan tashqarida vakuolada vasisoplazmada to'planadi.

10. Ko'zcha xloroplastda joylashadi.

11. Mitoxondriy naysimon kristli.

12. Mitoz ochik, yopik, yarimyopik ro'y beradi.

13. Ko'payishi vegetativ, jinssiz, jinsiy.

14. Rivojlanishi jinssiz ko'payish ro'y bermasdan; gaplobiont zigota reduktsiyali; diplobiont gameta reduktsiyali; gaplodiplo rivojlanishida izo-yoki geteromorf almashinuvni spora reduktsiyasi bilan amalga oshadi.

Oxrofitlar orasida bir hujayrali, koloniya hosil qilgan va ko'p hujayrali turlicha tabaqlashganlari bor. Masalan, diatomlar fakat bir hujayrali va koloniya hosil qilgan kokkoid tuzilishli bo'lgani holda, rafidofitsa va bolidofitsalar faqat bir hujayrali monandlar, fukofitsalar (qo'ngir) fakat ko'p hujayrali turli yo'g'onlikdagi ip psevoparenxima, parenxima turlicha tabaqlashgan tuzulishli.

Oxrofitlarning hujayralarini qoplami ham rangbarang tuzilishli. Bolidofitsa va rafidofitsalarga mansub turlarning hammasida po'st-qoplam yo'q. Po'stqoplami vakillar tillarang, diktioxofitsalar, pedineogofitsalar, pelagofitsalar, pingvofitsalar, tribofitsalar orasida ham bor.

Oxrofitlarning harakatlanadigan hujayralarida ikkita (uzun va kulta), morfologiyasidan farqlanadigan xivchini bor. Hujayra bo'linganida uzun yangi xivchin hosil bo'lib, avvalgi uzun endi kulta bo'lib qoladi. Xloroplastlari geterotrof qizil suvo'tlarning ikkilamchi simbiozidan kelib chiqqan. Barcha oxrofitlarda xloroplastni to'rt membranaligi shuni ko'rsatadi: qizil suvo'tdan olingan xloroplastni xususiy membranasi, ikkitasi xloroplastdagi endoplazmatik to'rniki. Xloroplastlarning yana bir doimiy belgisi tilakoidli lamellalar. Yadroring tashqi menbranasi xloroplast, endoplazmatik to'rnинг davomi bo'lib hisoblanadi, evstigmato-fitsalar, rafidofitsalar, diktioxofitsalar, bir qator sinuralar diatom-larda unday emas. Ikkita membrana doirasida periplast bo'shlikda periplast to'r bo'lib uning vazifasi, periplast bo'shlikdan xloroplastga oqsil tashisa kerak deb hisoblanadi.

Oxrofitlarning xloroplastlarini tuzilishi va pigmentlar (L. Guillou et. al. 1999; R. A. Andersen, 2004, to'ldirilgan va o'zgartirishlari bilan.)

Sinflar	Geniforini tipi	Xlorofil	Fukoksantin	Fukoksantin hosila	Diatoksin	Vialo-ksantin	Getero-ksantin	Voshe-Riaksantin
Bacillariophyceae	Xalqa	a ₁ s _{1,3}	+	+	-	-	-	-
Bolidophyceae	Xalqa	a ₁ s _{1,3}	+	+	-	-	-	-
Chrysomerophyceae	Xalqa	a ₁ s ₁₋₃	+	-	-	-	-	-
Chrysophyceae	Xalqa	a ₁ s ₁₋₃	+	+	-	-	-	-
Dictyochophyceae	Sochilga	a ₁ s ₁₋₂	+	-	-	+	-	-
Eustigmatophyceae	Sochilga	a	-	-	-	-	+	-
Fucophyceae	Xalqa	a ₁ s ₁₋₂	-	-	-	-	+	-
Pedinellophyceae	Sochilga	a ₁ s ₁₋₂	-	-	-	?	-	-
Pelogophyceae	Sochilga	a ₁ s ₁₋₃	-	-	-	-	-	-
Phacothamniophycea	Xalqa	a ₁ s ₁₋₂	-	-	-	-	-	-
Pinguiphycaceae	Sochilga	a ₁ s ₁₋₂	-	-	-	-	-	-
Raphidophyceae	Sochilga	a ₁ s ₁₋₂	-	-	-	-	-	-
Schizocladophyceae	Xalqa	a ₁ s	+	?	?	?	?	?
Synurophyceae	Sochilga	a ₁ s ₁	+	-	-	-	-	-
Tribophyceae	xalqa	a ₁ s ₁₋₂	+	-	-	+	+	+

Oxrofitlardagi xloroplastlarning yana bir xususiyati DNKning xalqa yoki uni sochilgan holdaligi. Oxrofitlarning ko'pchiligi

fototrof organizmlar bo‘lsada ularning orasida geterotroflari va miksotroflari (fagatrotf va osmotrotf) ham bor. Oxrotroflar hamma joyda uchrasada Bolidophyceae, Chrysomerophyceae, Pelago-phyceae, Pingiophyceae, Schizocladophyceae, Dictiochophyceae sinflariga mansublari fakat dengizlarda tarqalgan. Chrysophyceae, Phalothamnophyceae, Tritbophyceae chuchuk suv havzalarida, ayrim Titbophyceae va eustig Matophyctae tuproqda ham uchraydi. Yer sharining turli tuman joylarida diatom suvo‘tlar boshqalaridan keng tarqalgan.


Evtigmatofitsa - eustigmatophyceae suvo‘tlar sinfi.

Eustigmatos (grek:eng-yaxshi, to‘la, stigma-dog‘, nuqta, ko‘z) turkum bilan nomlangan. Evtigmatofitsalar sinfiga mansublar quyidagi umumiyl tavsifga ega. Bir hujayrali, bazan koloniya hosil qilgan kokkoidlari bor. Zoosporalarini bitta uzun, bitta kalta xivchini bor. Xloroplastlari uch tilakoid, lamellali, xloroplastda endoplazmatik to‘r mavjud. Xloroplastdagi DNK halqa hosil qilmaydi, bir necha nukleoidlardan iborat. Xlorofillardan faqat xlorofill a bor xolos. Asosiy korotinoid-vialoksantin, fukoksantin yo‘q. Ko‘zcha xloroplastdan tashqarida joylashgan. g‘amlangan muddasini tabiatni xozircha aniqlanmagan, birok u kraxmal emas, yod bilan bo‘yalmaydi. Moy ham g‘amlanadi. Mitoxondriy naysimon kristli. Hujayrasi po‘st bilan qoplangan, u palisaxaridli. Vegetativ hujayrada bitta yoki bir nechta yadro bor.

Ko‘payishi hujayrani ikkiga bo‘linishi, koloniyani parchalanishi bilan vegetativ, avtosporalar yoki zoosporalar yordamida jinsiz amalga oshadi. Chuchuk suvlari, tuproqda, ayrimlari dengizlarda tarqalgan. Evtigmatofitsalar sinfining vakillari 2-32 mkm atrofidagi ko‘p hollarda bir hujayrali kokkoid, ayrimlari rivojlanishida xivchinlar ham hosil qiladigan organizmlar. Bu suvo‘tlar tashqi ko‘rinishidan tribofitsalarga juda o‘xshab ketadi, shu boisdan ilgari ularga mansub deb hisoblangan. Zoosporalari ikkita uzunligi turlichra xivchinli yoki faqat bazal tanali. Xloroplastlari mavjudligi tufayli evstigmatofitsalarning hammasi obligat fototraflar. Bitta yoki undan ko‘proq sariqyashil rangdagi xloroplasti bor. Yashil xlorofill a va sariq-pushti karotinoidlarining nisbatlari ularning rangini belgilaydi.

Vialoksantin pigmenti asosiy yorug‘ to‘plovchi hisoblanadi. v-karatin, vosheriaksantin, kriptoksantin, geteroksantin, neoksantin va

Zunksantin ham bor. zoosporasida yo'q. Stigma (ko'zcha) zoosporularda hujayrani oldida parabazal shishma yaqinda joylashgan. Evstigmatofitsalar oxrafatlarning eng qadimiyy. sodda tuzilishlisi hisoblanadi.



Evstigmatofitsa sinfinining suvo'tlari.

Sinf eustigmatales tartibi 4 oila, 10 ga yaqin turkum 15 dan ko'p turlardan iborat.

Eustigmatos turkumining suvo'tlari bir hujayrali kokkoid bir xloroplastli, u tuproqlarda tarqalgan. 2- 4 avtosporalar yoki bir xivchinli zoosporalar hosil kilib ko'payadi. Bu turkumning turlari ilgari sariq-yashil suvo'tlari bo'limidan Pleurochloris turkumiga kiritilgan.

Nannochloropsis turkumining turlari dengiz va chuchuk suvlarda ham tarqalgan, tashki ko'rinishidan yashil suvo't Shlorella turkumiga o'xshaydi, pirenoidi yo'q. Hujayralari 2-4 mkm diametrli, bir xloroplastli. Avtosporalar hosil kilib ko'payadi.


Tillarang suvo'tlar sinfi - Chrysophyceae

Sinf **Chrysococeus** (grek. Chryso- tilla, coceus- dona) turkumi bilan nomlangan. Tillarang suvo'tlari quyidagi umumiy tavsifga ega.

1. Tallomi turlicha tipda (ameboid, monad, palmeloid, kokkoid, psevdoparenximatoz) tabaqalashgan yoki koloniya hosil qilgan.
2. Plastidlari, xivchinlari oxrofitlarni umumiy tavsifga ega.
3. Xlorofil A, S₁ va S₂ mavjud, fukoksantin, violaksantin mavjud.
4. Stigma xloroplastda joylashgan.
5. G'amylanadigan maxsuloti xrizolaminarin va lipidlar plastiddan tashqarida joylashadi.
6. Mitochondriylari ko'p hollarda plazmolemma bilan qoplangan. Ayrimlarida hujayrasini ustida organik va anorganik tartibli tangachalari bor.
7. Mitoz ochiq.
8. Rivojlanishi zigota reduktsiyasi ro'y beradigan gaplobiontli ro'y beradi.
9. ko'payishi asosan vegetativ va jinssiz, jinsiy jarayon ayrimlaridagina kuzatilgan.
10. Rivojlanishi zigota reduktsiyasi ro'y beradigan gaplobiontli ro'y beradi.
11. Oziqlanishi avtotrof, miksotrof va geterotrof.
12. Asosan chuchuk suvlarda tarqalgan.

Tillarang suvo'tlarning hujayralari faqat plazmolemma bilan qoplangan. Ko'pchilik turlarida hujayra uychada joylashadi yoki plazmolemma organik va anorganik tartibli tangachalar bilan qoplangan. Uycha bokalsimon, shar, tuxum,silindr ko'rinishlarida bo'ladi. Hujayra uychaning ichki asosiga kalta band bilan birikadi. Birikmaydiganlari ham bor. Uycha xitin,sellyuza va boshqa organik birikmalardan tashkil topadi.

Harakatlanadigan tillarang suvo'tlarda bitta uzun oldinga, ikkinchisi kalta orqaga yo'nalgan xivchini bor. Ayrim turlarida ikkinchi xivchin yo'q, bazal tana bor xolos. Tillarang suvo'tlarida sistematikasida tartiblarga ajratishda xivchin apparatning tuzilishiga katta ahamiyat beriladi.



Xloroplastlari bu suvo'tlarda sarg'ish jigarrang, tillarang, sargishyashil ranglarda. Xloroplastni shakli yassi disk, yassiyaproq, yulduz va shu kabi ko'rinishlarda. Ular to'rt qavat membrana bilan o'ralgan. Pirenoidlari bor. *Spumella*, *Anthophysa* kabi turkumlarida leykoplastlar borligi, xloroplastlarini yo'qligi tufayli ular rangsiz. Ko'zcha xloroplastlarini yo'qligi tufayli ular rangsiz.

Ko'zcha xloroplastda kalta xivchinning parabazal shishmasi yaqinida joylashgan. Tillarang suvo'tlar asosan miksotraflar, plastiidlari bo'lsa ham erigan organik moddalarni, oziq zarrachalarini shimadi. Chuchuk suvda tarqalgan turkumlarining hujayralarida uning oldingi qismida bitta yoki


birnechta kiskaruvchi vakuolalar bor. bitta katta mitoxondriy hujayraning oldingi tomonida yadroning ro'parasida joylashgan. Yadroda mitoz ochiq orto mitoz holda, kamdan-kam yarim yopiq mitoz holida ro'y beradi. sitokinez bo'linish arikchasini hosil kilib amalga oshadi.

Vegetativ ko'payishi hujayrani teng ikkiga bo'linishi, koloniyanı bo'laklarga ajralib ketishi tufayli sodir bo'ladi. Jinssiz ko'payish zoosporalar, qisman aplanasporalar hosil kilib amalga oshadi.

Jinsiy ko'payish ikkita hujayraning protoplastlarini o'zaro quyilib **xologamiya** jarayoni natijasida zigota hosil qilish bilan amalga oshadi.

Tillarang suvo'tlar odatda planktonda uchraydi, bentosda tarqalgalari ham bor. Ularning ko'pchiligi biroz nordon, temir tuzlariga boy biroz iliq suvlarda asosan erta baxorda, kech kuzda va qishda ko'p uchraydi. Bu davrda ko'plab ko'payib zooplankton uchun oziq bo'lib xizmat qiladi.

Tillarang suvo'tlar evolyutsiyada sariq yashil va diatom suvo'tlar bilan boglanadi. Tillarang suvo'tlarning sistematikasi P.Bourrelly (1981), R.A.Anderson (1999) o'zgartirishlari bilan G.A.Belyakova va boshqalar «Vodorosli i gribi» 2 tom, Moskva "Akademiya" nashriyotida keltirilganlar asosida bayon qilamiz.



Tillarang suvo'tlarning ayrim turkumlari


Oxromonadalar-Ochromonadales tartibi

Bu tartibga hujayrasi po'stsiz, mikroskopda qaraganda bittasi uzun, ikkinchisi kalta xivchinli formalar mansub.

Ochromonas turkumi bir hujayrali tillarang tusli ikkita geteromorf xivchinlarni birlashtiradi. Hujayra plazmalemma bilan o'ralgan xolos. Oldingi qismida kiskaruvchi vakuola va ko'zcha, orqasida xrizolaminariyali, vakuola ko'rindi. Ko'payishi vegetativ

teng ikkiga bo'linishi bilan amalga oshadi. Chuchuk suv havzalarida tarqalgan.

Dinabryon turkumi bir hujayrali va koloniya hosil qiladi, birikkan va birikmagan holda bo'ladi. Hujayrasisellyuzali mikrofibrillardan iborat piyolasimon uychada joylashadi. Uchaning tarkibidasellyuzadan tashqari ancha miqdorda aminokislotalar ham bor. Bo'linish natijasida hosil bo'lgan yangi hujayra uychadan chikib uning chetiga o'tiradi va o'ziga uycha quradi. Hujayrasida bitta yoki ikkita xloroplast ko'zcha, ikkita qisqaruvchi vakuolasi bor. Ko'payishi vegetativ va jinsiy tarzda o'tadi. Chuchuk suvlarda tarqalgan.



Xromulinalar-Chromulinales tartibi

Bu tartibga tallomi monad, palmelloid va ameboid tipda tuzilgan organizmlar mansub. Monadlari bir xivchinli. Chrysamoeba turkumiga chuchuk suvlarda ameboid tuzilishli suvo'tlar mansub. Chromulina turkumi tillaranglar orasida 120ga yaqin turlarni jamlagan. Ular bir hujayrali harakatlanadigan organizmlar. Hujayralari po'stsiz, bitta yoki ikkita tillarang plastidli. Chuchuk suvlari va dengizlarda tarqalgan.

Gidriruslar-Hydrurellales tartibi

Bu tartibga palmelloid (*Hydrurus*), psevdoparenimatoz (*Phaedermatium*) tuzilishli organizmlar mansub. Zoosporalari tetraidlar shaklida. Fotoretseptor yo'q. Mitoz yarimi yopiq ro'y beradi.

Hydrurus turkumiga mos vakillar palmeloid tuzulishli suvo'tlar orasida eng tabaqalashgan. Uning tallomi ham eng katta (uzunligi 30 smgacha boradi). Kolloniyasida uning o'rtasi va tarmoqlanganlari farqlanadi. Shilimshiq ichidagi hujayralarda bittadan piyolasimon xromatofor, bir nechta kiskaruvchi vaksolalar bor. Koloniyanı chekkasida hujayralar tigiz, ichkarida siyrak joylashgan. Tallomni o'sishi apikal hujayralarning bo'linishi hisobiga amalga oshadi. Jinssiz ko'payishda zooosporalarni hosil

qiladi. *Hydrurus* sovuq tez oqadigan ayniqsa tog' jilg'alarida toshlarga boshqa narsalarga birikkan holda uchraydi.

Sinurafitsalar-Synurophyceae sinfi

Sinf *Synura* (grek. Sun-birga, bilan, ura-dum) turkumi bilan nomlanadi. Sinfga mansub organizmlar quyidagi umumiy tavsifga ega.

1. Bir hujayrali va koloniya hosil qilgan monad tuzilishli. Hujayralari bir yoki ikki xivchinli, oldinga yo'nalgan.

2. Plastidlari oxrofitlarga xos, xloroplastdagi DNK halqa hosil qilmaydi.

3. Xlorofill va S₁, fukoksantin va vialoksantin mavjud.

4. Ko'zcha yo'q.

5. g'amlanadigan oziq xrizolaminarin xloroplastdan tashqarida.

6. Mitoxondriy nayli kristli.

7. Hujayra kremniyli tangachalardan iborat sovut bilan qoplangan.

8. Ko'payishi asosan vegetativ, jinsiy ko'payish ham tavsiflangan.

9. Rivojlanishi zigota reduktsiyali gaplabiont o'tadi, chuchuk suvlarda tarqalgan.

Sinurafitsalarda hujayrasining oldida yorug'lik mikroskopida ko'rindagan ikkita xivchin mavjud. Xivchinlardan bittasi yoki har ikkalasi mayda organik tangachalar bilan qoplangan.

Hujayrasida 1-2 ta xloroplastlar mavjud. Barcha oxrofitlardagi kabi xloroplastlar 4 qavat membrana bilan o'ralgan, lamellalari uch tilakoidli. Pirenoid bor. Mitoxondriy yadro atrofida joylashgan. Golji apparatida bitta diktiosoma bor xolos. Hujayrasining oldida yadro, unda to'rtta yadrocha mavjud. sitokinez bo'linish ariqchasi orqali o'tadi.

Bir hujayrali tuzilgan sinurafitsalarda ko'payish hujayrani o'rtasida teng ikkiga bo'linish bilan, koloniya hosil qilganlarida uni bo'laklarga bo'linishi bilan amalga oshadi. Jinsiy jarayon-izogamiya tarzida o'tadi.

Sinurafitsalar, tillarang suvo'tlarkabi endogensistalar hosil qiladi. Hujayralarini usti kremniyli birnecha tangachalar bilan qoplangan, ular organik modda bilan qorishib suvo'tni hosil qilgan. Diatomlardan farqlanib hujayralar bo'lini oladi.


Sinurafitsalar chuchuk suvlar fototroflari hisoblanadi. Biroz nordon yoki mo'tadil suvlarda ularning turlari soni ko'p bo'ladi.

Sinurafitsalarni R.A.Anderson (1987) ikkala xivchinni oldinga yo'nalgaligi, ko'zcha xlorofil S2 yo'qligi, xloroplastdagi DNK xalqasimon emasligi, fototrof vakillari uchramasligi, hujayrasini usti sovut bilan qoplanganligi va boshqa belgilariga ko'ra tillarang suvo'tlardan sinf sifatida ajratgan.

Molekulyar biologik tadqiqotlar sinurafitsalarni monofilitik guruh ekanligini tasdiqlaydi. Bu suvo'tlar tillarang hamda diatomlarga yaqin turadi. Sinurafitsalar sinfining barcha vakillari bitta *Synurales* tartibiga jamlanib 6 turkumdan iborat.

Sunura turkumining vakillari koloniya hosil qiladi. Sferik shaklidagi koloniya hujayralarining orqa qismi birikishi bilan yuzaga keladi. Hujayrasining oldida uzunligi turlicha ikkita xivchini bor. Hujayrasida ikkita xloroplasti bor, usti tangachalar bilan qoplangan. Ko'payishi vegetativ amalga oshadi.

Mallomonas turkumiga mansublar bir hujayrali, xivchinlari anik bo'linib turadi. Hujayra tangachalar bilan qoplangan. Hujayrasida bitta xloroplast bor. Oxrofitlar bo'limiga mansub *Pelagophyceae*, *Pedinellophyceae*, *Dictyochophyceae*, *Bolydophyceae* siniflarining taksonlari asosan dengizlarda tarqalganligi tufayli ularni tavsiflanmadi.



Sinura

Diatomlar sinfi – Diatomophyceae

Sinf *Diatoma* (grek *di*-ikki, *tome*- kesilgan, kesma) turkumi bilan nomlanadi. Diatomlar sinfiga mansub suvo'tlar kuyidagi tavsifga ega.

1. Bir hujayrali yoki koloniya hosil qilgan. Xivchinli hujayralar spermatazoidlardan iborat xolos. Xivchini bitta. Plastidlar oxrofitlarga xos xususiyatlari.

2. Pigmentlari- xlorofill S (S_1, S_2, S_3) b-karotin fukoksantin neofukoksantin, dinoksantin, diatoksantin, g'amlangan moddalari xirizolaminarin moy, valyutin.

3. Hujayrasi katta epiteka, kichik gipotekadan iboratsovut bilan qoplangan. Mitaxondriy naysimon kristall. Mitoz ochiqsentrolasiz.

4. Ko'payishi vegetativ va jinsiy (izogomiya). Rivojlanishi gameta reduksiyali diplobiont. Zigota o'sadigan auksosiora hosil qiladi.



5. Dengizlarda, chuchuk, sho'rtob havzalar va tuproqlarda tarqalgan.

Diatom suvo'tlarini hujayra qoplami shaffof sovutdan iborat. Sovutning tarkibida kreminiy birikmalaridan tashqari organik birikmalarining aralashmalari va ayrim metallar (temir, magniy) bo'ladi. Sovut ichi va ustidan pektin moddalardan iborat yupqa organik qavat bilan qoplangan. Sovut ikkita bo'lak-yarimtasiyuqorigi, katta epiteka va pastki kichik gipotekadan iborat. Epiteka gipotekani qopqoqday qoplab turadi. Epitekan o'ziyuqorgi palla-epivä va va uni gardishi epitsingulyumdan iborat. Gipoteka ham palla-lipovalva va gardish gipotsingulyumdan tashkil topadi. Ikkita gardish o'zaro yondashib, bir-biriga kirishib belbog'simon ko'rinishni hosil qiladi.

Diatom suvo'tlarining epi-gipovalva tomonidan pallasini epiteka va gipotekani o'zaro kirishgan tomonini **belbog'**, **yon tomonidan ko'rinishi** deyiladi. Pallaning ikkita asosiy tipi mavjud: aktinomorf, uni markazidan uchta va undan ko'p chiziq o'tkazilganda simmetrali bo'laklarga bo'linadi. Bunday palla diatomlarningsentriklar sinfiga mansublarda bor. Zigmorf pallani o'rtasidan ikkitadan o'rta chiziq o'tkazilganda simmetryalarga bo'linmaydi. Bunday palla diatomlarning pennatlar sinfiga mansublarda bor. Zigmorf pallalilarda o'zoro o'xshash ikki uchi bor. Ularni **izopol** palla deyiladi. Pallaning ikki uchi bir xil bo'lmasa geteropol deyiladi. Gomphonema turkumi shunday tuzulishli. Pallaning oxiri yumoloqlashgan, nayzasimon, ilmoq kabi ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin.

Diatomlarning pallasida protoplastini atrof muxit bilan aloqasini ta'minlaydigan ko'plab tirqishlar bor. Tirqishlarsiz palla bo'lmaydi. Tirqishlar pallaning 10-75% yuzasini egallaydi. Pallani yuzasida protoplastni tashki atrof muxit bilan aloqasini taminlashda ishtirok etadigan o'simtalar mavjud. Ular hujayradan polisaxaridli

moddalarni ajratishda xizmat qiladi. Sovutning mustaxkamligini pallani tashqi, ichki tomonidan qovurg‘alar taminlaydi.




Diatom suvo‘tlar hujayralarida palaning ikki uchini ko‘rinishlari.

Diatomlarning ko‘pchiligida pallani ustida koloniya hosil qilishida yordam beradigan turlicha shakllardagi o‘simgalar mavjud. Pennat diatomlarda chok bor. Yoriqsimon chok pallada bir muddat yoriq chiziqdan iborat. Chok pallani har ikkala tomonda yoki bir tomonida bo‘ladi xolos. Chok hujayrani o‘rtasidagi qalinlashgan joy-tugun bilan tutashadi. Chok pallani ikki uchiga borib tugaydi. Diatomlardagi chok hujayra protoplastini tashki muxit bilan aloqasini taminlaydi va uni harakatida ishtirok etadi. Sovutning ultra tuzilishi diatomlarning sistematikasida ishtirok etadisentrik diatomlar pallasidagi tirqishlardan ajraladigon shilliq tufayli sepin sirpanadi. Choki bo‘lgan diatomlar faol sirpanadi. Diatomlarning xloroplastlari turlicha shakillarda ular hujayra devorining yaqinida joylashadi.

Sentrik diatomlarda xloroplastlar mayda, ancha ko‘p pennatlarda yirikroq. Ko‘pincha lappaksimon tuzilishli xloroplastlar oxrofitlarga xos tuzilishli pirenoidlari bir nechta bo‘lishi mumkin. Xloroplastlarning rangi qo‘ng‘ir, sarg‘ish yoki tillarang ko‘rinishli. Diatomlarning ko‘pchiligidagi xlorofil S: S1 va S2 bor. Mitochondriya diatomlarda shar, oval tayoqcha, ip kabi ko‘rinishlarda bo‘ladi. Golji apparati yadroni yaqinida joylashadi. Yadro bir müncha katta 1-8 yadrochali ular mitoz vaqtida yo‘qoladi. sentriola yo‘q. Mitoz diatomlarda ochiq.

Diatomlarda hujayrani bo‘linishi bo‘linish egati ariqchasini hosil bo‘lishi bilan boshlanadi. sitokinez yangi hujayralarda yadro membranalarni yuzaga kelishi bilan tugaydi. Ko‘p hujayrali diatomlar bo‘lmaydi. Ayrim diatomlar turlicha ko‘rinishdagi ip shaklidagi koloniyalarni hosil qiladi, bog‘amlar plazmadesmalar yo‘q. Bo‘lingandan keyin yon hujayralar bo‘linganidan sovutning yarmini oladi, yetishmaganini hosil qiladi.

Diatomlarning ko‘payishi vegetativ va jinsiy usulda amalgalashadi. Vegetativ ko‘payishda yosh hujayra bo‘linganidan sovutning yarmini oladi. Gipoteka uni qoplaydigan gipotekani hosil qilgani tufayli hujayrani o‘lchami kichiklashib boradi. Bunday holat bir necha yo‘llar bilan to‘xtatiladi. Eng kichik hujayra endi bo‘linmaydi. Ikkinchidan ayrim diatomlarda sovutni belbog‘i elastik boshqa omillar ham bor.




Pennat diatomlardagi mitoz bo‘linish. (C.Hoek van den et al., 1995)

1-profazadan oldingi interfaza, 2-profaza, 3-metafaza, 4-anafaza.

Jinsiy jarayonsentrik diatomlarda oogam tipda o'tadi. Ularning spermatazoidlarda xivchin bitta bo'ladi. Rhabdodema turkumida xivchin yo'q. Spermatazoidlar hosil bo'lishidan oldin yadro meyoz bo'linadi, keyin bir qator mitozlar natijasida hujayrada 4 tadan 128 gacha spermatozoidlar hosil bo'ladi. Tuxum hujayra – bitta-ikkita, oogoniy ichida urug'lanadi, urug'langandan keyin diploid zigota yuzaga kelib undan o'sadigan auksospora hosil bo'ladi.

Pennat diatomlarining ko'philigidagi jinsiy jarayon izogam tipda o'tadi, biroq gametalari xivchinsiz. Bunday jinsiy jarayon yashil suvo'tlardagi konyugatsiyaga o'xshab ketadi.



Pennat diatomlarda izogam tipdagagi jinsiy jarayon.

Ulardan diatomlarda jinsiy jarayon oldidan meyoz ro'y berishi natijasida gaploid gametalar yuzaga kelishi bilan farqlanadi. Hujayrada bitta yoki ikkita gameta hosil bo'ladi. Bitta gameta ikkichisiga so'rilib ketadi. Surilayotgani erkak ikkinchisini urg'ochi

sifatida qaraladi. Shunga ko'ra diatomlardagi jinsiy jarayonni fiziologiyasiga ko'ra **anizogam** desak bo'ladi. Zigota po'st bilan o'raladi va auksosporaga aylanadi, undan vegetativ hujayra yuzaga keladi. Diatomlar diploid organizmlar bo'lganligi uchun ularning rivojlanishida diplobiont gameta reduktsiyasi ro'y beradi. Diatomlar tarqalgan joylarda ularning rivojlanishi uchun noqulay sharoitlar paydo bo'lganida spora va tinim hujayralarni hosil qiladi. Bunday tuzilmalar g'amlangan moddalarga boy bo'ladi.

Tinem hujayralar vegetativlarga o'xshaydi, sporalarining sovuti qalinlashadi, yumaloqlanada naqshlarida o'zgarishlar ro'y beradi. Tuxum hujayralar ko'pincha chuchuk suvlardagi diatomlarda sporalar, dengizlarda tarqalganda hosil bo'ladi. Tinim hujayralar va sporalar o'nlab yillar davomida hayotini saqlaydi.

Diatomlar barcha biotoplarda keng tarqalgan. Ular okeanlar, dengizlar sho'rtob va turli chuchuk suv havzalari va tuproqlarda uchraydi. Suv ekosistemasida undagi boshqa organizmlar yil bo'yli dominant holda bo'ladi. Ular ayniqsa turli predmetlarga birkkan endobiontlari ham ko'p. Diatomlarning suv havzalardagi xilmassisligi bir qator ekologik omillari ayniqsa uning mineral tarkibi bilan bog'lik.

Diatomlar – fototrof organizmlari, ular orasida miksotroflari, saprobiotroflari rangsiz geterotroflar ham bor. Diatomlar tabiatda fitoplankton, fitobentosning asosiy massasini hosil kilib oziq zanjirida muxum ahamyatga ega. Kurrai zaminimizda hosil bo'ladigan organik moddalarning j qismi diatomlarga to'g'ri keladi. Diatomlar dunyo okeanida 3 mld tonnaga yaqin kremniy shimib uni davra bo'lib aylanishida asosiy ahamiyat kasb etadi.

Diatomlar ekologik monitoringda atrof muxitni ifloslanganlik darajasini belgilovchilar hamdir. Keyingi tadqiqotlar bir qator diatomlarni domoev kislotasi deb ataladigan toksin hosil qilishi aniqlangan. U markaziy asab tizimini tormozlanish, og'riq sezmaslik, galliyutsiyaga sabab bo'lar ekan.


Diatom suvo'tlarining filogenyasida ularni bundan 150 mln yillari ilgari bo'r davri boshlanguncha paydo bo'lgan, deb hisoblanadi. Biologiya tadqiqotlari diatomlarni monofilitik guruhligini tasdiqlaydi.

Diatomlarga 300 ga yaqin turkum, 10-12 ming turlar mansub, ayrim muallif tadqiqotchilar diatomlarning turlari 1 mlnga yetishi mumkin, deb hisoblashadi.

Diatomlarni sistematikada bo'lim deb hisoblab ikkita (*Centricophyceae* va *Pennatophyceae*) yoki uchta (*Sasinodiscaceae*, *Fragillariophycea*, *Bacillariophyceae*) sinflariga bo'lishadi. Biz Belyakova G. A. va boshqalarga asoslanib diatomlarni keng manodagi sinf hisoblab G'. Ye. Round et al. 1990 sistemasiga ko'ra bayon kilamiz.

Sentrlik diatomlarga mansub tartiblar

Diatom suvo'tlarning-sentrliklarga mansub turlari okean va dengizlarning planktonida ayniqsa keng tarqalgan shu boisdan organik modda yaratuv-chilarning asosiysini tashkil qiladi. Ular bir hujayrali koloniya hosil qiladigan sovutda chok yo'qligi tufayli faol harakatlanmaydigan, jinsiy jarayonni amalga oshiradiganlar hisoblanadi.



Sentrlik diatom suvo'tlari
amalga oshiradiganlar hisoblanadi.

Talassioziralar- Thalassiosirales tartibi

Bu tartibga pallasi doira, elips shaklidagi bir hujayrali koloniya hosil qiladigan diatomlar mansub.

Cyclatella turkumiga mansub turlar asosan bir hujayrali kamdan-kam zanjir shaklidida koloniya hosil qiladi. Hujayra pallasining o'rtasi qavariq gardish atrofi radial qovurg'ali. Xloroplastlari mayda yassi yaproq shaklidida. Suv havzalarning planktoni va bentosida uchraydi.

Kostsinodiskalar – Coscinodiscales tartibi

Kostsinodiskalarning hujayrasini pallasi asosan doira shaklidida bo'ladi. *Coscinodiscus* turkumiga mansub turlar *Cyclotella*

hujayrasiga o'xshaydi, u bilan uchraydi. Pallasida radial yoki tangentom ba'zan tartibsiz areolalar joylashadi.

Meloziralar – Melostirales tartibi

Bu tartibga koloniya hosil qiladigan bir hujayrali turlar mansub. Sovuti shar yokisilindr shaklida. Pallasi yassi yoki biroz qavariqli doira ko'rinishida. Juda ko'pchilik turlari dengizlarda tarqalgan, chuchuk suvlarda ham uchraydi.


Melosira turkumining turlari balandsilindir yoki bochka ko'rinishidagi qutiga o'xshaydi. Koloniyasi tig'iz ip ko'rinishiga ega. Pastki doira shaklida gardishi bo'ylab nafis nuqtalar shaklidagi bo'rtmalar mavjud.sitoplazmasidagi ko'plab xloroplastlari disk ko'rinishida. Melozira turkumining turlari chuchuk va sho'r suv havzalarning planktoni va bentosida uchraydi.

• Pennat diatomlarga mansub an'anaviy tartiblar

Pennatlarga bir hujayrali va koloniya hosil qiladigan to'g'ri chiziq lantset qisman eleps yoki doira ko'rinishdagi diatomlar mansub. Ularni orasida harakatlanadigan va harakatlanmaydiganlari bor. Jinsiy jarayon o'ziga xos izogam tarzda o'tadi.

Fragilariyalar- Fragilariales tartibi.

Bu tartibning vakillari bitadan yoki koloniya hosil qiladi. Hujayralari ellips va cho'zik shaklda. Choki yo'q. Chuchuk suv va dengizlarda tarqalgan. *Synedra* turkumining turlari yakka yoki koloniya hosil qilgan holda uchraydi. Ular birikib yoki birikmay, hujayralari to'g'ri chiziq shaklida, ikki uchi yumaloqlashgan. Pallasida ko'ndalang joylashgan nafis qovurg'alari bor, chok yo'q.sitoplazmasida ikkita



Pennat diatomlarga mansub
suvo'tlar

xloroplast mavjud. Chuchuk suv havzalarning litoralida turli predmetlarda, planktonda uchraydiganlari bor.

Fragilarta turkumining hujayralari uzun tasma ko‘rinishidagi koloniyalarni hosil qilmaydi. Har bir hujayrada ikkitadan yassi yaproq shaklida xloroplastlar bor. Fragilaria suv havzalarning litoralida, qisman planktonda uchraydi.

Asterionella turkumining turlari odatda koloniylar hosil qiladi. Hujayralar uchi bilan birlashib nafis yulduz hosil qiladi. Alovida hujayrasi ingichka tayoqcha shaklida uchi biroz kengaygan, chok yo‘q. Ko‘plab xloroplastlari mayda yassi yaproq shaklida. Chuchuk suv havzalari va dengizlarning planktonida keng tarqalgan.

Tabellariyalar – Tabellartales tartibi

Hujayralari tug‘ri to‘rtburchak pallasi ellipsimon ko‘rinishga ega. Chok yo‘q. Ko‘pchilik turlari chuchuk suvlarda epifitlar holida tarqalgan. *Tabellaria* turkumining turlari koloniylar hosil qiladi, hujayralari zigzag ko‘rinishda bo‘ladi. Pallasining tuzilishi to‘g‘ri chiziqli naychaga, cho‘zik elips shaklida. Xloroplastlari ko‘plab mayda donalar holida. Chuchuk suvlarning turli predmetlarda planktonda tarqalgan.

Axnantlar – Achnanthales tartibi

Bu tartibga bir hujayrali va koloniya hosil qiladigan pallasining bir tomonida chok bo‘lgan turlar mansub. *Cocconeis* turkumlarining hujayralari bittadan bo‘lib, pallasi oval shaklida, birikadigan joyiga pastki chokli tomoni bilan birikadi. Pallasining yuqorisida chok yo‘q. Egilgan yassi yaproq shaklidagi xloroplastlari yuqori tomonidan joylashadi. Suv o‘tlari va yuksak o‘simliklarda epifit holda keng tarqalgan.

Simbellalar –Symbellales tartibi

Hujayralari bittadan yoki koloniya jamlangan. Pallasi izo - yoki getepol, yarim oysimon ham bo‘ladi. Yoriqsimon chok pallaning har ikkalasida yaxshi namoyon bo‘lgan holda yoki bir tomonida arang bo‘linadigan bo‘ladi. *Cymbella* turkumida palla odatda yarim oy ko‘rinishda, qorin tomoni tekis yoki botiq, yelkasi


qavariqli. Yoriqsimon chok malum darajada qorin tomonga surilgan, xloroplasti bitta. Hujayrasi shilliq band bilan birikkan yoki birikmagan bo'ladi. Chuchuk suv havzalarda keng tarqalgan.

Gomphonema turkumida hujayraning bir tomoni boshqasiga morfologiyasiga ko'ra farqlanadi. Chok pallaning o'rtasidan o'tadi. Hujayra substratga birikkan bo'ladi. Chuchuk suv havzalarning bentosida keng tarqalgan.

Navikularlar – Naviculales tartibi

Hujayralari bittadan, pallasi izopol tuzilishi, yoriqsimon chok yaxshi rivojlangan. *Pinnularia* turkumining turlari cho'ziq elips, yonidan to'g'ri to'rtburchak shaklida ko'rindi. Palla bo'ylab o'rtasidan ingichka biroz egilgan liniya holida ariqsimon chok o'tadi. Hujayraning o'rtasi, ikki uchda terminal va markaziy tugun joylashadi. Pallani chekkasi bo'ylab chokka yetmaydigan aniq ifodalangan paralel yo'nalgan qovurg'alari bor. Hujayrasida ikkita katta yassi yaproq xloroplasti yoki bitta N-simon plastida joylashadi. Hujayraning o'rtasidagisitoplazmatik ko'prikda yadro mavjud.

Ko'prikning har ikki tomonida vakuola, moy tomchisi va valyutin donasi bor. *Navicula* turkumi diatomlar orasida turlarga boy hisoblanib, u *Rinnularia* tarqalgan joylarda uchraydi. Ko'pchilik turlari *Pinnularia* turkumining turlariga o'xshaydi.



Navikularlar taribining suvo'tlari


Gyrosigma va *Pleurosigma* turlarining ko‘rinishi o‘zaro o‘xshash u S harfi ko‘rinishida, o‘zaro palladagi chiziqlarning yo‘nalishi bilan farqlanadi.

Batsilariyalar – Bacillariales tartibi

Hujayralari bittadan, qisman koloniya hosil qiladi. Pallasi izopol, kanal chokli. *Nitzschia* turkumida hujayralari ikki uchi ingichkalashgan naycha ko‘rinishda. Pallasida paralel chiziqlar-qovurg‘alari bor. Har bir palla bo‘ylab kanalsimon chok o‘tadi. Turli suv havzalarining bentosida tarqalgan.

Surirellalar-Surirellales tartibi

Hujayralari izo-geterepol pallali. Kanal chokli *Surirella* turkumida hujayralari yon tormonidan qoziqsimon pallasidan elips, tuxum, gitara shaklida ko‘rinadi. Har bir pallada ikkitadan kanalsimon chok bo‘ladi. Bu turkumning turlari chuchuk sho‘rtop suvlar va dengizlarda bentosda tarqalgan.



Surirellalar tartibining suvo‘tlari

Tribofitsalar(sariq-yashil)- Tribophyceae sinfi

Sinf *Tribonem* (grek.tribon-tajribali, mohir, pema-ip) turkumi bilan nomlangan. Ilgari bu sinf xloroplastlarning rangiga ko'ra sariqyashil suvo'tlari deb nomlangan.

Tribifitsalar quyidagi umumiy tafsifga ega.

Tallomi monad, kokkoid, palmelloid, amyoboid, oddiy ip yo'g'on ip, psevdoparenximatoz, parenximatoz, sifon tiplardagi tuzilishli. Monadlari ikkita o'zaro teng uzunlikdagi xivchinli. Uzuni oldinga, kaltasi orqaga yo'nalgan. Xloroplastlari barcha oxrofitlarga xos tuzilishli. Pigmentlari- xlorofil A₁ S₁, S₂ karotinlardan vosherioksantin ko'p, fukoksantin yo'q. Ko'zcha xloroplastda joylashgan. G'amlangan mahsulotsitoplazmadagi lipid tomchilari holidasito-plazmadagi vakuolada xrizolaminarin bo'lishi mumkin. Mitoxondriya naysimon kristli.

Hujayra devori tarkibidasellyuloza va pektin moddalari, ayrimlarida kremniy birikmalari uchraydi. Chuchuk suvlarda va tuproqli joylarda keng tarqalgan.


Tribafitsalarning ko'pchiligi harakatlanmaydi. Hujayralari shar, ellips, tuxum, nok, urchuq, silindr, o'rrok, tetraedr kabi ko'rinishlarda. Pallasining o'lchamlari 0,5-1,5 mkm (*Chloridella* turkumida), bir necha millimetrik diametrli (*Borydtium*), bir necha o'nlab santimetrgacha (*Vancheira*) uzunlikda bo'ladi.

Monad tuzulishlilarida (zoospora va gametalarda) uzunligi va morfologiysi turlicha, ikkita xivchini bor. Hujayrasida odatda bir nechta yashil to'q sariq, yashil plastidalar mavjud. Ularning rangi pigmentlarining nisbatlariga bog'lik. Karotinoidlardan v- karotin, vosherioksantin, diadinoksantin, geteroksantin va boshqalar mavjud. Ayrim turlarida pirenoid uchraydi.

Tribofitsalarning ameboid, monad va palmelloid tuzilishli turlarida hujayrasining devori yo'q, usitoplazmatik membrana bilan qoplanganligi tufayli shaklini oson o'zgartira oladi. Bunday tuzilganlaridan ayrim turlar marganets va temir tuzli uychalarda joylashadi.

Tribonema va **Vaucherta** turkumiga mansublarida hujayra devorining tarkibini glukoza va uron kislotalaridan iborat polisaxaridlar bor. Hujayra devorida temir tuzlari to'planishi mumkin. Bularidan tashqari hujayra devoriga mustahkamlik beradigan kremniy birikmalari ham bo'ladi. Ipsimon tuzilganlarida hujay-

raning devori uzilganda N-ko'rinishdagi ikkita hujayraning po'stini bo'lagi bo'lgan ko'rinishni hosil qiladi. Harakatlanadigan turlarning hujayrasida 1-2 ta qisqaruvchi vakuolasi bor. Golji apparati o'ziga xos tuzilishli diktiosomalari mayda 3-7sisternali. Yadro bitta, ayrim turlarida ko'p. Mitoz yopiq.



Ipsimon tribofissalarda ikkita hujayra orasida ko'ndalang to'siqni hosil bo'lishi (A.A.Masyuk, 1993).

Tribofitsalarning ko'pchiligidagi vegetativ va jinsiy ko'payish ma'lum. Vegetativ ko'payish hujayrani o'rtasidan ikkiga bo'linishi, koloniyani qismlari ajralishi, ko'p hujayrali tallomni bo'laklarga bo'linish bilan ro'y beradi. Jinssiz ko'payish davrida ameoboidlar, zoosporalar, sinzoosporalar, gemizoosporalar, gemiavtosporalar, avtosporalar, hosil bo'lishi mumkin. Zoosporalar odatda po'stsiz, noksimon ko'rinishli.

Tribofitsalar uchun noqulay sharoit yuzaga kelganda endogen bir yadroli po'sti qalin, ko'pincha kremniy birikmalisistalar hosil qiladi. Tribofitsalarga mansub organizmlar barcha qitalar, mintaqalarda tarqalgan. Ular chuchuk suvlarda va tuproqlarda, oz bo'lsa ham yer yuzasida, sho'rtop suvlar va dengizlarda tarqalgan. Toza va ifloslangan suvlarda uchraydi. Tuproq yuzasida tarqalganlari uni

ko'karishiga sabab bo'ladi. Ayrimlari daraxtlarning po'stloqlari, zaxlashgan tuproqli devorlarda uchrab ularni yashil ko'rinishga olib keladi. Tibofitsalar kislorod va organik moddalarni yaratuvchilar sifatida ozuqa zanjiri tarkibiga kiradi. Ular ifloslangan suvlarni tozalashda ham ahamiyatli. Tribofittsalarni kelib chiqishida ularni hozirgi kunda oxrofitlar bo'limini bir sinfi sifatida qaraladi. Genlarining nukleotidlardagi joylanishi qatoriga ko'ra oxrofitlar orasida ko'ng'ir suvo'tlariga yaqin turadi. Tribofittsalarning sistematikasida 90 ga yaqin turkum va 600 dan ko'proq turlar 6-7 tartibga taqsimlangan.

Xloramyobalar- Chloramoebales tartibi

Tartib vakillari monad tuzilishli bo'lib, asosan sho'r va chuchuk suvlarda tarqalgan. *Heterochloris* turkumining hujayralari psevdopodiylar hosil kilib tana shaklini o'zgartira oladi. Bunday holat bu tartibning ko'pchiligiga xos. Hujayrasida bir nechta xloroplastlar, moy tomchisi va xrizominarin mavjud. Hujayraning old qismida qisqaruvchi vakuola, o'rtasida yadro joylashgan, bir-ikkiga bo'linish bilan ko'payadi.

Misxokokkilar- Mischococseales tartibi

Misxokokkalar tartibiga mansub organizmlar kokkoidlar tipi tallomga ega. *Characiopsis* turkumining turlari bir hujayrali, biror joyga birikkan yashil *Characium* suvo'tiga o'xshaydi. Pirenoid yo'q. Ko'payganda zoosporalar, aplanosporalar va qalin po'stisista hosil qiladi.

Tribonemalar – Tribonematales tartibi

Tartibning vakillari oddiy ip, turlicha yog'onlikdagi ip, soxta to'qima va to'qima tuzilishli.

Tribonema turkumining turlari oddiy ip shaklida, po'sti ko'p qavatli. Uzilgan ipini uchida po'stdan qolgan N-simon qism bor. Hujayrasida bir nechta sariq yashil tusli xloroplastlar bor, pirenoidi yo'q.

Ko'payishi vegetativ (ipni bo'laklarga bo'linishi bilan), jinssiz (aplanosporalar hosil qilib), jinsiy (izogamiya tarzida) amalga oshadi. Tinim hujayralarni ham hosil qiladi. Chuchuk suvlarda ayniqsa havo sovigan davrlarda ko'p uchraydi.

Botridiyalar – Botrydiales tartibi

Botridiyalar tartibiga tallomi sinf tipida tabaqalashgan, jinsiy jarayon ro'y bermaydigan suvo'tlar mavjud.

Botrydium turkumining turlari tuproqlar yuzasida diametri bir necha millimetrlidagi yashil pufakchalar ko'rinishida bo'ladi. Rangsiz rizoidlari bilan tuproqqa birikadi. Sifon tipidagi tallomida ko'plab yadro va plastidalar mavjud. Po'sti ko'p qavatli unda ohak to'planishi mumkin. Jinssiz ko'payish ikki xivchinli zoosporalar yordamida amalga oshib ular pufakchani ustida hosil bo'lgan tirqish orqali tashqariga chiqadi.



Botrydium. Alovida hujayrasi. O'sayotgan joydagilari.



Namlik yetishmagan vaktida *Botridium* aplonosporalar yoki qalin po'stisistalar hosil qiladi. Ko'payish sharoitidasistalar bevosita yangi tallomni yoki zoosporalarni hosil qiladi. Jinsiy jarayon izogam yoki geterogam tipida o'tadi. Jinsiy jarayonni amalga oshirishda alovida a'zolari hosil bo'lmaydi.

Vosheriyalar- Vaucheriales tartibi

Mazkur tartibning barcha turlari sifon tuzilishdagi tallomli, jinsiy jarayon oogam, sinzoosporalar hosil qiladi.

Vaucheria turkumining turlari yaxshi rangdagi tarmoqlangan ip tuzilishida. *Vaucheria* bizning sharoitimizdagi sug'orish tarmoqlarini beton yotqizilmagan joylarida yashil gilam ko'rinishni hosil qilgan. Uning tarmoqlangan tallomining uzunligi bir necha santimetrga yetadi, tarmoqlangan rizoidlari bilan yumshoq tuproqqa

mustahkam birikadi. Tarimoqlangan iplarida uni alohida hujayralarga bo'ladigan to'siklar yo'q. Sitoplazmada ko'plab yadro va plastidlar mavjud. Ko'ndalang to'siq ip uzilganda, jinsiy



ko'payish boshlanganda hosil bo'ladi.

Voshereriya iplari zooporangiy bilan va jinsiy hosilalari oogoniy va anteridiyli ipi.

Vosheriyani ilgari yashil suvo'tlar qatorida o'rganib kelingan. Pigmentlarining tarkibini o'rganish, g'amlangan moddalari, molekulyar biologiya bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari vosheriyalarni tribofitsalar bilan aloqadorligini ko'rsatadi.

Vosheriya vegetativ, jinssiz (sinzoosporalar, aplanosporalar yordamida) va jinsiy (oogam tarzda) yo'llar bilan ko'payadi. Zoosporalari ko'p yadroli, ko'p xivchanligi, ko'zcha yo'q. Zoosporalar ma'lum muddat suvda suzib yurganidan keyin cho'kadi, qalin po'st bilan o'raladi, yangi tallomni hosil qiladi.

Rafidofitsalar – Raphidophyceae sinfi

Sinfi **Raphidomonos** turkumi bilan nomlangan. Rafidofitsalar sinfi kuyidagi umumiy tavsifga ega.

Bir hujayrali darsoventral tuzilishli monad organizmlar. **Hujayrasi** ikki xivchinli uzuni oldinga kaltasi orqaga yo'nalgan. Xloroplastlari oxrofidlarga xos xususiyatlari, dengizlarda tarqalganlari pirenoidli. Pigmentlari-xlorafli A va S₁ va S₂, chuchuk suvlarda tarqalganlarida vosheriaksantin bor. Ko'zcha yo'q. Mitoxondriy naysimon kristli. G'amalanadigan moddalipidlar.

Mitoz yopik. Ko'payishi vegetativ. Hujayrada unga doimiy shakl beradigan po'st yo'q, trixotsistlari bor. Dengiz va chuchuk suvlarda tarqalgan.

Rafidofitsalar uncha katta bo'lmanan guruh bo'lib, xivchinli u yoki bu darajada metaboliyali, shakli nok, teskari nok, ellips, dukkak va shu kabi ko'rinishlarda. Hujayraning oldida kichkina o'yiq bor, undan ikkita bittasi oldinga, ikkinchisi orqaga yo'nalgan xivchin chiqadi.

Hujayrasi plazmolemma bilan qoplangan, uni ostida bir qator turlarida trixotsistlar joylashadi. Ulardan tashqari hujayradan tashqariga ajraladigan shilliq hosil qiladigan mikotsistlar ham bor. Xloroplastlari mayda, yassi, ko'p hollarda anchagina yashil, sariq-yashil va jigarrang yashil tusda.

Rafidofitsalarning dengizlarda va chuchuk suvlarda tarqalganlari pigmentlarining xillari bilan farqlanadi. Dengizlardagida fukoksantilol, chuchuk suvlardagilarda diadioksan mavjud.

Rafidofitsalar miksotraf: avtotrof yoki getrotrof oziqlanadi.

g'amalanadigan oziq modda sifatida moy tomchilarini bor. Mitoxondriylari ko'p mikdorda. Yadro birmuncha yirik, hujayra markazida joylashadi, bitta yoki bir necha yadrocha mitoz davrida yo'qaladi.

Rafidofitsalarning ko'payishi harakatdan to'xtamay bo'linish egati bo'ylab o'tadi. Rivojlanishda palmeloid holatini xosol qiladi, shilliq o'ramalisista ham uchraydi.

Rafidofitsalar chuchuk suvlarning planktomida RN biroz nordon sharoitda keng tarqalgan. Bu guruh suvo'tlarni yashil ranggi xalqum mavjudligi tufayli evglenalar orasida sind sifatida qaralgan. sitologiyasi, biokimyosi, fiziologiyasi, molekulyar biologiyasi ularni oxrofitlarga mansubligini ko'rsatdi, monofilaktik guruh ekanligi ma'lum bo'ldi.

Rafidofitsalar 10 turkum, 20 turni jamlagan Raphidomanadles tartibi bilan iborat xolos.

Heterostigma turkumining turlari dengiz flagellatlari hisoblanib hujayrasi ovval shaklida, ikki xivchinli, plastidalari sitoplazmani chekkasi bo'ylab joylashgan. Trixotsistlari yo'q. Kanada mamlakatining dengiz qirg'oqlarida yoz mavsumi davomida ko'payib 1 litr suvdagi mikdori 30 mln gacha yetadi. *Goniostomum* turkumining turlari serharakat monadlarini uzunligi 40-90 mkm keladi. Yelka tomoni qavariq, cho'ziq, qorin qismi yassilangan. Ikkita xivchin uzunligi tanasiga teng keladi. Plastidlarisitoplazmani hujayra devori yaqinida joylashgan, plazmalemmanni tagida trixotsistlari bor. Chuchuk suv havzalarida nordon ph li muhitda yaxshi o'sadi.

Fukofitsalar (Qo'ng'ir) – Fucophyceae sinfi

An'anaviy tarzda tallomini rangiga ko'ra "qo'ng'ir suvo'tlar" deb nomlangan. Sinf *Fucus* turkumining (lotin – dengiz o'ti, suvo'ti) bilan nomlanadi.

Fukofitsalar quyidagi umumiy tavsifga ega:

1. Makroskopik ko'phujayrali turlari turlicha yo'g'onlikdagi, psevdoparenximatez, parenximatoz, tuzilishligi.
2. Zoospora va gametalari 2 xivchinli, bittasi uzun, ikkinchisi kalta, ikkalasi akrosmali.
3. Xloroplastmalari barcha oxrofidlarga xos tuzilishli, pirenoidli.
4. Pigmentlari – xlorofil A, S1 va S2 karatinoidlardan fukoksantin ko'proq.
5. Xivchinli boskichida ko'zcha plastidda joylashgan.
6. G'amlangan mahsuloti-laminarin, xloroplastdan tashqarida olti atomli spirt mannit va lipidlar xolida to'planadi.
7. Mitochondriy naysimon kristli.
8. Hujayra devori kaltsiy alginatli, sellyulozali mikrofibrillardan iborat.
9. Mitoz yarim yopik, sentriolali.
10. Ko'payishi vegetativ, jinssiz, jinsiy ravishda amalga oshadi. Gametalari ko'phujayrali mahsus gametangiylarda, zoosporalari bir uyalı sporangiylarda hosil bo'ladi.
11. Rivojlanishi gameta reduktsiyali diplobiont yoki spora reduktsiyali gaplo-diplobiont.
12. Fukofitsalarning hammasi fototroflar.

13. Juda ko'philigi dengizlarda tarqalgan.

Qo'ng'ir suvo'tlarining orasida bir hujayrali va koloniya hosil, qilganchi yo'q, hammasi ko'p hujayrali. Bir yillik va ko'p yilliklari, 15-18 yilgacha faoliyatda bo'ladiganlari bor. Qo'ng'ir suvo'tlarining tallomini uzunligi bir necha o'nlab metrlarga yetadiganlari bor. Tallomining ko'rinishi suvda tik turadigan, yotgan, qirqilgan, yaxlit, yassi yaproq, qop, shoxlangan, buta shaklida bo'ladi. Tallomni o'sadigan joyda birikishi rizoidi yoki tovon qismi bilan amalga oshadi.

Tallom polimarialilar va fokuslarda ancha murakkab tuzilgan. Ularda hujayralarni maxsuslashuvi hisobiga to'qimaga tabaqalashgan. Tallomda bir necha qavatli po'stloq o'zak qismi aniq farqlanadi. O'zak moddalarni o'tkazish mustahkamlik berish vazifalarini bajaradi. Qo'ng'ir suvo'tlarini o'sishi interkalyar, apikal, qisman bazal o'sadi.

Qo'ng'ir suvo'tlarning rivojlanishida xivchinli bosqich faqat gametalar va zoosporalarda bo'ladi. Ikkita o'zaro teng bo'limgan xivchin hujayraning yonboshiga birikkan. Patsimon tuzilishli uzuni oldinga, sillig'i yoniga, orqaga yo'nalgan. Qo'ng'ir suv o'tlar hujayralarning qoplami qalin ikki yoki uch qavatli. Ichki qavat ko'pinchasellyulozali tolalarda, tashqi pektinlisi algin kislota, uni natriyli tuzi fukoidda va boshqa sulfatlari polisaxaridlardan iborat.

Selluloza qo'ng'ir suv o'tlarida quritilgan tallomning 1-10% qismini tashkil etadi. Diktiotalar tartibining ayrim turkumlarida (masalan, Dicyota) hujayrasining devorida aragonit ko'rinishida ohak to'planadi. Qo'ng'ir suvo'tlarning hujayralarida bittadan anchagacha plastidlar bo'ladi. Xloroplastlari mayda disk shaklida. Ularning shakli yulduz, tasma yoki yassi yaproq ko'rinishlarda ham bo'ladi, ularning shakli hujayraning yoshiga karab o'zgarishi ham mumkin.

Xloroplastlarning po'sti to'rtta membranadan iborat. Xloroplasmarni yaqinida yadro joylashadi. Periplast bo'shliq aniq ko'rindi. Xloroplastlarda xlorofil, A₁, S₁, S₂ bor. Fukoksantindan tashqari v-karotin, vialoksantin, anteraksantin, neoksantin, diadi-noksantin va diatoksanit mavjud. Ectocarpales tartibiga mansub turkumlarning turlarini hujayralarida bitta yoki bir nechta noksimon tuzulishli pirenoidlar bor. Qo'ng'ir suvo'tlarning ayrim turlarini rivojlanishda hosil bo'ladigan harakatli formalarida ko'zcha bor,

ular fatotaksis xususiyatlari. G‘amlangan oziq maxsuloti-xrizolaminarin, usitoplazmadagi maxsus vakuolada pirenojd yaqinida joylashgan. Hujayrada mannit va lipidlar ham moy tomchilari uchraydi.


Qo‘ng‘ir suvo‘tlarining yosh xali voyaga yetmagan hujayralarida mayda ko‘plab vakuolalar bo‘ladi. Kiskaruvchi vakuolasi yo‘k.sitoplazmada feofitsin, taninlar tutgan fizoidlar bor. Ular tallomni ximoyalab xayvonlarni yeb ketishdan saqlaydi, deb hisoblanadi. Bundan tashqari tallomni yuzasida epifit suvo‘tlar va xayvonlarni bo‘lishiga ham to‘skinlik qiladi. Hujayrasidagi filirotaninlar xavoda oksidlanib suvo‘t kuritilganda ularga xos qo‘ng‘ir tusni hosil qiladi. Hujayradagi yadroni soni odatda bitta, ayrim vakillarida hujayrani yoshi ortishi bilan yadro soni ham ko‘payadi, yadrochasi bitta. Qo‘ng‘ir suvo‘tlarining vegetativ ko‘payishi tallomni uzilib uni mustakil rivojlanishi *Sphacelaria* turkumida savatchalardagi kurtaklar yordamida *Ficus* turkumida tovon qismidagi bir guruh hujayralarini ma’lum sharoitda yangi tallom hosil qilishi bilan amalga oshadi. Jinsiy ko‘payish harakatlanmaydigan tetra va ogam tarzda o‘tadi. Gametalar ko‘puyali gametangiylarda bittadan yuzaga keladi. Jinsiy ko‘payishni amalga oshiradigan qo‘ng‘ir suvo‘tlarda 10 xilga yaqin feronlar aniklangan. Qo‘ng‘ir suvo‘tlarining jinsiy ko‘payish ro‘y beradiganlarida spora reduktsiyali gaplo-diplo biontli yoki gametomorf rivojlanish ro‘y beradi. Jinssiz ko‘payishda sporalar diploid sporofitlarda, bir uyali sporangiylarda meyoz davrida yuzaga keladi. Gaploid zoosporalar va tetrasporalar gaploid gametafitni shakllantiradi, ularni ko‘puyali gametangiylarida gametalar hosil bo‘ladi. Gametalar o‘zaro ko‘shilganidan keyin yuzaga kelgan zigota diploid sporofitni shakllantiradi.

Rivojlanishning ikkinchi tipi gameta reduktsiyali diplobiondda reduktsion bo‘linish gameta hosil bo‘lishida ro‘y beradi. Qo‘ng‘ir suvo‘tlar kurrai zaminimizda barcha dengizlarda tarqalgan, ularni zng ko‘p rivojlanishi mo‘tadil iklimli va qutb oldi kengliklariga to‘g‘ri keladi. Tropiklarda ularning ommaviy tarda rivojlanishi suvning sovugan vaktlariga to‘g‘ri keladi. Qo‘ng‘ir suvo‘tlar turli narsalar-qoyalar, toshlar molyuskalarining chig‘onoqlari, boshqa suvo‘tlarga birikkan holda o‘sadi. Qo‘ng‘ir suvo‘tlarni chuchuk suvlarda 8turi uchraydi xolos. Ular *Nerbahdiella, ectocarpus*,

Sphaerelaria, *Pseudobodenella*, *Lithoderma*, *Rleuracladia* va
Ritterinema turkumlariga mansub.

Qo'ng'ir suvo'tlarining tabiatdagi ahamiyati beqiyos darajada katta. Ular dengizlarning qirg'oqlarida organik moddaning asosiy mumbai, ko'plab xayvonlarning oziqlanishi, yashash joyi, ko'payishi uchun xizmat qiladi.

Qo'ng'ir suvo'tlaridan oziq sifatida, xayvonlarga yem hashak, o'g'it alginatlar va mannit olishda foydalilanadi. Laminariya turkumiga mansub turlardan har yili xo'l massa hisobida 2 mln tonna yigishtirib olinadi. Alginatlar kolloid xususiyatlari ekanligidan oziq-ovqat farmatsevtika sanoatida foydalilanadi. Alginat natriyni kukuni kofe, choy, kuritilgan sut kabilarni tez erishi uchun, alginatlarni suvli eritmalari go'sht va baliq maxsulotlarini tuzlash uchun qo'shiladi. Tekstil vaselyulloza qog'oz sanoatida alginatlar bo'yoqlarni qo'yilashtirish uchun qo'shiladi. Matolarga alginat kislotalarining tuzlari shimdirlisa ular namlanmaydigan, kislatalarga chidamli, mustahkamligi ortadi. Farmatsevtikada



Sphaerelaria. 1- umumiyo ko'rinishi; 2-shoxchasining pastki;
3- yuqori qismi.

tabletikalarning usti qoplanadi. Tibbiyotda kaltsiy alginat qon oqishini to'xtatuvchi, so'rvuchi, radionukletidlarni (shu jumladan strontsiyni) chiqarib tashlaydi. Alginatlarni asosan *Macrocystis*, *Nerocystis*, *Asaphyllum* turkumiga mansub turlardan olinadi.

Yigirmanchi asrning oxiriga kelib dunyo bo'yicha 21500 t shu jumladan yevropada 1280t, Shimoliy Amerikada-6700, Karea va Yaponiya-1900, Lotin Amerikada – 100 tonna, Rossiyada 1990 yili jami 32 t oziq alginat natriy olingan. Mannit kandni o'rnini bosuvchi hisoblanadi. Qo'ng'ir suvo'tlarining hujayralardagi yo'dning miqdori 0,03 -0,3 % gacha yetadi, uning dengiz suvidagisi 0,000005 % yani 1 litr suvda 0,05 mg bo'ladi. AKShda *Macrocytis puriferana* ko'paytirish uni qayta ishlab metan olinadi. 400 km² maydondagi bu suvo'tidan 620 mln m³ metan olish mumkinligi hisoblangan.

Qo'ng'ir suvo'tlarini atmosferaga organik bromidlar (bromoform, dibromometan) ajratishi ularning bir yillik mikdori 10^4 t, sanoat hosil qiladiganiga teng. Arktika atmosferasida azon qavatining yemirilishida organik bromidlarning aloqasi bor degan farazlar bor.


Qo'ng'ir suvo'tlar filogeniyasiga ko'ra monofilitik guruh deb hisoblanadi. Ularni oxrofitlarga mansubligi xaqida olimlar yaxshi fikrdalar. Ul'tra tuzulishli, biokimyoiy xususiyatlari nukleotidlardagi bardavomlik qo'ng'ir suvo'tlarni tribofitsalarga (sariqyashil suvo'tlar) yaqinlashtiradi. Bu sinf 265 turkum va 1500-2000 ga yaqin turlardan iborat. Biz yakka va boshqalar kabul qilgan S.G.A Draisma etal(2003) va Y.C.Ga etal (2004) taklifi amalga oshgan fikofitalar uchun 14 tartibdan iborat klasifikatsiyani qabul kildik. Ulardan biz muhim deb hisoblagan ko'plab mumtoz adabiyotlarda keltirilgan turkumlarni bayon kilamiz.

Diktialtar-Dictyotales tartibi

Diktialtar tartibga mansub turkum suvo'tlari apikal o'sadi, vegetativ hujayralarida disk shaklida pirenoidlarsiz ko'plab xloroplastlar mavjud. Tallomi to'qima tuzulishli, izomorf shaklida nasllarni almashinishi ro'y beradi. Jinsiy ko'payishi oogam tarzda o'tadi. Jinssiz harakatlanmaydigan sporalar yordamida, jinsiy bir xivchinli spermatozoidlar bilan amalga oshadi. Tropiklardagi dengizlar subtropik dengizlarda tarqalgan.




Dictyota turkumining turlarida tallom ayrisimon shoxlangan yassi shoxchali, bo'yi 20 sm gacha yetadi. Qora va Yapon dengizlarida uchraydi. Tallomi uch qavat hujayralardan iborat. O'rta

quvat yirik ko'pincha rangsiz hujayralardan, pastki va yuqorisida xromotoforlari ko'p. *Dictyota* dixotomik shoxlanadi, ikki uyli o'simlik erkak gametofitlarda ko'puyali sporangiylarda anteridiy hosil bo'ladi. Ularda bir hujayrali spermatozoidlar yuzaga keladi. Urg'ochi gametofitda ooganiylar rivojlanib ularda bittadan tuxum hujayra yetiladi. Spermatozoidlarni jalb qilish tuxum hujayra feromonlar ajratadi. Uruglangandan keyin oosiora darxol unib sprorofitni hosil qiladi. Sporofitlarda bir uyali spororangiyalar rivojlanib ularda harakatlanmaydigan tetrasporalar hosil bo'ladi, ikkitasi erkak gametofit, ikkitasi urg'ochi sifatida unadi.



Dictiotalar

Padina turkumining turlarida tallom Xitoyliklarning yelpug'uchsimon yassi tuzulgan, usti kaltsiy karbonat tuzlari bilan qoplangan. Padina bir uyli suvo't unga nasllarni izomorf gallanishi xos. Sporofitlari bevosita sporalardan unadi.




Padina. Umumiyo ko'rinishi va sorusli kesmalari.

Fukuslar- Fucales tartibi

Fukuslar tartibiga mansub turkumlarning suvo'tlari to'qima tallomli, apikal o'sadi. Tallomning ko'pincha yuqori qismida xavo tarkibiga yaqin gaz bilan to'yingan pufaklar bor. Jinsiy jarayon oogam tarzda o'tadi. Bir uyli ikki uylilari bor. Bir uylilarida anteridiy va ooganiy bitta yoki turli kontseptakullarda rivojlangan. Ooganiy bitta hujayradan iborat bandda joylashadi, ular konseptakul devorida yuzaga keladi. Ooganiyda 8 ta hujayra paydo bo'ladi. Anteridiy odatda tarmoqlangan parafizlarda yetiladi, ularda

reduksion bo'linish va mitozlardan keyin 64 spermatozoid hosil bo'ladi. Spermatozoidlarda reduktsiyalangan xloroplastlarni ichida joylashgan ko'zcha bor spermatazoidlar tuxum hujayra fukoseraten feromon bilan jalb qilinadi, tur darajasidagi tanlash tuxum hujayra va spermatozoiddagi maxsus oligosaxaridlar bilan boradi. Tuxum hujayra spermatozoid bilan uchrashganda har ikkalasidagi glikoproteidlar komplementar holda bo'lgandagina o'zaro taniydi.



Fucuslar

Fucus alginatlar ishlab chiqarishda xayvonlarga yem-xashak, yem uni taylorlashda, tibbiyotda bo'qoqni davolashda, xazm muvozanatida foydalanishadi. *Ascophyllum* turkumining tallomlari zaytun moyi rangida, malum darajada dixotomik shoxlangan bo'yи 1,5 m gacha yetadigan buta ko'rinishiga ega, xavo bilan to'lgan pufakchalari bittadan joylashadi. Kontseptakullari kalta yon shoxcha ko'rinishda, yetilganda uchi shishadi. Tallomi ayrim jinsli. Bu suvo'tni faoliyati uchun *Mycosphaerella ascophyliae* zamburug'i bo'lishi shart. Shu boisdan *Ascophyllum* o'ziga xos "lishaynik" biroq bunday simbiozda suvo't daminantlik qiladi.

Cystoseira turkumining turlari bo'yи 2 m ga yetadigan monopodial shoxlangan, apikal o'sadigan suvo'tlar. Tallomida retseptakul va xavo pufaklari bor. Retseptakullari ikki jinsli, oogoniya bittadan tuxum hujayra hosil bo'ladi. Ayrim turlari askomitsetlardan Naloguignardia turkumi bilan endisinbioz holda bo'ladi. Zamburug' tallomda suvo't hujayralari va zamburug'ni reprodukdiv tuzilmasi va vegetativ iplaridan iborat g'uddalarni hosil qiladi.




Sargassum

Sargassum turkumi bo'yи 2 m gacha yetadigan buta shaklidagi tallomli. Oogoniy bitta tuxum hujayrali shoxlari xavoli, pufaklari va retseptakullar barglarini ko'ltig'idan unadi, monopodial shoxlanadi "barg"lari yassi yaproq yoki panjasimon, aniq bilinib turadigan qovurg'ali, u bo'lmasliga xam mumkin. Tansining markaziy qismi ko'pyillik. Havoli pufaklari bittadan shoxchani ustida joylashadi. U Portugaliya mamlakatida o'sadigan uzumning mayda boshisallani eslatgani tufayli bu suvo't shunday nomlangan bu suvo'tning umumiy biomassasi Sargas

dengizida 11 mln tonnaga yetishi mumkin deb hisoblangan. Sargassiyodan veteraniyada foydalanidigan biofaol modda olinadi.


Laminariyalar – Laminariales tartibi

Bu tartibning suvo'tlarini sporofiti parentximatoz tipi, vegetativ hujayralardagi xloroplastlarda pirenoidlari bor. Rivojlanishi geteromorf yirik (ayrim vakillarda 60 m va undan ham uzun) sporofit va mikroskopdagina ko'rsa bo'ladigan gametafitdan iborat. Jinsiy jarayon oogam tipida, har bir oogoniya bittadan tuxum hujayra har bir anteridiyda ham bittadan spermatozoid hosil bo'ladi. Laminariyalarning turli turkumlarining sporofiti tashqi ko'rinishdan farqlanadi. Ko'pchilik vakillarida birikadigan ko'pyillik tanasi har yili yangilanadi. Laminariyalarning tallomi suvning harorati 0^s yaqinda tez o'sadi. Yirik laminariyalarning tallomini o'zak qismida elaksimon naylar bo'lib organik moddalarni yuqoriga tashib beradi. Laminariyalar murakkab anomaliya tuzilishiga ega. Unda meristoderma, po'stloq o'zak aniq farqlanib turadi. Sporofitni yuza qavatida bir uyali zoosporalar joylashib ular to'plam – soruslar hosil qiladi, parafizlari – steril hujayralar ham bor. Sporangiylardagi zoosporalarning soni 16 tadan 128 tagacha bo'ladi. Zoosporalari ijobiy fototaksis xususiyatga ega. Substratga o'tirgach unib gametofitni hosil qiladi.



Laminariya

Laminariyalar odatda shimoliy va janubiy yarim shailardagi sovuq iqlimli suvlarda qirg'oqlardan boshlab to 200 m chiqurliklarga tarqalgan. Laminaria turkumining turlarini tallomi yassi yaproq (plastinka) xolida yuzasi silliq yoki burishgan, yaxlit yoki bo'laklarga bo'lingan, uzunligi birnecha 10 santimetrdan 20 metrlagacha boradi. Sporofit ko'p yillik, ayrim turlarida 11-18 yoshgacha boradi. Asosan shimoliy yarimsharda tarqalgan. Laminariyalarni oziq - ovqatda ishlatalidi. Tarkibida ko'plab aminokislotalar, yod ancha mikdorda uglevodlar, mineral birikmalar va vitaminlar bor. Bir qator mamlakatlarda maxsus ko'paytiriladi.



Laminariyaning jinsiy va jinssiz bo'g'inlarining gallanishi

Alaria turkumining tallomini uzunligi 40 metrlarga yetadi, u plastina, band va rizoiddan iborat. Plastinkasi uzun, qovurg‘ali chekkasida bo‘laklari yo‘q. Plastinkani qirrasи to‘lqinsimon tuzilgan yoki yirtilgan. Plastinka va sporofillar bir yillik, band va rizkid ko‘p yillik. Alariya suv oqimi bo‘lgan joylarda uchraydi.




Alaria

Macrocystis turkumini tallomi uzun ingichka (diametri 1 sm gacha) tanasida uzunligi 1-1,5 m keladigan plastinkalari bor. Har bir plastina oldida tana kengayib noksimon ko‘rinishdagi shishma hosil qiladi. Manashu shishmalar tufayli tallom suv yuzasida qalqib joylashadi. Bu suvdagi eng yirik fotosintezlovchi organizm hisoblanib uzunligi 60 metrga yetadi, uning tallomi har kuni 50-60 sm gacha uzayadi. *Macrocystis* tallomi ko‘pyillik, Janubiy yarimshar suvlarida, Shimoliy yarimsharda Shimoliy Amerikaning Tinch okeani qirg‘oklari bo‘ylab tarqalgan. AQSh da uni maxsus o‘rib yig‘iladi.

Nereocystis turkumining tallomlari uzun ancha ingichka tanasini uzunligi 25 m uzunlikgacha yetadi, uchida diametri 20 sm gacha boradigan katta xavoli pufak bor. Pufakdan uzunligi 3-9

metr keladigan "barg" yaproklar chiqadi. Bunday yaproklarning soni yuzlabgacha bo'lishi mumkin. Nercocystis tallomi bir yillik. Shimoliy Amerikaning Tinch okeani qirg'oklarida keng tarqalgan.



Macrocystis. 1-alohidasi; 2-dengizlardagi o'sishi.

Ektokarpalar – Ectocarpales tartibi


Ektokarpalar heterotrixal, psevdonarenximatoz, parenximatoz tallomli tarmoqlangan yoki tarmoqlanmagan iplar ko'inishga ega. Vegetativ hujayralarda bitta yoki ko'plab xloroplastlar bor, ular pirenoidli. O'sishi diffuz tarzda.

Jinsiy ko'payishi –izo- yoki geterogamli, rivojlanishi izomorf yoki geteromorf nasl almashinuvchi orqali amalga oshadi. Tallomi substratga shu jumladan yirik makrofitlarga birikadi. Ektokarpalar ko'ngir suvo'tlari orasida boshqalaridan ko'p uchraydiganlaridan hisoblanadi.

Ectocarpus turkumining ko'plab turlari barcha dengizlarda birikib hayot kechiradi. Tallomi sariqqa'ng'ir tusda uzunligi bir necha santimetrga yetadigan tarmoqlangan buta shaklida. Substrat bo'ylab ketgan ipi apikal, vertikal joylashgan diffuz o'sadi. Iplardagi hujayralar bir nechtadan xloroplastli xar biridan birnechtadan pirenoidi bor. Diploid sporofitlardagi bir uyali sporangiyalarida zoosporalar rivojlanadi. Odadta sporangiylardan 32 ta 3 jelatiniali

o'ramadan zoosporalar chiqadi. Gaploid 300 sporalardan gaploid gametofit unadi. Gametofitlarda ko'p uyali gametaginlarda game-talar hosil bo'ladi. Ko'p uyali gametaginlar yosh shoxchalari bo'lib ular makkajo'xorining so'tasiga o'xshaydi. Gametalar morfolo-giyasidan o'xshash bo'lsada fiziologik hulqi bilan farqlanadi.

Ektokarpusda suvo'tlar orasida bиринчи мarta jinsiy feromon-ektokарpen aniqlangan. Urg'ochi gameta harakatdan tez to'xtab ektokарpen feroman ajratib erkak gametalarni jalb qiladi. Keyin erkak gametadan bittasi urg'ochi bilan qo'shiladi, qolgani suzib ketadi. Hujayralar orqa tomoni bilan qo'shiladi zigota tinim davrini o'tamay diploid sporofit hosil kilib unadi.



Ectocarpus. Umumiyo ko'rinishi, zoosporangiyligi shoxchasi va hastda gametangiyligi shoxchasi.

Olamning nomi (grek. *alveola*-puvak) bu guruhga mansub organizmlarning hujayra qoplamlari xususiyatlarini anglatadi. Bu olamga *Siliata* (infuzariyalar), *Dinophyta* (dinofitalar), *Apicomplexa* (apikomplakslar) va bir necha kichik guruhlar mansub. Bu olamning organizmlari bir qarashda hayotiy tarzda turlichaliga bo'lsa ham umumiy bo'lgan.

Morfologiya belgilari: alveolalar yoki amfiesmal vezikulalar, pinotsitozda ishtirok etadigan tuzulmalar va ajramish organellalari mavjud.

Ciliate olamiga mansublar faol yirtkichlar bo'lib dimorf yadro (mikro va makronukleus) va o'ziga xossitoskilet mavjud.

Dinophyta olami organizmlarida oziqlanish usulini turlichaligi (fagotrofiya, tekinxo'rlik, fototrofiya va miksotrofiya), dikaronlikning va xivchin apparitini mavjudligi xos. *Apicomplexa* - xivchinsiz hujayraning ichidagi xayvonlar va odamlarning obligat tekinxo'rлari. Ularda apikal majmua ropterlar va kanoiddan tashkil topgan xo'jayin hujayrasiga birikib uni ichiga kiradigan apparat (tuzilma) mavjudligi xos. *Apicomplexa* ayrim turlarida redutsiyalashgan apikoplastlar deb nomlangan plastidlar topigan. Ular to'rtta membrana bilan o'ralgan, o'ziga xos 35 ming juft nukleotidlardan iborat genomga yega. Alveolobiontlarning turli tumanligiga qaramay genlar qatoridagi ketma ketliklarning filogenetik taxlili ularni monofilitik guruhligini tasdiklaydi.

DINOFTA - DINOPHYTA BO'LIMI

Bo'limning nomi grek. *dinco*-aylanish so'zidan kelib chiqqan. *Dinophita* suvo'tlar quydagi umumiy tasnifga ega.

1. Ko'pchiligi bir hujayrali monad tuzilishli.
2. Harakatlanadigan hujayralari morfologiyasi, uzunligi bilan farqlanadigan ikkita xivchinga ega. Ko'ndalang joylashgan xivchini uzun, yo'g'onroq, spiral buralgan aksonema va praksimal bog'lamli. Uzunasiga yo'nalgan xivchin kalta, odatdagiday tuzilishli. Har ikkala xivchin ingichka tuklar bilan qoplangan.

3. Xloroplastlari sarg'ish-qo'ng'ir rangli, shu bois qo'shimcha pigmentlari peridinin dinoksantin va dianoksantin yashil xlorofil a

va si ni qoplاب turadi. Peridininli plastidlari uch membranali pardaga ega va uch lamallalı. Ularning xloroplastli genomi xloroplast stromasi bo'ylab sochilgan.

4.Xloroplastda turlicha ko'rinish shakllardagi prenoidlari bor.

5.Monad hujayralarda xloropastlar yokisitoplazmada joylashgan ko'zcha bor.

6.Chuchuk suvlarda tarqalganlarisitoplazmada to'planadigan kraxmal g'amlaydi, dengizdagilari – lipidlar va steroidllalar g'amlaydi.

7.Yadrovi dikarion: uni xromosomalari kondensirlangan holda hayotiy davri davomida giston oqsiliga ega. Mitoz yopiq tarzda ro'y beradi.

8.Ko'payishi ko'p xolarda hujayrani teng ikkiga bo'linish bilan; jinsiz zoosporalar yoki aplanosporalarni yordamida amalga oshadi, rivojlanishi zigota reduktsiali gaplobiont ko'rinishida, faqat Noctilica turkumida gameta reduktsiali diplobiont tarzda ro'y beradi.

9.Mitoxondiriylar noysimon kristal.

10. Hujayrasida o'ziga xos hosila-puzula bor.


11.hujayrasining qoplami amfiesma xolida.

12.Dengizlarda (90%) va chuchuk suvlarda ham tarqalgan.

Dinofitaalarga asosan bir hujayrali monad tuzulishli (dinoflagellatlar) dorsoventral tuzulishli qisman boshqacha tabaqalangan tipdagilar mansub. Kokoid tuzulganları hayotiy davrini ma'lum muddatlariga yokisista xolida mavjud.sista shilimshiqlanib palmeloid holatsista yoki vegetativ harakatlanmaydigan hujayralarni ipsimon ko'rinishi hosil qilishi ham uchraydi. Shu boisdan dinofitalarning vegetativ hujayralari uchun tallomni monad, rizopodial va kokoid tuzulma hosil qilishi ro'y beradi.

Dinofitalarning tana ko'rinishlari shar, ellips, tuxum teskaritxum, nok, yarimoy yoki tetraedr shakllarda bo'ladi. Hujayrasi yasilangan, ko'ndalang kesmasida ellips yoki yassi yaprok-plastina qisman yumalok, yassilanmagan ham bo'ladi. Hujayrasining kattaligi 6-2000 mkm oraligida bo'lish mumkin. Chuchuk suvlardagi *Seratium* hujayrasining kattaligi 450 km gacha, dengizlarda tarqalganları kattarok. Dinoflagelatlarda amfiesma (hujayrasining qoplami)sitoplazmatik membrana, majmuidan va uni ostidagi amfesmal (tekal) vezikulalardan iborat. Tekal vezikula bu yakka

membranali yassilangan pufak. Bunday pufaklarning soni dinofitalarda bir necha yuzlardan (masalan, *Gymnodinium*) to ikitagacha (*Prorocentrum*) bo'ladi. Tekal plastinkasisellyuloza va boshqa polisaxaridlardan iborat. Dinofitaalarning qoplamini **sovut** deyiladi. Harorat 4 S gacha pasaysa sovutini tashlab yuboradi, odatiy tartibga o'tkazilsa bir kecha kunduzda sovutini tiklaydi.



Dinofit suvo'tlar. (L.L.Velikanov va boshq., 1935).

1,2-*Prorocentrum*; 3-*Dinophysis*; 4-*Gonyaulax*; 5-*Gymnodinium*.

Amfiesma uch qismidan: yuqorigi-epivalva (epiteka, giposoma, gipokan) va o'rta, yuqori va pastki qismini bog'laydigan belbogdan (tsinkulyum) iborat. Sovutli tuzulgan dinofitalarda epivalva va gipovalva o'z navbatida aloxida o'zaro choc bilan boglangan bo'laklardan iborat. Ayrim vakillarida epivalvani uchi **apeks**, sovutni paski qismidagisi **antapeks** bilan tugallanadi. Sovutda ko'ndalang va bo'yamasiga joylashgan arikcha mavjud. Ko'ndalangi sovutni epivalva va gipovalvaga bo'ladi. Arikcha sovutni o'rtasi, yuqorirok, pastroq qismidan o'tishi, orqa tomonni to'la egalashi, halqa hosil qilishi, korin qismida tutashmasligi mumkin. Ayrim dinoflagellatlarning hujayrasining yuzasida organik harakterdagi tangachalar bo'lishi mumkin. Bunday tangachalar *Lepidodinium viride* turida, yashil plastidlari ham bor. Ba'zi dinoflagellatlarda ichki kremniqli skelet bo'lib usitoplazmatik membranani diatomlardan farqlanmaydi. Dinoflagelatlarning xivchinlari hujayraning turli joylariga birikadi. Hujayrani apikal

tomonidan chiqadigan ikkita o‘zaro teng bo‘lmagan xivchinni joylanishiga **desmukont** deyiladi. Hujayrani korin tomonidan chiqsa **dinokont** deyiladi. Ko‘pchilik dinoflagelatlarda xivchin o‘zining xususiy kanaliga ega. Dinoflagelatlar boshqa suvo‘tlar orasida tez suzadi, tezligi 200-500 mkm/s.

Dinofitalarda yadro sferik, to‘nka shaklida, buyrak, kesik konus shakillariga ega, ularning hujayradagi holati rivojlanish davri **xazmlovchi** vakuolani mavjudligiga bog‘liq. Shu boisdan uni **meziokarion** yoki **dinokarion** nomlanadi. Yadrodagi xromosoma mitotik davri davomida kondensirlangan holatda bo‘ladi. Xromosomalarida giston oksili xozirgacha yo‘q deb hisoblanar edi. Ulardagi gistonlar erikariot hujayralaridek emas, ular juda oz miqdorda, shu sababli ular nukleosomalarda bilinmaydi. Dinofitalardagi D NK birnecha marta spirallashgan, natijada yo‘g‘on ip hosil qiladi. Dinofitalardagi azot asosi – 5- gidroksimetin uratsil 12-70 % gacha timin bilan almashgan. Bunday holat fakat bakteriallarda aniklangan. Shu bilan bir qatorda dinoflagenatlarning D NK si 5- matilintozinva odatdagiday bo‘lmagan. N⁶ –metiladenin tutadi. Dinoflagelatlarning hujayrasidagi holatlardan yana biri hujayrada D NK miqdorini ko‘pligi. Bir hujayrali erikariot organizmlar odatda 0,046 dan 3 pg (pikogramm gacha(bitta hujayrada), dinofitalardagi D NK soni ancha ko‘p-3dan 250 pg. Dinofitalardagi xromosomalarning soni Rrоросentrum balticum turida 12-18 tadan, *Ceratium Zirundi-nella* turida 260-280. *Gymnodinium* turkumining ayrim turlarida 500-600 tagacha yetadi. Xromosomalarning soni poliploid bo‘lishi mumkin, bu fikrni rad etadiganlar ham bor. Dikarionlik barcha hujayralarda mavjud emas. Hujayrani bo‘linishdagi mitoz bir qator xususiyatlarga ega. Yadroda birnechta yadrocha bo‘lib mitoz davrida yo‘qoladi sentriola yo‘q. Yadro membranasi mitozda saqlanadi va yadro ichida chuqurchalar hosil bo‘ladi. Dinofitalarda xloroplastlar odatda disksimon, tasma, yassiyaprof va boshqa ko‘rinishlarda bo‘lib, hujayraning markazidan radial yo‘nalishda yokisitoplazmani chekkasida joylashadi. Ularning hujayradagi soni bitta va juda ko‘pgacha bo‘lishi mumkin. Dinofitaalardagi plastidlar besh tipda bo‘lib har birini o‘ziga xos tarixiy evalyutsiyasi bor.

Dinofitaalarda peridinin tutgan plastidlar ko‘p uchraydi, ular uchta membrana bilan o‘ralgan. Asosiy karotinoid pigment xlorofil

bilan suvda eriydigan yorug-to'plovchi peridinin - xloroll-oqsilli majmuani hosil qiladi.

Dinofitalarning plastidlarida peridinindan tashqari β -karotin diadioksantin, dianoksantin va boshqa karotinoidlar bor. Periodlar asosan harakatlanmaydigan va sovutilarda bor xolos. Turli usullarni qo'llab olingen ma'lumotlarga ko'ra 5-guruhgaga mansub plastidlar birinchidan, dinofitalar umumiy ajdodlaridan kelib chikan, ikkichidan plastidning ajdodi gaptofit bo'lgan va peridin tutgan dinofitalarning plastida uchlamchi simbioz natijasida kelib chikan. Bu qarashning tarafdorlari, qarshilari ham bor. Dinofitalarning ikkichi tip xloroplastlari fukoksantin hosilalarni tutgan. Bu plastidlar uchta membrana bilan qoplangan va geksanolfukoksantin va yoki butanol, fukoksantin, xlorofilllar S₁ va S₂ tutadi. Biroq ularda peridinin yo'q. Bu plastidlar gaptofitlar bilan uchlamchi simbioz natijasida yuzaga kelgan deb hisoblanadi. Bu borada ham qat'iy fikr yo'q. Uchunchi tip plastid dinofitalarda to'rt membrana bilan emas ikki qavat bilan qoplangan va ularda nukleoforma yo'q. To'rtinchchi tip plastid asosiy karatinoid sifatida fukoksantin tutadi, yagona membrana bilan o'rالgan, uni ostida yadro, mitoxondriyalar, ribosomalar, xloroplastli endoplazmatik turli xloroplastlar joylashadi. Beshinchchi tip plastid ikkita membrana bilan o'rالgan xolos, xlorofilla va b prazinoksantin tutadi, lamellalari uchtadan emas. Dinofitalarning chuchuk suvlarda tarqalganlari asosan kraxmal, dengizdagilari lipidlar g'amlaydi. Dinofitlar steriollar ham g'amlab boshqa suvo'tlardagidan 4- b -metilsteriolning ko'pligi bilan farqlanadi. Dengizlarda denostriol ko'p.

Dinofitaalar oziqlanishiga ko'ra avtotrof va miksotrof va geterotrof bo'lishi mumkin. Bu guruh organizmlar orasida miksotrof oziqlanish boshqalaridan ko'p uchraydi. Avtotrof dinofitalarning ko'pchiligi – auksotroflar, ularning o'sishi uchun V guruhi vitaminlari V₁(tiamin), V₁₂ (tsianokobalamin) va N (biotin) zarur. Fotosintezlovchi dinofitalar orasida fagatrofiya xususiyatlari ham bor.

Dinofitaalarga mansub turlarning yarmiga yaqin osmatrof va fagotrofli geterotroflardir. Fagatrofiyada dinofitalarda ko'p uchraydi yutilgan qattiq moddalar hazm vakuolalarida hazmlanadi. Oziq manbai bo'lib ular uchun suvo'tlar, shu jumladan dinofitalar ham, sodda xayvonlar, nematodalar, polixetlarning qurtlari, pashsha

tuxumlari hisoblanadi. Ularni tutish uchun maxsus moslama:poyacha(peduk), paypaslagich(tentakl), vual(pallium) mavjud.

Dinofitaalarning harakatlanadiganlari fototaksis xususiyatlari. Ko'zcha dinofitalarning 5% dagina bor xolos, ularning ko'pchiligi chuchuk suvlarda tarqalgan. Ko'zcha bo'limgan hujayralarda ham fototaksislik bor. Dinofitalarda boshqa guruh organizmlarda uchramaydigan qisqaruvchi vakuolalarda osmatik bosimni nazorat qiladigan maxsus hosila – puzulalar mavjud. **Puzulasitoplazmatik membranani** ichiga qopsimon botib kirishi tufayli hosil bo'ladi. Puzulada kiskaruvchi vakuoladay holat ro'y bermaydi. Puzula odatda ikkita kattarog'i hujayrani oldingi, kichigi orqa qismida joylashgan. Qisqaruvchi vakuolalar chuchuk suvlarda tarqalgalardida topilgan xolos. Bitta yoki ikkita qisqaruvchi vakuola Prota-spidaceae oilasiga mansublarda uchraydi. Dinofitalarda otilevchi tuzulmalar trixotsitlar, nematotsitlar, mukotsitlar sifatida uchraydi. Trixotsitlarda spiral buralgan uzunligi bir nechta mikrometli oqsilli fibrillalar bor. Ular ta'sirlansa tekal plastinkalardagi tirxotsitlardan tashqariga otildi. Kriptofitlardagi ejektosomalardan uzun ko'ndalangyo'lli kesmasi kvadrat yoki romb tuzulishi bilan farqlanadi. Nematotsitlar trixotsitlardan uzun 20 mkm uzunlikkacha boradi.

Mukotsitlar- oddiy qop bo'lib hujayraning ustida shilliq ajratadi. Dinofitalarning ko'payishi vegetativ, jinssiz va jinsiy yo'llar bilan amalga oshadi. Vegetativ ko'payishda hujayra ikkiga uzunasiga yoki yonbosh yo'nalishda bo'linadi. *Ceratium* turkumida hujayra yonbosh ariqcha bilan ikkita o'zaro teng bo'limgan qismga bo'linadi. *Peridinium* turkumida bo'linishdan oldin sovut tashlab yuboriladi. Yuzaga kelgan ikkita yosh hujayra yangi sovut hosil qiladi. Bunday bo'linish natijasida yuzaga kelgan hujayralar tarqalmay o'zaro birlashib zanjir ko'rinishini hosil qiladi. Muxit sharoiti hamda turga bog'liq holda vegetativ ko'payish har 1-15 kunda takrorlanadi. Jinssiz ko'payish dinofitalarda zoospora va aplanosporalar yordamida amalga oshadi. Dinofitalar tarqalgan muxitda suvning haroratini o'zgarishi va azotli birikmalarni yetishmasligidan jinsiy ko'payish kuzatiladi. Ularda ko'payishning uch tipi: izogam, geterogam va oogamiya sodir bo'ladi. Gametalari vegetativ hujayralardan kichikroq sovutlilarda sovut bo'lmaydi. Ko'pchilik vakillarda ko'payish natijasida uzok muddat bo'la- oladigan planozigotalar hosil bo'ladi. Ancha o'sganidan keyin

planozigotalar tinim hujayraga aylanish, tinimdan oldingi davrni bir necha soatdan bir necha oygacha muddat davomida bo'lib meyozni o'tkazib harakatli holatda gaploid vegetativ hujayrani hosil qiladi. Tashqi muxitda kiska muddatgacha bo'lsa ham dinofitalar uchun noqulay sharoit yuzaga kelsa, xivchinlarini tashlab yuborib harakatlanmaydigan vaqtinchalik sporalarga aylanadi. Bunday sporalarni mavjud bo'lishi bir necha kun, kamdan kam oylar davom etadi. Tinim sporalar uzoq muddat davomida saqlanadi. Dinofitalarning ko'pchiligini rivojlanishi *Noctiluca* turkumidan tashqari gaploid holda o'tadi. Diploidlik faqat zigotada. Gametogenezda yadro meyoz yo'li bilan bo'linadi, keyin mitotik bo'linish natijasida 2000 dan ortiqroq gametalar hosil bo'ladi. Zigota tinim davridan keyin vegetativ hujayrani hosil qiladi.

Dinofitalar dengiz va chuchuk suvlar fitoplanktonining muxum guruhi hisoblanadi. Birlamchi oziq modda yaratishi bo'yicha diatomlardan keyingi o'rinda turadi. Dinofitalarning ancha ko'pchiligi (90%) dengiz suvlarida tarqalgan ularning xilma-xilligi dengiz suvlarini qirg'oq bilan tutashgan biogen moddalarga boy joylarda kuzatiladi.

Dinofitalarning suzadigan hujayralari vertikal migratsiya xususiyatiga ega. Dinofegalatlarda biolyuminestsentsiya (kimyoviy energiyani yoruglik energiyasiga aylantirish) xususiyati xos.

Bunday xususiyat dinoflagellatlarning 30 ga yaqin *Gonyaulax*, *Protogonyaulax*, *Pyrodinium*, *Pyrocystis*, *Ceratium* va ayrim rangsiz *Noctiluca* va *Protoperidinium* turlarida kuzatiladi.

Bitta turga mansublarida biolyuminestsentlik va bunday holat bo'imasligi mumkin. Biolyuminetsent dinoflagellatlarning hujayralarini ichki tuzilmalarida sferik tuzilishli bo'lganligidan *stsintillonlar* deb nomlangan. Ularning diametri 0,5 mkm kelib membrana bilan o'ralgan vasitoplazmaning atrofida joylashadi. Stsintillonlarning hujayradagi soni o'zgarib turadi, kunduzi ozroq, kechasi ko'payadi. Biolyuminestsentlik dinofitalarni umurtqasiz xayvonlar tomonidan yeb ketishiga karshi moslanishi deb taxmin kilinadi.

Dinofitalarning ko'pchiligi kosmopolitlar bo'lsa kerak. Ularning shimoliy, mo'tadil va janubiy kengliklarda ko'plab topiladi. Eng ko'p rivojlanishi yil davomida iliq bo'ladigan dengizlarda kuzatiladi. Dengizlarda va chuchuk suvlarda dinofillagenlarning maksimum rivojlanishi diatomlarning rivojlanishiga mos keladi.

Dinofitalarni orasida *kriofillari* ham kam emas. Qorda rivojlanib unga qizil tus beradiganlari ham bor. Dinofitaalar orasida epifitlar, xaqiqiy bentos formalar planktondagilardan kam.

Dinofitaalarning 4 tartib 7 turkumiga mansublari simbioz jamoalarini hosil qiladi. Bir holatda ular xo'jayinlar sifatida bo'lishga, boshqasida o'zлari simbioz bo'ladilar. Dinofitaalar ekzo-, va endosimbiantlar bo'lishi mumkin.sianobakterialardan *Synechocystis* va *Synechococcus* rangsiz dinafitlardan *Citharister*, *Histio-neis*, *Ornithocercus*, *Parahistioneiz* turkumlarida uchraydi.

Dinofitaalarda endosimbiont sifatida kriptofitlar, yashil va tillarang suvo'tlar va bakteriyalar bo'lishi mumkin. "**Zooksantellar**" deb nomlanadigan ko'plab umurtqasizlarning (soddalilar, radiolariyalar, meduzalar, karall poliplar, molyuskalar, turbellariyalar va boshqalar) endosimbiantlari ham muxum guruh hisoblanadi. Zooksantellar xo'jayiniga o'zlashtirgan uglarodini 50% ga cha qismini beradi, uning ko'p qismi glitserin xolida, ozrog'i glukoza, alanin va organik kislotalar ko'rinishiga ega. Xo'jayinlari esa dinafitlarni organik birikmalar (mochevina, glitserofosfat, aminokislotalar) va o'stiruvchi omillar bilan ta'minlaydi.

Dinofitaalar orasida 20 ga yaqin turi baliqlar, umurtqasizlar va suvo'tlarda tekinxo'rlik qiladi.

Dinofitaalar ommaviy ravishda ko'payganda dengizlarning qirg'oqlarida "qizil quyulishlari", "toksik quyulishlari" hosil qiladi. Toksik quyulishlari dinoflagellatlarning 60 ga yaqin turi molyuskalar istemol qiladigan odamlarda paralitik (rsr), diarterik (DSP), toksik (NSP) va azospiratsid (AZP) kasilliklarini belgilarini hosil qiladi.

Dinofitaalarni filogenyasi bo'yicha bir necha nuktai nazarlar mayjud. G. Klebs va A. Pasher ularni kriptofitalar bilan bog'lab Pyrophyta bo'limiga mansub deyishgan. Bir qator darslik va qo'llamalarda ularning hujayralarida xlorofil S mavjudligi, xlorofil V yo'qligi, xivchinlarining uzunliklari teng emasligi, xloroplastlarida lamellalar uch tilakaidli ekanligini hisobga olib xromofitlar bo'limining bir sinfi sifatida qaraladi. Biroq dinofitalar xakikiy xromofitlardan xivchinlarida uch qismini, mastigonemani yo'qligi, dikarionlik holatini mavjudligi, xloroplastlarini po'sti to'rt

qavatli emas uchqavatli, assimilyatsiya maxsulotlari boshqa ekanligi bilan farqlanadi. Shu sababli ko'plab tadqiqatchilar mustaqil bo'lim deb karashadi. Dikarionlikni mayjudligi ayrim mualliflari (Dodge J. D., Locblich A. R.) dinofitalarni yuksak darajada takson sifatida etirof etib dinofitalarni evolyutsiyada eukariotlardan ilgari ajralganligini hisobga olib eukariotlarni keng manoda mezokariotlar va eukariotlarga bo'lishini taklif etishgan. Keyingi yillarda dinofitalarni molekulyar – genetik jihatidan olib borilgan tadqiqotlar ularni ikkilamchi soddalashgan mumkinligi eng soddalariga ham emas xakikiy eukariotlarga mansubligi anik bo'ldi. Bu malumotlar dinofitalarni infuzoriyalar bilan yaqinligini ko'rsatadi. Shu boisdan *Protozoa* va *Apicomplexa* uch guruh organizmlarni alveolobiontlar (*Alveololis*) olamiga biriktirishini taklif etishadi.

Dinofitalarning sistematikasi xali yetarli darajada ishlanmagan. Ular necha sinf va tartiblarga taksimlanishi, turkumlardagi turlar soni xaqida ham anik malumotlar yo'q. Bu aloxida guruhlarni yetarlicha o'rganilmaganligi, avtotroflari bilan shug'ullanadigan botaniklarni geterotroflari qiziktiradagan zoologlarning o'zaro mos kelmasligida. Botanikaga oit adabiotlarida I. D. Dodge klasifikatsiyasi bo'yicha ular Dinophyceae sinfiga, va R. A. Fensome et al., bo'yicha to'rt sinfga (Dinophyceae, Noeticuciphyceae, Blastodinaceae, Syndiniophyceae) bo'lingan.

Biz bayon qilayotgan ushbu darsligimizda G. A. Belyakova va boshqalar (2006) darsligida keltirilganlarni qabul qildik. Unga ko'ra R. A. Fensome et al (1993) bo'yicha 14 tartibdan bizning xududimiz sharoitida tarqalgan, sistematika jihatidan ahamiyatli deb hisoblagan vakillar mansub tartiblar xakida malumotlar keltiramiz.

Dinofitsalar – Dinophycae sinfi

Hujayralari po'stsiz yokisellyulozali sovutga ega, bir hujayrali, qisman koloniya hosil qiladi, vegetativ holatda harakatchan, ular orasida kakkoid va ameboid tuzilishlilari ham bor. Hujayralari desmokaotli yoki dinokontli ayrim vakillarida sitigmasi bor. Avtotrof, miksotrof va geterotroflar. Mustaqil yoki turli umurtqasiz

hayvonlar bilan simbioz holda uchraydi. Ko‘payishi vegetativ, jinsiz va jinsiy tarzda amalga oshadi. Rivojlanish gaplobiont holda o‘tadi.

Prorotsentrilar – Rhizocentrales tartibi.

Bu tartibga mansub organizmlarning hujayrasini devori tikkasiga ikki bo‘lakga bo‘lingan, xivchinlari apikal joylashadi. Xloroplastlari bor. Ko‘payishi vegetativ va jinsiy (izo-xlogamiya) tarzida o‘tadi.

Prorocentrum turkumining vakillari asosiy dengizlarda tarqalgan. Ayrim turlari “qizil quyilish”larni hosil qiladi. Hujayralari malum darajada oval shakilga ega. Xloroplastlari bitta yoki ikkita sariq qo‘rg‘ir rangda uch membranali parda bilan o‘ralgan.

Dinofizidlar – Dinophysidales tartibi

Bir hujayrali harakatchan turlarni jamlagan. Sovuti vertikal chok bilan ikkita yonbosh bo‘lakchaga ajragan. Ayrim turlarida xloroplastlari bor. Hammasi dengizlarda tarqalgan.

Dinophysis turkumida uzunasiga joylashgan ariqcha shakli va kattaliklari turlicha qanotchali. Ayrim turlari dengiz qirg‘oqlarida “qizil quyish”larni hosil qiladi.




Gonianlakslar – Donyanlacales tartibi Hujayralari bittadan yoki koloniylar hosil qiladi, sovutida shoxsimon ko‘rinishda o‘sintiasi bor. *Gonyaulax* turkumining hujayralarida po‘st yoki bu holatdagi sovut ko‘payganda eski sovutni hosil bo‘lgan ikkita hujayra yarimtadan bo‘lib oladi. Dengizlarda tarqalgan, chuchuk suvlarda bir tur uchraydi Sreation turkumida sovutning oldingi va orqa tomonlarida ikki uchta o‘sinta mavjud. Ko‘pchiligi fotosintezlaydi, fagotrofiyani ham amalga oshiradi jinsiy jarayon geterogam. Asosan dengizlarda, chuchuk suvlarda to‘rt turi tarqalgan.

Peridinlar – Reridinales tartibi


Bu tartibga mansub turkumlarda sovut ko‘p burchaklisel-lyulozadan iborat bo‘lakchalardan tashkil topgan, bazi turlarida o‘sintalari bor. Ko‘pchilik turkumlari dengizlarda tarqalgan.

Peridinium turkumida hujayra aniq ko‘rinadigan qalqonlardan tashkil topgan. Sovutli uni o‘sintalari yo‘q. Vegetativ ko‘payganda sovut yangidan hosil buladi. Jinsiy jarayon u tarqalgan muxitda azot

yetishmaganda izogam tarzda roy beradi. Bu turkumning vakillarini
deyarli barchasi chuchuk suvlarda tarqalgan.



Peridinlar. Peridinin o'ngda pastda-Ceratium;



Peridininlar

Gimnodinialar – Gymnodiniales tartibi

Bu tartibning vakillari harakatlanada hujayralarida o'simtalari yo'q. Dengizlarda va chuchuk suvlarda tarqalgan.

Gymnodinium turkumida ko'ndalang ariqcha hujayrasining o'rtaidan o'tadi. Rangli va rangsizlari ham bor. Ko'payishi vegetativ amalga oshadi. Asosan dengizlarning planktonida qisman shortob va chuchuk suvlarda tarqalgan.

Noktilukofitsalar sinfi – Noctilucophycae

Bu sinf bitta noctilicales tartibidan iborat xolos, hamma turlari dengizlarda tarqalgan.

Noctilica turkumining hujayralari po'stsiz, rangsiz, sferik ko'rinishli ancha katta diametri 2 mm gacha yetadi. Sitoplazmasidagi ancha katta vokuola uni suv yuzasida bo'linishini osonlash-tiradi. Rivojlanishi gameta reduksiali giplobiot tarzda amalga oshadi.

O'simliklar sultanati fotosintezlovchi organizmlar hisoblanib ularning geterotrof ajdodlarisianobakteriya hujayrasi bilan birlamchi simbioz hosil qilishlari natijasida xloroplastlariga ega bo'lgan. Shuning natijasidasianobakteriya xloroplastga aylangan. Bunday xloroplastlarda po'st faqat ikki membranalni va odatda xlorofill S yo'q. Bu sultanatga Viridiplantae olami mansub bo'lib yashil suvo'tlari (tom manoda) va yuksak o'simliklar mansub. Ularning xloroplastlarida xlorofill v va kraxmal bo'ladi. Viridiplantae olami qizil suvo'tlaridan iborat, ular qizil suvo'tlar vasianid suvo'tlarni birlashtiradi. O'z navbatida qo'shimcha tarmoq sifatida " yashillar + qizillar " glaukotsistofit suvo'tlar sifatida qaraladi.

GLAUKOTSISTOFITALAR – GLAUCOCYSTOPHYTA BO'LIMI

Glaukotsistofitlar quyidagi umumiy tavsiflarga ega.

1. Tallomi monad, kokkoid va palmelloid tabaqalangan, bir hujayrali va koloniya hosil qilgan.
2. Harakatlanadigan hujayralari bir hil uzunlikda emas, ikki qator noziq tuklar bilan qoplangan.

3. Xloroplastlari bir hujayralisianobakteriyalarga yaqin; ularning po'stida yupqa peptidoglykanli qavat bor. Xloroplastlari ko'k-yashil rangda, yashil xlorofil a ko'k fikotsianin va allofikotsianinlar bilan qoplanib turadi. Bu pigmentlar tilakoidlarning ustidagi xuddi ko'k-yashil va qizil suvo'tlardagi kabi fikobilisomalarda joylashgan.

4. Tilakoidlarrgranalarga jamlangan. Ular bittadansianobakteriyalar va qizil suvo'tlardagi kabi o'zaro teng uzoqlikda turadi.

5. Xloroplastdagagi DNKsianobakteriyalardagi kabi xloroplastning markazida poliedr tanachalar ham topilgan, ular Rubisko fermenti bor.

6. G'amlangan mahsulot – kraxmalsitoplazmada donalar holida to'planadi.

7. Mitoxondriylar yassiyaproq kristli.


8. Hujayra po'sti plazmolemmadan iborat va uni ostida alveol va mikronaylar bor. Hujayrasining devoridasellyuloza bo'lishi mumkin.

9. Ko'payishi vegetativ va jinssiz (zoosporalar va avtosporalar bilan) o'tadi. Jinsiy ko'payish aniqlangan emas.

10. Chuchuk suvlarda tarqalgan.

Bu uncha katta bo'limgan bo'limga mansub organizmlar o'zlaridagi xloroplastlarni o'ziga xos tuzilishi bilan tadqiqotchilarda qiziqish hosil qilgan. Ularning plastidlari maxsus qadimgi yo'nallishda. Bo'lim bitta *Glauccystis*, *Gloeochaete*, *Archeopsis*, *Glauccystopsis*, *Peliania*, *Strombilomonas*, *Cyanoptyche*, *Chalarodora* turkumlaridan iborat.

Glaukotsistofitlar chuchuk suvlarda planktonda va birikib ham uchraydi. Bunday joylarda olingen namunalarda ularni boshqa suvo'tlardan plastidining yorqin ko'k-yashil rangi mavjudligidan, ko'k-yashil suvo'tlardan rangsiz sitoplazmasi bilan farqlash mumkin.



Glaukostists.

Yuqorida chapda Cyanofora; o'ngda Glauccystis;
pastda Glaeochaete

Glaukotsistofitlarning hujayra membranasini ostida yassilangan vezikulalar (alveola) bor. Ayrim vakillarida ular tangachasimon tuzilmali, boshqalarida fibrillyar material, uchunchilarda vezikula bo‘lishi mumkin. Burday tuzilmalar dinofitalarning hujayralarini atrofi bo‘ylab bor. Glaukotsistofitlarning tallomi kkokkoid tuzilishli hujayrasining devoridasellyuloza mavjud.

Monad tuzilishlilarning oldingi tomonida uzunligi teng bo‘limgan ikkita xivchini bor. Glaukotsistofitlardagi xivchin eukariotlardagi kabi tuzilishli. Ularning yuzasida ikki qator ayrim suvo‘tlarning xujaydalaridagi xivchinlardagini eslatadigan ingichka, nafis tuklar bor. Xivchinning asosidagi mikronaylar ayrim yashil suvo‘tlardagi kabi qo‘shuv alomati qo‘rinishida joylashgan. Ayrim turlarida haralardagi kabi ko‘p qavatli tuzilma bor. Xivchin apparatidagi bu tuzilishlar glaukotsistofitlarni yashil suvo‘tlar bilan qarindoshchiliklarni hosil qilmaydi.

Glaukotsistofitlarda plastidlar yumaloq yoki ellipis shaklida. U ikkita membrana bilan o‘ralgan, ularni orasida mureindan iborat qavat bor.

Tilakoidlarini tashqi yuzasida fikobilisomalar bor. Ularda fikoeritrin va ko‘k-yashil suvo‘tlarga xos yo‘q. Karotinoidlari v-karotin, zeaksantin va v-krintoksantinlardan iborat.

Plastidlapning o‘rtasida bittadan yoki bir nechtadan katta karboksisomalar polifosfat donalari bor.

Glaukotsistofitlar yadrosidagi genlarning filogenetik jihatlariga ko‘ra monofitlardir.

Glaukotsistofitlarning xloroplastlarini filogenetik taxlili umumi ajdoddan monofilitik tareda ajralganligini ko‘rsatgan. Ularning xloroplastlarisianobakteriyalar va boshqa suvo‘tlarning xloroplastlari orasida evolyutsiyasi bo‘yicha joylashgan.

Cyanophora turkumida hujayralari ikkita o‘zaro teng bo‘limgan xivchinli. Ular hujayraning oldingi qismidan, bittasi oldinga, ikkinchisi orqaga yo‘nalgan. Hujayrada ikkita yumoloqlashgan plastid qo‘rinib turadi. Salbiy fototaksislilik bor (kuchli yorug‘likdan qochadi).

Glaucozystis turkumida yosh hujayralar koloniya hosil qiladi. Har bir hujayraning ichida ikki guruh plastidlar bor. Hujayralarida reduktsiyalashgan ikkita xivchin aniqlangan. Suvida kaltsiy tuzlari kam bo‘lgan ko‘llarda tarqalgan.

Gloeochaete turkumida hujayralari bittadan yoki koloniya hosil qilgan (2-4 hujayrali). Hujayralari yumaloqlashgan, har biri ikitidan uzun ingichka tukli, ularda mikronaylar yo‘q. Bunday o‘xshash tuklar yashil suvo‘tlardan tetrasporalarda bo‘lib ilgari shu turkumga mansub deb hisoblangan. Hujayralari shilimshiq ichida joylashib turli predmentlarga birikkan holda bo‘ladi. Xujayrisining devoridasellyuloza yo‘q. Plastidlari kosasimon tuzilishli. Zoosporalar hosil qilib jinssiz ko‘payadi.

QIZIL SUVO‘TLAR - RHODOPHYTA BO‘LIMI

Qizil suvo‘tlar quyidagi umumiy tavsiflarga ega.

1. Bir hujayrali, koloniya hosil qilgan va ko‘p hujayrali organizmlar bo‘lib tallomli kokkoid, ip, geterotrixial psevdoparenximatoz va parenxima tuzulishli.

2. Hayotiy davrida xivchinli bosqich hosil qilmaydi.

3. Xloroplastlarini po‘sti qo‘sish membranali, xloroplastga xos endoplazmatik to‘r yo‘q. Tilakoidlari bittadan. Xloroplastdagi DNK xloroplast stromasi bo‘ylab tarqalgan kichik nukleotidlar holida.

4. Xlorofillardan faqat xlorofill a bor. Qo‘sishimcha fikoeritrin va allofikotsianin, fikotsianin pigmentlar fikobilisomalarda jamlangan, turli karotinoidlar bor.

5. Asosiy g‘amlangan mahsulot – "bagryanka" kraxmalisi-toplazmada to‘planadi.

6. Mitoxondriylar yassilangan kristli.

7. Mitoz yarimyopiq ro‘y beradisentrolasiz.

8. Hujayrasining devori ko‘p hollardasellyulozali va pektin moddalar – agar, karraginan, agarozadan iborat.

9. Hujayralararo tirqishlar bor.

10. Hayotiy davri gaplo-diplobion tarzda ro‘y beradi undan ikitasi diploidli.

11. Asosan dengizlarda birikib tarqalgan, qisman chuchuk suvlarda ham uchraydi.

Qizil suvo‘tlarning ko‘pchiligi ko‘p hujayrali murakkab tuzilishli organizmlar. Ayrimlargina eng sodda tuzilganlari bir hujayrali yoki koloniya hosil qilgan tallomlilar. Bargryankalarning tanasini shakli juda hilma-hil: ipsimon (soch tolasi kabi), yaxlit yassiyaproq yoki murakkab tarzda bo‘laklarga bo‘lingan, qirrasi

bo'ylab joylashgan - o'simtali, silindr (tig'iz yoki g'ovak), quyqasimon, korallsimon ko'rinishlarga ega. Qizil suvo'tlarning ko'pchiligi psevdoparenximatoz tuzilishli.



Cystosira va Delesseria qizil suvo'tlari.

Xloroplastlar qizil suvo'tlarda turlicha shakllarga ega. Ko'pchiligida ularsitoplazmaning chekkasi bo'ylab parital joylashgan. Plastiqlarni shakli disk yoki tasmaga o'xshash. Bir necha turkumlarida xloroplastlar yulduzcha shaklida, ular hujayraning o'rtasida joylashgan. Xloroplastlarning shakli bitta suvo'tning o'zida ham cho'ziq, tasma, disk ko'rinishlarda ham bo'ladi. Xloroplastlarning shakli suvo'tning yoshiga hujayraning o'lchamlariga bog'liq holda yoritilish, aeratsiya bilan ham o'zgarishi mumkin. Qizil suvo'tlarning ayrimlaridagi xloroplastlarda pirenoidlar ham bor, ularning vazifalari haqida hozircha malumotlar yo'q.

Har bir xloroplast o'zining hususiy ikki qavat membranasi bilan o'ralgan. Tilakoidlar glaukotsistofitlardagi kabi bittadan teng masofada joylashgan, to'plam hosil qilmaydi.

Xlorofillardan qizil suvo'tlarning plastidlarida xlorofill a mavjud holos, u qo'shimcha pigmentlar-qizil fikoeritrin, ko'k fikotsianin va allofikotsianin bilan qoplangan. Bu fikobilinlar tilakoidlar yuzasidagi yarimsferik, yarimdisk fikobilisamalarda joylashgan.

Fikoeritrin qizil suvo'tlarda xech bo'limganda 5 ko'rinishda (v-fikoeritrin I va II, R-fikoeritrin I, II va III) bo'lib ular yorug'likni yutish bilan farqlanadi. Barcha besh tip qizil suvo'tlarning turli guruhlarida turlicha miqdorda tarqalgan. Fikotsianin R-va C-fikotsianinlar holida bo'ladi. Chuchuk suvlarda tarqalgan qizil suvo'tlarda fikotsianin ko'p bo'lganligidan ular havorang-yashil

tusga ega. Kuchli yoritilgan joylarda tarqalgan qizil suvo'tlar sariq, jigarrang yoki qora ranglarda bo'lishi, ularning hujayralarida yorug'likdan ximoyalovchi turli karatinoidlarning bo'lishi bilan bog'liq. Fikobilin pigmentlar suvda eriydi.

Qo'shimcha pigmentlardan muhimlari bo'lib b-va v-karotin, lyutein va zeaksantin hisoblanadi. Bazi turkumlarga mansub qizil suvo'tlarda anteraksantin, vialoksantin, b-va v-criptoksanthin ham bor.

Xloroplastdag'i DNK diametri 1-2 mkm keladigan nukleotidlar xolida xloroplast bo'ylab tarqalgan.

Qizil suvo'tlardagi g'amlangan maxsulot – bagryanka kraxmali (b-1,4 bog'langan glyukon). Yashil suvo'tlardagidan farqlanib uning donalari xloroplastlarda emas,sitoplazmada to'planadi. Yodning tasirida qizil rangga kiruvchi bagryanka kraxmali tarmoqlanmagan amilozadan iborat.


Qizil suvo'tlarda ro'y beradigan fotosintezening muhim maxsuloti bo'lib quiy molekulali uglevodorod *florizid* hisoblanadi. Uning miqdori ayrim vakillarning tallomlarida quruq og'irligiga nisbatan 10% gachani tashkil qiladi. U hujayrada osmoregulyatsiya vazifasini bajaradi. Florizid qizil suvo'tlaridan tashqari ko'k-yashil va kriptofitlarda ham uchraydi. Uning kontsentratsiyasi muhitda sho'rلانishni ortishi bilan ko'payadi. Qizil suvo'tlarning ayrimlari ko'p atomli spirlarni ham g'amlaydi.

Qizil suvo'tlarning hujayrasini devori amorf matriks va fibrillardan iborat. Hujayra devoriga mustahkamknisellyulozadan fibrillar beradi. *Bangia* va *Porphyra* turkumlarida hujayra devorining fibrillyar qismi v-1,3 bog'langan ksilandan (ksiloza polimeridan), amorf qism mannanlardan iborat.

Polisaxarid amorf matriksdagi eng muhim modda bo'lib agar, agarod, karraginan hisoblanadi. Bu moddalarni qaynoq suv bilan ajratish mumkin. Ular hujayra devorining quruq massa hisobida 70% gachasini tashkil qiladi. Bir qator qo'ng'ir suvo'tlarda hujayrasining devorida asosan oqsildan iborat kutikula ham bo'ladi.

Qizil suvo'tlarning ko'payishida mitoz, meyoz vasitokinez ro'y beradi. Elektron mikroskop yordamida qizil suvo'tlardagi yadroni bo'linishi ko'plab turkumlarga mansublarida o'rganilgan. Ularda ro'y beradigan mitoz yarimyopiq atsentrik tipga mansub. *Polysiphonia* turkumiga mansub suvo'tlar misolida profazaning dastlabki

davrida qutbning bir to‘q rangdagi polyar xalqa ko‘rinishdagi tuzilma hosil bo‘ladi. Boshqa polyar xalqa karamaka shi qutbdagi yadro atrofiga ko‘chadi. Profazaning ohirida polyar halqa bo‘lg‘usi urchuq qutbida joylashadi. Bu joyda mikronaylar hosil bo‘la boshlaydi. Yadroni atrofida prenuklear endoplazmatik retikulum rivojlanadi, bu davrda yadrocha yo‘qoladi.



Qizil suvo'tlari.

1-Gelidium; 2-Chondris; 3-Rhodomenia; 4-Plumaria

Metofazada xromosomalar metaphaza plastinkasini hosil qiladi, ularga urchuq mikronaylari kinetoxorlar yordamida birikadi. Yadro po‘sti yirik tirqishli bo‘lsa ham shundayligicha qoladi, qutblarda teshiqcha hosil bo‘ladi. Yadro va perenuklear endoplazmatik retikulum orasida prenuklear mikronaylar joylashadi.

Qutblararo mikronaylar anafazaning oxirida va telofazani boshlaridagina bo‘ladi. Telofazani oxiriga kelib hosil bo‘lgan yadrolar orasida vakum yuzaga keladi.

Sitokinezsitoplazmatik membranani ichiga botishi tufayli boradi. Vakula o‘rnida oqsilli qopqoq bilan yopiladigan **septol tirqish** shakllanadi.

Qizil suvo‘tlarning bir hujayrali tuzilganlarida mitoz bir qator xususiyatlarga ega. Ular: perinuklear po‘stning bo‘lmasligi, polyar teshiklarning juda katta bo‘lishi, anafazaning oxirida kinetoxorlardagi tabaqalashuni sezilarsizligi va ularga bitta mikronayni birikishi.

Qizil suvo‘tlarida tirqishli bog‘lamlarni bo‘lishi boshqalaridan farqlovchi xususiyatlaridan hisoblanadi. Bu tartiblarga bo‘linishida ahamiyatli. Tirqishli bog‘lamlarni ikkita birlamchi va ikkilamchi tiplari bor. Birlamchi hujayra bo‘linib hosil bo‘layotgan ikkita hujayralar orasida. Ikkilamchi ikkita hujayrani o‘zaro qo‘shilayotganida yuzaga keladi. Qopqoqchalarni hosil bo‘lishida endoplazmatik to‘r ishtirok etadi. Uningsisternalari (g‘o‘lacha) septal tirqisha joylashadi ularda tashqi tomondan qopqoq asosi hosil bo‘ladi. Tirqish qopqog‘ini ichi oqsil bilan to‘ladi. Qopqoqni chekkasi polisaxaridlardan iborat. Qopqog‘chalar kamida 7 hil tipda bo‘ladi.

Qizil suvo‘tlarning ko‘payishi vegetativ, jinssiz, jinsiy tarzda amalga oshadi. Oogam jinssiz ko‘payishida boshqa suvo‘tlarda uchramaydigan bir qator aloxida xususiyatlar bor. Erkak jinsiy hujayra – spermatsiy xivchinsiz suv oqimi bilan urg‘ochi jinsiy organga boradi. Urug‘lanish ro‘y bergenidan keyin gonimoblast iplari hosil bo‘ladi, uning hujayralari kriposporangiylarga aylanadi. Gonimoblastlarning to‘plamini **gonimokarp** deyiladi. Bir qator floridiyalarda gonimokarp po‘st bilan o‘ralgan. Bunday tuzilmani-**sistokarp** deyiladi. Karposporangiylarda diploid tetrasporalar hosil bo‘ladi. Tetrasporofit va tetrasporangiylarda reduksion bo‘linish ro‘y beradi. Gaploid tetrasporalar gaploid gametofitga aylanadi. Bunday hayotiy davrda (bitta gaploid gametofit va ikkita diploid-**gaplosporofit** va tetrasporofit) qizil suvo‘tlarning ko‘pchiligidagi **uchraydi**, bir qator farqlanishlar ham bor. Bunday o‘ziga xos **hayotiy** davrda tarixiy taraqqiyot davrida xivchinning yo‘qolishini **qoplagan**.

Qizil suvo‘tlardagi tetrasporalarning joylanishi turlicha. Qizil suvo‘tlardagi karpogan pasti kengaygan, tepasi cho‘zilgan (**trixogina**) kolbaga o‘xshashdi. Karpogonda ikkita yadro bo‘lib, **bittasi-trixoginada** joylashgani karpogon yetilganidan keyin yo‘q

bo'lib ketadi. Ikkinci karpogan pastida joylashgani urg'ochi gameta vazifasini bajaradi. Karpogan qizil suvo'tlarning ko'pchilikligida **karpogen shoxchalarida** hosil bo'ladi, ular ko'pchilik qizil suvo'tlarda rangsiz bo'ladi.

Spermatsitlar spermatangiylarda bittadan hosil bo'ladi. Yosh spermatangiylarda yadro apikal qismida joylashadi. Yetilgan spermatsiy bir hujayrali, uni qattiq po'sti yo'q, shilimshiq bilan o'ralgan, xloroplastlari bo'lishi mumkin.

Spermatsiy suv oqimi bilan trixoginaga borib to'qnashganidan keyin hujayra devori eriydi. Erkak yadro trixoginadagi kanal orqali o'tib karpogondagi gaploid yadro bilan qo'shiladi. Gonimokarpning keyingi rivojlanashi qizil suvo'tlardan (karposporofitda) turlicha tarzda o'tadi. Avvalo gonimoblastning iplari karpogonning kirish qismidan bevosita rivojlanishi mumkin. Ikkinchidan ko'pchilik qizil suvo'tlarda gonimoblastlar ko'shimcha vegetativ hujayralar – auksillyarlarsiz rivojlanishi mumkin.

Qizil suvo'tlarning ekologiyasi va ahamiyati ham etiborga loyiq. Hozir fanga malum bo'lgan qizil suvo'tlarning anchagina ko'pchiligi dengizlarda tarqalgan, ular Dunyo okeanining barcha dengizlarida bor va faqat 200 ga yaqin turlarigina chuchuk suv havzalar: daryo, ko'llarda uchraydi.

Qizil suvo'tlar hujayralarining tarkibida qo'shimcha qizil pigmentlari tufayli ancha chuqurliklarga (100-200 m) tushib o'saoladi. Ular hosil qilgan o'tloqlar ko'p hollarda 20-40 metrlarda tugaydi. Ular litoralda ayniqsa ko'p. Ayrim bagryankalar suv urilib, sachrab turadigan joylarda ham o'sishga moslashgan. Qizil suvo'tlarning orasida quruqlik sharoitida tarqalganlari oz bo'lsa ham bor.

Dengizlarda qizil suvo'tlar hamma joylarda uchraydi. Ular qoyalar, katta toshlar, shag'alda suniy qurulmalar, boshqa o'simliklar ustida va dengiz xayvonlarining qattiq sovtalarida ham o'sadi. Bagryankalarning ko'pchiligi boshqa suvo'tlarning shu jumladan qizillarning ustida ham o'sadi. Bunday epifitlarning orasida obligatlari ham bor, masalan, *Polysiphonia lanosa* qo'ng'ir suvo't *Ascophyllum* ustida o'sadi. *Polysiphonia* – obligat epifit boshqa tekinxo'rlardan farqlanib u xujayindan oziq moddalarni olmaydi, u o'ziga zarur oziq moddalarni fotosintez hisobiga hosil qiladi.

Bagryankalar orasida xaqiqiy tekinxo'r, chala tekinxo'r hayot kechiradiganlari, xo'jayin hisobiga oziqlanadiganlari ham bor. Qizil suvo'tlar orasida *adelfotekinxo'rlar* yani taksonamiya jihatidan o'zining xo'jayini bilan bog'langanlari va *allotekinxo'rlar*-o'zining xo'jayinniga taksanomik bog'lanmaganlari ham mavjud. Adelfotekinxo'r hayot kechiradigan qizil suvo'tlarning gratsilyariyalar, gigartinalar, plokamiyalar, rodumeniyalar tartiblarining suvo'tlari orasida uchraydi.

Qizil suvo'tlar dengizlarning ekotuzulmasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular birlamchi maxsulot yaratuvchi va dengizdag'i boshqa organizmlar uchun qarargoh hisoblanadi. Qizil suvo'tlardan odamlar o'zlarining turmushlarida keng foydalanadilar. Oziq maxsuloti sifatida butun dunyoda *Bangia*, *Porphyra*, *Dermoneema*, *Asparagopsis*, *Grateloupia*, *Gigartinia* turkumlaridan foydalaniladi.

Qizil suvo'tlar poligalaktanlar – agar, agarosa, karraginan hosil qiladi. Agar – agarofit suvo'tlar – *Gelidium*, *Gracilaria*, *Pterocladium* turkumlariga mansublaridan olinadi. Hozirgi kunda agar ishlab chiqaruvchi mamlakat Yaponiyada XVII asrdan boshlab har yili butun dunyo bo'ylab ishlab chiqariladiganning yarmi 3500 tonna agar olinadi.

Agar mikrobiologik tadqiqotlarida katta ahamiyatga ega. 1-2% agar solingan oziq moddalar bakteriyalar, zamburug'lar uchun foydalaniladi. Agar zaharsiz bo'lganligidan undan oziq-ovqat sanoatida marmelat, qo'yiq murabbo-jem, mayonez tayyorlashda, go'sht va baliqlarni konservalashda foydalaniladi.

Karraganinlar *Chondrus*, *Mastocarpus ustellatus* turlaridan olinadi. Bu maqsadlar uchun Fillipin mamlakatida eucheuma va *Kappaphycus* turkumlarining suvo'tlari maxsus ko'paytiriladi. Bir yilda 13 ming tonnaga yaqin karraginanlar olinib uning yarmidan ko'prog'i yevropaga, qolganlari boshqa mamlakatlarga yuboriladi. Karroginan zaharsiz shu boisdan undan oziq-ovqat sanoatida, ziynatda, to'qimachilikda foydalaniladi. U antivirus, antikoagulyant, yazvaga qarshi yaxshi xususiyatga ega.

Qizil suvo'tlar eng qadimgi guruh organizmlar. Qizil suvo'tlarning orasida toshkotgan qoldiqlar koralllar orasida malum. *Solenoporaceae* (to'la qirilib ketgan) oilasining vakillari dastlab kembriyda paydo bo'lib ordovikda ko'p o'sgan. Qorallin suvo'tlarning mustaqil holda o'sadiganlari qazilma va xozirgi rodolitlar

holatida malum. Ular okcanlarning 50-200 m chuqurliklarida keng tarqalgan, sekin o'sishi 800 yil va undan ko'proq muddatlarda 30 sm gacha yetadi xolos. Ayrim rodolitlarning yoshi radiouglerod usuli bilan aniqlanilishicha 13 ming yildan ortiqroqni tashkil qiladi.

Keyingi yillarda qizil suvo'tlarni yashil suvo'tlarning bir guruhi deb qaralmoqda. Bunga ularning tashqi molekulyar darajadagi tuzilishi asos qilib olinmoqda. Qizil suvo'tlarning filogenetikasiga qaralganda ultratuzilish va molekulyar darajada bangiyalar – parafiletik shu bilan bir paytda floridieyalar monofilik guruh.

Bangiyalarga uzoq vaktlar davomida teshik bog'lamlarini, apikal o'sish va jinsiy rivojlanishning yo'qligi harakterli deb hisoblanilar edi. Shu bilan bir paytda floridieyalar teshik bog'lamlariga, apikal o'sish va uch bosqichli hayotiy davraga ega deb qaralib kelingan. Biroq bir qator bangiyalarda (rodoxetalar, bangiyalar) teshik bog'lamlarini, apikal o'sishi va jinsiy rivojlanishi aniqlangan. Shu bilan bir paytda barcha floridiyalarda apikal o'sish yo'qligi (masalan, qorallinalarda), hammasida ham uch bosqichli hayotiy davra mavjud emasligi (masalan, batraxospermumlarda) aniqlangan.

Qizil suvo'tlardagi nukleotidlarni o'rganish natijasida ularni ikki guruhga: bittasi faqatsianidieyalarini, boshqasi barcha qizil suvo'tlarni o'z ichiga oladi.

Tom manodagi *Rhodophyta* bo'limi 670 dan ko'proq turkumlardan iborat 2500-6000 turlarni o'z ichiga olgan. Qizil suvo'tlarni ananaviy tarzda ikkita sinfga: *Bangiophyceae* va *Florideophyceae* bo'linadi. G.R. Saunders va M.H. Hommersand (2004) sistemasi bo'yicha qizil suvo'tlarni kichik olam darajasida qaraladi bu holatda yuqoridagi ikkita sinf bo'lim deb etibor etiladi. Biz ushbu kitobimizda Moskva davlat universiteti, Kiev, Gomel universitetlarida qabul qilinib talabalarga bayon etilaetgani *Rhopdophyta* bo'limi ikkita: *Cyanidiophytina* kenja bo'limi unga bitta *Cyanidiophyceae* sinfi, *Rhodophytina* kenja bo'limi: 4ta sinf - *Rhodellophyceae*, *Compsopogonophyceae*, *Bangiophyceae* va *Rhodymeniophyceae* (*Florideophyceae*) qabul qildik.

Sianidofitsalar – *Cyanidiophyceae* sinfi

Bu sinfga bir hujayrali yo'g'on hujayra po'stli, endosporalar yordamida ko'payadigan qizil suvo'tlar kiradi. Ular eksternal

sharoit – oltingurgutli qaynoq buloqlar, RN 0,5 dan 3 gacha va harorat 56 S bo‘lgan sharoitlarda, ayrimlari geterotroflikka moyillar kiradi. Sinf bitta tartibdan iborat.

Sianidiyalar – Cyanidiales tartibi

Tartibning tavsifi sinfdagi takrorlandi. *Cyanidium* turkumiga mansub vakillar faqat avtotrof o‘sadi. *C. saldarium* turining xloroplast genomi o‘rganilganda u eng qadimgi xloroplast genomi bo‘lishi mumkinligi aniqlangan. Qizil suvo‘tlarning boshqalaridagi xloroplast genom bilan qiyoslanganda unda bir nechta unikal genlar borligi ulardan beshtasi bakteriya hujayrasining sintezida ishtirok etishi va bu suvo‘t xloroplastlarini issiq muhit sharoitiga chidamligini taminlashni; ikkita gen fotosintezni sho‘r tasiriga moslanishda ahamiyatli deb hisoblaniladi. Bu genlar mazkur suvo‘t turini ekspermal sharoitlarda yashashda zarur deb hisoblaniladi.

Bu turkumdan *Galdieria* turkumining taksonlari geterotrofialigi ular 27 ga yaqin turli qandlar va spirt eritmalar bilan oziqlanishi malum bo‘lgan.

Rodellofitsalar – Rhodellophyceae sinfi

Sinf *Rhodella* (grek. Rhodon – pushti) turkumi nomi bilan nomlangan. Bir hujayrali va koloniya hosil qilgan vakillarida plastidlarining morfologiyasi turlicha: *Porrhyridium*, *Dixoniella*, *Rhodella*, *Chroodactylon*, *Stylonema* turkumlarida xloroplast yulduzsimon, pirenoidli, *Rhodosorus* turkumida xloroplast kosa-simon, pirenoidli, *Goniothrichopsis* turkumida disksimon xloroplastlar pirenoidlar, Golji apparati endoplazmatik to‘r, mitoxondriyalar, yadro bilan bog‘langan. Jinsiy ko‘payish malum emas.

Porfiridiyalar – Porphyridiales tartibi

Bir hujayrali va koloniya hosil qilgan organizmlar. Golji apparati endoplazmatik to‘r va mitoxondriyalar bilan bog‘langan. Xloroplastlarida uni o‘ragan periferik tilakoid yo‘q.

Porphyridium turkumining vakillarida hujayralari bittadan yoki shilimshiqdagi koloniyaga jamlangan. Shilimshiq odadta qip-qizil, ko‘k-yashil, sarg‘ish-jigarrang yoki kulrang tuslarda bo‘ladi. Hujayralari shar va ellips ko‘rinishida, shilliq o‘ramali. Sirpanib harakatlanadi. Yorug‘likka tomon sirpanganda shilimshiqdan

ajraladi, xuddi ko'pchilik qizil suvo'tlardagi sporangiydan sporalarni ajralishiga o'xshaydi.

Xromatofori yulduzsimon uni o'rtasida bitta pirenoid joylasbadi. Ko'payishi faqat vegetativ, hujayrani teng ikkiga bo'linishi bilan amalga oshadi. Chuchuk va dengiz suvlarida, tuproq yuzasida uchraydi.

Kompsopogonofitsalar – Compsopogonophyceae sinfi

Sinf *Compsopogon* turkum nomi bilan nomlangan. Monosporangiy va spermatangiylari odatda asosiy vegetativ hujayradan qiyshiqliq yo'nalgan to'siq bilan ajralgan qizil suvo'tlar. Golji apparati endoplazmatik to'r bilan bog'langan. Rivojlanishida gonomokarp kam rivojlangan. Bu sinf 3 ta tartibni o'z ichiga oladi.

Rodoxetalar – Rhodochaetales tartibi.

Mazkur tartib bitta turkum yagona turdan iborat

Rhodochaeta turkumini tallomi boshqa qizil suvo'tlarga birikkan, noziq shoxlangan ip ko'rinishida. Apikal holda o'sadi. Xloroplastlari parietal joylashgan, disk yoki tasma ko'rinishida. Hayotiy davrsasi gaplodiplobiont, izomorf gallanish bilan o'tadi. Sporofit monosporalar hosil qiladi. Sporofit suvo't tallomini ichida unib gametofitga aylanadigan meyosporalar hosil bo'ladi. Ushbu turkumga mansub tur dengizlarda tarqalgan.

Bu turkum qizil suvo'tlarning evolyutsiyasida ipsimon tallomni hosil qilgani, apikal o'sishi, uch bosqichli biroz geteromorf hayotiy davrani o'tashi bilan muhim hisoblanadi.

Eritropeltiyalar – erithropeltidales tartibi

Ko'p hujayrali tallomli iplar, yassiyaproq, disk ko'rinishida. Ip va yassiyaproq ko'rinishlilikda o'sishi interkolyar, disk shakldagilarda apikal tarzda ro'y beradi. Xloroplastlari yulduzsimon, pirenoidli, markazda joylashgan. Teshiklarida qopqoqlar aniqlanmagan. Jinssiz ko'payishida monosporangiyalar hosil bo'ladi, ular vegetativ hujayradan qavariq devor bilan ajraladi. Jinsiy ko'payish ro'y beradi.

Dengizlarda epifit holda tarqalgan.

Erytrotrichia turkumi rizoid yordamida birikkan ip ko'rinishida. Unda monosporalı monosporangiyalar hosil bo'ladi. Monosporalari qattiq po'stsiz shu boisdan ameboid harakatlanadi, unib yangi o'simlikka aylanadi.

Jinsiy ko'payganda monosporalar unib uch hujayrali gametofitga aylanadi.

Kompsopogonlar – Compsopogonales tartibi

Bu tartibga mansub suvo'tlarda tallom geterotrixal, ko'pqatorli, shoxlangan. Iplari bir qatorli o'rta va mayda hujayrali po'stloqqa tabaqlashgan. Xloroplsatlari parietal, tasma shaklida, pirenoidlarsiz. Ko'payishi jinssiz monosporalar yordamida amalgalashgan. Vakillari birikib o'sadi. Chuchuq suvlarda, qisman sho'rtob havzalarda, akvariumlar, basseynlar, oranjeriya larning suvlarida ham uchraydi.

Compsopogon tarmoqlangan, substratga birikkan, bo'yi birnecha santimetrga yetadigan havorang, ko'k-yashil, sapsariq ranglardagi buta ko'rinishiga ega. Vertikal iplari o'shining dastlabki davrida birqatorli, keyin ko'pqatorliga aylanadi, birqatorli markaziy va po'stloqga tabaqlashadi. Ko'payish davrida monosporangiy tallomning asosiy hujayralaridan ajraladi. Ularda bittadan monosporda hosil bo'ladi, u sporangiy devoridagi yirtiqdan tashqariga chiqib unadi va yangi tallomni hosil qiladi.



Bangiofitsa Bangiophyceae sinfi

Sinf Bangia turkumi bilan (Daniyalik botanik Nils Bang sharafiga) nomlangan. Sinf bittagina bangiyalar – *Bangiales* tartibidan iborat holos.

Ikki yoki uch bosqichli geteromorf hayotiy davrali ko'phujayrali qizil suvo'tlar. Gametofitlari yirik, dastlab bir qator keyin ko'pqator hujayralardan yoki diffuz tarzda o'sadigan yassiyaproq tuzilishli. Karposporangiy va spermatagiyalar bir joyda hosil bo'ladi. Sporofitlari ipsimon, apikal o'sadi. Golji apparati endoplazmatik to'r va mitokondriyalar bilan bog'langan. Gametofitning xloroplastlari hujayraning o'rtasida joylashgan, yulduzsimon tuzilishli pirenoidi bor. Sporofitda xloroplastlar tasmasimon, uni o'rovchi tilakoidli, parietal joylashgan.

Sinfga mansub suvo'tlarning barchasi dengizlarda tarqalgan, faqat Bangta chuchuk suvlarda ham uchraydi. Ushbu tartib monafilitik va florideyalar bilan uzviy bog'langan.

Porphyra turkumi tallomi yupqa, ko'pincha yaltiroq qirrali tekis yoki buklamali yassiyaproq (plastinka) ko'rinishida. Yassiyaproq tallomning asosida kalta tanachasi bor. Tallomning shakli enli tasmadan doirasimongacha, uni rangi pushtining turli ko'rinishlarida bo'lishi mumkin.



Porphyralar

Yilning qish davrida vegetativ hujayralar spermatangiyllarga aylanadi. Ularda 64-128 erkak gameta-spermatsiyalar hosil bo'ladi, ular bo'kishi (jelatinlanishi) hisobiga tashqariga chiqadi. Sperma-

tsiyarda yirik yadro va reduktsiyalangan xloroplast mavjud. Spermatsitlar karpogonga suv oqimi bilan keladi.

Karpogon tashqi ko'rinishidan vegetativ hujayralarga o'xshaydi, ulardan kichkina o'simtasi borligi bilan farqlanadi xolos. Spermatsiy karpogonga birikkanidan keyin po'st bilan o'raladi va borlig'ini kanal orqali karpogonga qo'yadi.

Urug'lanish sodir bo'lganidan keyin karpogonning diploid borlig'i 4,8,16 va 32 diploid karposporalarga bo'linadi. Ular karpogon devori yemirilganidan keyin tashqariga chiqadi.

Karpospora unib tarmoqlangan ip tallomni hosil qiladi. Bu bosqichda **konxospora** deb ataladigan maxsus tipdag'i monosporalarni hosil qiladi. Konxosporalar ipni yonida bir qator joylashgan konxosporangiyarda hosil bo'ladi. Manashu konxosporangiyaldan porfiraning yassiyaproq tuzilishli tallomi hosil bo'ladi. Konxospora unayotganda reduktsion bo'linish ro'y beradi shu boisdan yuzaga kelayotgan tallom gaploid. Porfira yosh davrida monosporalar hosil qilib vegetativ tarzda ko'payadi. Monosporalar parfira tallomini yuqorigi yuzasida hosil bo'ladi. Porfirada jinsiy ko'payish ro'y bermaydi.

Porfiraning 70 ga yaqin turlari malum. Ularda *P.ezoensis* turi maxsus ko'paytirilib ovqat sifatida istemol qilinadi. Porfirani oziqlik qimmati tarkibidagi ancha yod, vitaminlardan V va S, minerallarning hamda 20-25% miqdorda (quruq modda hisobiga) oqsillar mavjud.

Porfirani Yaponiyada XVII asrning oxiridan beri ko'paytiriladi, har yili 350 ming tonnaga yaqin maxsulot olinadi. Parfirani yetishtirishda 3000 dan ortiqroq kishilar ishtirot etib har yili 2,5 mlrd AQSh dollari hisobida baholanadi.

Rodimeniofitsalar – Rhodymeniophyceae (florida) (Florideophyceae) sinfi

Sinf *Rhodymenia* (grek. rhodon – pushti, hymen – membrana) turkumi bilan nomlangan. Apikal o'sadigan hujayralari teshik bog'lamlari bilan bog'langan, hayotiy davrida asosan uch gametofit, gominokarp (karposporofit) va tetrasporofit bosqichli qizil suvo't. Repruktiv hujayralari yani tetrasporangiyalar, monosporangiyalar, spermatangiyalar, karposporangiyalar odatda terminal (tallomni

uchida) yoki ipning yonboshida joylashgan. Trixogana karpogon terminal yoki lateral, gonomokarp (karposporafit) bevosita karpogondan rivojlanadi.

SSU – RNA genlarida nukleotidlarning joylanishini o'rganilganda floridalarni to'rtta yo'nalishda rivojlanganligi aniqlangan. Birinchi yo'nalish yakka Hildenbrandiales tartibi (ularda jinsiy rivojlanish yo'q). Ikkinci yo'nalish monofilik 10 tartibdan iborat. Uchinchi yo'nalish Ahnteltiales va Pihiellales tartiblaridan iborat. To'rtinchi yo'nalish yuksakdarajada tuzilgan qolgan barcha qizil suvo'tlarni jamlagan.

Gildenbrandiyalar - Hildenbrandiophycidae kenja sinfi

Gildenbrandiyalar – Hildenbrandiales tartibi

Bu tartibning suvo'tlari Cryptonemiales tartibida oila sifatida qaralgan. Biroq bir qator belgilari – jinsiy ko'payishni yo'qligi tetrasporani hosil qilishidagi o'ziga xoslik (kengaygan kontseptakullarda) ularni alohida tartib sifatida qabul qilishga asos bo'lgan. Floridalar orasida eng sodda tuzilishlisi deb hisoblanadi.

Hildenbrandia psevdoparenximatoz tallomli, u toshlar va shu kabi substratlarga birikadi. Chuchuk suvlar va dengizlarda tarqalgan. Chuchuk suvlarda tarqalganlari tetrasporalar hosil qilmaydi, ko'payishni disksimon "gemmalar" deb nomlanadigan hosilalar yordamida amalga oshadi.


Nemaliofitsalar – Nemaliophycidae kenja sinfi

Bu kenja sinfning vakillariga teshik bog'lamlarida ikkita qavat qalpoqcha mavjudligi harakterli. Kenja sinf 10 tartibni o'z ichiga olgan. Ulardan ayrimlari bilan tanishamiz.

Korallinalar – Corallinalea tartibi

Bu tartib vakillarining hujayrasini devorlarida kaltsiy karbonat to'planadi, tetrasporangiylari qo'shuv alomati ko'rinishida, karpogon shoxchasini hosil qiladigan hujayra auksillyar vazifasini bajaradi. Urug'lanish natijasida yuzaga kelgan zigota katta bo'ladi, u keyin gonomokarpni hosil qiladi. Karpogon shoxchasi ikki hujayrali. Karpogonlar gonomobyastlar, qo'shiladigan hujayralar va karposporalar kontseptakullarni ichida hosil bo'ladi. Spermatangiy va tetrasporangiy ham maxsus konmeptakullarda yuzaga

keladi. Hayotiy davri gaplodiplobiont tarzda izomorf gallanish bilan o'tadi.



Corallinalar

Lithothamnion ko'pqavatli po'sqoloq, butacha ko'rinishida, oxak shimgan, kuchli shoxlanganidan yumoloq ko'rinaldi. Buta ko'rinishidagi tallomi bo'g'imlarga ajralmagan. Dengizlarda toshlar, qoyalar, shag'al, mollyuskalarning chig'onog'ida, litoral va sublitoralda tarqalgan.

Coralline ko'p qavatli tallomga ega, qorallarga o'xshaydi. Ohaklangan bo'g'imlari ohaksizlari bilan navbatlashib joylashadi. Bo'g'imlarini shaklisilindrdan qoziqsimongacha, biroz bosilganday ko'rinishda. Corallina dengizlarda keng tarqalgan.

Batraxospermalar – Batrachospermales tartibi

Bu tartibning vakillarida gametofit bevosita somatik reduktsiya tufayli diploid sporofitda yuzaga keladi.

Batrachospermum tallomini tashqi ko'rinishi baqa tashlagan tuxumlarining to'plamiga o'xshaydigan buta ko'rinishida, nomlanishi shundan. Tiniq suvli daryolar, ko'llarda tarqalgan. Tallomini bo'yи 40sm gacha yetadi, shilimshiqli, siyrak mutovka xolidagi shoxchali. Yon shoxchalari rangsiz tukli. Tallomining o'rtasidagi hujayralarisilrsimon, ko'pchiligidagi u po'stloqli.

O'sishi cheklangan yon shoxchalarda ko'payish azolari hosil bo'ladi. Karpogoni trixoginali, urug'lanishdan keyin karpogonni qorinchasidan tarmoqlangan iplar – gonimoblastlar yuzaga keladi, ularning hujayralarida karposporalar hosil bo'ladi. Karposporangiylarning to'plami malina o'simligining mevasiga o'xshab ketadi. Karposporalardan diploid mikroskopik bosqich – *Chantransia* hosil bo'ladi, ularda monosporangiyilar shakllanadi. Monosporalar yordamida o'zini hosil qiladi.

Nemaliyalar – Nemaliales tartibi



Nemalion

Tallomi ko'p asoslisisilndr yoki biroz yassilangan tuzulishli, tarmoqlangan, malum darajada shilimshiqli, tetrosporangiyilar qo'shuv alomati singari. Aksillyar hujayralari yo'q. Karpogonlari maxsus karpogon shoxchalarida hosil bo'ladi. Gonimoblastlar urug'langan karpogondan shakllanadi. Hayotiy davrida

ko'pchilik vakillari geterogametfit. Getrosporofit reduktsiyalangan.

Nemalion sharsimon tuzulishli, oddiy yoki tarmoqlangan, shilimshiqli, to'qqizil yoki qo'ng'ir rangda. Tallomning o'rtasi tig'iz joylashagan iplardan iborat, ularning tashqi hujayralaridan tarmoqlangan periferik iplar chiqadi. Iplarning oxiri kichkina tutam xolda bo'ladi.

Rivojlanishida geteromorf hayotiy davra ro'y beradi. Spermatangiyilar yon shoxchalarning ichida hosil bo'ladi. Karpogon shoxcha 3-5 hujayrali. Karposporalari unib diploid shoxlangan ip

shaklidagi tetrasporofit hosil qiladi. Bu suvo'tni Yaponiyada oziq ovqat sifatida istemol qilishadi.

Akroxetalar – *Acrochaetales* tartibi

Ushbu tartibga mansub suvo'tlarning tallomini o'rtasi ipsimon, teshik bog'lamli turlari ham bor. Tetrasporangiyilar qo'shuv alomatisimon. Auksillyar hujayralari va karpogon shoxchalari yo'q. Hayotiy davri gaplodiplobiont tarzda o'tadi, boshqacha variantlari bo'lishi ham mumkin.

Ko'pchilik vakillari uncha katta bo'lmagan epifitlar va endofitlar hisoblanadi.

Audoinella turkumi 300 dan ortiqroq turlarni birlashtirgan. Butun dunyo bo'y lab barcha dengizlarning qirg'oqlarida, ayrimlari chuchuk suvlarda tarqalgan.

Ko'pchilik turlari uchun monosporalar yordamida jinssiz ko'payish malum xolos. Bir qator turlarida hayotiy davra gaplodiplobiont izomorf gallanish bilan o'tadi. Urug'langan karpogondan bevosita tetrasporafit rivojlanadi.

Palmariyalar – *Palmariales* tartibi

Palmariyalar tartibiga mansub suvo'tlar uchun psevparenximatoz tallom harakterli, tetrasporangiyilar qo'shuv alomatisimon, bo'shagan tetrasporangiy po'stida yangisi unishi mumkin. Bunday holatga **proliferatsiya** deyiladi. Auksillyar hujayralari maxsus karpogon shoxcha va gonimokarp yo'q. Hayotiy davrasi gaplodiplobiont yoki gaplobiont tarzda o'tadi.

Palmaria yassiyaproq qo'rinishidagi tallomga ega. Tallom qirrasi bo'y lab va yuzasida porlifikatsiya hosil bo'ladi. Yassiyaproq shaklidagi erkak gametofitlar tetrasporofitlar bilan o'xhash ko'rinishda. Ular disk shaklidagi kichkina urg'ochi individlarda hosil bo'ladi. Toshlarga birikkan holda litoralni quyi va sublitiralni yuqorisida tarqalgan.

Anfeltsiyalar – *Ahnfeltiophycidae* kenja sinfi

Anfeltsiyalar – *Ahnfeltiales* tartibi

Ahnfeltia turkumiga mansub turlarni g'o'rashasimon tallomi odatda anchagina dixotomik shoxlangan, yon shoxchali. Substratga tovon qismi yoki rizoidsimon shoxcha yordamida birikadi.

Tarmoqlangan iplarning uchidagi urg'ochi soruslarda karpogonlar hosil bo'ladi. Ularning borligi maxsuslashmagan vegetativ hujayralar bilan qo'shiladi. Urug'langan karpogondan gonimoblastlar yuzaga keladi. Karposporalar unganidan keyin po'stloqsimon tetrasporafit hosil bo'ladi.

Anfeltsiya shimoliy va uzoq sharqdagi dengizlarda litoral va sublitoralda toshli, qumli joylarda tarqalgan. Bu suvo'tning tarkibidagi agar moddasining miqdori quruq massa hisobiga 12,6 dan 32,6% gacha boradi. Oq dengizda uni sanoat asosida ko'paytiriladi.



Ahnfeltia

Rodimeniofitsidalar – Rhodymeniophycidae kenja sinfi

Kenja sinf uch bosqichli hayotiy davrani o'taydigan qizil suvo'tlarni o'z ichiga oladi. Karposporafit bevosita karpogondan yoki auksillar hujayra bilan qo'shilganidan keyin rivojlanadi. Kenja sinf 8 ta tartibga bo'linadi. Ulardan muhimlari bilan tanishamiz.

Gratsilyariyalar – Gracilariales tartibi

Bu tartibga mansub vakillarda tallomi bir o'zakli, apikal o'sadi. Spermatsiyalar kontseptakullarda shakllanadi. Karposporafit bevosita karpogon hujayradan rivojlanadi, sistokarplari bor. Rivojlanishida izomorf gallanish ro'y beradi.

Gracilaria turkumida tallomisilindr, yassi yoki yassiyaproq shaklida, dixotomik yoki bir tartibda bo'limgan holda tarmoqlangan, birikib o'sadi.

Shoxlari bazan kichkina o'simtali. Naslni navbatlanishi ro'y beradi gametofit va sporafit bir xil tuzilishga ega.

Litoral va sublitaralda tarqalgan, ayrimlari istemol qilinadi. Bu turkumning suvo'tlari agar moddasini ishlab chiqarishda dunyo bo'ylab eng ko'p qo'llaniladi. Undagi agar moddasining miqdori quruq massa hisobiga 20-32% gacha boradi.

Gigartinalar – Gigartinales tartibi

Tartibga mansub vakillarning tallomini shakli turlicha ko'rinishlarda, bir o'zakli yoki ko'po'zakli. Tetrasporangiyllari qo'shuv alomatli. Auksillyar hujayralar karpogon urug'languncha shakllanadi. Karpogon shoxcha malum darajada tabaqalashgan. Hayotiy davrasida gaplodiplobiont izomorf yoki geteromorf almashinuv ro'y beradi.

Dimontia turkumining vakillarida tallom 20-60 sm uzunlikgacha, naysimon yoki bosilganday, tartibsiz shoxlangan, kichkina poyachali, tovon qismi bilan birikadi. Hayotiy davrasi izomorf tarzda rivojlanish bilan o'tadi. Tallomi ikki yillik, bir yillik. Dengiz qirg'oqlarini sayozliklarida tarqalgan.



Dimontia

Chondrus yassi tallomga ega, dixotom tarzda yoki to'g'ri shoxlangan, g'o'rashali, substratga tovon qismi bilan birikadi. Shoxchalarining uchi o'tkirlashgan, po'stloq buralgan bo'lishi mumkin. Har bir shoxning o'rtasi o'zaro parallel joylashgan ko'plab iplardan iborat. Tetrasporangiyllari yetilganda tetrasporalarga aylanadi. *Chondrus* tallomidan karraginan moddasini olishda keng foydalaniлади.

Mastocarpus turkumining vakillarida tallom yassi, yaxlit yoki shoxlangan. Shoxlanishi dixotomik, patsimon shoxlangan, tovon qismi bandga ega. Shoxlari enli yoki ensiz, qirrasi yaxlit, tishsimon qirqilgan turlicha shakldagi o'simtali. Unga yaqin *Gigartinia* turkumining vakillaridasistokarpning tuzilishi va geteromorf

rivojlanishi bilan farqlanadi. Hayotiy davrasida karposporalari goniomokarplar tutgan urg'ochi gametofitda rivojlanadi. *Mastocarpus* Shimoliy yarimsharning sovuq va mo'tadil iqlimli Atlantika va Tinch okeanlarida keng tarqalgan. Karragininlar olishda keng foydalaniadi.

Rodimeniyalar – Rhodymeniales tartibi

Tartibning vakillarida tallomi psevdoparenximatoz tuzilishli ko'po'zakli, tik yassiyaproq, ko'pincha dixotomik shoxlangan yokisilindr shaklida bo'ladi. Tetrasporangiyllari odatda tetraedrik shaklda, bazan qo'shuv alomati ko'rinishda. Auksillyar hujayra karpogon urug'langungacha hosil bo'ladi. Prokarp mavjud. Karpogon uch-to'rt hujayrali karpogon shoxchada hosil bo'ladi, sistokarp bor. Hayotiy davrasi gaplodiplobiont tarzda izomorf almashinuv bilan ro'y beradi.

Mazkur tartibning vakillarida auksillyar hujayralar maxsus shaklda hosil bo'lishi bilan farqlanadi. Karpogon shoxchadan auksillyar hujayralar urug'lanishidan ancha ilgari shakllanadi. Keyin karpogon auksillyar hujayralar, vasistokarpning asosida bir necha hujayralar bitta ko'pyadroli ko'shilish xurayrasini hosil qiladi, uni yuzasida karposporalar shakllanadi.

Rhodymenia. Uzoq sharq va Kamchatkada 32 m chuqurlik-largacha tarqalgan turli substratlarda oval yoki keng yurakkimon yassiyaproq shaklidagi teshikli rodimeniya tarqalgan. Bu suvo'tning uzunligi 14-30 sm atrofida, sarg'ish-pushti rangda. Tallomini qoziqsimon asosi kalta band bilan tugaydi. Tallomda turli kattalikda teshiklar bor.



Rhodymenia

Seramiyalar – Ceramiales tartibi

Tallomi bir o'zakli tuzjishli. Tetrasporangiylari odatda tetraedrik shaklda, biroq qo'shuv alomatlilari ham bor. Auksillyar hujayra karpogon urug'langanidan keyin ajraladi va karpogon shoxcha prokarp hosil qiladi.

Karpogon shoxchada to'rt hujayralisistokarp hosil bo'ladi. Hayotiy davrsasi gaplodiplobiontlı izomorf tarzda nasllarini gallanishi ro'y beradi.


Seramiyalar qizil suvo'tlar orasida turlarining soni jihatidan eng kattasi hisoblanadi. Jami turkumlarning yarmiga yaqini va turlarning undan birini o'zida jamlagan. Sodda tuzulganlari ko'pyadroli bir qator o'zakdan iborat tarmoqlangan buta shaklida bo'lib, bunday tuzulish Callithamnion turkumiga xos seramiyalarning boshqa vakillari tarmoqlangan yassiyaproq shaklga ega.

Yassiyaproq bir qavat hujayralardan iborat, oval yoki lantset shaklida, qirrasi tekis yoki to'lqinli ko'rinishda.

Cramium tallomi yo'g'on ipsimon, psevdodixotomik shoxlangan. Asosiy shoxi tarmoqlangan qo'shimcha shoxchalar bilan qoplangan. Iplari bo'g'imli, hujayralari katta, po'stloq bilan qoplangan. Litoralda va sublitoralda toshshag'alli joylarda, boshqa suvo'tlarning ustida barcha dengizlarda tarqalgan.

Polysiphonia Turkumning nomi tallomning anatomiya tuzilishini anglatadi. Tallomi butasimon, kuchli ipsimon shoxlangan, bo'g'imli, bo'yi 25 sm gacha boradi, diskimon tovini bilan birikadi. Apikal hujayralari segmentlar hosil qiladi, ulardan birnechaqator (4-25) periferik hujayralar yuzaga keladi. Bu holat markaziy o'zak hujayralarini (markaziy sifon) qoplovchi hujayralar bilan o'ralishiga olib keladi.

Karposporalarisistokarp ichida rivojlanadi. Diploid karposporalari yetilgansistokarpdan to'qiladi va morfologiyasidan gametofitga o'xshash tetrasporafitlar hosil qiladi. Tetrasporafitlar tetrasporangiyilar peritsentral hujayralarga aylanadi. Tetrasporangiylarda tetraedrnning burchaklarida to'rtadan tetrasporalaralar hosil bo'ladi, ularning yuzaga kelishida mitoz ro'y beradi.



Cramium

YASHIL SUVO'TLAR – VIRIDIPLANTAE OLAMI

Yashil suvo'tlar olami barcha yashil rangdagi suvo'tlarni (keng manoda) va yuksak o'simliklarni birlashtiradi. Bu olamga mansub organizmlar xloroplastlarga ega, ularning po'sti ikki membranadan iborat, tilakoidlari to'p xolga jamlangan. Xlorofill a va v mavjud. Kraxmal xloroplastning stromasida to'planadi.

Ushbu olam ikki guruhga: bittasi streptofitlar deb nomlanadigani yuksak o'simliklar va harofitlarni, va ikkinchisi xlorafila deb nomlanadiganiga boshqa barcha yashil suvo'tlar mansub.

YASHIL SUVO'TLAR (KENG MANODA)

Yashil suvo'tlar quyidagi umumiy tavsiflarga ega.

1. Bir hujayrali, koloniya hosil qilgan va ko'p hujayrali tuzilgan. Tallomi morfologiya jihatidan ameboiddan tashqari barcha tuzulishlilardan iborat.
2. Xivchinlari ko'pincha ikkita, ko'p bo'lishi ham mumkin, bir xil uzunlikda, mastigonemalarsiz. Bazal tanalari o'zaro qarama-qarshi joylashgan yoki bir biriga nisbatan soat millari bo'ylab yoki qarama-qarshi surilgan.

3. Xloroplastlari qo'sh membrana bilan qoplangan, xuddi glaukotsistofitlar va qizil suvo'tlardagi va yuksak o'simliklardagi kabi.

4. Lamellalari 2 tadan 6 tagacha yoki undan ko'proq tilakoidli. O'rab turadigan lamellalari yo'q.

5. Pigmentlari – xlorofill a va v, ayrim parazinafitsalarda xlorofil s mavjud. Qo'shimcha pigmentalradn muhimi lyutein, briopsidlarda eng muhimi sifonein va sironoksantin.

6. Xloroplastdagagi DNKnинг xalqa shaklidagi molekulalari mayda yumaloqlar (nukleoidlar) ko'rinishda va xloroplast bo'ylab taqsimlangan. DNK xech qachon yaxlit nukleoid halqa ko'rinishida bo'lmaydi.

7. Pirenoidlari, agar bo'lsa ko'p tilakoidli. Har biri kraxmalli po'st bilan o'ralgan.

8. G'amlangan maxsulot -- kraxmal, u donalar holida xloroplastning stromasida to'planadi.

9. Ko'zcha xloroplastda joylashgan va u bir necha qator pigmentli globulalardan iborat.

10. Mitoxondriylari yassiyaproq kristli.

Hujayrasining po'stini asosiy tarkibisellyuloza, ayrimlarida ksilan va mannan bo'ladi.

12. Mitoz ochiq, yarimochiq,yopiq shu bilan birga metatsentrik bo'lishi mumkin.

13.sitokinez bo'linish ariqchalarini hosil qilish bilan yoki fragmoplast va fikoplast yordamida hujayra plastinkasini yuzaga keltirish bilan ro'y beradi.

14. Ko'payishi vegetativ, jinssiz (zoosporalar, aplanosporalar, avtosporalar hosil qilib) va jinsiy (jinsiy jarayonning barcha ko'rinishlarida) tarzda amalga oshadi.

15. Hayotiy davrsasi gaplobiont (zigota reduktsiyali), hayotiy davraning barcha tiplari ro'y beradi.

16. Avtotroflar, miksotroflar, geterotroflar.

17. Chuchuk suvlar, dengizlar, tuproqda va boshqa quruqlik sharoitlarida uchraydi.

Yashil suvo'tlar (harofitlarni ham qo'shib hisoblaganda keng manoda) suvo'tlarningeng katta 500 ga yaqin turkum va 8000 ga yaqin (ayrim malumotlarga qo'ra 13000-20000) turkumdan iborat, morfologiyasi jihatidan ham juda xilma-xil. Ularning orasida birhujayrali, koloniya hosil qilgan, shu jumladansenobiy va ko'p hujayrali vakillari bor.

Yashil suvo'tlarning tallomini tuzulishi quyidagi tiplarda bo'ladi:

-monad (masalan, Chlamydomonas, Volvo, Gonium turkumlarida);

-palmelloid yoki tetrasporali (Tetraspora, Sphaerocystis turkumlarida);

-kokkoid (Chlorella, Hydradictyon turkumlari)

-sartsinoid (Chorosarcinopsis turkumi)

-trixal yoki ipsimon (Ulothrix, Spirogyra turkumlarida)

geterotrixa yoki turli yo'g'onlikdagi ip (Stigeoclonium, Draparnaldia turkumlari)

-psevdoparenximatoz (Protoderma turlarda)

-parenximatoz (Ulva, Ulvaria turkumlarida)

-sifonal (Caulerpa, Bryopsis turkumlarida)

-sifonokladial (Cladophora, Dactyosphaeria) turkumlarida

Yashil suvo'tlarning yosh hujayralarida va rivojlanish bosqichlari izokontisman geterokontli. Bitta hujayradagi xivchinlarining soni turlicha – 1, 2, 4, 8, 16 va undan ko'proq, hatto 120 gacha bo'ladi. Endogoniylar va briopsislarning ayrimlarida ko'p miqdordagi xivchinlar hujayraning oldingi qismida tojsimon ko'rinishda joylashgan. Bunday hujayralarni **stefanokontlar** deb ataladi.

Yashil suvo'tlarning xloroplastlari shakli va kattaliklariga ko'ra turlicha. Bir hujayrali vakillarida u ko'pincha asosi qalinlashgan piyola ko'rinishida. Ipsimon tuzulgan vakillarida xloroplastlar halqa, disk, to'r, spiral buralgan tasma va boshqacha ko'rinishlarga ega. Xloroplastlarida bitta yoki birnechta pirenoidlari bo'ladi.

Yashil suvo'tlarning xloroplastlarini tuzilishi yuksak o'simliklardagilarga yaqin. Karotinoidlardan doimo v-karotin, lyutein (eng muhimi), zeaksantin, violaksantin, anteraksantin, neoksantin bo'ladi. Briopsidlarda sifanoksantin, loroksantin va sifonein bor. Sifonoksantin va loroksantin kladoforalarda, sifonoksantin ayrim Ulva turlarida bor.

Yashil suvo'tlarning ayrimlarini hujayralari (Chlamydomonas nivales, Haematococcus pluviales, Trentepohlia) qizil yoki pushti ranglarda bo'lishi ularda xloroplastdan tashqarida karotinoid pigmentlarining hosilalari bo'lishi (gematoxrom) bilan bog'liq.

Sifon tuzilishli ayrim suvo'tlarda rangsiz amiloplastlar bo'lib ularda kraxmal to'planadi.

Yashil suvo'tlarning ancha ko'philigida xech bo'limganda bitta xromoplastga ega shu boisdan ular avtotrof oziqlanadi. Shu bilan birga ularning orasida rangsiz vakillari – obligat geterotroflar (Prototheca va Polytoma) ham bor. Bir qator yashil suvo'tlar miksotroflar hisoblanib fotosintezlash bilan bir qatorda suvda erigan organik moddalar – kandlar, aminokislotalarni shilib oziqlanadi. Shu bilan birga ular orasida oziq zarralarni fagotrof tarzda yutadiganlari ham bor.

Yashil suvo'tlarning hujayralarida "ko'zcha" bo'lsa u doimo xloroplastda joylashadi. U odatda karotinoidlari mavjudligidan

sarg'ish-qizil tusda, u yashil va ko'k yorug'likni fotoretseptorga o'tkazadi.

Yashil suvo'tlar ijobiy (yorug'lik manbaiga tomon) va salbiy (kuchli yoritish manbaidan) fototaksis xususiyatiga ega. Yorug'likni kuchidan tashqari harakat ham fototaksisiga tasir qiladi. Yorug'lik o'zgarmaganda Haematococcus zoosporalari 4°C da salbiy 16°C da va undan yuqori haroratda ijobiy fototaksisni namoyon qiladi. Xuddu shunday natijalar Ulothrix va Ulva zoosporalarida ham kuzatilgan.

Yashil suvo'tlardagi asosiy g'amlangan maxsulot bu kraxmal. U xloroplastning ichida to'planadi. Dazikladiyalarga mansub suvo'tlarda zahira polisaxaridlarsitoplazmada ham uchraydi. Yashil suvo'tlarda kraxmal to'planishini yod-kaliy-yod tasirida kraxmalni to'q ko'k-qora rang hosil qilishi bilan aniqlash mumkin.

Yashil suvo'tlardagi kraxmal yuksak o'simliklardagi shunday-larga yaqin va amiloza va amilopektindan iborat. Boshqa eukariot suvo'tlarda fotosintez maxsulotlari, kraxmal va boshqalar xloroplastlardan tashqarida,sitoplazmada to'planadi. Kriptomonad suvo'tlarda kraxmal periplas bo'shliqda to'planadi. Yashil suvo'tlar kraxmaldan tashqari lipidlar ham to'playdi, ular tomchi xolida xloroplastni stromasida vasitoplazmada bo'ladi.

Chuchuk suvlarda tarqalgan monad va palmelloid tuzilgan yashil suvo'tlarning hujayralarida qisqaruvchi vakuola mavjud. Hujayra odatda xivchin asosida ikkita qisqaruvchi vakuola bo'lib navbat bilan qisqaradi.

Yashil suvo'tlarda mitoz yopiq bo'lishi mumkin, yani yadroning membranasi mitoz davrida buzulmaydi. **Treuksa** suvo'tlarida mitoz yarimyopiq tarzda o'tadi, uni **metetsentrik mitoz** deyiladi. Bunda metafaza davridasentriola bo'linish urchuqlarini qutblarida emas metafaza plastinkasi atrofida joylashadi. Harofitlarda mitoz ochiq tarzda ro'y beradi. Yadroning membranasi eriydi va telofaza davrida xuddi yuksak o'simliklarida ro'y bergeniday paydo bo'ladi.

Sitokinez bir qator yashil suvo'tlarida (ulvafitsalar, sodda tuzilgan harofitlar va ayrim prazinofitsalarda) bo'linish ariqchalarini hosil qilib amalga oshadi. Hujayrasining devori yaxshi rivojlangan suvo'tlarda fikoplast shakllanadi. Bunday usulda bo'linish xlorofitsa suvo'tlarda uchraydi. Ayrim xlorofitsa suvo'tlarida fikoplast hujayra devorining materialini tutgan vezikulaning shakllanishda

ishtirot etadi, shu zaylda hujayraning plastinkasi uning o'rtasida. chekkasi tomonda hosil bo'lmaydi. Bunday suvo'tlardagi to'sikda (ichopeta) plazmodesmalar bo'lishi mumkin. Haralar va koleo-xetalar hosil bo'layotgan yangi hujayralardagi to'siqni fragmentlar yordamida shakllantiradi.

Xlorofitsa va prazinofitsa sinflarida ayrim hujayralar yalонg'och, hujayrasining devori yo'q. Mezostigmalar va ko'plab prazinofitsalarning plazmellemmasini ustida organik tangachalar to'planadi. Harakatdagi hujayralarning po'stida organik tangacha-larning bo'lishi – bu soddalik belgisi. Ular bir qator ulvalar va hara suvo'tlarning harakatdagi hujayralarida ham bor. Prazinifitsalarda va undan keyin xlorofitsalarda tekalarni paydo bo'lishi bu progressiv holat.

Xlorofitsalardagi tekalar gidroksiprolinga uni turli oligosaxaridlar bilan bog'langan glikoproteinlardan iborat.

Sifonsimon suvo'tlardasellyulloza hujayra devorida bo'lmashligi mumkin, bunday holatda tarkibning asosini ksilan tashkil qiladi (masalan, Halimeda turkumida) yoki qo'shimcha sifatida ksilanga mannan qo'shiladi. Hujayra devorining fibrillyar qismining tarkibi suvo'tning rivojlanish davrida bog'liq holda ham o'zgaradi. Masalan, Bryopsis sporofitini po'stida mannan bo'ladi, gametofitda esa ksilan vasellyuloza mavjud. Po'stining kimyoviy tarkibi tallomning turli qismlarida ham o'zgarishi mumkin. Masalan, **Codium** turkumida eskilarida mannan, yangilarida xali tabaqalashmaganlarida glyukon bo'ladi.

Ko'pchilik yashil suvo'tlari hujayrasining devorida asosiy qismi –sellulozadan iborat. U hujayra plazmolemmasida-gisellyulozasintetaza fermenti yordamida hosil qilinadi. Sellyulozosintetazaning 6 tadan 10 tagacha molekulada subbirliklarga to'planadi keyin ular terminal komoplastlarga birlashadi. Yashil suvo'tlarda terminal komplekslarning ikki tipi mavjud – tarmoqlangan (harofitlarda) va yo'lli (xlorofitsalarda).

Yashil suvo'tlarning kokkoid tuzulishdi ayrim vakillarida hujayrani po'stida sporopollininga o'xshash moddadan iborat qo'shimcha qavat ham bor.

Yashil suvo'tlarning ko'payishi vegetativ, jinsiz va jinsiy yo'llar bilan amalga oshadi. Vegetativ ko'payish bir hujayrali mustaxkam, po'stsizlarda hujayrani teng ikki bo'linishi bilan

(masalan, Xunaliella) koloniya hosil qilgan va ko'phujayralilarda – tallomni bo'laklarga bo'linib ketishi bilan, haralarda maxsus rizoidlar va tugunaklari yordamda ro'y beradi.

Jinssiz ko'payish yashil suvo'tlarida keng tarqalgan. Jinssiz ko'payishda yuzaga keladigan zoosporalar yalang'och-po'stsiz yoki qattiq po'st bilan qoplangan bo'lishi mumkin. Zoosporalar malum vaqt harakatlangandan keyin to'xtaydi, xivchinlarini tashlaydi, yumaloqlashadi (yalong'och zoosporalarda) va unib vegetativ tanani hosil qiladi.

Aplanosporalar (harakatlatlanmaydigan sporalar) – jinssiz ko'payish sporalarida xivchinlari bo'lmaydi, biroq qisqaruvchi vakuolalarga ega. Avtosporalar harakatlanmaydigan vegetativ hujayralarning kichraygan nusxalari bo'lib, ularda qisqaruvchi vakuolasi yo'q. Avtosporalar quruq sharoitdagi suvo'tlarda hosil bo'lishi ko'proq uchraydi.

Jinsiy jarayon xologamiya, konyugatsiya, izogamiya, geterogamiya, oogamiya tarzida amalga oshadi.

Ko'pchilik yashil suvo'tlardagi hayotiy jarayon zigota reduktsiyali gaplobiont tarzda o'tadi. Bunday holat ro'y beradi-ganlarda diploid bosqich zиготада bo'ladi. Spora reduktsiyali gaplodiplobiont hayotiy davra ulvalar, kladoforalar va trentepoliyalarning ayrimlarida sodir bo'ladi. Bu guruh suvo'tlar uchun diploid sporofitni gaploid gametofit bilan gallanib turish xos.

Gaploid hayotiy davra somatik reduktsiya bilan **Prasiola turkumida** ro'y beradi xolos.

Yashil suvo'tlar kurrai zaminimizning barcha xudud va sarhadlarida tarqalgan. Ularning ko'pchiligini chuchuq suv havzalarida (harofit va xlorofitsalarning vakillari) uchratamiz. Sho'rtob suvlar va dengizlarda tarqalganlari ham (ulvafitsalar sinfining ko'pchilik vakillari) kam emas. Ular oziqlik darajasi distrofdan evtroflargacha, vodorod ko'rsatgichi (rN) ishqoriydan nordongacha, organik moddalarning miqdori turlicha-kseno-dan polisaprobgacha va turli haroratli sharoitlarda (termofil, mezofil va kriofil) tarqalgan. Ular plankton, perifiton va bentosda tarqalgan. Yashil suvo'tlarning orasida tuproqda quruqlik sharoitida tarqalganlari ham bor. Ularni daraxtlarning po'stloqlarida, tuproqni yuzasida, zax devorlarda xatto havoda ham uchratish mumkin. Bunday joylarda **Trentepohlia** va **Trebucia** turkumining vakillari

bo‘ladi. Yashil suvo‘tlarning ayrim turlari suvni, tuproqning yuzasini bazan qorni turli ranglarda bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi. **Chlamydomonas nivalis** turini tog‘larning yuqorisida qorni qizil rangga kirishiga olib keladi. Bu suvo‘tida xlorofilldan karotin ko‘payib ketadi.

Ohak birikmali joylarda tarqalgan endolitofil suvo‘tlar aloxida ekologiya guruhini tashkil qiladi. Avvalo ular parmalovchi suvo‘tlar. Gomonia turkumiga mansub turlar chuchuk suvlarda ohakli muxitni ichiga kiraoladi, ularni g‘ovaklashtiradi, turli fizikaviy, kimyoviy tasirlarga chidamsiz qilib qo‘yadi. Bir qator suvo‘tlar chuchuk suvlar va dengizlardagi suvda erigan Kaltsiy tuzlarini erimaydigan tuzlarini tallomida to‘planadigan xiliga aylantiradi. Tropiklarda tarqalgan yashil suvo‘tlarning tallomida masalan, **Halimedia** kaltsiy karbonat to‘playdi. Ular dengizlardagi riflarning qurulishida faol qatnashadi. Balandligi 50 metrlargacha yetadigan **Halimedia** qoldiqlaridan iborat yetqizillar Avstraliya materigining atroflarida 12 metrdan 100 m churqurliklarga bo‘lgan joylarda uchraydi.

Yashil suvo‘tlarning trebuksifitsalar sinfiga mansublari zamburug‘lar bilan lishayniklarning tarkibiga kiradi. Lishayniklarning 85%ga yaqini fotobiont sifatida bir hujayrali va ipsimon suvo‘tlardan iborat. Lishayniklarning 10%sianobakteriyalardan va 4% dan ko‘prog‘inisianobakteriyalar va yashil suvo‘ti tashqil qiladi. Ular endosimbioz sifatida sodda xayvonlar, gidra, bulutlar va ayrim yassi chuvalchanglarda ham tarqalgan. Yashil suvo‘tlarning ayrimlari sute Mizuvchi xayvonlarning junlarini orasida ham bor.

Yashil suvo‘tlarning orasida tekinxo‘rlik bilan hayot kechiradiganlari bor. Polyllosiphon suvo‘ti xo‘jayin-o‘simlik bargini sarg‘ayishiga sabab bo‘ladi. Cephaleouros turkumiga mansublari yuzlab turkum o‘simliklarining bargida obligat endofit sifatida tarqalgan. U zang deb ataladigan kasallik qo‘zg‘atadi.

Bir qator yashil suvo‘tlar xo‘jalik ahamiyatiga ham ega. Ularni suv ekotuzulmalari monitoringini amalga oshirishda foydalaniladi. Masalan, AQSh atrof muxitni muxofaza qilish agentligi chuchuk suvlarda test o‘tkazish uchun indiqator organizm sifatida **Selenastrum capricornitum** va **Senedesmus subspicatus** suvo‘tlaridan foydalanini tavsiya etadi. Yashil suvo‘tlaridan ifloslangan suvlarni tozalashda, baliq xo‘jaliklari havzalarida foydalaniladi.

Ayrim turlar bir qator mamlakatlarning axolisi tomonidan oziq sifatida ishlataliladi. Bu maqsadlarda masalan, Yaponiyada **Ulva** va **enteromorpha** maxsus qurilmalarda ko'paytiriladi.

Yashil suvo'tlarning ayrim turlaridan fiziologiya jihatidan faol moddalar olishda qo'llaniladi. Yashil suvo'tlar turli biologik tadqi-qotlarda yaxshi model obekti ekanligini ham yoddan chiqarmaslik zarur. **Haematococcus** turkumining turlari sanoat miqyosida astaksantin karotinoidini uchun maxsus ko'paytiriladi. Kichik ko'llarda **Botryococcus** suvo'tini xaddan tashqari ko'payib suvning "ko'karib" ketishi tufayli baliqlarning o'limiga ham sabab bo'ladi.

Chlorella va Chlamydomonas o'simlik hujayralaridagi fotosinteze ni o'rghanishda modul obekt hisoblanadi. Acetabularia suvo'tining gigant ko'pyadroli tallomi, Chara va bir hujayrali Dunaliella va Chlamydomonada gen injeneriyasida transfarmatsiya obekti sifatida qo'llaniladi.

Algologlar yashil suvo'tlarning filogeniyasi xloroplastlarning mavjudligi, ular ikki qavat membrana bilan o'ralganligi, tilakoidlarni bir to'plamga jamlanganligi xlorofill a va v, karotinoidlar (lyuetin, v-karotin) va kraxmalni xloroplastlarda to'planishi asosiy belgi deb qaraydilar. Mana shu belgilari yashil suvo'tlarni va ularga yaqin streptofitlarni boshqa eukariotlardan farqlaydi.

Yashil suvo'tlarni monofilitik kelib chiqishi 185 rDNK ni bardavomligiga asoslangan qiyosiy filogenetik taxlillar ham tasdiqlaydi. Bu taxlillar barcha yashil o'simliklarni muhim ikkita guruhga – Chlorophyta bo'limi s.str. Sluiman 1985 va Streptophyta Bremer 1985 bo'linishiga asos bo'lgan.

Monofilitik Chlorophyta s. str. monofilitik guruh ichida tarixiy taraqqiyoti jihatidan mustaqil rivojlangan to'rtta – Chlorophyceae, Treboxiophyceae, Ulvophyceae va Prasizophyceae sinflari bor. Oxirgi Prasizophyceae sinfi polifilitik guruh u Chlorophyta dan ajralgan. Streptophyta guruhini ichida ikkita yo'nalish – yuksak o'simliklar va harofitlar ajraladi.

Ushbu darslikda L. A. Lemis, R. M. Melourt, 2004 sistemasini Moskva davlat universiteti, Gomel universitetlarida qabul qilinganligi tufayli biz ham yashil suvo'tlarni to'rtta Prasinaphyceae, Ulvophyceae, Treboxiphycaceae, Chlorophyceae Chlorophyta va Mesastigmatophycea, Chlorokybophyceae, Riebsormidiophyceae, Coleochaetophyceae, Zygematophyceae, Charophyceae sinflaridan

iborat. Charophyta bo'limlariga bo'linishini qabul qildik. Bu har ikkala bo'lim xivchinli bosqichi, mitoz vasitokinezni tipi bir qator biokimyosi bilan farqlanadi.

YASHIL SUVO'TLAR – CHLOROPHYTA BO'LIMI (S.STR)

Bo'lim mikronayli ildizchalarining simmetrik joylashganligi, mitozni yopiq, yarimyopiqligi, metatsentrikligi, sitokinezni bo'linish ariqchasi va fikoplastli hujayra plastinkasi shakllanishi bilan boradigan suvo'tlarni o'z ichiga oladi. Bo'limga dengizlarda, chuchuk suvlari va quruqliklarda tarqalgan suvo'tlar mansub.

Prazinofitsa – Prasinophyceae sinfi

Sinfni nomi grek prasinos – yashil so'zi bilan nomlangan. Sinfga mansub suvo'tlar quyidagi umumiy tavsiqga ega.

1. Ko'pchilik vakillari – manad bir hujayrali, xivchinlari apikal yoki lateral joylashgan xivchinli, kamdan-kam kokkoid va palmelloid tuzilishli.

2. Xivchinlari organik tuzulishli tangachali va naysimon bo'limgan tuklar bilan qoplangan.

3. Ko'zchalari agar bo'lsa, u xloroplastda joylashgan.

4. Qisqaruvchi vakuola faqat chuchuk suvlarda tarqalganlaridagina bo'ladi.

5. Hujayra ko'pchilik vakillarida organik tangachalar bilan qoplangan. Tangachalar o'zaro birlashib teka hosil qilishi mumkin.

6. Mitoz ochiq yoki yopiq.

7. Sitokinez bo'linish ariqchasi bilan yoki fikoplast yordamida ro'y beradi.

8. Ko'payishi vegetatiiv, jinssiz. Jinsiy ko'payish bitta turda malum xolos.

9. Rivojlanish gaplobiont, zigota reduksiyali.

10. Ko'pchiligi dengizlarda tarqalgan, chuchuk suvlarda ham uchrayıdi.

Prazinofitsalarda xivchin 2, 4, 16 ta bo'ladi. Ko'pchilik turlarida u bir xil uzunlikda, biroq Montoniella, Nephroselmis turkumlarida geterokont. Xivchin odatda tangachalar bilan qoplangan.

Masalan, Tetraselmis turkumining vakillarida xivchin morfoloyiyasi turlichay to'rt qavat tangachalar bilan qoplangan.

Bazal tana odatda fibrillar bilan bog'langan, usetrin oqsiliga ega. Xivchin apparatini yadroning yuzasi bilan bog'laydigan rizoplast mavjud.


Barcha prazinofitsalarda xloroplastlar bor. Xloroplastlari bitta hujayrada bittadan, birnecha bo'lakli bo'lishi mumkin, odatda pirenoidli. Xloroplastda xlorofill a va v mayjud, ularda yana 20 dan ko'proq pigmentlar uchraydi.

Prazinofitsalarning hujayrasida membranani ustida turlicha ko'rinishlardagi birnecha qavat (bittadan beshtagacha) tangachalar mavjud. Masalan, **Pyramimonas** hujayralari uch qavat tangachalar bilan qoplangan: ichkisi kichik kvadratlar, o'rta qavat savatchaga o'xshash, tashqi qavat yirik tojsimon ko'rinishli tangachali. Tangachalarning hammasi Golji apparatida hosil qilinib hujayraning yuzasida xivchin yaqiniga chiqariladi. Tangachalarning ayrimlari ko'p hollarda nordon polisaxaridlar (pektin moddalari) hamda biroz oqsildan iborat. **Tetraselmis** va **Scherffelia** hujayralari ikki yoki uch qavatli yaxlit teka bilan qoplangan. U aloxida tangachalarni o'zaro qo'shilishidan hosil bo'lgan. Bir qavat prazinofitsalar qalin po'stli tinim bosqichni (**fikomlar**) hosil qiladi, ularning po'stini tarkibida sporopollenin moddasi bor. Sistada ko'p miqdorda lipidlar borligidan suv yuzasida bo'linishini taminlaydi.

Prazinofitsalarning tarkibidagi bitta tarmoqlangan mitoxondriy plastinka kristli. Kattagina Golji apparati yadro bilan xivchinning bazal tanasini orasida joylashadi.

Plazmolemmanni ostida hujayraning oldingi tomonidan trikotsistlar (ekstrusomalar) joylashgan. Prazinofitsalarning trikotsistlari kriptofitdagilarga yaqin tuzulishli.

Yadro hujayrada bitta. Dengizlarning planktonida tarqalgan **Ostreococcus tauri** mustaqil hayot kechiradigan eukariot hujayralarning orasida eng kichik – 9,7 mt genomga ega.



Tetraselmis

Mitoz vasitokinez hujayrani harakati davomida ro'y beradi. Bazal tana profazani dastlabki davrida qo'shaloqlanadi, xivchinlar hosil bo'ladi, keyin rizoplast bo'linadi. Prazinofitsalarning ayrimlarida **Mantoniella** kabilarda mitoz yopiq yoki yarimyopiq (ulvalar, xlorofitsalar va trebuksiyalardagi kabi), boshqalarida masalan, **Pyramimonas** turkumida mitoz ochiq (haralardagi kabi).sitokinez plasmolemmasinisitoplazmaning ichida botib kirishi bilan ro'y beradi.

Tekasi bor prazinofitsa suvo'tlarida hujayraning bo'linishi boshqacha sodir bo'ladi. U bo'linayotgan hujayraning tekasini ichida amalga oshadi. Bo'linishdan oldin xivchinlarini tashlab yuboradi. Bo'linish urchuqlari trebuksiya suvo'tlaridagi kabi metatsentrik. Yangi hosil bo'lgan hujayralar o'zlariga yangi teka va xivchirlarni hosil qiladi.

Prazinofitsalarning ayrimlari – miksotroflar, suvda erigan organik birikmalarini shimish va fagotrof – oziq zarralarini yutish qobiliyatlariga ham ega.

Jinsiy ko'payish **xologamiya** tarzida o'tadi. Hujayralar o'zaro qo'shilganidan bir soat o'tganidan keyin kariogamiya kuzatiladi. Zigota tinim davrini o'taydi. Birinchi meyoz natijasida zigotadan xivchini bo'lgan ikkita hujayra chiqadi, keyin u bo'linadi.

Prazinofitsalarning ko'pchiligi dengiz suvlarida uchraydi. Ularning orasida pikoplanton vakillari ham bo'lib ancha katta 100-800 mkm diametrlistaga o'xshash bosqich-fikotlar hosil qiladi.

Prazinofitsalar polifilitik suvo'tlar. Bu ularning ultratuzulishlaridagi xususiyatlari va filogenetik taxlillar bilan isbotlangan.

Prazinofitsalar unchalik katta guruh emas, 20 ga yaqin turkum va 200 atrofidagi xivchindorlardan iborat. Tartiblarga ajratishda hujayrasining tuzulishi, tangachalarini shakli, mitoz vasitokinezdagi xususiyatlari hisobga olingan.


Piramimonadalar- Pyramimonadales tartibi

Hujayraliri to'rt xivchinli, uch qavat tangachali. Mitoz ochiq, telofazada saqlanadigan urchuqli,sitokinez bo'linishi ariqchasi hisobiga boradi.

Pyramimonas turkumining vakillari bir hujayrali flagellatlar. Hujayrasining oldingi qismida 4-16 xivchin chiqadi, ularning uzunligi hujayradan besh barobar uzun. Xloroplast hujayrada bitta,

bitta pirenoidli yoki katta ko'zchali. Bu turkumning vakillari chuchuk, sho'rtob va dengiz suvlarida keng tarqalgan.

Pterosperma tinim bosqichini hosil qiladi, uni **fikomalar** deyiladi. Fikomada yadro, pirenoidli xloroplastlari bor. Hujayra po'sti ichki-tashqi qalin, ichki yupqa qavatdan iborat. Jinssiz ko'payishi fikoma ichida hosil bo'ladigan zoosporalar yordamida amalga oshadi, birnecha xtaftadan keyin ular fikomalarga aylanadi. Dunyo okeani bo'ylab keng tarqalgan.



Pterosperma turkumining turlari

Xlorodendralar – Chlorodendrales tartibi

Hujayralari siqilgan, to'rt xivchinli, teka bilan qoplangan, mitoz yopiq metatsentrik, sitokinez bo'linish ariqchasi hosil qilish bilan boradi.

Tetraselmis to'rt xivchinli hujayra xolida yoki shilliq bandga birikkan harakatlanmaydigan hujayra ko'rinishida bo'ladi. Hujayrasining yuzasi teka bilan qoplangan. Hujayra bo'linganida yangi teka harbir yangi hujayrani atrofida asosiy teka ichida hosil bo'ladi. Hujayraning oldingi qismida tekadagi teshikdan tuklar bilan qoplangan xivchinlar chiqadi.

Xloroplast bitta, bazal pirenoidli. Hujayralari odatda yashil tusda bazan karotinoidlar to‘planishi bilan qizil rangda ham bo‘ladi. Dengizlarda tarqalgan. Ular dengizlardagi **Convoluta** turkumiga mansub yassi chuvalchanglarda ham uchrab ularni yashil rangda bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Suvo‘t chuvalchangni hujayralararo bo‘shlig‘ida joylashadi. Chuvalchang ichida xivchinlari, teka, ko‘zcha bo‘lmaydi. Agar chuvalchang tuxumlarida suvo‘t bo‘lmasi yaxshi rivojlanmaydi va tezda o‘lib qoladi. Yosh chuvalchang mayda xayvonlar bilan oziqlanadi. Katta bo‘lgan sari xazm azolari degeneratsiyaga uchrab u endi suvo‘tning fotosintez maxsuloti bilan oziqlana boshlaydi. Bundan tashqari chuvalchang **Tetraselmis** hujayralarini o‘ldirib ular bilan oziqlanadi. Provardida u ochlikdan halok bo‘lish arafasida ko‘plab miqdorda tuxum qoldiradi.

Ulvofitsalar – Ulvophyceae sinfi


Sinfning nomi asosiy turkum – *Ulva* (ulva latinchada botqoqlik o‘simligi; keltra “ul”suv) bilan bog‘liq. Sinf quyidagi umumiy tavsifga ega.

1. Tallomi kokkoid, sartsinoid, ip, tupicha yo‘g‘onlikdagi ip, psevdoparenximatoz, parenximatoz, sifonal, sifonokladial tuzulishli.
2. Monad bosqichi apikal xivchinli, unda tangachalari bo‘lishi mumkin.
3. Mitoz yopiq,sentrikli, telofazada urchuqlar saqlanadi.
4. Ko‘pchilik vakillaridasitokinezsitoplazma membranasini botishi bilan sodir bo‘ladi (trentepoliyalarda fragmoplast yordamida).
5. Dengizlarda tarqalgan ayrim vakillarining hujayrasini devorida kalsiylaridan karbonat tuzi to‘planadi.
6. Hayotiy davrsasi zigota reduktsiyali gaplobiont, gameta reduktsiyali diplobiont, spiral reduktsiyali gaplodiplobiont tarzda amalga oshadi.
7. Ko‘pchiligi dengizlarla, qisman chuchuk suvlarda va quruqlik sharoitida tarqalgan. Ayrim turlari lishayniklarning tarkibiga kiradi.

Ulvofitsalar birhujayrali to‘rt xivchinli prazinofitsalarining ajdodlaridan kelib chiqqan deb hisoblanadi. Shunga qaramay xozirgi zamon prazinofitsalar bilan aloqalari xozircha to‘la aniq emas.

Reproduktiv hujayralarning ultrastrukturalarini qiyosiy taxillari, mitoz vasitokinezdagi xususiyatlar xaqidagi malumotlar ulvafitsalar sinfini monofiliyaligini shubxaga qo'yadi. Sinf doirasida sifonal va sifonokladial tallomlilar va trentepoliyalar tartiblari monofil guruhni tashkil qiladi.

Sinf 100ga yaqin turkum 1000 dan ortiq turlarni o'z ichiga oladi. Tartiblarga ajratish uchun morfologiya va ultrastruktura tuzulishlari hamda rivojlanishidagi xususiyatlardan foydalaniлади.



Ulvophyceae filogenetik aloqalari (L.A.Lewis, R.M.Mc Court, 2004)

Ulotrikslar – Ulothrichales tartibi

Tartibga mansub vakillar bir hujayrali (**Codiolum**), tarmoqlangan ip (**Spongomorpha**), oddiy ip (**Ulothrix**), bir qavatli yassiyaproq (**Monostroma**) tuzulishli tallomga ega. Rivojlanish davrida kodiolum bosqichi bo'lib uni unishda meyoz gaploid sporaclar hosil bo'ladi. Gametalari vegetativ hujayralarda shakllanadi.

Ulothrix turkumiga mansub turlar tarmoqlanmagan ip, substratga maxsus bazal hujayrasi bilan birikadi. Hamma hujayralari (bazaldan boshqa) bo'linib zoospora va gametalarni hosil qilaoladi. Hujayrasining ko'p qismi hujayra shirasi vakuola bilan egallangan. sitoplazmada yadro va yassiyaproq shaklidagi xloroplast bor.


Jinssiz ko'payganda hujayralarda bittadan 32 ta gacha to'it xivchinli zoosporalar hosil bo'lib ular hujayra devoridagi tirkishlar orqali chiqadi. Zoosporalar mayda tangachalar bilan qoplangan. Mikro va makrozoosporalar bo'lib ular kattaliklari, ko'zini joylanish va suzish vaqtleri bilan farqlanadi. Suvga chiqmaydigan zoosporalar qalin qobiq bilan o'ralib aplanasporalarga aylanadi. Jinsiy ko'payish davrida ikki xivchinli izogametalar hosil bo'ladi.



Ulotrikslar

Turli iplarda hosil bo'lgan gametalar suvda o'zaro qo'shilib to'it xivchinli zigotani hosil qiladi. Malum muddat zigota suvda suzganidan keyin substratga o'tirib qalin qobiq bilan o'raladi, tinim davrini o'taganidan keyin zigota 4-16 gaploid zoosporalar yoki aplanasporalar hosil qilib ular substratga birikadi va unib yangi Ulothrix ipini hosil qiladi.

Dengiz va chuchuk suvlardagi turli predmetlarda yashil gilamlar hosil qilib o'sadi.




Ulotriksning izomorf holda jinsiy va jinssiz ko'payishining navbatlanishi

Ulvalar – Ulvales tartibi

Dengizlarda tarqalgan, bir yoki ikki qavatli bir yadroli hujayralardan iborat tallomli suvo'tlar. Har bir hujayrasida bittadan katta parietal joylashgan xlorofill bor. Rivojlanishi izomorf gallanishli gaplodiplobiont tarzda ro'y beradi. Gametofitda ikki xivchinli izo - va geterogametalar, sporofitlari to'rt xivchinli zoosporalarni hosil qiladi. Maxsus zoosporalar va gametangiyllari yo'q. Zoosporalar va gametalari yalong'och, qalin po'stsiz. Game-

talari urug'lanmasdan gaploid nasl hosil qilaoladi. Poliploidiya holati ham malum. Dengizlardi ya chuchuk suvlarda tarqalgan.




Ulvalar

Ulva yassiyaproq bir yillik tallomli suvo't. Tanasi doirasimondan keng yassiyaproqchaga, ko'pincha teshikli, chekkasi qirqlig'an yoki bo'laklarga bo'lingan, tekis yoki to'lqinsimon qirrali. Tanasi bir santimetrdan bir metr balandliklarga, g'o'rasharoq, substratga birikkan bo'ladi. Rivojlanishning dastlabki davrlarida ipsimon ko'rinishida bo'lib Ulothrix tallomiga o'xshaydi. Keyinchalik hujayralarini ikki yo'nalishda bo'linishi bilan ikki

qavatli yassiyaproq (plastinka) ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Hujayralari bir yadroli, xloroplasti bitta yoki bir nechta pirenoidli. Rivojlanashida diploid sporofit va gaploid gametofit navbat bilan almashinib turadi. Zoosporalari to‘rt xivchinli, salbiy fototaksis xususiyatga ega.

Jinsiy jarayon izomorf va geteromorf tarzda ro‘y beradi. Gametalarning kopulyatsiyasi turli tallomlardan hosil bo‘lganlarida sodir bo‘ladi. Bitta tallomni o‘zidan hosil bo‘lgan gametalar o‘zar qo‘silmaydi. To‘rt xivchinli planozigota malum muddat davomida harakatda bo‘lib keyin substratga o‘tiradi. Unish davrida diploid yadro mitoz bo‘linadi, birinchi marta bo‘linganda hosil bo‘lgan hujayradan bittasi rizoidni ikkinchisi vegetativ tanani hosil qiladi. Ayrim turlarida partenogenetik rivojlanish bilan yangi tallom hosil bo‘ladi.



Enteromorpha

Ulva toshli substratlarda, qoyalar, mollyuskalarning chig‘anoqlarida, litoral va sublitoralni 25 m chukurliklarigacha shimoliy va janubiy dengizlarda keng tarqalgan. Ulva ekstrakti (siqmasi) umurtqasiz xayvonlar, epifit suvo‘tlarning o‘sishini to‘xtatadi. Dengiz atrofidagi ko‘plab mamlakatlarning axolisi uning


tallomini oziq-ovqat sifatida foydalanishadi. Shu boisdan uni **dengiz salati** ham deyiladi.

Enteromorpha turkumida tallom naysimon, ichaksimon ko'rinishlarga ega u odatda substratga birikib o'sadi. Tallomning rivojlanashi dastlabki davrida bir qatorli ip, keyin ikki qatorli yassiyaproq hosil bo'lib u ajralishidan naysimon bir qavatlri ko'rinishni hosil qiladi. Hujayralari bir yadroli, xloroplasti ham bitta, u kuchli yoritilish mavsumida holatini o'zgartiradi.

Rivojlanishi izomorf gallanish bilan sodir bo'ladi. Ayrim turlari faqat jinssiz yo'l bilan ko'payadi. Dengizlar va chuchuk suvlarda tarqalgan. Ayrim mamlakatlarda **enteromorpha** oziq va chorva mollariga yem sifatida foydalaniladi.

Trentepoliyalar – Trentepohliales tartibi

Bu guruh suvo'tlar 6 turkum 60-70 turlardan iborat xolos. Hujayraclarini pushti yoki jigarrang tusdaligi lipid tomchilarini, karotinoidlarni ko'pchiligidan, xloroplastlari pirenoidsiz, ko'p miqdorda, disksimon ko'rinishda sitokinez boshqa ulvofitsa suvo'tlardagi kabi ro'y beradi, fragmoplast hujayra plastinkasi va plazmodesma hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladi.



Trentepohlia

Xivchinli 4 ta gametalari gametangiylarda to'rt xivchinli zoosporalari zoosporangiylarda hosil bo'ladi. Gametangiy va sporangiylarning ko'rinishi vegetativ hujayralardan farq qiladi. Urug'lanmagan gametalar boshqa ulvofitsalardagi kabi unib yangi tallomni hosil qiladi. Xivchinli bosqichlarida ko'zchasi yo'q, bazal tana ko'p qavatli tuzulmada joylashgan. Xivchinli bosqichdagilarning tanasi darsoventral yo'nalishda siqilgan. Rivojlanish sporik reduktsiyali izo - va geteromorf gallanish bilan o'tadi.

Trentepoliyalar tarkibiga mansub suvo'tlar tropiklar, subtropiklar va mo'tadil iqlimli sharoitlarda keng tarqalgan. Ular nam tuproq, toshlar, daraxtlarning po'stloqlari, kabi joylarda uchraydi. Ayrim turlari endofitlar hisoblanadi. Trentephoeia, Phycopeltis va Cephaleuros turkumlarining tallomlari Strigula, Ractborniella turkumlari lishayniklarning tarkibiga kiradi.

Trentepohlia turkumining vakillari geterotrixal tallomga ega, u substrat bo'ylab, undan tikkasiga yo'nalan tarmoqlangan iplardan iborat. Substrat bo'ylab o'rmalovchi qismi rizoidsiz, odatda kalta, aloxida hujayralarga oson ajralib ketadi. Quruqlik sharoitida bo'lganligi tufayli hujayralari qurg'oqchilikka chidayoladi. Ular boshqa yashil suvo'tlarning tinim hujayralarini eslatadi. Ularning hujayrasini po'sti qalin, qavatli, uning tarkibida sporopolleninga o'xshash moddalar bor.

Protoplasti vakuolasiz disk yoki tasmasimon xloroplastlari ko'p miqdorda. Ko'payishi ko'pincha vegetativ, ipni bo'laklarga bo'linib ketishi bilan amalga oshadi.

Rivojlanishi sferik reduktsiyali gaplobiont tarzda izomorf gallanish bilan o'tadi. Sporofitda faqat meyosporangiy hosil bo'ladi, u vegetativ hujayralardan farqlanib kalta band ustida joylashadi. Sporangiylari shamol yordamida tarqalib suvga tushsa darhol, bir necha soniyalarda to'rt xivchinli zoosporalarni hosil qiladi. Zoosporalar haploid gametofitlarga aylanadi, ularda gametangiylar hosil bo'ladi (ayrim turlarida zoosporangiylar ham shakllanadi). Sharsimon gametangiylarda suvli muxitda gametalar paydo bo'ladi. Gametalarning kopulyatsiyasi kam ro'y beradi, gametalar partenogenetik rivojlanishi ham mumkin.

Trentepohlia turkumining ko'plab turlari lishayniklarni fotobiontlari hisoblanadi. Trentepohlila daraxtlarning po'stloqlari,

toshlar, nam tuproqlarda biroz qizg'ish, jigarrangsimon yoki sarg'ish tusdagi dog'larni hosil qiladi.

Kladoforalar – Cladophorales tartibi

Bu tartibning vakillari uchun sifonakladial tuzulma xos. Tallomning hujayralari ko‘p yadroli. Mitoz ulardasitokinez bilan bog‘liq emas. Plazmodesmalari yo‘q. Ko‘ndalang devor plazmolemmadan hosil bo‘ladi. Rivojlanishi gaplodiplobiont sporik reduktsiyali, izomorf gallanish bilan ro‘y beradi. Chuqurda tarqalganlari sifonoksantin pigmentiga ega. Dengizlarda hamda chuchuk suvlarda tarqalgan.

Kladoforalar tartibi 30 ga yaqin turkum va 400 dan ortiqroq turlardan iborat.

Cladophora turkumida tallom xilma-xil ko‘rinishdagи siyrak shoxlangan buta shaklida. Yostiqsimon, sharga o‘xshash va sharsimon ko‘rinishlarda ham bo‘ladi. Shoxlangan iplarining uzunligi bir necha metrlargacha boradi, substratga rizoidi yoki bazal disk orqali birikadi. Hujayralari cho‘zilgansilindr shaklida, elaksimon xromotoforli, ko‘p pirenoidlarga ega.




Cladophora

Kladofora vegetativ bo‘laklarga bo‘linish bilan, jinssiz va jinsiy tarzda ko‘payadi. Rivojlanishi sporik reduktsiyali gaplodiplobiont

izomorf gallanish bilan amalga oshadi. Zoosporalari to'rt xivchinli, gametalari ikki xivchinli, gametangiy va sporangiylari vegetativ hujayralardan farq qilmaydi. Hamma joylarda chuchuk suvlar va dengizlarda ko'plab biomassa hosil qilib o'sadi.

Rhizoclonium turkumining suvo'tlari uzun biroz shoxlangan yoki shoxlanmagan ip ko'rinishiga ega. Hujayralari uzunasiga cho'zilgan, ko'p pirenoidli elaksimon xloroplasti bor. Chuchuk suvlar va dengizlarda uchraydi.



Kladofora shoxchasining bir qismi

Chuchuk suvlarda tarqalgan turlari vegetativ va qisman ikki xivchinli hujayralar yordamida ko'payadi.


Dazikladiyalar – Dasycladiales tartibi

Tallomi sifonal tip tuzulishli (bir qator vakillarida ko'payishidan oldin tallomi bir yadroli, ko'p yadroliga aylanadi), hujayrasining devorida kaltsiy karbonat tuzi to'planadi. Hosil bo'ladigansistaning po'stidasellyuloza bor.

G'amlangan maxsulotlari fruktan va kraxmal. Polisaxarid donalarisitoplazmada to'planadi, bu holat boshqa yashil suvo'tlarga

xos emas. Gametalari **aperkulyat** (qopqog'i bor)sistalarda maxsus gametangiylarda hosil bo'ladi. Zigotalari tinim davrini o'taymay unib bevosita vegetativ tallomga aylanadi.

Tropiklar va subtropiklardagi dengizlarning makrofitlari hisoblanadi. Dazikladiyalar 11 turkum 19-50 tur suvo'tlarni o'z ichiga oladi.



Acetabularia

Acetabularia tallomi bitta gigant (25 sm uzunlikdaga yetadigan) hujayralardan iborat bo'lib u substratga birikkan lappaksimon rizoidli markaziysilindrdan iborat. Hujayraning ko'p qismi hujayra shirasi bilan to'lgan vakuoladan iborat. Sitoplazmaning chekkasi bo'ylab ko'plab xloroplastlari joylashadi. Silindrning yuqorisida uning uchiga yaqinida mutovka xolida yon shoxlari bo'ladi. Bitta katta yadroси rizoidda joylashadi.

Jinsiy ko'payish oldidian ko'p marta bo'linadi. Birinchisi meyoz tarzida ro'y beradi. Gaploid ko'plab yadroлarsitoplazmaning oqimi bilan gametangiyga o'tadi. Tallomi jinsiy ko'payish vaqtiga kelganda soyabon ko'rinishiga ega bo'ladi. Soyaboni chekkasi

bo‘ylab gametangiyalar hosil bo‘ladi. Ular yonlari bilan o‘zaro qo‘shilish yoki yakka qolishi mumkin. Gametangiyardasistalar hosil bo‘ladi. Suvga tushgach ularni qopqochasi ochilib ikki xivchinli gametalari chiqadi. Gametalar bir kecha kunduz davomida suzganidan keyin izogamiya ro‘y beradi. Planozigotalar salbiy fototaksis xususiyatlari, substratga o‘tirganidan keyin xivchinlarini yo‘qotadi, tinim davrini o‘tamasdan bitta hujayradan iborat yosh o‘simlikni hosil qiladi.

Kaulerpalar Caulerpales tartibi

Tallomi ko‘p yadroli sifonal tuzulishli, ko‘plab plastidali, bazan ko‘po‘zakli, ayrimlarida hujayrasining devori kaltsiy karbonatli suvo‘tlar. Bir qator vakillari uchun geteroplastidlik – xloroplast va amiloplastlarning mavjudligi xos. Ko‘pincha ksantofillardan sifonin va sifonoksantin bo‘lishi mumkin. Ko‘pchilik vakillari uchun rivojlanish davrasi malum emas. Geteromorf hayotiy davra **Derbesia** turkumi uchun ko‘rsatilgan.

Ko‘payishi jinsiy ikki xivchinli anizogametalarni qo‘shilishi bilan amalgalashadi. Oogamiya chuchuk suvlarda tarqalgan **Dichotomosiphon** turkumi uchun ko‘rsatilgan. Zoosporalar kaulerpalarda kam uchraydi. To‘rt xivchinli zoosporalar **Ostreobium** turkumida, stefonokont zoosporalar **Derbesia**, **Bryopsis** va **Bryopsidella** turkumlarida uchraydi. Tartib 26 turkum va 350 ga yaqin turlardan iborat.

Bryopsis turkumi daraxtga yoki buta ko‘rinishidagi bir o‘zakli, rizoidlari yordamida birikkan tallomli. Ko‘pyillik yerbag‘rilab ketadigan tallomidan yuqoriga yo‘nalgan aniq ifodalangan o‘zak chiqadi, unda assimilyatorlik vazifasini bajaradigan yon shoxlarida bo‘ladi. Yon shoxchalari ikki qator yoki tartibsiz joylashib patga o‘xshash shoxlanish hosil qiladi.

Vegetativ ko‘payishi alovida shoxchalarni tanadan ajralib substratga birikib ketishi tufayli ro‘y beradi. Ko‘pchilik turlari geterogamiya tarzida jinsiy ko‘payadi. Qisman bo‘lsada geteromorf yo‘l bilan rivojlanishi ham kuzatiladi. Bunday holatga yuzaga kelgan planozigota substratga o‘tiradi va unib yirik yadroli ip ko‘rinishidagi tallomni hosil qiladi. Yadro yana bo‘linish natijasida stefonokont zoosporalarni hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi, ular

vegetativ tallingga aylanadi. Gametogenez *Bryopsis* turkumida meyoz bilan bog'liq emas.

Bryopsis mo'tadir iqlimli va tropik dengizlarda uchraydi. Uning tallomi ifloslanmagan suvlardagi (maishiy tashlandiqli, mazutli) oltingugurt izotoplari, kobalt, seziy va strontsiy elementlaridan iborat birikmalarni ko'plab miqdorda toplash xususiyatiga ega.

Derbesia turkumi bir o'zakli uzunligi 10 sm gacha boradigan moxlangan tallomli suvo't, qopsimon tuzulishli sporangiyda stefanokont zoosporalar hosil bo'ladi, ular kaltsiyangan qizil suvo'tlarning tallomiga birikadi, unganada sharsimon tallomni hosil qiladi. Bu turkumning suvo'tlarida ikki tipdagi tallom bo'ladi: bittasi reduktsiyalangan xloroplastli mayda, ikkinchisi - yirik to'q yashil gametalarni hosil qiladi, shu boisdan tallomi ikkiuyli. Zigota tinim davrini o'tamay *Derbesia* tallomini hosil qiladi, biroq yadrolari sporangiylarda o'zaro qo'shiladi. Yirik gametalar o'zaro qo'shilmasdan unishi mumkin, ular gaploid va monokarpli bo'ladi.

Codium turkumi soxta to'qimali ko'po'zakli tallomga ega. Tallomi shakliga ko'ra quyqa, shar, ellips, nok, uzunligi 8 metrlargacha yetadigan tasma ko'rinishlariga ega. Tallomining ichi siyrak joylashgan rangsiz iplar tashqarisi kalta pufaksimon tarmoqlardan iborat. Ular urtikula deb nomlanadigan to'siq bilan ajraladi. Ular rangli va assimilyatorlar vazifasini bajaradi, chunki ko'plab xloroplastlarga ega, pirenoidlari yo'q.

Hujayrasining devoridasellyuloza yo'q, u asosan mannanlar va sulfashlashgan arabinogalaktanlardan iborat. Tallomning ichki g'ovak qismida qizil rangli endofit suvo'tlar mavjud. *Codium* tallomidagi bu suvo'tlar zarar keltirmaydigan geterotroflar hisoblanadi. Sayozlikda tarqalganlarida ular biroz bo'lsa ham fotosintezni amalga oshiradi.

Codium vegetativ (bolacha kurtaklar hosil qilib, tallomni bo'laklanishi bilan) va jinsiy (jinsiy jarayon-geterogamiya) yo'llar bilan ko'payadi. Gametalar hosil bo'lishidan oldin meyoz ro'y beradi. Zigota tinim davrini o'tamasdan unadi. Biruylar va ikkiuyli turlari mavjud.


Codium yashil suvo'tlarning orasida eng chuqurda o'sadigani, uning vakillarini 84 m chuqurlikdan ham topishgan. Mo'tadir iqlimli va tropik dengizlarda tarqalgan. Yaponiyada va Osiyo va Avstraliyaning bir qator mamlakatlarida uni istemol qilishadi.

Caulerpa substrat bo'ylab ketgan bir o'zakli tallom, undan birikish uchun xizmat qiladigan rizoidlar, yuqoriga yo'nalган barg, tasma ko'rinishli assimiyalovchi qismlardan iborat. Tallom ko'rinishga ko'ra quruqlik o'simliklariga o'xshab ketadi.

Tallom xaqiqiy sifonal tuzulishli, ancha yirik (1 m gacha yetadi). Hujayralarida disksimon xloroplastlar bilan birga amiloplastlar ham bor. Caulerpa tallomini o'ziga xos tomoni o'zak ichida malum tartibda chalkashgan mustaxkamlik beruvchi bog'lamlar mavjud. Tallom devoridasellyuloza yo'q, hujayrasining po'sti ksiliza polimeridan iborat.

Ko'payishi tallomning alohida qismlari bilan vegetativ va anizogamiya usulida jinsiy amalga oshadi. Gametalari assimilyatorlarning xoxlagan hujayralaridan hosil bo'ladi. Zigota tinim davrini o'tamay unib yangi tallomni hosil qiladi.

Caulerpa asosan tropiklardagi dengizlarda tarqalgan. Ayrim turlari odamlar uchun xavfli bo'lган neyrotoksinlarni ajratadi.



Caulerpa

Trebuksiotitsalar – Trebouxiophyceae sinfi

Sinf Trebouxta (Octave Treboux – eston botanigi) turkumi bilan nomlangan. Sinf quyidagi umumiy tavsifga ega.

1. Ko'pchiligi bir hujayrali, kokkoid, ko'rinishidan xlorofitsalarga yaqin suvo'tlar. Sirtsinoid va ipsimon tipga tabaqalashgan tallomlari ham uchraydi.

2. Mitoz yarimyopiq, bo'linish urchug'i metatsentrik, urchuq telofazada saqlanmaydi.

3. sitokinezsitoplazmaning membranasini botib kirishi bilan hosil bo'ladi.


Ko'payishi vegetativ, jinssiz (zoosporalar avtosporalar), jinsiy amalga oshadi.

Chuchuk suv va quruqlikda, qisman dengizlarda tarqalgan, ko'pchiligi simbiozlar hosil qiladi.

Trebukiya suvo'tlarining orasida ko'pchiligini tallomi kokkoid tipga tabaqalashgan (Chlorella, Golennina, Prototheca, Trebouxia va boshqalar, Desmococcus xozirgacha Pleurococcus deb nomlanib kelingan), sartsinoid, Microthamnion va Leptosira turkumlarining vakillari ipsimon tuzulgan.

Xivchin apparatini tuzulishiga ko'ra xlorofitsalardan ko'ra ulvafitsalarga yaqin. Trebukiylar sinfi monofilik guruh hisoblanib besh yo'nalishdan iborat.

Xlorellalar – Chlorellales tartibi



Chlorella

Chlorella turkuming vakillari kokkoid, bir hujayrali, harakatlanmaydigan, shakli ellipsdan shargacha ko'rinishli, diametri 2-12 mkm keladigan suvo't. Qalinsellyulozali po'st tagidasitoplazma, yadro, katta yashil xloroplast bor. Xlorella avtosporalar hosil qilib jinssiz ko'payadi. Jinsiy

ko'payishi malum emas. Chuchuk suvlari, dengizlarda va endosimbiont sifatida chuchuk suvlardagi umurtqasizlarda tarqalgan. Ko'rayishini tezligi va unda ro'y beradigan fotosintezning samaradorligini yuqoriligi tufayli uni maxsus qurilmalarda ko'paytiriladi.


Prototeca turkumining suvo'tlarida hujayra sferik ko'rinishda, avtosporalar hosil qilib jinssiz ko'payadi. Obligat geterotroflar hisoblanadi, shunga qaramay rangsiz hujayralarida plastidlari bor, ularda kraxmal to'planadi. Prototeca tuproqda va chuchuk suvlarda tarqalgan. Immuniteti pasaygan odamlar va yirik shoxli xayvonlarda kasallik qo'zg'atadi. O'simliklarda ham kasallik qo'zg'atishi mumkin.



Prototeca

Trebuksiyalar – Trebouiales tartibi

Trebouxia turkumining hujayralari sferik ko'rinishli. Prototeca turkumi yulduzsimon plastidi bilan farqlanadi. Pirenoid bor. Jinssiz ko'payishi yalong'och zoosporalar yordamida amalga oshadi. Quruqlik sharoitida (daraxtlarning po'stloqlarini yuzasida), lishaynik tartibida fotobiont sifatida uchraydi.




Trebouxia

Mikrotamnionlar – Microthamniales tartibi

Microthamnion turkumi cho'ziq hujayralardan iborat, shoxlangan buta ko'rinishiga ega. Substratga maxsuslashgan hujayrasi bilan birikadi. Xloroplastlari pirenoidsiz. Vegetativ ko'payishi tallomni uzulishi suvsiz sharoitda yuzaga kelganda akinetalar hosil qilash bilan amalga oshadi, jinssiz ko'payishida ikki

xivchinli 2-4-8 hujayralar vegetativ hujayralaridan hosil bo'ladı.
Tuproqda biroz nordan chuchuk suvlarda tarqalgan.



Microthamnion

Praziolalar – Prasiolales tartibi

Bu tartibga bir hujayrali, ip, yassiyaproq shaklda bo'lib zoosporalar hosil qiladigan suvo'tlar mansub.

Prasiola tallomi bo'yи 20sm gacha yetadigan, substratga rizoidlari yoki bir o'zakli ip orqali birikadigan bir qavatli yassiyaproqdan iborat. Hujayralarida uni o'rtasida joylashgan yulduzsimon xloroplasti bor. Jinsiy jarayon geterogam va ogam tarzda ro'y beradi. Prasiola turkumining ayrim turlarida yashil suvo'tlaridagi aloxida gaplodiplobiont rivojlanish tipi somatik reduktsiya orqali amalga oshadi. Bunday organizmlarda yassiyaproqning tepasidagi hujayralar avval meyoz, keyin mitoz bo'linadi. Ikki xivchinli spermatozoid tuxum hujayrani urug'lantiradi, hosil bo'lgan zigota bitta xivchinini yo'qotib qolgani bilan



Prasiola

harakatlanadi.

Prasiola tuproqda, ammoniy tuzlari, parrandalar ahlati ko'p bo'lgan joylarda hamda tezoqadigan sovuq tog'suvarida uchraydi.

Xlorofitsa – Chlorophyceae sinfi

Xlorofitsa – yashil suvo'tlar quyidagi umumiy tavsifga ega.

1. Bir hujayrali, koloniya (shu jumladansenobiy) hosil qilgan, tallomi monad, palmelloid, kokkoid, sartsinoid, ip, turli yo'g'onlikdagi ip, sifon tuzulgan.

2. Mikronay ildizchalari qo'shuv alomati ko'rinishida joylashgan. Rizoplast bo'lishi mumkin. Xivchinda organik tangachalar kam uchraydi.

3. Mitoz yopiq, yarimyopiq ro'y beradi, bo'linish urchuqlarisitokinezgacha yo'qolib ketadi.

4. sitokinez plazmolemmansitoplazmaga topib kirishi, fikoplast bilan amalga oshadi.

5. Ko'payishi vegetativ, jinssiz (zoosporalar, aplanosporalar, avtosporalar), jinsiy (xolo-, izo-, getero- va oogamiya) amalgamoshadi.

6. Rivojlanishi zigota reduktsiyali gaplobiont tarzda ro'y beradi.


7. Ko'pchilik vakillari – chuchuk suvlarda, ayrimlari dengizlar, sho'rtob va quruqlik sharoitlarida tarqalgan.

Suvo'tlarning orasida eng katta va turli tuman taksonlarga boy sinflardan biri morfologiyasiga ko'ra tartiblarga guruhlashtirilgan. Monad (xivchinlilari – Volvocales), kokkoidlari - Chlorococcales, sartsinoidlari - Chlorosarcinales, geterotrixal tuzulishlilari – Chaetophorales va shukabi tartiblarga birlashtirilgan. Xivchinlarining bazal tanalarini joylanashi va xivchinlarining soni yashil suvo'tlarning bu guruhlarida filogenetik taxlilga ko'ra yaxshi ifodalanadi. Shunga ko'ra, yangi sistematikada monad, kokkoid, ip yoki boshqa morfologiya tuzulishga ega bo'lganlar bitta tartibda bo'lishi mumkin.

Sferopleyalar – Sphaeropleales tartibi

Bu tartib harakatlanmaydigan hujayrali ultratuzulishlari va molekulyar xossalariiga ko'ra o'xshash vakillarni jamlagan. Bu holatda mazkur tartibga Pediasrum, Hydradictyon, Scenedesmus

kabi senobiy, ko'pyadroli ipsimon Sphaeroplea, bir hujayrali kokkoid Neochloris, Characium va boshqalar mansub.




Sferopleyalar. Sphaeroplea


Pediastrum turkumining vakillari yulduzsimon ko'pburchakli yassiyaproq ko'rinishli senobiylar hisoblanadi. Atrofdagi hujayralarin senobiyni suvda qalqib turishini taminlaydigan bitta yoki ikkita o'sitmaga ega. Hujayrasining devorida kremlni va alginanlar bor.

Jinssiz ko'payganda hujayralarda ikki xivchinli ko'plab zoosporalar hosil bo'ladi, ular hujayradan tashqariga chiqmasdan turib kichkina Pediastrum xocil qiladi. Hujayra devori yemirilganidan keyin tashqariga chiqib o'sadi. Senobiydag'i har bir hujayra shu tartibda ko'paya oladi.

Jinsiy ko'payganda ikki xivchinli gametalar hujayradan tashqarida o'zaro qo'shilib diploid zigota hosil qiladi. Zigota meyoz bo'linganidan keyin 4 ta



Scenedesmus



Pediastrum


zoosporani hosil qiladi, ularni har biri **poliedr** – ko‘p burchakli hujayraga aylanadi. Ularda yangi zoosporalar yuzaga kelib keyin ular yangisenobiya aylanadi.

Hydradictyon – tallomi bir yillik qopsimon yoki likop-chusimon elaksimon devori mustaqil suzib yuradiganlarda uzunligi 1,5 metrlargacha yetadi. senobiyning devori 6 burchakni hosil qilgan ko‘pyadroli hujayralardan iborat. Har bir hujayraning uzunligi 15 min gacha yetishi mumkin. Hujayrasining katta qismini hujayra shirasi bilan to‘lgan vakuola egallaydi. Sitoplazmaning chekkasi bo‘ylab ko‘plab pirenoidli xloroplastlar joylashadi. Hujayrasining devorida alginanlar ko‘p emas.

Jinssiz ko‘payishi kichkina yoshsenobiylar hosil qilishi bilan amalga oshadi. Har bir hujayraning protoplasti bo‘linib 2000 gacha ikki xivchinli zoosporalarni hosil qilishi mumkin. Hujayraning ichidagi zoosporalar malum muddat harakatda bo‘lganidan keyin ular yangi to‘rsimon tallomni hosil qiladi. Hujayraning devori yemirilganidan keyin tashqariga chiqadi, ularning har biri poliedrga aylanadi. Poliedr kattalashib, zoosporalarning o‘zaro yopishishidan yuzaga kelgan to‘rni hosil qiladi.

Jinsiy ko‘payish Hydradictyon tallomida zoosporalardan kichikroq ikki xivchinli gametalar yordamida amalga oshadi. Ular hujayra devoridagi teshikdan tashqariga chiqadi. Ularning ko‘shilishidan yuzaga kelgan zigota zigosporaga aylanadi, u tinim davrini o‘taganidan keyin unib to‘rtta zoosporani hosil qiladi. Undagi yadro dastlab reduktsion bo‘linadi. Har bir zoosporadan poliedr shakllanadi. Yangi Hydradictyon hosil bo‘lishi jinssiz ko‘payish shaklga ega. Uning hujayrasini devori yashil suvo‘tlaridagi kabi bo‘lmay, undasellyuloza yo‘q, fibrilli glikoprteinlardan iborat. Hujayra devorining oqsilli qismi gidroksiprolinlarga boy. Ularga oligosaxaridlar, asosan galaktoza, arabinoza mannoza va glukoza birikkan.

Sitoplazmada bitta yadro, 2 ta (bir qator turalarida 4 ta, undan ko‘proq) qisqaruvchi vakuola va katta kosasimon xloroplast, oldingi



Hydradictyon.

Suvto‘ri
hujayrasidagi
yosh koloniya


qismida ko'zcha, pastida pirenoid joylashgan. Xloroplastda g'amlangan modda – kraxmal to'planadi.

Chlamydomonas – avtotroflar hisoblanib ularning orasida obligat avtotroflar va miksotroflari ham bor.

Bu suvo'ti jinssiz va jinsiy yo'l bilan ko'payadi. Jinssiz ko'payganda hujayrada 2-4-8-16 ikki xivchinli, har biri tuzulishiga ko'ra kichkina xlamidomonadaga o'xshaydi. Mitoz yarimyopiq, tarzda o'tadi. Protoplastni bo'linishi fikoplast yordamida va plazmolemmani botib kirishi bilan amalga oshadi. Zoosporalari o'zaro hosil bo'lgan hujayradan chiqib suvda voyaga yetadi.

Jinsiy ko'payishi oziq muhitda azotli birikmalar yetishmaganda sodir bo'lib izo-, getero- yoki oogam tarzda o'tadi. Gamotalli geterotalli turlari ham bor. Gametalari xivchinlari yordamida juftlashadi, protoplastlarida hosil bo'ladigan nay orqali qo'shiladi, natijada zigota hosil bo'ladi.

Zigota qalin qobiq bilan o'ralganidan keyin tinim davriga (**gipnozigota**) o'tadi. Uning qobiq'i tarkibida sporopollenin bo'ladi. Uni unishida yadroni meyozi bo'linishi ro'y beradi va 4 tadan 8 tagacha yosh gaploid hujayralar hosil bo'ladi. Shunday qilib, Chlamydomonas rivojlanishining diploid davri faqat zigotada bo'ladi.



Chlamydomonas
hujayrasini tuzilishi.

Chlamydomonas malum sha-roitda xivchinlarini yo'qotib palmelloid holatiga o'tadi. Bu holatda harakatdan to'xtaydi, shilimshiq bilan qoplanadi. Shu holatida bo'linishi mumkin. Suvga tushganida hujayra o'zida tezda xivchinlar hosil qiladi.

Chlamydomonas turli chuchuk suvlarda, tuproqda va boshqa quruqlik sharoitida tarqalgan. Bir qator turlari qorda va muzda ham uchraydi, uning 500 ga yaqin turlari bor.

Gonium turkumi 4,8,16,32 xivchinli xlamidomonadaga o'xhash hujayralardan yassi koloniyalarni hosil qiladi. Koloniya tashqi tomonidan rangsiz shilliq bilan o'ralgan. Suvda koloniya aylanib harakatlanadi. Jinssiz ko'payganida hamma hujayralari kichkinasenobiyni hosil qilaoladi. Jinsiy jarayon koloniya alohida

hujayralarga ajralib keyin har biri gameta vazifasini bajaradi. Zigota 4 hujayradan iborat koloniya hosil qilib, undagi Gonium azotli birikmalarga boy oqmaydigan suv havzalarida uchraydi.

Pandorina turkumi 16-32 xivchinli hujayralardan tashkil topgan yumaloq koloniyalarni hosil qilgan. Hujayralari xlamidomonadaga o'xshashdi, umumiy shilimshiq ichida bo'ladi. Ular o'zaro tig'iz joylashganidan bir birini ezib qo'yadi.

Koloniya aylanib harakatlanadi. Koloniyadagi kattaroq hujayralarning ko'zchasi bor. Hujayralarning hammasi yoshsenobiyarni hosil qilaoladi. Jinsiy ko'payishi koloniyani alovida hujayralarga bo'linib ketganidan keyin ro'y beradi.

Pandorina palmelloid holatga o'tishi mumkin.


Eudorina turkumi ellips ko'rinishidagi koloniyalarni hosil qiladi. Koloniyadagi hujayralar (16-64) uning chekkasi bo'ylab bir necha parallel halqalarni hosil qiladi. Kolonianing oldidagi hujayralari biroz kattaroq bo'ladi. Senobiyning o'rtasi shilliqli. Geterogam jinsiy jarayonda erkak va urg'ochisenobiylar bo'ladi. Urg'ochisenobiyning hujayralari urg'ochi gametalarga aylanada, bu vaqtda erkaksenobiya bo'linishlar sodir bo'ladi, natijada mayda erkak gametalarni o'zaro birikishi ro'y beradi. Ular urg'ochi gametalarga uchrashguncha suvda suzib yuradi keyin alovida gametalarga ajraladi. Zigotani unishida meyoz ro'y beradi.

Eudorina chuchuk suv havzalarining planktonida uchraydi. Turkum polifilitik hisoblanadi.



20 μm.

Pandorina




Eudorina

Volvox turkumiga mansub turlar ancha mustaqil suzib yuradigan kattasenobiya ega. Yenobiydagি hujayralari xlamidomonadaga o'xshaydi ularning soni 500 tada birnecha mingtagacha bo'lib shilimshiq o'ramaning chekkasi bo'ylab joylashadi. Shilimshiqning tashqi qavatini kimyoviy tarkibi ichkisidan farqlanib glikoproteinlarga yaqin moddalardan iborat.


Jinssiz ko'payishi maxsuslashgan hujayra gonidiyalarning bo'linishi hisobiga ro'y beradi. Bo'linish vaqtida avval yassi-yaproq hosil bo'ladi keyin egilib yarimypoq ichi bo'sh ko'rinishni hosil qiladi. Ma'lum kattalikga yetganidan keyin tutushadi.

Malum bir sharoitda jinsiy jarayon ro'y beradi. Erkak koloniyada hosil bo'lgan feronom urg'ochi koloniyaning shakllanishiga sabab bo'ladi. Spermatozoidlar suvda suzib urg'ochi koloniyani topadi va tuxum hujayra bilan qo'shiladi. Zigota tinim davrini o'taganidan keyin unadi, uning birinchi bo'linishida meyoz ro'y beradi.

Tetraspora qopsimon, ba-zan malum bir shaklga ega bo'lмаган, shilimshiqni, bevosita ko'rsa bo'ladigan, substratga birikkan koloniya ko'rinishiga ega. Hujayralari ko'p hollarda 2-4 tadan jamlangan. Har bir hujayrada bitta kosasimon pirenoidli xloroplast, qisqaruvcchi va-kuola va ikkita psevdotsiliy bor. Koloniyadagi har bir hujayra ikkita xivchini bo'lgan zoosporaga aylanishi mumkin. Zoosporalari shilimshiqdan




Volvox



Tetraspora

chiqqanidan keyin malum vaqt suvda suzib keyin unib yangi koloniyani hosil qiladi. Izogam tarzda ro'y beradigan jinsiy jarayon malum.




Hematococcus

Hematococcus ikki xivchinli hujayra ko'rinishida bo'lib ichki devori kuchli shilimshiqlangan. Protoplasti uni po'stning tashqi qavati bilan bog'laydigansitoplazma o'simtasini hosil qiladi. Xloroplast kosasimon ko'rinishda ikkita yoki bir necha pirenoidli. Ko'zcha va qisqaruvchi vakuola bor. Hematococcussista hosil qilib oson palmelloid holatga o'tadi. sistalari antoksantin pigmenti hisobiga qizil rangda bo'ladi. Antoksantin oziq bo'yog'i bo'lganligidan katta ahamiyatga ega. Hematococcussistalar suv havzalaridagi qurg'oqchilikka yaxshi chidaydi, shamol bilan tarqalganda qulay sharoitga tushganida unib zoosporalarni hosil qiladi. Zoosporalari dastlab qizil rangda bo'ladi, keyin antoksantin yo'qoladi, biroq qizil rang hujayraning o'rtasida qoladi. *Hematococcus* maxsus qurilmalarda ko'paytirilganda sof yashilga aylanadi.

Dunaliella tashqi ko'rinishidan Chlamydomonas hujayrasiga o'x-shashdi, biroq uning qisqaruvchi vakuolasi va qalin po'sti yo'q. *Dunaliella* sho'r suvlarda tarqalgan. Bunday sharoitda yashab qolishi uchun fotosintez jarayonida glitserin hosil qiladi.


Tarkibidagi v-karotinni ko'p miqdorda bo'lishi ham yordam beradi. Dunaliella vegetativ (hujayrasini teng ikkiga bo'linishi bilan) va jinsiy (xologamiya) usullarda ko'payadi. Noqulay sharoitda yuzaga kelganida qalin po'stlisistalar hosil qiladi.

Dunaliella sanoat usulida glitserin va v-karotin olishda foydalaniлади.



Dunaliella


Dictyosphaerium senobiy hosil qilgan suvo't, hujayralari to'rtadan umumiy shilim-shiqni ichida joylashgan. Kolonianing o'rtaida hujayralarning oxirida radial yo'nalgan iplar ketadi. Avtosporalarni hosil bo'lishida (odatda to'rtadan) asosiy hujayraning devori erimaydi balki, oxiriga birikkan avtosporalari bo'lgan to'rtada bo'laklarga bo'linadi. Hujayralari oval yoki yumaloq shaklda bitta yoki ikkita xloroplastli.



Dictyosphaerium

Dictyosphaerium turkumining vakillari chuchuk suvlarning planktonida odatda kech kuzda, erta bahorda ko'p uchraydi.

Chaetophora tallomi shar, yarimshar, lappak ko'rinishlarda, shilimshiqli. Tikkasiga yo'nalgan iplari simpodial yoki monopodial shoxlangan. Hujayralari silindr shaklida, bitta yoki bir nechta pirenoidli xloroplasti parietal joylashgan. Iplari rangsiz ko'p hujayrali tuklar bilan



Chaetophora


tugallanadi.

Jinssiz ko'payishi to'rt xivchinli zoosporalar, anlanosporalar, gipnosporalar yordamida amalga oshadi. Sporalar iplarning oxirgi hujayralarida hosil bo'ladi.

Jinsiy ko'payishi ikki xivchinli gametalar hosil qilish bilan ro'y beradi. Chaetophora epifit sifatida oqmaydigan, oqadigan, ko'pincha toza suvlarda uchraydi.

Protosiphon zax tuproqda ko'p uchraydi. Ko'p yadroli hujayrasi sharsimon ko'rinish-dasitoplazmada uning devorini yaqinida ko'p pirenoidli elaksimon teshilgan xloroplast bor.

Hujayrada rangsiz, naysimoni ko'rinishda rizoidi bor. Sifon shaklidagi tallomini uzunligi 1 mm gacha yetadi. Noqulay sharoit yuzaga kelgannida pushti rangdagisista hosil qiladi. Jinssiz ko'payishi ikki xivchinli yalong'och zoosporalar yordamida amalga oshadi, jinsiy ko'payish izogam tarzda o'tadi.



Protosiphon

Hetaforalar –

Chaetophorales tartibi


Hetaforalar tartibi ipsimon, turlicha yo'g'onlikdagi ip tuzulishga tabaqaqlashgan tallomli

vakillarni birlashtirgan sitokinez Golji apparati hosil qiladigan vezikulalarning o'zaro qo'shilishi bilan chekkadan o'rtaga tomon plastinka hosil qilishi bilan amalga oshadi. Hujayraning devorida plazmodesmalar mavjud. Zoosporalari to'rt xivchinli. Tartibning vakillari monofilitik guruhi hosil qilgan.

Bir paytlar xlorofitsalarning sistematikasi ipsimon tallomlarini Ulothrichales, turlicha yo'g'onli iplarni Chaetophorales tartibiga kiritilgan. Bu guruh suvo'tlarining ultratuzulishlarini o'rganish


bunday taqsimlanish asosli emasligini ko'rsatadi. Tarmoqlangan ipsimon Ulothrix ulvofitsalarga, Klebsormidium harofitlarga o'tkazilgan. Tarmoqlanmagan ip Micro-spora, Gemisnella, Cylindro-capsa qayga kiritish xozircha malum emas. Tarmoqlangan Microthamnion trebukso-fitsalarga, trentopoliyalarining vakillari va Ulva ulvofitsalarga o'tkazilgan, shu bilan bir vaqtida koleoxetalar harofitlarga, Gongrosira Dunalilla xlorofitlarga yaqin ekan.

Stigeoclonium turkumining suvo'tlari geterotrixal tallomli, u substrat bo'ylab joylashgan shoxlangan va ulardan vertikal yo'nalgan, tik tarmoqlangan yoki tarmoqlanmagan iplardan iborat. O'zak ipning hujayralari katta, bochkasimon, xloroplastli. Tallomning oxirgi hujayralari o'tkirlashgan yoki rangsiz tuk ko'rinishida. Jinssiz ko'payishi – to'rt xivchinli makro - va mikrozoosporalar, aplanosporalar yordamida amalga oshadi, ular yon shoxchalarining hujayralarida hosil bo'ladi. Sovuq tez oqadigan suvlarda, qisman oqmaydigan havzalarda uchraydi.



Stigeoclonium

Draparnaldia tallomi shoxlangan buta ko'rinishiga ega, bo'yi 10 sm gacha yetadi. Tanasi o'zak ip, undan shoxlangan qismlardan iborat



Draparnaldia

Substratga bazal hujayra yoki tarmoqlangan rizoid yordamida birikadi. O'zak qismining hujayralari bochkasimon ko'rinishda katta. Yon shoxchalari aniq yoki aniq bo'lмаган о'зак qismlı. Shoxchaning oxirgi hujayralari ingicha, uzun yoki rangsiz tuklar bor.

Jinssiz ko'payishi to'rt xivchinli makro - va mikro-


zoosporalar, aplanosporalar yordamida amalga oshadi, ular yon shoxchalarining hujayralarida hosil bo'ladi. Oqadigan va oqmaydigan suvlarda uchraydi.

Edogoniylar – Oedogoniales tartibi

Bu tartib 3 turkum 600 ga yaqin turlar shoxlangan, shoxlanmagan ipsimon suvo'tlardan iborat, ularning hujayralarini bo'linishi halqachalar hosil qilish bilan boradi. Ayrim turlarida pakana erkak gametofit **nonnandriy** mavjud.

Oedogonium chuchuk suvlarda keng tarqalgan suvo'tlardan biri. Tallomi tarmoqlanmagan, avval substratga birikkan, keyin mustaqil bo'ladigan iplardan iborat. Hujayralarisilindr shaklida. Hujayraning ko'p qismini shira bilan to'lgan vakuola egallaydi. Sitoplazmada maxsus bo'yoq bilan bo'yamasa ham aniq ko'rinishidan yadro, ko'p pirenoidli elaksimon xloroplast bor.

Ipning bazi bir hujayralari halqachalar hosil qilib bo'linaboshlaydi, boshqalari bu paytda bo'linmaydi. Hujayraning bo'linishi davrida uning ichki devorida halkasimon yo'g'onlanish – juva ko'rinish hosil bo'ladi. Hujayradagi yadro mitoz usulida bo'linadi, telofazaning oxirida ko'ndalang devor fikoplast tipida



Oedogonium

rivojlanadi. Juva kattalanib hujayra devorida halqasimon teshik hosil qiladi. Bitta hujayrada bunday halqasimon hosila bir necha bo'lishi mumkin.

Oedogonium ko'payishi tallomni bo'laklarga bo'linib ketishi bilan sodir bo'ladi. Jinssiz ko'payish stefanokont (xivchinlari hujayraning oldida tojsimon joylanishi) zoosporalar yordamida amalga oshadi. Zoosporalardagi xivchinlarni soni 120 ga yaqin bo'lib ular fibroz xalqa bilan o'zaro birikkan. Zoosporangiyning borlig'i yashil tusdagi bitta katta zoosporalni hosil bo'lishiga sarflanadi. Zoosporalar malum muddat davomida suvda suzganidan keyin oldi tomoni bilan substratga o'tiradi, xivchinlarini tashlab yuboradi, po'st bilan o'raladi unib yangi ipni hosil qiladi. Ayrim sharoitlarda jinssiz ko'payish aplanosporalar yordamida amalga oshadi.


Oedogonium jinsiy ko'payishi oogam tarzda o'tadi. Oogoniy katta shar yoki shishgan ellips ko'rinishiga ega, unda bitta tuxum hujayra hosil bo'ladi. Anteridiy kalta disksimon hujayralardan iborat, har birida ikkitadan stefanokont xloroplastlari bo'limgan spermatozoid hosil bo'ladi. Spermatozoidni tosh shaklida joylashgan 30 xivchini bor.

Oedogonium turkumida bir uqli va ikki uqli (makrandriy va nannandriy) turlar bor. Bir uqli turlarda anteridiy va oogoniy bitta ipda ikki uylilarda turlilarida shakllanadi. Ikki uqli turlarning ichida pakana gametofit yuzaga keladiganlari-nannandriylar bor. Ular maxsus androsporadan shakllanadi, ko'rinishidan spnrmatozoidlarga o'xshaydi, ularning xloroplastlari bo'ladi. Androsporalar bittadan androsporangiyarda oogoniy joylashgan iplarda yoki aloxida ipda joylashadi. Androsporalar oogoniya keladi va unib ikki-uch hujayrali gametofitga aylanadi. Uning yuqorigi hujayralari anteridiy xizmatini bajaradi.

Etilgan oogoniya teshik yoki tirqish hosil bo'lib undan spermatozoid o'tadi. Urug'lanish ro'y berganidan keyin qalipo'stli oospora hosil bo'ladi, u tinim davrini o'taganidan keyin to'rtta haploid zoosporaga aylanadi. Uni hosil bo'lishidan oldin oosporani yadrosi meyoz tarzda bo'linadi. Har bir zoospora substratga o'tirib yangi Oedogonium ipini hosil qiladi.

Bulbachaete turku-miga mansub turlar chuchuk suvlarda keng tarqalgan. Tallomi tarmoqlangan ip ko'rinishida, hujayralarida o'zaro rangsiz asosi biroz kengaygan o'simtasi bo'ladi. Hujayralari bir marta bo'linadi xolos. bu vaqtda bitta xalqa hosil bo'ladi. Bir uyli, ikki uyli turlari bor. Chuchuk suv havzalarida uchraydi.

Bulbachaete



HAROFITLAR – CHAROPHYTA BO'LIMI

Harofitlar – yuksak o'simliklarga olib ketgan chuchuk suvlardagi yashil suvo'tlarning yo'nalishi. Bu suvo'tlar uchun quyidagi umumiylilik xos:

1. Xivchinda ildizchalarning assimetrik joylanishi;
2. Ko'p qavatli tuzulmani mavjudligi;
3. Xivchinlarida organik tuzulishli tangachalari bor;
4. Mitoz ochiq,sentriolali yokisentriolasiz;
5. Telofazada bo'linish urchuqlari saqlanadi;
6. sitokinez bo'linish ariqchasi va fragmoplastli hujayra plastinkasi hosil bo'lishi bilan boradi;
7. Plazmodesmalar harofitlar va koleoxetalarda mavjud;
8. Hujayra devorisellyulozali;
9. Peroksisomalarda glikolataksidaza va katalaza mavjud;
10. Rivojlanishi zigota reduktsiyali gaplobiont;
11. Asosan chuchuk suvlarda tarqalgan.

Harofitlar bundan 470 mln yillar ilgarigi yuksak o'simliklarning ajdodlari hisoblanadi. Bunday xulosa ularning ultra, biokimyoiy va molekulyar tuzulishlari asosida qilingan.

Yuksak o'simliklar bilan qarindoshliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Hujayrasining devoridasellyulozani bo'lishi.
2. Tallomini ko'p hujayraligi.
3. sitokinez fragmoplast orqali amalga oshishi.

4. Hujayralararo aloqani amalga oshiradigan plazmodesmali. Bu plazmodesmalar yuksak o'simliklardi birlamchi plazmodesmalar bilan gamolog.

5. Harofitlar va koleoxetalarda meristema apikal hujayralarning mavjudligi.

6. Tallomining malum joylarida bir necha yo'nalishlardagi bo'linishlar natijasida to'qimani hosil qilganligi. (Yuksak o'simliklardan farqlanib ularni hosil bo'lishi meristema bilan bog'liq emas).

7. Ko'p hujayrali tallomni ichida maxsuslashgan hujayralarni bo'lishi (bo'g'in va bo'g'in oraliqlarida, Chara tallomidagi rangsiz rizoid hujayralar).

8. Fotonafasda glikolaktoksidazadan foydalanishi.

9. Mochevinani parchalovchi – urezaza va boshqa maxsus fermentlari.

10. Ribosoma, xloroplastlar va yadrodagji genlarni turlichaligi.

Yuqoridagi qayd etilganlar asosida harofitlarni boshqa yashil suvo'tlardan ajratib ularni **Streptophyta** yuksak o'simliklar guruhiqa qo'shishni taqazo etadi.

Harofitlar bo'limidan 6 sinf Mesostigmatophyceae, Chloroxybophyceae, Klebsormidiophyceae, Zygnetophyceae, Coleochaetophyceae va Charophyceae ajratiladi.

Mezostigmofitsa – Mesostigmophyceae sinfi

Sinf Mesostigma (lot: meso – o'rta, stigma – ko'zcha), turkumning nomi bilan atalgan, u bitta mezostigmalar – Mesostigmatales tartibidan iborat.

Mezostigmalar chuchuk suvlarda tarqalgan, hujayrasi organik tuzulishli tangachalar bilan qoplangan harakatchan organizmlar. Ularni ilgari prazinofitsa yashil suvo'tlariga mansub deb qabul qilingan. Mezostigmalar ulardan hujayrasining shakli, tangachalarini o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Mezostigmalarda hara suvo'tlaridagiday ko'p qavatli tuzulma bor. Filogenetik taxlil ham Mesostigma va harofitlar orasida aloqa borligini ko'rsatadi.

Mesostigma hujayralari disksimon ko'rinishga ega. Xivchinlari hujayraning o'rtasidagi yassilikdan chiqadi. Xivchinlarining bazal tanasi boshqa yashil suvo'tlaridagi kabi fibril bog'lamlar bilan bog'langan. Har bir bazal tanadan 5-7 mikronaylardan tashkil

topgan bittadan ildizcha chiqadi. Har bir ildizchaning yaqin qismi ko'p qavatli tuzulmadan iborat. Shunday qilib Mesostigma hujayrasida ikkita ko'a qavatli tuzulmaga ega.

Mesostigma xivchinlari ko'p burchakli tangachalar bilan qoplangan. Shunday tangachalar boshqa harofitlarning tanasi yoki xivchinlarida ham bor. Mesostigma hujayrasidagi ko'p burchakli tangachalarning ustida oval shaklida kattaroq tangachalar va eng yuqorigi qavatida savatsimon tangachalar boshqa harofitlar va prazinofitsa suvo'larda uchramaydi.

Mesostigma hujayrasida bir nechta pirenoidlari bo'lgan yassiyaproq shakldagi xloroplasti bor. Pigmentlari **Bryopsis** turkumli suvo'lari dagi kabi. Ko'zcha xloroplastda joylashgan, u ikki yoki uch qavat globulalardan iborat. Bu harofitlar orasida aniqlangan yagona holat. Katta peroksisoma xlaroplast bilan xivchinlarning bazal tanasini orasida joylashgan.


Ko'payishi hujayrani teng ikkiga bo'linishi bilan amalga oshadi.

Xlorokibofitsa – Chlorokyphyceae sinfi


Sinf Chlorokybos (grek. Chloros – yashil, kybos – kub) – turkum nomi bilan atalgan, bitta xlorokibolar – Chlorokybales tartibidan iborat.

Tartib bitta sartsinoid tallomli Chlorokybos turkumidan iborat. Tallom yumaloq yoki ellips shaklidagi qalin qavatli shilimshiq bilan qoplangan hujayralar guruhidan iborat. Hujayrada bittadan peroksisoma va kosasimon ikkita turlicha ko'rinishdagi xloroplast bor.

Jinssiz ko'pyganda **Chlorokybos** hujayralarida



Mesostigma



Chlorokybos

bittadan ikki xivchinli zoosporalar hosil bo'ladi. Xivchinlari hujayrada lateral joylashgan (bu harofitlarni yashil suvo'tlarning boshqa guruhlaridan farqlaydi). Jinsiy ko'payishi malum emas.

Xlorokibolar chuchuk suvlarda va yer sharoitda tarqalgan.

Klebsormidofitsa – Klebsormidiophyceae sinfi

Sinf Klebsormidium (G.A.Klebs – nemis algologi; grek - hormidium – kichkina zanjir) turkum nomi bilan atalgan, bitta klebsormidiyalar – Klebsormidoales tartibdan iborat.

Klebsormidium tallomi shoxlangan, substratga birikmagan tashqi ko'rinishidan ulotrikslarga o'xshagan (ilgari ulotrikslarga kiritilgan edi) ipsimon suvo't. Ipi bitta yoki bir nechta hujayralarga oson bo'linib ketadi. Xloroplasti yassi yaproq shaklida, bitta pirenoidli. Hujayrada bitta xloroplastga taqalib turgan katta peroksisoma bor. Mitoz ochiq,sentriolali.sitokinez membranani ichiga botib kirishi bilan sodir bo'ladi. Ko'payishi vegetativ, jinssiz (ikki xivchinli zoosporalar, aplanosporalar yordamida), bitta turi uchun geterogamiya tarzda o'tadigan jinsiy jarayon ko'rsatilgan.



Klebsormidium

Klebsormidium oqmaydigan suv havzalarida, yer sharoitida (daraxtlarning po'stloqlari, tuproq osti ostida) tarqalgan.

Zignemofitsa – Zyg nematophyceae (matashuvchilar) sınıfı

Mazkur sınıf **Zyg nema** turkumining nomi bilan atalgan. Chuchuk suvlarda tarqalgan kokkoid, ipsimon tuzulishlilarni o'zida jamlagan. Mitozsentriolalarsiz boradi, yadroni po'sti anafazada yo'olib ketadi. sitokinez plazmolemmasiz oddiy tuzulgan fragmoplast hosil bo'lishi bilan amalga oshadi va ko'pchilik turlarida plazmolemma botib kiradi. Rivojlanishda xivchinli bosqichi yo'q. Jinsiy jarayon – konyugatsiya.

Matashuvchilar yashil suvo'tlarning orasida g'aroyiblari bo'lib ularda jinsiy jarayon matashash bilan amalga oshadi. Matashishda bitta hujayraning protoplasti ikkinchisini kiga qo'shilish kanali orqali sudralib o'tib protoplast bilan qo'shilmay zigota hosil qiladi. Yoki ikkita hujayra jinsiy jarayonni amalga oshirish uchun bir biriga yaqinlashadi, ularning qo'shilishi bu jarayonda hosil bo'lган kanalda protoplastlar qo'shiladi. Hosil bo'lган zigota po'st bilan o'ralganidan keyin tinim bosqichiga zigosporaga aylanadi. Zigospora unishida meyoz bo'linish ro'y beradi. Agar matashish har xil iplarning hujayralarini orasida ro'y bersa bunga **narvon simon matashish** deyiladi. Agar matashish bitta ipning turli hujayralarining orasida borsa **yonbosh matashish** deyiladi.

Matashuvchilar uchun vegetativ ko'payish xos, bu jarayon ipsimon tuzulganlarida iplari bo'laklarga bo'linib ketishi bilan, bir hujayrali vakillarida hujayrani bo'linishi bilan, koloniya hosil qilganlarida uni tashkil qilgan hujayralarini ajratib ketishi bilan amalga oshadi. Desmidiyalar bazan qalipo'stli tinim hujayralar hosil qiladi.

Matashuvchilarining hujayralarini po'sti uch qavatlari. Tashqi qavat polisaxaridlarning majmuidan tashkil topgan. Ikkita ichki qavati mikrofibrillsellyulozadan iborat. sellyulozaning mikrofibrillari o'rta qavatda hujayrani uzunasi bo'ylab, ichkaridagisi

ko'ndalangigi yo'nalgan. Hujayraning ustida bir qator harofitlarga va yuksak o'simliklarda hujayra devorining dastlabki davrida ahamiyatga loyik bo'ladigan kalloza (v-1-3-glyukon) to'planadi.

Matashuvchilar 55 ga yaqin turkum va 3000-4000 atrofidagi turlardan iborat.

Zignemalar – Zygnematales tartibi

Mazkur tartibning suvo'tlarida uch asosiy tipda: tig'iz buralgan (Spirogyra, Spirotaenia); yassiyaproq (Maugeotia); ikkita yulduzsimon (Zygnema) ko'rinishidagi xloroplastlari bor. Maugeotia turkumining vakillarida xloroplastning holati yetilganlikga bog'liq. Xloroplastning harakatini unga birikkan mikroflamentlar boshqaradi.


Spirogyra turkumining suvo'tlari ayniqsa ko'lmak, xovuz, ko'llarda, sekin oqadigan suv havzalarida baqato'nлarni hosil qilishida ishtirok etadi. Uning tarmoqlanmagan,silindr shaklidagi katta hujayralaridan uzun iplar hosil bo'ladi.

Ip sellyulozali po'st va shilimshiq bilan qoplangan. Hujayra ning o'rtasini shira bilan to'lgan vakuola egallaydi undasitoplazma ipi bilan yadro osilgan.sitoplazmaning cheti bo'ylab xloroplastlar joylashgan ular spiral buralgan tasma ko'rinishiga ega. Xloroplastni o'rtasidan qovurg'a o'tadi, u bo'ylab ko'plab pirenoidlari joylashti. Bitta hujayrada bir donadan 16 tagacha xloroplastlar bo'ladi.


Spirogyra ko'payishi vegetativ (ipni bo'laklarga bo'linib ketishi) va jinsiy (matashish) bilan amalga oshadi. Matashish narvon va yonbosh ko'rinishida o'tadi.

Hosil bo'lgan diploid zigota uch qavat qalin po'st bilan o'raladi va shu holatda qishlaydi. Zigosporaning tashqi qavati naqshli vasellyulozali hamda pektinli. O'rta qavati bazan rangli va sporopollenin tushadi. Ichki qavat yupqa va rangsiz,sellyulova va pektinli.

Zigota bahorda unadi, uni yadrosi reduktsion bo'linadi, uchta yadro eriydi va zigotadan bitta gaploid yangi ip hosil bo'ladi.




Spirogyra suvo‘tidagi jinsiy jarayonning ro‘y berishi



Mougeotia turkumining suvo'tlar ipsimon tuzulishli yassiyaproq xloroplastli, uning holati yoritilishga bog'liq holda o'zgaradi. Pirenoidlari bir qatorda yoki xloroplast bo'ylab tarqalib joylashgan. Matashish narvonsimon ro'y beradi.


Zigota qo'shiluv kanalida hosil bo'ladi. Zigota bitta ip hosil qilib unadi.

Zygnema turkumining hujayralarida bir juftdan yulduz shaklida xloroplastlari bo'ladi.




Har bir xloroplastni o'rtasida bittadan pirenoidi bor. Hujayralari shilimshiq bilan qoplangan. Zygnema ipni bo'laklarga bo'linib ketishi bilan va akinetalar hosil qilib vegetativ ko'payadi. Zigota qo'shiluv kanalida hosil bo'ladi.

Netrium turkumi bir hujayrali yaxlit po'st bilan o'ralgan. Hujayralari ellips yoki cho'ziq, oxiri yumoloqlashgan.



Netrium



Hujayrani har yarmida xloroplast bor, cho'ziq pirenoidli. Ikkita yadrosoi bor.

Spirotaenia bir hujayrali, spiral buralgan xloroplastli. Hujayralari kaltasilindrsimon, ikki uchi qavariqli.

Zigota unganida 4 ta yadroni hammasi tirik qoladi.

Desmidiyalar – Desmidiales tartibi

Desmidiyalar tartibi bir hujayrali va koloniya hosil qilgan suvo'tlar bo'lib, ularni po'sti ikkita yarimtadan tashkil topgan, unda teshiklar bor. Ularning hujayralari ikkita o'zaro simmetrik yarimta yarimhujayradan iborat. Hujayra har xil holatda turlichcha ko'rindi. Desimdiyalarning ko'payishi vegetativ ro'y berib hujayrani ko'ndalangiga ikkiga bo'linishi bilan amalga oshadi. Yosh hujayra bo'linganni yarimini oladi, qolganini o'zi hosil qiladi.


Matashish usuli bilan ko'payganda ikkita hujayra o'zaro yaqinlashadi va umumiy shilimshiq bilan o'raladi. Keyin hujayralarni po'sti bir biri bilan tutashadi, shu joy orqali protoplastlar qo'shiladi. Hosil bo'lган zigota uch qavat po'st bilan o'raladi. Uni unishida meyoz ro'y beradi, ko'p hollarda ikkita yadro erib ketadi va ikkita o'simta hosil bo'ladi.

Closterium turkumining hujayralari ikki uchi ingichka tayoqcha, biroz egilgan, yarimoy ko'rinishlarga ega.

Hujayraning ikki uchida bariy sulfat tuzli vakuola bor. Hujayraning po'sti ikkita yarimtadan iborat, unda uzuk-uzuk chiziqlar va mayda teshiklari bo'lib ulardan shilimshiq tashqariga ajraladi, u harakatni taminlaydi.

Yadro hujayraning o'rtasida joylashadi uni tirik holida ko'rsa bo'ladi. Har bir yarimta hujayrada bittadan xloroplast bo'lib u o'zak va undan radial yassiyaproqlar yo'naladi.

Cosmarium turkum suvo'tlar orasida eng kattalardan hisoblanib 1000 ga yaqin turlar tavsiflangan.



Closterium

Uning hujayralari o'rtasida siqilganligi tufayli ikkita yarimtadan iboratday ko'rinishadi. Siqiq o'rtasida yadro joylashadi. Yarimta hujayraning shakli bag'oyat darajada xilma-xil yumoloq, piramida, ko'pburchakli kabi ko'rinishlarga ega. Hujayra ustidan ellipsga o'xshashdi. Har bir yarimta hujayrada pirenoidli bitta yoki bir nechta xloroplast bor. Hujayrasining po'sti silliq yoki naqshli bo'ladi.

Staurastrum turkumidan 800 ga yaqin turlar malum. Uning hujayrasini o'rtasidagi siqqlik ancha chuqur, tepasi 3-5 burchakli, ularni uchi o'simtaga aylangan. Hujayraning po'sti silliq yoki naqshli. Zigota bittadan to'rttagacha unadi.


Micrasterias hujayrasi yassi, siqqligi ancha chuqur botgan. Har bir yarimta hujayra o'rtasidagi va ikki yonidagi bo'lakkardan iborat. Yonboshdagi bo'laklar odatda chuqur o'yiqli. Xloroplastlari ko'p pirenoidli.

Euastrum turkumining suvo'tlari ikki yonidan siqilgan, ko'p hollarda uzun, o'rtasi cho'ziq. Yarimta hujayraning tepasida o'yma bor. Yarimta hujayrasini shakli keng doiraviy bo'laklı trapetsiya ko'rinishida. Har bir yarimta hujayrada pirenoidli bitta yoki ikkita xloroplast bor.


Desmidium ip ko'rinishidagi koloniya hosil qilgan.

Hujayrasi uncha chuqur bo'lmagan o'yiqli ikkita yarimta hujayradan iborat. Ip odatda spiral buralgan, ko'pincha shilimshiq o'ramali. Ip buralganligi uchun hujayralarning qirralari to'q-yashil yo'lli bo'lib ko'rinishadi. Hujayralari ustidan uchburchak yoki oval ko'rinishadi. Har bir hujayrada 2 tadan yani yarimtalardan bittadan xloroplasti bor.


Hyaleotheca ip ko'rinishidagi koloniya hosil qilgan shilimshiq o'ramali.



Cosmarium



Staurastrum



Desmidium Hyaleotheca



Hujayralari ko‘p cho‘zilmagan, ustidan yumoloq ko‘rinadi. Har bir hujayrada ikkitadan xloroplast bor. Matashish davrida aloxida hujayralarga bo‘linib ketadi, bitta-ikkita o‘simta hosil qilib unadi.

Koleoxetofitsa – Coleochaetophyceae sinfi

Sinf Coleochaetae (grek. koleas-po‘st, g‘ilof, chaetae-o‘simta, tuk) turkumi bilan nomlangan, bitta koleoxetalar - Coleachaetales tartibidan iborat. Tallomi plazmodesmali tarmoqlangan, uchi uzunligi hujayranikidan 100 martacha uzun rangsiz tuklar - iplarga ega. Harakatlanadigan hujayralari tangachalar bilan qoplangan. Mitoz ochiq ro‘y beradi, sentriolali sitokinez fragmoplast hosil qilish bilan amalga oshadi. Jinsiy jarayon oogam tarzda sodir bo‘ladi. Bu tartibga 2 turkum va 20 ga yaqin turlar mansub. Chuchuk suv havzalaridagi yuksak o‘simliklar va suvo‘tlarda epifit holda uchraydi.


Coleochaetae tallomi yassi psevdoparenxima disk ko‘rinishidagi shoxlangan iplardan tuzulgan.

Ayrim turlari disk ko‘rinishni hosil qilmaydi, qisman tallom yopqichiqsimon shaklda ham bo‘ladi. Turkumning hamma vakillarida tallomdan yuqoriga yo‘nalgan tikansimon tuklari bor.

Coleochaetae tallomidagi hujayralarda 1-2 ta katta pirenoidli xloroplast mavjud. Tilakoidlari granalarga jamlangan. Peroksomalari xuddi yuksak o‘simliklardagi kabi xloroplastlar bilan bog‘langan.

Ko‘payishi vegetativ, jinssiz ikki xivchinli zoosporalar, aplanosporalar hosil qilib va oogamiya tarzida jinsiy amalga oshadi. Spermatozoid va zoosporalari tangachalar bilan qoplangan,

xivchinlari subapikal chiqadi. Zoosporalari hujayrada bittadan hosil bo'ladi, u noksimon ko'rinishga ega. Zoosporegenez kunning yorug'lik davrini uzunligi, yoritilganligiga qaramay harorat orqali boshqariladi. Aplanosporalari qalin po'stli, hujayrada kamdan-kam bittadan hosil bo'ladi.



Koleoxetofitsa suvo'tlar

Jinsiy ko'payishda bir uyli va ikki uyli turlari ham bor. Butilkasimon anteridiy tarmoqlangan ipning oxirida hosil bo'ladi. Spermatozoidlarning yuzaga kelishi embriofitlardagi rivojlinishni eslatadi. Spermatozoidlari rangsiz, anteridiyda bittadan hosil bo'ladi. Ooganiy tagi yumoloq kolbasimon ko'rinishli uzun bo'yin – trixoginali, sharsiomn, tuxum shaklidagi trixoginasni bo'lmaydiganlari ham bor.

Oogoniy yetilgan sari bo'yincha shilimshiqlanib unda spermatozoid o'tadigan teshik hosil bo'ladi. Urug'lanishdan hosil bo'lgan zigota oogoniyda qoladi, qalin po'st bilan o'ralib ancha kattalashadi. Hujayraning devorida yuksak o'simliklarning gul changini po'stidagi sporopolleninga yaqin modda to'planadi. Zigotaning atrofidagi hujayralar rivojlanib shoxlangan ipni hosil qiladi, o'zaro chalkashib oogoniy atrofida psevdoparenximatoz tallomini hosil qiladi. O'ramali oogoniy qo'ng'irlashib **spermokarp** hosil qiladi. Bu Coleochaetae uchun qishlash davri hisoblanadi.



Zigotani unishi reduktsion bo'linish bilan boshlanadi, natijada 8-32 ikki xivchinli gaploid zoosporalar hosil bo'ladi, ular spermokarp va zigotaning devori yemirilganidan keyin tashqariga chiqadi. Zoosporalar biroz muddat suvda suzganidan keyin substratga o'tiradi va unib yangi tallomga aylanadi.

Coleochaetae chuchuk suvlardagi turli substratlarda epifit holda uchraydi. Ularning orasida po'stlog'i yo'q hara suvo'tlarning hujayrasida endofit holdagilari ham bor.

Harafitsa – Charophyceae sinfi

Sinf Chara (grek. chara-suvda bo'lish mazza) turkumi bilan nomlangan u bitta Charales tartibidan iborat.

Haralar – murakkablashgan geterotrixal tallomli tuzulishga ega. Tallomi bo'g'imli bo'lib bo'g'im va bo'g'im oraliqlari bor. Tallom apikal o'sadi. Mitoz ochiq, sentriolası yo'q. sitokinez fragmoplastli, plazmodesmali yo'q.



Hara ko'rinishidan qirqbo'g'im yoki yuksak suv o'simligi shoxbargni eslatadi. Uning tallomi yashil rangdaga shoxlangan buta ko'rinishida, bo'g'imli mutovka ko'rinishli, uzunligi 20-30 sm bo'lib ayrim hollarda 2 metrgacha yetadi. Ular suv havzasining tagida rangsiz rizoid bilan birikadi. Novdalari bo'g'imli tuzulishli, o'zak novdadidan o'sishi cheklangan, mutovka xolida joylashgan "barg" deb ataladigan yon novdalar chiqadi. Mutovkalanadigan joy **bo'g'im**, ikkita bo'g'im orasi **bo'g'imoralig'i** deyiladi. Har bir bo'g'im oralig'i uzunligi bir necha santimetrgacha yetadigan gigant bitta hujayradan iborat. U ko'pyadroli, bo'linmaydi. Har bir bo'g'im diskka jamlangan mayda biryadroli hujayralardan iborat. Poya bo'g'imidagi har bir periferik hujayradan bittadan "barg" chiqadi.

“Poya” va “barg”ni o’sishi – uchki tarzda ro‘y beradi. Apikal hujayra ko‘ndalang devor bilan ajralib segment hujayra ajratadi. Segment hujayra bo‘linib ustki ko‘shbotiq va ostki ko‘shqavariq hosil qiladi. Ko‘shqavariq hujayra boshqa bo‘linmaydi, u o‘sib kattalashadi, nixoyat bo‘g‘imoralig‘i hujayrasiga aylanadi. Ko‘shbotiq hujayra bo‘linganida bo‘g‘im o‘rtasida ikkita qolib atrofini bir nechta hujayralar o‘raydi. Keyinchalik o‘rtadagi hujayra boshqa bo‘linmaydi, atrofidagilari bo‘linib “barg”lar hosil qiladi. “Barg” mutovkalarining asosida “poya”da tuzulishi va ko‘rinishi turlicha bo‘lgan yonbargchalar hosil bo‘ladi.

Bo‘g‘inoraliqlaridagi hujayraning uzunligi 15 sm gacha yetishi mumkin, ularda shira bilan to‘lgan katta vakuola bo‘ladi. sitoplazmada ko‘plab yadro va pirenoidlarsiz yuksak o‘simliklarning xlorofill donalariga o‘xshagan xloroplastlari bo‘ladi. Haralarning sitoplazmasi harakatlanaoladi uning harakati tezligi o‘simliklar orasidagi eng katta 1,5-2 mm\s atrofida bo‘ladi.

Bo‘g‘imoralig‘ini tashkil qilgan hujayralardagi yadro cho‘ziq shaklda u mitoz bo‘linish natijasida hosil bo‘ladi. Hujayraning po‘sti tig‘iz ikki qavatdan: ichkisellyulozali va tashqi kallozadan iborat, unda ohak to‘planadi.

Bo‘g‘imoraliqlari maxsus hujayralar bilan qoplanishi mumkin uni po‘stloq deyiladi yoki yalong‘och qolishi mumkin. Po‘stloqning hujayralar bo‘g‘imorali bo‘ylab biroz qiyshaygan holda joylashadi. Po‘stloqning rivojlanishini turli variantlari bor. Hara bo‘lgan suvda oziq moddalar juda ko‘p bo‘lganda po‘stloq yo‘qolib ketadi.

Haralarda zoosporalar yo‘q, shunga qaramay vegetativ ko‘payishning bir necha usullari bor. Avvalo novdaning asosiy qismi oson ko‘radi. Ikkinchidan vegetativ ko‘payish rizoidlarda hosil bo‘ladigan tuganaklar yordamida amalga oshadi. Uchinchidan poyaning pastki bo‘g‘imlarida hosil bo‘ladigan kraxmalga boy yulduzsimon to‘plamlar orqali ro‘y beradi. To‘rtinchidan vegetativ ko‘payish bo‘g‘infarda chiqadigan protonemasimon o‘simtalar orqali ham amalga oshadi.

Jinsiy ko‘payishi – oogam. Anteridiy va ooganiy “barg” chiqadigan bo‘g‘imlardagi maxsus hujayralardan hosil bo‘dadi. Anteridiy yumaloq, diametri 0,5 mm gacha boradi. Anteridiy hosil bo‘lishi uchun bo‘g‘indan ajralgan hujayra ikkiga bo‘linadi. Tashqi hujayra uch yo‘nalishda tez bo‘linib sakkizta hujayradan iborat shar ko‘rinishni hosil qiladi.

O'quv-uslubiy nashr

Sh.J.TOJIBOYEV, N.M.NARALIEVA

BOTANIKA: TUBAN O'SIMLIKLAR

(o'quv go'llanma)

Muharrir:

Dilmurod JUMABOEV

Texnik muharrir:

Abdurauf ABDUG'ANIEV

Musahhih:

Mo'tabar TURG'UNOVA

2015-yil 20-dekabrda terishga berildi.
2016-yil 15-yanvarda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x84. Hajmi 22,75 bosma taboq.
Offset usulida bosildi. Buyurtma - 108.
Adadi 300 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

«Namangan» nashriyoti
Namangan shahri, Navoiy, 36

Nashriyot litsenziya raqami AI-156
2009-yil 14-avgustda berilgan.

«Fazilat orgtexservis» x/k bosmaxonasida chop etildi. Manzil:
Namangan shahri, Navoiy ko'chasi, 72

9 789943



ISBN 978-9943-989-31-3

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9943-989-31-3.